Zulxumor Mirzayeva, Nilufar Qodirova, Quvonch Mamiraliyev

ADABIYOT

8-sinf

Yangi nashr

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Toshkent – 2025

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 82.09(100)(075.3)
KBK 83.3ya72
M 54

Mirzayeva, Z. Adabiyot 8 [Matn]: darslik / Z. Mirzayeva, N. Qodirova, Q. Mamiraliyev; muharrir X. Ibroximov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2025. – 240 b.

Mas’ul muharrir:

Tuychiyeva Maxfuza – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek adabiyoti ta’limi kafedrasi dotsenti.

Taqrizchilar:

Shahodat Abdullayeva – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 114-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi;

Nasiba Nig‘matxo‘jayeva – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 90-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi;

Xosiyat Matyakubova – Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi 48-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi;

Saboxat Ro‘zimurodova – Samarqand shahridagi Prezident maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9910-637-85-8

© Respublika ta’lim markazi, 2025

MUNDARIJA

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Kirish. Davr, ijodkor va adabiyot munosabati 4
Hadislar 7

XAYOL VA HAYOT

“Ravshan” dostoni 10
Antuan de Sent-Ekzyuperi. “Kichkina shahzoda” 32
Nazariy ma’lumot. Majoz 45
G‘afur G‘ulom. “Sog‘inish”, “Vaqt” 46
Chingiz Aytmatov. “Oq kema” 53
Nazariy ma’lumot. Syujet va uning elementlari 77
Adabiy laboratoriya. Turli janrdagi asarlarning audiomatnini tayyorlash 79

TUYG‘ULAR TOZALIGI – ODAMIYLIK BELGISI

Lutfiy. G‘azallar 80
Nazariy ma’lumot. G‘azal haqida tushuncha. G‘azal turlari 84
Xayriddin Sultonov. “Saodat sohili” 87
Alisher Navoiy. G‘azallar 108
Nazariy ma’lumot. Takrir, tanosib, radd ul-matla 114
Alfons Dode. “So‘nggi saboq” 117
Adabiy laboratoriya. Kitob muqovasini tayyorlash 122

SINOVLARDA TOBLANAR ODAM

Abdurauf Fitrat. “Mirrix yulduziga”, “Yurt qayg‘usi”, “O‘gut”, “Go‘zalim, bevafo gulistonim” 123
Xurshid Do‘stmuhammad. “Mirkomilboyning qazo bo‘lgan namozi” 129
Maqsud Shayxzoda. “Jaloliddin Manguberdi” 142
Nazariy ma’lumot. Dramatik tur 182
Usmon Nosir. “Yoshlik”, “Yana she’rimga”, “Yo‘lchi” 183
Nazariy ma’lumot. Lirik tur. Sonet 188
O. Henri. “Yigirma yildan so‘ng” 190
Nazariy ma’lumot. Asarda syujet burilishi 195
Adabiy laboratoriya. Adabiy Instagram – obrazlar sahifasi 196

KAMALAKDAY SERJILO OLAM

Shukur Xolmirzayev. “O‘zbeklar” 197
Nazariy ma’lumot. Xarakter 212
To‘ra Sulaymon. “Tavallo”, “Iltijo”, ... 213
Muhammad Yusuf. “Iqror”, “Sevgi bu...”, “Lolaqizg‘aldoq” 219
Robindranath Thakur. “Shubxa” 229
Nazariy ma’lumot. Peyzaj 236
Adabiy laboratoriya. Bobda o‘tilgan asarlar yuzasidan flayer tayyorlash 238

KIRISH.
DAVR, IJODKOR VA ADABIYOT MUNOSABATI

Dars davomida:

- badiiy matnga xos xususiyatlarni yodga olamiz;
- davr, ijodkor va adabiyot munosabati haqida bilib olamiz.

Eslang

Badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlari nimada? Badiiy matn boshqa turdagi (masalan, ilmiy, ilmiy-ommabop, axborot) matnlardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

Badiiy adabiyot hayotning in’ikosi – tasviri, aksidir. Har bir ijodkor o‘zi yashagan davr voqealarini, uni o‘ylantirgan, quvontirgan, qayg‘uga solgan voqea-hodisalarni badiiy obrazlar vositasida qayta yaratadi. Masalan, siz yettinchi sinf “Adabiyot” darsligida mutolaa qilgan Anton Chexovning “Xameleon” hikoyasidagi Ochumelov, uning yordamchisi, boshqalarga mo‘ltirab qarab turgan it – bularning hammasi obrazlardir, chunki muallif mazkur obrazlar orqali o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan yoki eshitgan hayotiy voqealarni ta’sirchan qilib qayta yaratadi.

Ijodkor asarida uning orzu-intilishlari, ideallari, armonlari, uzoq asrlardan beri yashab kelayotgan milliy qadriyatlar akslanadi. Sizga tanish “Mehrobdan chayon” (A. Qodiriy), “O‘g‘ri” (A. Qahhor), “Rahmat sizga, xonim” (L. Hyuz) kabi o‘zbek va jahon adabiyoti namunalarida ham har bir ijodkor o‘zi yashagan davr muhiti, muammolari, millat dardi, orzu-umidlari, erk, ozodlik kabi yuksak tushunchalar haqida hikoya qilgan.

Yuqorida qayd etilgan asarlarda qanday voqealar qalamga olingan edi?
Sizningcha, ularda hayotning qaysi qirralari aks ettirilgan?

Muallif biror obraz yaratishda ko‘pchilik ilg‘amaydigan, ahamiyatsiz ko‘rinadigan detallarga, o‘ziga xos jihatlarga e’tibor qaratadi va sifatlash, o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a singari badiiy tasvir vositalari yordamida kitobxonning his-tuyg‘ulariga ta’sir qilib, uni o‘ylantiradi, quvontiradi, yig‘latadi va hatto kuldiradi. Masalan, siz va biz uchun asfalt yo‘lda giyohning o‘sib chiqishi oddiy holat bo‘lib ko‘rinishi mumkin, biroq Saida Zunnunova biz quyi sinflarda mutolaa qilgan bir she’rida giyohning qiyinchiliklarni yengib o‘tganiga urg‘u beradi, uni jonlantiradi va obraz darajasiga ko‘taradi. Yoki kuz tasviri oddiy kishilar uchun shunchaki tabiat hodisasi, ijodkor esa unga ramziy ma’no yuklab, obrazlilik asosida go‘zal she’r yaratadi.

KUZ

Suvo‘tlari to‘la irmoqni
Muzdek qilib qo‘ydi sunbula.
Yel tortqilab barqut yaproqning
Yuragiga soldi g‘ulg‘ula.

Ko‘kda yana oppoq turnalar
Arg‘imchoqlar solib uchishdi.
Biz maktabga chopdik, tillarang
Terakzorlar yig‘lashga tushdi...

Muhammad Yusuf

Bu she’rda shoir sifatlash (barqut yaproq, tillarang terakzorlar), jonlantirish (yaproqning yuragiga g‘ulg‘ula soldi, terakzorlar yig‘lashga tushdi), o‘xshatish (arg‘imchoqlar solib uchishdi) kabi badiiy tasvir vositalaridan foydalanib, sokin kuz manzarasini o‘ziga xos tarzda tasvirlagan va tabiat tasvirining inson umriga uyg‘unligi aks ettirilgan.

Modomiki ijodkor voqelikni o‘z his-tuyg‘ulari, kechinmalari, dunyoqarashi va ideallari prizmasidan o‘tkazib tasvirlar ekan, bir voqea-hodisa yoki muhim shaxsga turli ijodkorlarning turlicha munosabat bildirishi tabiiy holdir. Chunki ayni bir voqelik har bir insonda har xil tuyg‘ularni uyg‘otadi. Yanada aniqroq aytganda, ijodkor voqelikni ko‘z bilan emas, balki qalb bilan ko‘ruvchi insondir. Masalan, kimdir kuzda daraxtlarning zarg‘aldoq ranglarga burkanishini ko‘rib zavqlansa, boshqa birov uchun xazonrezgi umrning yana bir bahoridan ayrilish belgisi sifatida qayg‘uga sabab bo‘ladi.

1960-yillarda fan va texnologiya jadal sur’atlarda rivojlandi, ayniqsa, kosmik tadqiqotlar hamda kompyuter texnologiyalari sohalarida katta o‘sish ro‘y berdi. Bu davrda sovet kosmonavti Yuriy Gagarin insoniyat tarixida birinchi bo‘lib koinotga parvoz qilgan bo‘lsa, amerikalik astronavt Nil Armstrong Oyga qadam qo‘ygan ilk inson sifatida tarixga kirdi. Ushbu ulkan tarixiy voqealar ikki o‘zbek ijodkori tomonidan turlicha mazmunda badiiy ifoda etilgan.

Juftlikda ishlang

XX asr o‘zbek adabiyotining ikki zabardast vakili qalamiga mansub she’rlarni o‘qing. Bir tarixiy davrda yaratilgan ikki she’r mualliflarining insoniyat buguni va kelajagi borasidagi qarashlari, kechinmalari qay jihatdan o‘xshash va qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Qaysi obrazlar she’rlarning ta’sirchanligini oshirgan?

Berilgan parchalarning o‘xshash va farqli jihatlari aks ettirilgan Venn diagrammasini tuzing.

ASRIMIZ ODAMI

Mening ko‘z o‘ngimda jonlanar tarix,
G‘amlardan to‘qilgan shu ko‘hna olam.
Asrlar birma-bir o‘tar va axir
Yuksalar qarshimda eng baxtli odam.

Yuksalar-u shu dam chopar, urinar,
Talpinar qaygadir bilmasdan tinim.
Baxtining yonida g‘ami ko‘rinar,
G‘ami ko‘rinadi baxtida uning.

U nima istaydi? Shon-u shavkatmi –
Yulduzlardan baland, kundan purziyo?
U nima istaydi? Tengsiz qudratmi,
Oyog‘i ostida yotsinmi dunyo?!

U nima istaydi? Balki, istagi –
Uning tegrasida aylansin olam?
O, do‘stim, savolning yo‘qdir keragi,
U istaydi buning hammasini ham!

Odamlar o‘tdilar bir vaqt, bir zamon,
O‘tdilar eng oddiy baxtdan ham yiroq.
Yagona orzusi edi parcha non,
Eng buyuk armoni – ozod yashamoq!

Odamlar o‘tdilar bir vaqt, bir zamon,
Ha, yashab o‘tdilar, endi-chi, mana:
O‘zi bandi bo‘lgan olam ustidan
Hokim bo‘lmoqni u istar yagona.

Abdulla Oripov, 1964-yil

INSON

Sobit-u sayyorada
inson o‘zing, inson o‘zing,
Mulki olam ichra bir
xoqon o‘zing, sulton o‘zing...
Sobit o‘z ma’vosida,
sayyor fazo dunyosida,
Koinot sahrosida
karvon o‘zing, sarbon o‘zing.
Shams – dil taftingdadur,
sayyoralar kaftingdadur,
Keng jahon zabtingdadur,
bog‘bon o‘zing, posbon o‘zing.
... Qilding-u Oyda xirom,
ham Yerda qon to‘kding harom,
Ushbu holingdan mudom
xandon o‘zing, giryon o‘zing.
... Marsga to‘p otquchi – sen,
Zuhroni uyg‘otquchi – sen,
Uyquda qotquchi – sen,
uyg‘on o‘zing, uyg‘on o‘zing.
... Mamlakatga mamlakat,
millatga millat bo‘lsa qasd,
Qilg‘uchi so‘ng oqibat
armon o‘zing, afg‘on o‘zing.

sobit – mustahkam

ma’vo – manzil

shams – quyosh

xirom – chiroyli yurish

giryon – yig‘lovchi

afg‘on – nola, faryod

Erkin Vohidov, 1973-yil

O‘ylab ko‘ring

1. Badiiy asarda davrga xos ijtimoiy-ma’naviy muammolar qanday ifodalanadi?
2. Adabiyot orqali o‘tmishni o‘rganish mumkinmi? Misollar bilan tushuntiring.

Topshiriq

“Agar men yozuvchi bo‘lganimda...” mavzusida 5–7 gapdan iborat kichik matn yozing. Unda davr, ijodkor va adabiyot munosabatini aks ettiring.

HADISLAR

Dars davomida:
- muhaddislar haqida bilib olamiz;
- hadislarni tahlil qilamiz;
- hadislarning tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganamiz.

O‘ylab ko‘ring

Yoshi ulug‘lar, ustozlar, ota-onalarning bolalarga hadis o‘rgatishi sabablari nimada? Siz qaysi hadislarni yoddan bilasiz?

Hadis arabcha *xabar, gap, yangilik* ma’nosini bildirib, payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning gaplari, amallaridir. Uni payg‘ambarimiz tasdiqlagan diniy, axloqiy ko‘rsatmalar deb ham atash mumkin. Hadis islom dinida Qur’oni karimdan keyin ikkinchi muqaddas manba hisoblanadi. Hadislarni yig‘ish, ularni soxta va to‘qimalaridan ajratish, tizimlashtirish, avloddan avlodga yetkazish, tasniflash bilan shug‘ullanuvchi olimlar muhaddislar sanaladi. Buyuk muhaddislar Imom Dorimiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abdulloh ibn Muborak, Ibn Hibbon, Haysam ibn Kulayb Shoshiylar hadis ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar.



Imom al-Buxoriy maqbarasi, Samarqand

Hadislarning muqaddas manba qatoriga kiritilishi sababi nimada deb o‘ylaysiz?

“Hadis ilmining sultoni” degan sharafli nomga muyassar bo‘lgan vatandoshimiz Imom Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” to‘plami hadis ilmida eng ulug‘ manbalardan hisoblanadi. Olti ishonchli hadis to‘plamidan biri bo‘lgan ushbu asar tarkibiga 7000 dan ortiq hadis jamlangan.



Imom al-Buxoriy memorial muzeyi, Buxoro

HADISLARDAN NAMUNALAR

SALOM BERISH HAQIDA

Abu Ayyub roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Musulmon odamning o‘z birodaridan uch kundan ortiq arazlashi, bir-birini uchratganda teskari qarab ketmog‘i yaxshi ermas. Ularning qay biri avval salom bersa, o‘shanisi yaxshi odamdir!” – dedilar”.

Do‘stlar, yaxshilarni avaylab saqlang,
Salom degan so‘zning salmog‘in oqlang.
O‘lganda yuz soat yig‘lab turgandan
Uni tirigida bir soat yo‘qlang.

Maqsud Shayxzoda

Nima deb o‘ylaysiz, hadisda nega aynan birinchi bo‘lib salom bergan kishi yaxshi odam sifatida e’tirof etilmoqda?
Sizningcha, berilgan hadis va she’riy parcha mazmunida qanday bog‘liqlik bor?

GUMON HAQIDA

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: “Badgumonlikdan saqlaninglar, chunki eng yolg‘on so‘z – gumondir. Kovlashtirmanglar, josuslik qilmanglar, bir-biringizga hasad qilmanglar, bir-biringizga orqa o‘girmanglar, bir-biringizni yomon ko‘rmanglar. Birodar bo‘linglar, Allohning bandalari!”

HASADGO‘Y

Insof berar bo‘lsa Xudoyim agar,
O‘g‘rini tarbiyat aylamoq mumkin.
Nogahon birovga yetkazsa zarar,
Telbani zanjirga boylamoq mumkin.
Eng katta yovni ham yengmoqlik oson,
Bitta sotqinini qo‘lga olsang bas.
Donoga aylanar hattoki nodon,
Faqat hasadgo‘yni daf qilib bo‘lmas.

Abdulla Oripov

Hadisda sanalgan illatlarning har biri keltiradigan yomon oqibatlarni hayotiy kuzatuvlaringiz asosida tushuntiring.
Sizningcha, she’r hadisning qaysi jihatini ochib bergan?

ILM OLISH HAQIDA

Abu Nu’aym rivoyat qiladi: “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilar: “Ilm – xazina, uning kaliti savoldir. So‘ranglar, so‘rashda to‘rt kishi savobga ega bo‘ladi: so‘rovchi, ilm sohibi (javob beruvchi), eshituvchi va ularni do‘st tutuvchi”.

Bilmaganin so‘rab o‘rgangan olim,
Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim!

Alisher Navoiy

Ilm o‘rganish jarayonida hadisda sanalgan to‘rt toifa insonlarning ham savobga ega bo‘lishi sababi nimada deb o‘ylaysiz?

YAXSHILIKKA YAXSHILIK QILISH HAQIDA

Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhu aytdilar: “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Kim moddiy jihatdan birovga yaxshilik qilsa, unga ham yaxshilik qaytarilsin. Yaxshilik qilishga qurbi yetmasa, u kishini g‘oyibona maqtasin, chunki maqtash tashakkur o‘rniga o‘tadi. Ammo u kishining yaxshiligini yashirsa, undan tongan, yaxshilikni bilmagandek bo‘ladi. Kim o‘zida yo‘q narsani menda falon narsa bor deb maqtansa, ikki qavat kiyim bilan o‘ralgan (ya’ni ikki barobar yolg‘on) hisoblanadi”, – dedilar”.

Hadislar Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” to‘plamidan olindi.

Ki har kim ayon etsa yaxshi qiliq,
Yetar yaxshiliqdin anga yaxshiliq.

Alisher Navoiy

Hadis va bayt mazmunidan qanday xulosa chiqardingiz?

Topshiriq

Ota-onani hurmat qilish va ularga mehr ko‘rsatish mavzusidagi hadislardan yod oling va ularning mazmuniga mos keluvchi she’rlardan misol keltiring.

XAYOL VA HAYOT

“RAVSHAN” DOSTONI

Dars davomida:
- “Ravshan” dostonidan olingan parchani mutolaa qilamiz;
- doston qahramonlarining xarakter xususiyatlarini o‘rganamiz;
- doston janri haqida bilib olamiz.

O‘ylab ko‘ring

“Alla”, “Yor-yor”, “Omonyor”, “Ramazon” qo‘shiqlarini tinglagansiz, ijro etgansiz. Sizningcha, bu qo‘shiqlar nega xalq og‘zaki ijodi namunalari deyiladi? Xalq qo‘shiqlarining boshqa qo‘shiqlardan qanday farqi bor?

MUTOLAADAN OLDIN

Doston so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, *qissa, hikoya, tarix, og‘izga tushmoq, el orasida mashhur bo‘lmoq* ma’nolarini ifodalaydi. Dostonlar quyidagi xususiyatlari bilan boshqa janrlardan ajralib turadi:

1. She’riy hamda nasriy yo‘lda yaratilgan qismlardan tarkib topadi.
2. Dostonlar og‘zaki ijod mahsuli bo‘lib, avloddan avlodga o‘tib keladi.
3. Tarixiy, afsonaviy va mo‘jizaviy voqealar asosiga quriladi.
4. Maxsus ijrochi – baxshilar ijro etadi.



do‘mbira

Xalq dostonlarini kuylashda ishlatiladigan cholg‘u asbobi

Tavsiya

Baxshilar ijrosidagi dostonlardan namunalarni tinglang.

1




“Ravshan” dostonini boshqa baxshilar singari Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ham kuylagan. U dostonni otasidan o‘rgangan. “Ravshan” dostonini folklorshunos olim Hodi Zarif 1928-yilda Ergash Jumanbulbul o‘g‘li og‘zidan yozib olgan va 1941-yilda nashr ettirgan.

RAVSHAN

(Dostondan parcha)

I

Burungi o‘tgan zamonda, el-yurti omonda, Buxorodan to‘manda, Taka-Yovmit deganda, Yovmit elida, Chambilning belida Go‘ro‘g‘libek davrini surib, dushmanning dodini berib o‘tdi. Qirq yigitni yig‘dirib, silovsin to‘n kiydirib, kuniga kechkisin sergo‘sht qilib, sermoy palovga to‘ydirib, semiz qo‘ydan so‘ydirib, ko‘pkarisin choptirib, olomonga ola sarpo yoptirib, el-u xalqning ko‘nglini toptirib, Yunus bilan Misqol parini Ko‘hiqofdan, Iram bog‘idan keltirib, umr o‘tkazar edi. Go‘ro‘g‘libekning farzandi bo‘lmadi. Hasanxonni Vayangandan, Avazxonni Xunxordan olib kelib, ikkovini ulim deb, iskasam gulim deb, jon-u dilim deb, tobutimning chegasi, el-u yurtimning egasi, o‘lsam, merosxo‘rim deb, ikkovi bilan ko‘nglini xush qilib, shularga bino qo‘yib, bolam-bo‘tam deb parvarish qilar edi. Avazxonni Og‘a Yunus pari o‘g‘lim deb yoqasidan solib, etagidan olib edi, Hasanxonni Misqol pari yoqasidan solib, etagidan olib edi. Parilar ikkoviga bino qo‘yib, bolam deb suyib, har qaysisi o‘z uylarida parvarish aylab, tarbiyat qilar edi. Ikkovini katta qildi. Avazxon bilan Hasanxon ham sher haybatli, yo‘lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar bo‘ldi. Go‘ro‘g‘libekning ham o‘g‘illaridan ko‘ngli to‘ldi. Hasanxon Arzrumdan xon Dallini olib qochib, qirq kun shohona to‘ylar berib, o‘z rasm-rusumlari bilan oldi. Avazxonga Gulqiz degan bir barno suluvni olib berib, uyini tushirib berib, davrini surib yuraverdi. Hasanxonga xon Dallidan bir o‘g‘il paydo bo‘ldi.



to‘manda – tubanda, quyida

yovmitlar – turkmanlarning yirik etnografik guruhlaridan biri

silovsin – mushuksimonlar oilasiga mansub bo‘lgan yirtqich hayvon

Ko‘hiqof – afsonaviy tog‘ nomi

iskamoq – hidlamoq

Go‘ro‘g‘libek to‘ylar qilib, otini Ravshanbek qo‘ydi. (Go‘ro‘g‘lining otasining oti Ravshan edi. Otamning oti yo‘qolmasin deb Ravshanbek qo‘ydi.) Avazxon bir-ikki yildan so‘ng qizli bo‘ldi. Go‘ro‘g‘libek quvonib, suyunib, munga ham to‘ylar qilib, otini Gulanor qo‘ydi.

Sizningcha, Go‘ro‘g‘li qanday inson? Fikringizni asoslang.

Enagalar parvarish qilib boqib, bachalarni tarbiya qilib katta qildi. Bachalar birdan ikkiga kirdi, ota-ena deguday bo‘ldi, osh-u non bersa, yeguday bo‘ldi, u yoq-bu yoqqa borib keguday bo‘ldi. Ikkidan uchga, to‘rtga kirdi, ikkovini bir maktabga berdi. Ikkovi ham o‘qib mulla bo‘ldi. Kunlardan bir kun Go‘ro‘g‘libek parilar bilan o‘tirib edi. Ravshanbek ayni o‘n uch yoshida, zarli qalpoq boshida, yuzi yarqirab, eshikdan salom berib bordi. Go‘ro‘g‘libek Ravshanbekni ko‘rib, dimog‘i chog‘ bo‘lib, parilarga qarab aytdi: “Ho‘ parilar, mening ko‘nglimga bir gap keldi, sizlarga aytayin, sizlar nima deysizlar? Mening o‘zimga shu ishim juda xush keldi, sizlarga ham xush kelar. Men Avazxon bilan Hasanxonni quda qilayin, Gulanorjonni Ravshanjonga fotiha qilayin, o‘zim sovchi bo‘layin, bugun borayin”. Unda parilar: “Juda yaxshi bo‘ladi. Bizlarga ham bu so‘zingiz yoqdi, yaxshi aytdingiz bu gapdi”, – deyishib, quvonishib qoldi. Gulanor ko‘p suluv: yaxshi suratli, shirin so‘zli, quralay ko‘zli, uzun bo‘yli, xushxayol, zehni tez, serfahm qiz edi.

Sizningcha, *yaxshi suratli, shirin so‘zli, quralay ko‘zli, uzun bo‘yli* kabi birikmalarning bir gap tarkibida qofiyalanib kelishi qanday maqsadga xizmat qilmoqda?

Ravshanbek uning bilan maktabda birga o‘qiganida ko‘zining ostiga bosib qo‘yar edi.

Go‘ro‘g‘libekning bu so‘zi Ravshanbekka ham yoqib qoldi. Ichida: “Qizini bersa – yaxshi, bu qizini bermas, bobomning so‘zini sindirar”, – deb qo‘ydi. Go‘ro‘g‘libek parilar bilan maslahat qilib, Avazxon o‘g‘lining qoshiga sovchi bo‘lib boraverdi. Shunda Ravshanbek qoralab, bobosining orqasidan boraverdi... Go‘ro‘g‘libek bol Avazga qarab, murtini burab bir so‘z aytayotir:

bol Avaz – asalday shirin (Avazning laqabi)

murt – mo‘ylov

...Otang keldi sening so‘zing olmoqqa,
Ko‘nglidagi sirni bayon qilmoqqa.
Shul sababli mehmon keldim uyingga:
Hasanman o‘zingni quda qilmoqqa.

Yetti yoshda olib keldim o‘zingni,
Qo‘limda ko‘p yeding osh-u tuzimni,
Otang keldi, bolam, o‘zingga sovchi,
Ravshanga ber Gulanorday qizingni!

tilin olmoq – gapiga kirmoq

Otangning, farzandim, tilin olinglar,
Hasanman o‘zingni quda qilayin,
Ravshanga ber Gulanorday qizingni,
Yovmitning eliga to‘ylar berayin!

Hasanman – Hasanxon bilan

Shunda Avazxonning achchig‘i keldi. Polvonning qahri kelib, ajdarday to‘lg‘anib, ko‘zlari olovday yonib, Go‘ro‘g‘libek otasiga qarab... bir so‘z aytayotir:

Yigitlar ichida menman o‘dag‘a,
Bedovga yarashar oltindan to‘g‘a,
Ravshanga bermayman Gulanorjonni,
Qizim tugul, kuchugimdan sadag‘a.

Ota, javobingni berdim, jo‘nagin!
Mundan keyin sovchi bo‘lib kemagin!
Har kimni tengiga qo‘sh-da, vallamat,
Menga munday tuzsiz so‘zni demagin!

Eshitib ol, ota, aytgan so‘zimni,
O‘zim o‘lmay, g‘anim bosmas izimni,
Bermayman Ravshanga Gulanor qizimni!
Men Hasanga teng qilmayman o‘zimni!

o‘dag‘a – yetakchi, sardor

...Ravshanbek darchaning orqasida turib edi. Bu so‘zlarni eshitib, bir umrda sovuq shamol yemagan bola emasmi, sovuq so‘z tugul, bolaning o‘mganidan bir jazoyil teshib o‘tgandan yomon bo‘ldi. Ravshanxon tovushining boricha “vo” deb baqirib, yig‘lab qayta-verdi. Bola shu yig‘lagancha ko‘chaning yuzi bilan borayotir edi. Ravshanbekning yig‘lagan tovushi Og‘a Yunus parining qulog‘iga yetdi. Pari aytdi: “Qanday bola ekan ko‘chada yig‘lagan?” Shunda qarasa, o‘zining ko‘rar ko‘zi, so‘zlar so‘zi, o‘z joniga teng ko‘rib yurgan Ravshanbek bolasi yig‘lab kelayotir. Yugurib borib, qo‘ltig‘iga qisib, ko‘zining yoshini betidan artib: “Bek Ravshan bolam, nega yig‘laysan?” – deb so‘rab turdi. Shunda Ravshanbek dim o‘pkasini bosolmaydi. “Ha, bachchag‘ar Avaz!” – deb aslo turolmaydi. Og‘a Yunus pari: “Ey bolam, Avazni nega urishasan? Menga aytgin, anglab, bilib olayin”, – desa, bola har o‘ksiydi, gapirolmaydi. “E ena! Avazing: “Qizimni bermayman, mening tengim emas”, – deb bizni quzg‘un, o‘zini lochin tutdi. Bachchag‘ar Avaz bizdan ortiq bo‘lib ketibdi. Shu Avazdan kam bo‘lsam, cho‘llarga boshimni olib ketaman. Qo‘yaver, ena, qo‘yaver, endi Chambilda turmayman, shu Chambilni Avazga berdim”, – deb bola dim o‘pkasini bosolmaydi. Shunda Yunus pari kulib, Ravshanbekning so‘zlariga hayron bo‘lib: “E bolam, Ravshanjon, muddaong Avazning qizi Gulanor bo‘lsa, aslo g‘am yema! “Qizi borning nozi bor” degan, shunday-shunday deydi-da. Unga sen xafa bo‘lma! Mana men, men borayin otangning orqasidan; uning qizda nimasi bor ekan? Tortib olib bersam ham Gulanorni senga olib beraman... Qani, men borayin, bermayman degan Avazni ko‘rayin, shu Avazmi qizini bermaydigan”, – deb Og‘a

sovuq shamol yemagan – og‘ir gap eshitmagan

o‘mgan – ko‘krak, to‘sh

jazoyil – nayza

dim – aslo, hech

quzg‘un – har qanday narsani ham yeyaveradigan, o‘limtikxo‘r qush

lochin – ov qilishga o‘rgatiladigan, chaqqon harakatli yirtqich qush

Yunus pari bormoqchi bo‘laverdi. Shunday qarasa, Ravshanbek juda otashin. Shunda pari ko‘nglida “Bu bola achchig‘i bilan bir yoqqa ketib qolmasin”, deb, xosiyatli uzugini ovunib o‘tirsin deb qo‘lidan olib, Ravshanbekka berdi. “E Ravshanbek, shu uzukka qarab o‘tir, men borib, Avazning qizi Gulanorjonni senga fotiha qilib, to‘y taraddudini qilib darrov kelaman”, – deb pari ham turib ketdi.



Sizningcha, Og‘a Yunus pari bergan va’dasining ustidan chiqa oladimi?

Endi Ravshanbek ko‘zining yoshini artib, shunday niginga qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzida jami parini bandiga olgan duoli yozuvi bor, olam mamlakatiga bermaydigan xosiyati bor; har yerda suluv barno qiz bo‘lsa, oti bor; ba’zi-ba’zi juda nozik, uzik suluvning ham oti bor, ham surati bor, shu uzukning bir chetida Qoraxon podshoning qizi – Zulxumor degan bir qizning oti bor, ham surati bor. Ana endi bola buni ko‘rib, Zulxumorga g‘oyibona ko‘ngil qo‘yib, ishqivoz bo‘lib, o‘ziga-o‘zi aytdi: “Kel-e, Avazning qizi bo‘lmasa, Qoraxonning qizi-da! Avaz qizini bermadi deb mening yig‘lab yurganim qanday?” – deb g‘ayrati kelib, otasining Jiyronqush degan oti bor edi, urushga minadigan, shu Jiyronqushning oldiga keldi. Jiyronqush ham shunday ot: to‘rt oyog‘i teng tushgan, biqini yoziq keng tushgan, qarchig‘ayning havosi tekkan.

nigin – uzuk

bandiga olgan – asirga olgan

uzik – yetuk, kamchiliksiz

qarchig‘ay – ovga solinadigan yirtqich qush

Shu otni yetaklab olib chiqib, yakkamixga boylab, otni egarlab... turipti:

...Bekning oti po‘lat suvluq chaynadi,
Qizil kiyib, gulday bo‘lib jaynadi.
Ilon tilli, yashin turli xanjarni
“Obro‘ ber!” deb xipcha belga boyladi.
Tomosha qing xon Ravshanday polvonni,
Shirvonning yurtiga talab ayladi.

Tomosha qing Chambilning shunqorini,
Mindi yigit Jiyronqushday otini,
Yig‘latib otasi – Hasan mardini,
Qon yig‘latib xon Dalliday suluvni,
Ravshan izlar bo‘ldi Shirvon yurtini.

jaynamoq – yashnamoq

talab aylamoq – xohlamoq, ixtiyor etmoq

taraqqos boylamoq – uchadigan qushday bo‘lmoq

Ravshanbek otini hovlidan chiqarib, ota-enasidan g‘oyibona rozi bo‘lib, ko‘chaning yuzi bilan, odamlarning izi bilan gulday jaynab, suqsurday bo‘ylab, parvoz aylab, taraqqos boylab, ostida Jiyronqush oti har usulda o‘ynab... borayotir. Hasanxon darvozabon bilan do‘st edi, doim darvozabonning oldida o‘tirar edi, ikkovi... birov-birovining so‘zini tashlamas edi.

Hasanxon jo‘rasi bilan gaplashib o‘tirsa, Ravshanxon otasining ustiga borib qoldi... Unda Hasanxon polvon yolg‘iz bolasi, ko‘zining oqi bilan qorasi – Ravshanxonni tanib, ...Jiyronqushning jilovidan ushlab, ko‘zini yoshlab, “...hay, attang” deb barmog‘ini tishlab, yolg‘iz farzandiga qarab bir so‘z dedi:

...To‘rasan, Ravshanjon, Chambil elingga,
Keskir isfahonni boylab belingga,
Qo‘sh po‘pakli nayza ushlab qo‘lingga,
Otang qurbon bo‘lsin shirin tilingga,
Yovga ajdahorim, senga yo‘l bo‘lsin?

isfahon – Isfahon po‘latidan yasalgan keskir qilich

Sen bo‘lmasang, otang holi ne kechar,
Sensiz menga falak kafan to‘n bichar,
Dunyoning bolini zahar deb ichar,
Qanday kuni kechar sho‘r enang nochor,
Harna yo‘g‘-u borim, senga yo‘l bo‘lsin?

po‘pakli – popukli

Menga aytgin ko‘nglingdagi o‘yingni,
Aytgin, bolam, boradigan joyingni,
Men bilayin talab qilgan elingni,
Ayt siringni, qaytarmayman ra’yingni,
Ey yolg‘iz shunqorim, senga yo‘l bo‘lsin?

Ravshanxonni otasining savlati bosib, hayosi g‘olib kelib, nima derini bilmay o‘ylanib turib edi, axiri bo‘lmadi. Otasiga gapirmay o‘tsa, u ham bo‘lmaydi, gapiray desa, uyaladi. Ana endi Ravshan polvon otasining so‘zlariga javob berib, ko‘ngli buzilib, yurak-bag‘ri ezilib, ko‘zining yoshi tizilib, boshidan o‘tgan sir-savdosini otasiga aytib, o‘zidan o‘tganidan xabardor qilib, bir so‘z aytayotir:

Jonim ota, aytolmayman uyalib,
Bolang ketar endi boshini olib.
Jon ota, alamim ko‘pdir, so‘rmagin,
Bek Ravshan jo‘nadi safarga tolib.

tolib – talabgor

Qaladan qalampir yuklar qalachi,
Har xil isli bo‘lar tog‘ning og‘ochi.
Otajon, alamim ko‘pdir, so‘rmagin,
Vallamat boripti Avazga sovchi.

qalachi – shaharlik

Qabul qilmay vallamatning so‘zini,
Nomard Avaz bermas bo‘pti qizini,
O‘tib ketdi Avazxonning so‘zlari,
Bizni quzg‘un, lochin qipti o‘zini.

Maydon-maydon Jiyronimni yelmasam,
Dushman bo‘lsa, bo‘lak-bo‘lak qilmasam,
Avazning qizidan yaxshini olmasam,
Jonim otam, Chambilbelda turmasman.

Chambil deydi unib-o‘sgan elingni,
Javob ber, otajon, ko‘tar qo‘lingni!
Talab qildim Shirvon elga, otajon!
Javob bersang, bermasang ham ketaman!

ko‘tar qo‘lingni – duo qil

Javob ber, otajon, yorga boraman,
Yor deyman-ku, nomus-orga boraman.
Ota, sendan oq fotiha tilayman,
Shirvon elda Zulxumorga boraman.

O‘ylab ko‘ring, Hasanxon o‘g‘li Shirvon yurtiga yolg‘iz ketishiga ruxsat beradimi?

Hasanxon bu so‘zlarni eshitib... “hay, attang” deb barmog‘ini tishlab, ko‘zini yoshlab, o‘g‘liga ne derini bilmay qoldi.

Shirvonning eli – uch oylik yo‘l. Ikki ora suvsiz cho‘l, u yog‘i – dushman el. “Yolg‘iz bola yovdan yomon”, uzoqroq bozorga yuborgisi kelmaydi... Hasanxon bechora o‘g‘lining jamoliga, novdaday o‘sgan kamoliga ko‘zi to‘ymay... ichi g‘amga to‘lib, rangi gulday so‘lib, yolg‘iz bolasidan ayrilib qololmay, oh tortib: “E Ravshanjon! Axir mening uyimni motam-xona qilib, meni tashlab ketar ekansan-da”, – deb turib, asli mard emasmi, “Kel, tavakkal-da”, – deb... o‘zi dildorlik berib... o‘g‘liga qarab necha yerdan timsol keltirib, nasihat qilib so‘z aytayotir:

Paydo bo‘lding ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchding manzil-xonadan.
Avval aytgan nasihatim, Ravshanjon,
Kechsang yomon bo‘lar ota-onadan!

Eshitib ol otang sho‘rning arzini,
Elida sarg‘aytding gulday tarzini.
Bir qiz uchun unutmagin bizlarni,
Unutma otang ham onang qarzini!

O‘zingdan pastlarman har yo‘lga ketma!
Bolam, aytgan nasihatim unutma!
Oldingdan kim chiqsa, besalom o‘tma!
Bir g‘aribni ko‘rsang, zinhor og‘ritma!

Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!
Nasihatim yod qilib ol, yolg‘izim,
Yolg‘iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

Hasanxon polvon mard emasmi, bolasiga qarab, oq fotihani betiga tortib: “Bor, bolam, manglayingni Xudo ochsin!” – deb qolaverdi. Ravshanbek otasidan duo olib, otining boshini solib, yo‘lga ravona bo‘lib ketaverdi.

Ota-o‘g‘il dialogida xalqimizga xos qanday an’ana va odatlar aks etgan? Sizningcha, bugun bulardan qaysi biri hayotimizda saqlanib qolgan?

Ravshan... tog‘-u toshlar, cho‘l-u biyobonlarni bosib o‘tib, Shirvonga keladi. Bu yerda bir kampirga o‘g‘il bo‘lib yurib, kunlarning birida shaharni aylanar ekan, bozorning ustidan chiqib qoladi. Zulxumorning qalpoq tikib, har bozor kuni yigitlarga sotishni rasm qilgani, bozordagi ko‘shkning ustida yuzini ochib o‘tirishi, yigitlar ko‘rmanasiga bir lagan tilla hadya qilib, uni tomosha qilishlarini bilib oladi.

Muhokama qilamiz

1. Dostondan parchani o‘qib, nimalarni angladingiz?
2. Qaysi qahramon sizga ko‘proq manzur bo‘ldi? Nima uchun?
3. “Yor deyman-ku, nomus-orga boraman”, – deb otasiga bergan javobidan Ravshanni qanday tasavvur qildingiz?

Topshiriq

Dostonda uchragan maqol va iboralarni daftaringizga yozing, asarda qo‘llanishi sababi to‘g‘risida fikr yuriting.

Tavsiya

Sun’iy idrok vositasida maqol va iboralarning tasvirini (bir nechta variantda) yarating. Namunaga e’tibor bering.



Tuya hammomni orzu qilibdi.

II

...Ravshanbek bozorning ustidan kelib qolib, yorim Zulxumorjonni ko‘raman deb, dimog‘i chog‘ bo‘lib, vaqti xush bo‘lib, bozordagi odamlarga qarab bir so‘z aytib turibdi:

Uzoqdan kelayotibman,
G‘amning loyiga botibman,
E yoronlar, birodarlar, birodarlar!
Men yorimni yo‘qotibman.
E yoronlar, birodarlar, xaloyiq!
Men yorimdan adashibman...
Elda davron surgan bormi?
O‘z davriman yurgan bormi?
Bizning yorni ko‘rgan bormi?
Yor daragin bergan bormi?
Toblab zulfin o‘rgan bormi?
Yorman suhbat qurgan bormi?
Yoki birga yurgan bormi?
Bog‘idan gul tergan bormi?
Bizning yorni ko‘rgan bormi?
Yor daragin bergan bormi?..
Shunday asov toyday yorni
Qo‘lga keltirsam deb keldim.
Oshiqligim shu barnoga
Endi bildirsam deb keldim.
Eldan o‘zgan chin suluvni
Ishqib ildirsam deb keldim.
Aytganima ko‘nmasa-chi,
Aldab ko‘ndirsam deb keldim.
Bizning yorni ko‘rgan bormi?
Yor daragin bergan bormi?

...Past-pastgina past ko‘chalar,
Holin bilmas bir nechalar,
Bedov mingan boyvachchalar,
Boyvachchalar, bekvachchalar,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?



Bozor kelgan bozorchilar,
Yo‘lni kezgan guzarchilar,
Tinmay elni kezarchilar,
Jo‘n savdoni buzarchilar,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Mardikorlik – ish bozori,
Cho‘yan bozor, mis bozori,
Manov – pishiq g‘isht bozori,
Qassob bozor – go‘sht bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Changib yotgan un bozori,
Qo‘qib yotgan jun bozori,
Anov – mursak, to‘n bozori,
Pichoq bozor, qin bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Anovi qovun bozori,
Baqqollik, sovun bozori,
Sallox sotib kalla-pocha,
Qassobga tovun bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Chetda turgan qo‘y bozori,
Yilqi bozor, toy bozori,
Qurt bilan sarimoy bozori,
Qog‘ozdagi choy bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Bo‘z bilan alak bozori,
Attorda elak bozori,
Rang, bo‘yov, lok bozori,
Paranji, jelak bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Bug‘doy ham arpa bozori,
Paxtali ko‘rpa bozori,
Qo‘y teri surpa bozori,
Sersavdo turpa bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Echki ham uloq bozori,
Telpak ham tumoq bozori,
Kavob, qovurdoq bozori,
Nasya emas, naq bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

guzarchilar – o‘tkinchilar

qo‘qimoq – ivirsimoq, to‘zg‘imoq

mursak – yengsiz paxtali kamzul

sallox – qassob

tovun – tegishli, qarashli, tobe

alak – bo‘zning turi, olacha

jelak – xotin-qizlar boshga tashlab yuradigan ro‘mol

turpa – turfa, har xil

tumoq – bo‘yinni ham berkitadigan telpak, ko‘proq tulki terisidan tikiladi

O‘ylab ko‘ring, bozorlarning xilma-xil bo‘lishi nimani anglatadi?

Ravshanbek: “Qalpoq bozori qayerda?” – deb baqirib borayotir edi. Shu yerda bir nashavand turib edi, kayfi uchib ketdi. Ravshanbekka qarab aytdi: “Ey o‘zbek! Muncha baqirasan, kayf degan narsadan qolmadi-ku! Sen o‘zing burun ham hech bozorga boribmiding, ilgari bozorni ko‘ribmiding? Anov changib yotgan un bozori, narigi qo‘qib yotgan jun bozori, hu anav, katta do‘kon – to‘n bozori, narigi turgan – pichoq bozori bilan qin bozori, undan o‘tding – qalpoq bozori-da, yurtni buzding-ku?!” – deyotir. Ravshanxon bozorni oralab o‘tdi, qalpoq bozoriga yetdi. Qarasa, qirq zinali ko‘shkning ustida Zulxumoroyim kanizlari bilan qalpoq sotib turibdi. Zulxumor betidan niqobini olib, ko‘p kanizlar o‘rtaga olib turibdi. Ravshanbek Zulxumorning jamolini, navdaraxt kamolini ko‘rib, tomosha qildi.

navdaraxt – novdaday, yosh daraxtday tik qomatli

Ravshanbek qarasa, Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi oyday ikki qoshi hiloli. Ravshanbek zehnini qo‘yib qarasa, yasangan hurday, tishlari durday, ko‘zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og‘izlari o‘ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig‘ay uchadigan qushday, muhrlangan qog‘ozday yalt-yult etib o‘tiribdi. Zulxumoroyning bu yog‘ida to‘qson besh, bu yog‘ida to‘qson besh – o‘n kam ikki yuz kokili bor, bir yog‘ini tilla suviga botirgan, bir yog‘ini kumush suviga botirgan, tong shamolida qotirgan. Jamoli chillaning qoriday tingjirab, yaltirab o‘tirgan. Ana Zulxumorning ko‘zi javdirab, zulfi shovdirab, zulfining shu’lasi yuziga ursa, yarq-yurq etib, betining shu’lasi zulfiga ursa, yashin tushganday bo‘lib o‘tiribdi. Ravshanbek qarasa, musicha, so‘pito‘rg‘ay, g‘azalay, simcha qushlar Zulxumorning jamoli jilvasiga chidamay, baland quyilib kelib, egniga, kiptiga tegib-tegib, uchib borayotipti. Ravshanbek Zulxumorni bu sha’n-u shavkatda ko‘rib, yuz jon-u dil bilan ishqivoz bo‘lib, yuz jon-u dil bilan xaridor bo‘lib, qarab qoldi...

kipt – kift, yelka

Ravshanbek masti beixtiyor bo‘lib, ikki qo‘lini ko‘tarib, bulg‘ab, oyoqni uzangiga tirab, balandga qarab baqirib, qizlarni chaqirib bir so‘z aytadi:

bulg‘ab – silkitib

Kuygan alvon-alvon so‘zlar,
Ayrilgan bir-birin izlar.
Ko‘shkida o‘tirgan qizlar,
Baring birday botamizlar,
Turinglar, Chambil ketamiz,
Juringlar, Chambil ketamiz!
Shirvon elning barnolari,
Suluvlarning podsholari,
Yigitlarning dilxohlari,
Yuzlari mehr-u mohlari,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

botamiz – tamizli, ma’nili

mehr-u moh – quyosh-u oy

Zulfin toblab o‘rgan qizlar,
Elda davron surgan qizlar,
Kaptarday bo‘b yurgan qizlar,
Qalpoq sotib turgan qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

...Unda hamma qizlar hayron qolib kulayotir. Hu-hu, deyishib qarayotir. “Nega unday qilayotir?” – deb bir-biridan so‘rayotir... Ravshanbek shu yerda qip-qizil tentakka chiqib qoldi... Bir pilla Ravshanbek hushiga kelib qarasa, qorong‘i bo‘lib qolibdi, bozor tarqab ketibdi, qizlar tushib ketibdi. Ravshanbekning o‘zi qolibdi. Hech kim yo‘q... U yoq-bu yoqqa qarab, qizlarning qayoqqa ketganini bilmay, bir dardi ming bo‘lib, ichi g‘amga to‘lib... ne pallalarda uyga keldi... Enasi Ravshanbekning joyini solib berib, uxlagali joyiga o‘tib yotdi. Bolaning uyqusi qayoqdan kelsin, ilon, chayon chaqqanday Zulxumorning ishqi kuydirib borayotipti. Uh deydi bo‘lmaydi, uyqu kelmaydi... Bolaning ko‘ziga dalaning shu’lasi baland ko‘rindi. Tomga chiqib qarasa, katta yo‘l bilan boyagi ko‘shkda ko‘ringan qizlar, qancha kanizlar kelayotir... Bularning orqasidan boyagi ko‘shkda ko‘ringan xosaki kanizlar bilan Zulxumoroyim o‘tib borayotipti... Ravshanbek tomdan o‘zini tashlab ketdi. Kampir: “Ha, bolasi tushmagur, qayt-chi, qayt!” – deb qichqira-qichqira qoldi. Ravshanbek piyoda yo‘rtib, ko‘chaning yuzi bilan, qizlarning izi bilan urib yugurib, qizlarni izlab keta berdi... Bir qancha yo‘l yurib edi, oldidan chiqdi katta bir bog‘, bir yog‘i chorbog‘, juda katta-kalondimog‘, ko‘rganlar farog‘, shunday joyga borib qoldi. Qarasa, ko‘p qizlar, ancha sarvinozlar, beadad kanizlar hayhaylashib, o‘n – bir, besh – bir, to‘p-to‘p bo‘lib, bir xili oz, bir xili ko‘p bo‘lib, yuribdi sayilbog‘ qilib. Ravshanbek bildi, kechagi qizlar shu yerga kelgan ekan... Ravshanbek astagina pisib borib, gulning ichiga yashirindi... Bog‘da bitta ham erkak yo‘q. Qizlar o‘ynashib, qizg‘aldoqday yashnashib... bir xillari bir-birlarining bo‘yniga qo‘lini tashlashib yuribdi... Qizlar bir bazmlar, tapir-tupur o‘yinlar qilayotir, qizig‘i keyin bo‘layotir...

pilla – palla, vaqt

yo‘rtmoq – lo‘killamoq

Sizningcha, voqealar rivoji qanday tus olishi mumkin?

* * *

Shu asnoda bir to‘p qizlar o‘ynashib-kulishib, gul terishib-talashib, yashirinib yotgan Ravshanning ustidan chiqib qolishadi. Begona yigitni ko‘rgan qizlar dod-voy solib, Zulxumorga xabar berishadi. Zulxumor yigitning kim, qayerlik ekani, nimaga kelganini so‘rab, ko‘rmanasini olib kelishga Oqqiz degan kanizini jo‘natadi. Ravshan tillasi yo‘qligi uchun momosi Yunus pari bergan sehrli uzukni ko‘rmana sifatida Zulxumorga yuboradi. Qiz uzukni tomosha qilayotib, unda o‘z ismi va suratini ko‘radi. Uzuk sehrli ekanini bilgach, bunday uzuk har kimda ham bo‘lavermasligini o‘ylab, yigitni huzuriga olib kelishlarini buyuradi. Qizlar Ravshanni olib kelishgach, Zulxumor, avvalo, uzuk ko‘zidagi yozuvni taqdirning bitigi deb bilganidan, ikkinchidan, yigitning chin oshiq ekanini sezib, yoqtirib qolganidan uni qabul qiladi. Bir necha kunni Ravshanbek Zulxumor bilan shod-xurram o‘tkazdi.

Ravshanga ko‘ngli ketgan, lekin e’tiborini qozona olmagan hasadgo‘y Oqqiz Zulxumorning Ravshan bilan ekanini onasiga aytib beradi. Onasi bu gapni Qoraxonga yetkazadi. Ravshanni bandi qiladilar. Podsho uni osishga buyuradi. Shunda Shirvon kattalari: “Yigitni o‘ldirishga shoshmaslik kerak, yosh, aqlli va botir yigit ekan, uni qirq kun zindonga tashlasak, so‘ng chiqarib dinimizga kirishini so‘rasak, ko‘nsa, sizga kuyov qilsak, ko‘nmasa, osaverasiz”, – deb maslahat berishadi. Bu gap podshoga ma’qul kelib, Ravshan zindonga tashlanadi. Zulxumor kanizlari bilan bir hovliga qamalib, besh yuz sarboz qorovul qo‘yiladi. Qiz Ravshan bilan yashirincha maslahatlashib, uning ota-onasiga xat yozadi. Zulxumoroyim o‘z qo‘li bilan bir xatni bitdi: “Hasan mardning o‘g‘li, xon Dallining jon-u dili, oti bek Ravshan, Shirvon mamlakatiga kelib bandi bo‘ldi. Qirq kun muhlat qilib, zindonga soldi. Shu qirq kunning o‘n to‘qqiz kuni o‘tganda shu xat bo‘ldi, namozshomda bitildi. Tong otmay, Chambilbelga to‘ramning eliga yetadi… Ravshanning murabbiylari bo‘lsa, kelsa, ayirib olsa”. Xatni mahkam qildi, o‘rab berkitib, bir narsa zarar qilmasday, yomg‘ir bo‘lsa, Sahar vaqti xon Dalli yolg‘iz bolasi, ko‘zining oq-u qorasi …Ravshan bolasini sog‘inib, dalaga chiqib bora turib: “Voy Ravshan!” – dedi. Buni jonivor mayna eshitib, shul ayol Ravshanbekning enasi ekanini bilib, bir qaqirlab, qattiq sayradi. Buni xon Dalli eshitib, maynaga qarab, bolasini so‘rab, bir so‘z deb turibdi:

Sahar vaqti, mayna, gulday jaynading,
Osoyishta tanda jonim qiynading,
Hayron qoldim dovushingdan, maynajon,
Ne sababdan, mayna, bunday sayrading?
Sen bunday sayraysan, jonim olasan,
Meni endi har xayolga solasan,
Ne sababdan, mayna, bunday sayrading?
Joningni achitib dovush qilasan.

…Bulbul oshna bo‘lar bog‘ning guliga,
Mayna yetdi talab qilgan eliga.
O‘tirgan joyidan uchib shu mayna
Kelib qo‘ndi xon Dallining qo‘liga.
Xon Dalli qarasa, qushning dodi bor,
Ko‘p uzoqdan qistagan holati bor.
Xon Dalli qo‘liga olib qarasa,
Maynaning bo‘ynida arza xati bor.

jaynamoq – yayramoq

Xon Dallidan xatni olib o‘qib, voqeadan xabar topgan Hasanxon Go‘ro‘g‘lining G‘irko‘k otini minib, zudlik bilan Shirvonga jo‘nashga qaror qiladi. Xatdan ayon bo‘lishicha, Qoraxon bergan qirq kunlik muhlatning roppa-rosa yigirma kuni o‘tgan. Yigirma kundan keyin Ravshan yo begona dinga kirishi, yo dorga osilishi kerak... Ana endi Go‘ro‘g‘libek shoshib-surinib, yig‘lab-emranib, Hasan mardga oq fotiha berib yubordi. Hasanbek “Hayt!” deb, G‘irko‘kni o‘ynatib, suvliqni chaynatib, dushmanlarning zardasini qaynatib, “Shirvon, qaydasan?” – deb, yakka-tanho savab ketib borayotir, huv deb ketib borayotir:

Sovutini bo‘ktarib,
Qalqonini do‘ngtarib,
Yo‘lga tushdi mard Hasan
Shirvon elin axtarib...

Ot boradi arillab,
Otgan o‘qday parillab,
Ot alqimi – tong shamol,
Mis karnayday zarillab.
Suvsiz cho‘lda G‘irko‘k ot
Borayotir parillab.

Tonglar otib boradi,
Kunlar botib boradi,
Suvsiz cho‘lda mard Hasan
Yakka ketib boradi.

Dushmanlarning qonini
Bo‘z tuproqqa qotsam deb,
Qoraxonday podshoni
Yerman yakson etsam deb,
Shirvon elning to‘rasin
Yuragin qon etsam deb,
Bek Ravshanning ustida
Katta to‘fon etsam deb...

Qulon yurmas yerlardan
Quvib o‘tib boradi.
Bulon yurmas yerlardan
Buvib o‘tib boradi.
Qarsoq yurmas yerlardan
Qalqib o‘tib boradi.
Bo‘ri yurmas yerlardan
Bo‘zlab ketib boradi.
Polvon Hasan dovushin
Sozlab ketib boradi.
Bek Ravshanni tinmasdan
Izlab ketib boradi...

Yo‘lbars yurmas yo‘llardan
Yo‘rtib o‘tib boradi.
Bek Ravshanning alamin
Tortib o‘tib boradi...

bo‘ktarmoq – egar orqasiga bog‘lamoq

do‘ngtarmoq – yelkasiga to‘ntarib osib olmoq

alqim – shiddat, epkin

qulon – yovvoyi eshak

bulon – yovvoyi ot

qarsoq – tulkiga o‘xshash, lekin undan kichikroq yirtqich

Hasan mard yo‘lni qichab ola bersin, Shirvonga yaqin kela bersin, shu so‘z shu yerda qola bersin. Endi Ravshanxonning enasidan... eshiting. Ravshan Shirvon elida o‘g‘il tutingan

kampirning avval olti o‘g‘li bor edi, oltovi ajdahor edi... Har biridan Qoraxon podsho qo‘rqar edi, oltovi olti yerda qal’a-qo‘rg‘on qilib turar edi. Olti o‘g‘li o‘lib ketdi. Kampir bolalarining o‘tiga kuyib-yonib, o‘rtanib, tutanib, jizig‘i chiqib qolgan edi. Ravshanbekni o‘g‘lim deb, o‘lsam merosxo‘rim deb qo‘ygan edi. Bu ham podshoga bandi bo‘lib, kampirning avvalgi alamlaridan shunisi o‘tdi... Ana shu kampirning katta o‘g‘lining bir nonxo‘r polvoni bor edi, o‘zi juda zo‘r edi, urush-surish bo‘lsa, mingga barobar edi. U polvonning otini Aynoq kal der edi. Lekin o‘zlari to‘rt og‘a-ini edi, to‘rtovi ham kal edi, bari ham bohunar edi. Kattasi Aynoq kal zo‘r edi. Aynoq kal shunday edi: ot, tuya, arava ko‘tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko‘chmoqchi bo‘lsa, piyoda ketar edi... Ukalarining otlarini Jaynoq kal, Ersak kal, Tersak kal deb yuritishar edi. Jaynoq juda masxaraboz edi, har tusli bo‘la berar edi. Agar birovni aldamoqchi bo‘lsa, har tusli bo‘lganda o‘zining jo‘ralari ham tanimas edi. Ersak kal shunday edi: oqshomlar qo‘liga kamonni olsa, qushni ko‘zidan urar edi. Juda mergan edi... Tersak kal sinchi edi: yilqining tulporini suyagidan tanir edi, qilichning o‘tkirini qinidan bilar edi. Kampir yig‘lab-emranib Aynoq kalga bordi. Aytdi: “Aynoqjon! Qarigan vaqtimda Xudo menga tag‘i bir g‘amni soldi, u bolalarimning g‘amidan ziyodaroq bo‘ldi. Sen ilgari, o‘g‘limning borida, davlatimning ko‘pida mening osh-nonimni ko‘p yeding. Endi mening ishim senga tushib qoldi. Shu Ravshanbek bolamni ayirib olaman desang, sening qo‘lingdan keladi”. Aynoq... aytdi: “Ho‘, ena!.. Aslo g‘am yema! Shu o‘g‘illaringning menda haqqi ko‘p. Sening tuzingni men ko‘p yeganman... Katta o‘g‘ling meni ko‘p parvarish qilar edi. Endi shuning arvohi uchun ertaga maydonga kiraman... Ravshanni ayirib olaman...” Shunday qilib, kallar maslahatni bitirib, shahardan xabardor bo‘lib, borib-kelib yura berdi. Erta muhlat tamom bo‘ladi, bek Ravshanni shu yerga olib keladi. Kallar to‘rtovi barvaqt borib, gashtagini qilib, palovini yeb, choyini ichib, bahuzur dimog‘ini chog‘lab, “Ertaga qudag‘ay kimga qo‘y so‘yadi”, – deb to‘rtovi o‘tirib edi. Shu kuni kun pora-pora bo‘lib yerga o‘tirgan vaqtda jonivor G‘irko‘k suzilib, buyiri-buyiriga qapishib, qorni qorniga yopishib, ter bilan qotgan changlar yong‘oqday dumaloq bo‘lib, Shirvonga kirib bordi. Shaharning o‘rtasida bozorjoy. Do‘konlarni shipirib-sidirgan. Bozorjoyning o‘rtasida bir yangi dor qurilgan. Hasan ko‘nglida: “Shu dor bek Ravshanga deb qurilgan chiqar; bo‘lsa-bo‘lmasa, erta shu yerga keladigan bo‘lsam, kel, shu bugun shu yerda turib damimni olayin”, – deb tushib, bir do‘konga otini tortib o‘tira berdi. Endi gapni kallardan eshiting. To‘rtovi o‘tirib edi, Hasan mard ham shularning qavatiga tomon borib qo‘ndi, u ham o‘tira berdi. Shunda masxaraboz kal aytdi: “Aynoq, ishimiz yaxshi bo‘ldi, o‘ng keldi. Ravshanni endi ayirib oladigan bo‘ldik, balki ayirib oldik. Ana qara, Hasan mard ham keldi. Shu o‘tirgan yigit Chambilning belidan, Yovmitning elidan kelgan Hasan mardning o‘zi”. Shunda Aynoq aytdi: “E uchchangdan urgur, har kimni ham odam deyberasanmi! Xudo urgani yo‘q. Hasan mard shunday bo‘lsa, G‘irko‘k ot – ovozasi olamni tutib yurgan ot; bu ot Ishrat devonaning otidan ham yomon, o‘libdimi shunday bo‘lsa! Men ertaga urush bo‘lsa, boyadan beri shuni chog‘lab-ko‘zlab o‘tiribman; anov tolni, manov qayrag‘ochni sug‘urib olib, ertaga to‘dada qadama og‘och qilaman deb o‘ylab o‘tiribman. Agar ertaga badanim qizisa, shu devona otini qo‘ynimga solib,

jizig‘ – kuydirilgan quyruq, jizza

buyir – och biqin

uchcha – tos suyagi bilan son suyagining birlashgan joyi, bu yerda “jin urgur” ma’nosida

qadama og‘och – og‘och butoqlaridan tayyorlangan qoziqlar yerga qadab o‘ynaladigan bolalar o‘yini

kuni bilan yugurib yursam ham, bir noncha salmog‘i bo‘lmas, qanday qilib bu Hasan mard bo‘ladi, u G‘irko‘k ot bo‘ladi?!” – deb ukasini urishdi. Shunda Tersakka qarab aytdi: “Tersak! Shu odamni sen bir sinla, qani, qayoqning odami ekan? Agar sening ham didingga kelmasa, undan keyin qo‘yamiz”. Tersak damini ichiga olib, tishini tishiga qo‘yib, kiprigini qoqmay tikilib qoldi. Turib-turib, ancha vaqtdan keyin damini chiqarib: “Uh”, – dedi. Ersak aytdi: “E Tersak, sinladingmi, qayerning odami ekan, shu ot qayerning oti ekan?” Shunda Tersak og‘a-inilariga qarab, Hasan marddan xabar berib, bir so‘z deb turibdi:

sinlamoq – chamalamoq, tanimoq

Keskir isfahonni olib dastiga,
Qarab bo‘lmas chin botirning bastiga,
Yobi dema, shu ot tulpor ekandi,
Shu o‘tirgan Hasan shunqor ekandi...

yobi – cho‘bir, qirchang‘i

...Ana endi to‘rt mard Hasanxon polvonning oldiga keldi. Salom berib, ko‘rishib o‘tirdi. Aynoq qarasa, bir “devona” o‘tiribdi: devsifat, bir ajdahoday, hech narsani ko‘ziga iladigan emas, balki nazariga keltirmay, pisand qiladigan ham emas; shunday haybatli, siyosatli. Aynoq ichida aytdi: “Hasan ekan, bechora Jaynoqni bekorga urishgan ekanman”... Aynoq joyidan irg‘ib turdi, ukalari ham tura keldi: mard Hasan bilan quchoqlashib, qaytadan ko‘rishib aytdi: “Yaxshi kelibsan, jo‘ra, juda yaxshi kelibsan. Bizlar ham shu yerga Ravshan keladi deb, sening o‘g‘ling uchun o‘tiribmiz. Ana endi sen kelding, ishimiz o‘ng keladi. Endi, jo‘ra, ertaga Ravshanxonni shu yerga haydab keladi, nasib qilsa, talato‘p bo‘ladi, taxti vayron bo‘ladi”, – deb Hasan mard bilan kallar suhbatlasha berdilar.

Aynoq ukalarini yuborib, G‘irko‘k otga beda, yem oldirib keldi. Hasanxon polvonga palov, go‘sht, manti, barak berib siylab, ziyofat ustiga ziyofat qilib, choyni damlab, G‘irko‘kni yemlab, ertagi urushning g‘amini g‘amlab, xotirni jamlab o‘tira berdi.

barak – chuchvara

Qirq kun muhlat tamom bo‘ldi. Qoraxon podshoga: “Taqsir podshoyim, kechagi gunohkorning muhlati bitdi, ajali yetdi, endi olib borib dorga osib, boshini kesib, dodini bermoq kerak”, – deb amaldorlari arz qildi...

Muhokama qilamiz

1. Aka-uka kallar obrazi sizda qanday taassurot uyg‘otdi?
2. Hasanxonga Ravshan zindonband bo‘lgani haqidagi xatni Zulxumorning yuborishidan muddao nima edi?
3. Siz Ravshanning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutar edingiz? Javobingizni izohlang.
4 Jiyronqush va G‘irko‘k dostonda qanday vazifa bajargan? Matn asosida tushuntiring.

Topshiriq

Dostonning davomini uyda o‘qib keling.

* * *

Ravshanjonni zindondan chiqarib, bo‘yniga g‘ul – zanjir solib, tevaragini ko‘p dushman olib, bo‘taday bo‘zlatib, ko‘zini boylab, ko‘p zulmlarni aylab kela berdi.

Ravshan chiqqan kuni Zulxumoroyim qancha kanizlari bilan dod deb yig‘lab, Ravshanning o‘ng tarafidan kelib, to‘rasining dog‘ida kuyib, betini yulib, dovushining boricha chirqirab yig‘lab kelayotipti. Bir tarafda kampir enasi “dod” deb, bolasining dog‘iga kuyib: “Voy bolam”, – deb Ravshanning bo‘yniga osilib kela yotipti.

Zolimlar dorning ostiga yaqinlashib qoldi. Hasanxon G‘irko‘kning ustiga minib, yov-yarog‘ini choq qilib, ustiga eski to‘n kiyib, bir devona bo‘lib turar edi.

O‘ylab ko‘ring, nega Hasanxon dor maydoniga eski to‘n kiyib, devona qiyofasida keldi?

Dasta-dasta, baland-pastda, odam bosib kela berdi asta-asta, maydon sipohiga to‘lib ketdi. Qoraxon podsho saltanati bilan, bir bo‘lak amaldor umarolari bilan kelib, bir yaxshi joyni olib, tushib o‘tira berdi. Baland ham odam, past ham odam. Shunda jallod, mirg‘azablar Ravshanni haydab kela berdi. Hasan mard buni ko‘rib, ko‘zlari yoshga to‘lib, jazavalari qo‘zg‘alib, polvonlik tomirlari uyg‘onib, o‘zini tuzab, tezlana berdi... Ravshanxonni... jallodlarga haydatib, dorning ostiga olib keldi. Shunda Qoraxon podshoning amri bilan ikki hudaychi, salom og‘asi kelib, Ravshanbekni dorning ostida to‘xtatib, Qoraxon podshoning tili bo‘lib, Ravshanxonga qarab bir so‘z aytdi:

hudaychi – arzgo‘y bilan hukmdor o‘rtasida turadigan mansabdor

salom og‘asi – saroydagi qabul tartibini nazorat qiluvchi amaldor

Bo‘ysunsang Shirvon elning xoniga,
Ko‘nsang agar vazirlar deganiga,
Seni dordan ayirib olib ketaylik,
Agar kirsang Qoraxonning diniga...

Eshitib ol vazirlarning so‘zini,
Shirvon elda podsho deydi o‘zini,
Agar kirsang Qoraxonning diniga,
Olib beray suluv Xumor qizini.

Shunda Ravshanxon polvon vazirlarning bu gapini eshitib qahri kelib, ilonday zahri kelib: “Sen aytgan odaming men emasman... o‘limdan qo‘rqadigan odaming boshqadir”, – deb Shirvonning amaldorlariga qarab bir so‘z aytib turibdi:

Sen aytgan odaming, zolim, men emas,
Bir nechalar o‘z holini chengamas,
Men o‘lmasam, o‘z elimdan kechmayman!
Aziz boshing oyog‘imga teng emas...

chengamoq – chamalamoq, bu yerda “o‘z holini bilmaydi” ma’nosida

Ravshanbek aytdi: “...Sizlar mening ko‘zimni boylab... haydab keldinglar. Endi mening ko‘zimni ochsanglar... men ham yorug‘ dunyoni bir ko‘rsam... Sizlardan mening tilagim shu, boshqa so‘zni demayman”... Ravshanbek ko‘zini ochib qarasa, bir yog‘ida Zulxumor yori, qancha kanizlar... dod deb turibdi; bir yog‘ida enasi – kampir... “Voy bolam!” – deb o‘zini urayotir. Shirvon eli katta-kichik, yaxshi-yomon, yugruk-chaqqon, qiz-u juvon – odamning bari tomoshaga yig‘ilgan, Ravshanbekka qarashib turibdi. Ravshanbek o‘ng tarafiga qarasa, otasi – Hasan mard polvon yo‘lbarsday kelib turibdi: ostida G‘irko‘k oti, sherday haybati, qaynab g‘ayrati, ko‘zi yoshga to‘lib, ot qo‘yayin deb turibdi. Otasini ko‘rib, aslo dalaga chiqmagan bola emasmi, yig‘lab yubordi. So‘ng hol-ahvolini bayon qilib, otasiga bir necha so‘z aytdi:

Asir tushgan holida bir yurtning podshosiga keskin gap aytishdan qo‘rqmagan Ravshan nima uchun otasini ko‘rganda yig‘lab yubordi?

Uyquda boyladi nozik qo‘limni,
Sog‘indim, otajon, Chambil elimni.
Tor zindonda: “Vo ota!” – deb yig‘ladim,
Ko‘rdingmi, otajon, mening holimni?

Yo‘lingga intizor bo‘ldim, otajon,
Sensiz, ota, nochor bo‘ldim, otajon,
Baloga giriftor bo‘ldim, otajon,
Dushmanga xor-u zor bo‘ldim, otajon,
Bir ko‘rmoqqa xumor bo‘ldim, otajon,
Shirvonda juda xor bo‘ldim, otajon.

Mehribonim kelgan ekan, ming shukur,
Mendan xabar olgan ekan, ming shukur,
Tulporini yelgan ekan, ming shukur...
Meni o‘ldirmoqqa kelgan Qoraxon,
Endi zolim o‘lgan ekan, ming shukur.

Ravshan qirq kunlik bandilikdan qanday saboq chiqardi?

Hasan polvon o‘zi olovday yonib, dudday tutanib turgan edi. Endi mardning g‘ayrati kelib, jazavasi qo‘zg‘alib, o‘g‘lining bu so‘zlarini eshitib, bir na’ra tortib yubordi, shu yerda turganlarning ko‘pi et-petidan tushib, aqli shoshib, esidan adashib, ne botirman deganlari turolmay emaklashib, bari birday chuvlashib qoldi...

Shunda Hasanxon G‘irko‘kka qamchi berib, qilichini g‘ilofdan sug‘urib, ot qo‘yib turibdi. Bir yoqda kallar ham choq turibdi. Hasanxon polvon kal jo‘ralariga qarab, otini maydonga haydab, bir so‘z deb turibdi:

Keling, kallar, keching jondan,
Umiding bo‘lsa maydondan,
Siz bir yondan, men bir yondan,
Ot qo‘y g‘animning ustiga...

Oq, qora bosh, yashil tug‘lar
Tikildi maydon ichinda,
O‘mirovli ne polvonlar
Yiqildi maydon ichinda.

o‘mirovli – ko‘krakdor

Bo‘z tuproqqa qirmizi qon
Sepildi maydon ichinda.
Ne go‘zallar qaddi yoyday
Bukildi maydon ichinda.

Oq badandan qizil qonlar
To‘kildi maydon ichinda.
Nayza tegib kirovkalar
So‘tildi maydon ichinda.

kirovka – sovut ichidan kiyiladigan metall nimcha

Qilich kelar yalab-yalab,
G‘arib ko‘ngil istar talab,
Ajallining kafan to‘ni
Bichildi maydon ichinda.

ajalli – ajali yetgan

Qirg‘iy yurar qiyada,
Lochin yotar uyada.
To‘rt kal ham qiladi
Hasanxondan ziyoda.

Endi ko‘ring Aynoqni,
Masxaraboz Jaynoqni,
Qo‘shinning oldin oladi,
Yetganini soladi,
Kimga yetsa shu kallar,
Yetganda ikki bo‘ladi...

Hasan ishin ishladi,
Pastki labin tishladi.
Yig‘ilib kelgan qo‘shinning
Ko‘pini qirib tashladi.
Ozi qoldi, ko‘prog‘i
Qo‘rqib qocha boshladi.
Daladagi zo‘r kallar:
“Turavor!” – deb ushladi.

Yig‘ilib, qo‘rqib elansa,
O‘xshatib uch-to‘rt mushtladi.
Hasan vaqtin xushladi,
Ishni yaxshi ishladi.
Ostidagi G‘irko‘kni
Mard Hasan kishkishladi.
Og‘zin ochib G‘irko‘k ot
Nechovini tishladi.
“O‘zi qirgani ozmidi,
Oti ham urush boshladi...”
Bu so‘zni aytib turgan yov
Tura qocha boshladi...

Endi ko‘ring, Qoraxon
Bo‘lib qoldi sargardon...
Podshoga vahm tushdi,
Endi yuragi shishdi.
Otin minib Qoraxon
Qo‘shindan chiqa qochdi.
Qoraxon shoh uzamay,
Hasanxon ko‘zi tushdi.
G‘irko‘kka qamchi qo‘shdi,
Quvib keynidan tushdi.
Og‘zin ochib G‘irko‘k ot
Qoraxonga yetishdi.

Endi Hasanxon polvon
G‘irko‘k otin yeldirdi,
Zo‘rligini bildirdi,
Quvib yetib ortidan...
Qoraxonni o‘ldirdi...



Sizningcha, nega voqealarning shiddatli tus olishi tafsilotlari she’riy yo‘l orqali ifodalandi? Nasriy yo‘lda ifodalansa, nimalar o‘zgarar edi?

Ana endi Hasanxon polvon Shirvon odamlaridan omon tilaganlariga omon berib, qo‘shinning u yoq-bu yoqqa qochganlari yig‘ilib, hammasi bir yerga uyilib, qilich, sadoqlarini bo‘ynilariga solib kelib, Hasanxon polvonga elanib, yolvorib itoat qildi. El-yurt omon-omon bo‘ldi...

Shirvon kattalari, maslahatdor kayvonilar – kengashboshilar Zulxumorni, Ravshanbekni, Hasan polvonni, to‘rtta jo‘rasi: Aynoq, Jaynoq, Ersak, Tersak kallarni izzat-ikromlar bilan shaharga olib jo‘nadi. Endi Shirvon mamlakatiga... shodiyona qo‘ydirib, Qoraxon podshoning xazina-dafinalarini bo‘shatib, elni yig‘dirib, ochni to‘ydirib, yalang‘ochni kiydirib, balabon, g‘ijjak, karnay, surnay qo‘ydirib, qirq kun to‘y qilib, Zulxumoroyni Ravshanxonga nikoh qilib berdi. To‘y tarqadi. Hasanxon polvon Shirvonning katta-kichigini yig‘ib, shu Shirvonni kallarga topshirdi. Aynoq jo‘rasini Shirvon shahriga podsho qildi, ukalarini vazir, mahram qildi. Zulxumoroyimni... olib, Ravshanxon polvon yo‘lga tushdi...

Hasanxon boshliq necha kun yo‘l yurib, qancha suvsiz cho‘l yurib, ozgina emas, mo‘l yurib, axiri Chambilga yetdilar. Otasi Go‘ro‘g‘libek, enasi Yunus, Misqol parilar, yori Xon Dalli, qirq yigit jo‘rasi bari oldiga chiqib, Hasanxon bilan, Ravshanbek bilan ko‘rishib, hol-ahvol so‘rashib, Zulxumoroyim bilan, necha kaniz qizlari bilan tanishib, izzat-ikromlar bilan Chambilga olib bordilar. Go‘ro‘g‘libek elga odam qo‘yib, Zulxumoroyimga to‘y boshlab, qirq kun to‘y qilib, qancha o‘yin qilib, to‘yni tarqatdi, ko‘p in’om-ehsonlar bilan to‘yni tamom qilib, murod-maqsadlariga yetdi.

Nega Hasanxon o‘g‘li Ravshanbekni Shirvon eliga podsho qilib tayinlamadi? Sizda shunday imkoniyat bo‘lganida, qanday yo‘l tutardingiz?

Topshiriq

Dostondan o‘qilgan parcha asosida jadvalni to‘ldiring. Jadvalning chap tomoniga dostondagi xalq og‘zaki ijodiga xos belgilarni (maqollar, bir xil raqamlar takrori…), o‘ng tomoniga ularning mazmun-mohiyatini yozing.

T/r	Xalq og‘zaki ijodiga xos belgilar	Ularning mazmuni
1.	Qirq kun to‘y berdi…	Dabdabali, uzoq davom etgan to‘y marosimi
2.		
3.		
4.		
5.		

Muhokama qilamiz

1. Dostondagi qaysi obrazlarda odamiylik, do‘stlikka xos xususiyatlarni kuzatdingiz?
2. Sizningcha, dostonga aka-uka kallar obrazi kiritilmaganida voqealar qanday davom etishi mumkin edi?
3. Dostonda aks etgan voqealar tarixda yuz bergan bo‘lishi mumkinmi?
4. Dostondagi sizga qattiq ta’sir qilgan voqea qaysi edi? Sababini izohlang.

Topshiriq

Ravshanga xos xususiyatlarni quyidagi jadvalda ifodalang. Ularga matndan misol keltiring.

Ravshanning xususiyatlari	Misollar
Qahramonlik	
Jasurlik	
Mag‘rurlik	

Ijodiy ish

3 ta kichik guruhga bo‘lining. Hasanxon, Ravshan va aka-uka kallarga xos sifatlarni qiyoslab, quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Qahramon nomi	Fazilat-lari	Qahramon nomi	Fazilat-lari	Qahramon nomi	Fazilat-lari	O‘xshash jihatlari
Hasanxon		Ravshan		Aynoq		



ANTUAN DE SENT-EKZYUPERI (1900–1944)

Dars davomida:

- “Kichkina shahzoda” asarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritamiz;
- majoz haqida nazariy ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Fransuz yozuvchisi, o‘z asarlari bilan jahon adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan Antuan de Sent-Ekzyuperi 1900-yili Fransiyaning Lion shahrida kambag‘allashgan zodagon oilada tug‘ilgan. Uning bolaligi ajdodlaridan meros qolgan, o‘rta asr uslubida qurilgan qasrda o‘tdi. Kichkina Antuan qasr orqasidagi bog‘ va dalalarda sayr qilishni, turli jonzotlarni kuzatishni, ular bilan o‘ynashni yaxshi ko‘rardi.

Tabiatan xayolparast bo‘lgan Antuan o‘zini turli sohalarda sinab ko‘rar: she’r yozar, skripka chalar, rasm chizar, texnikaga ham qiziqar edi. Onasi va buvilari (u otasidan erta yetim qolgandi) erkalab uni “qirol-oftob” deb chaqirishar edi.

Maktabdan keyin oliygohning arxitektura yo‘nalishiga o‘qishga kirgan Antuan kutilmaganda o‘qishni tashlab, harbiy uchuvchi bo‘lishga qaror qildi. Aviatsiyada faoliyatini samolyot tuzatuvchi mexaniklikdan boshlab, keyinchalik samolyot boshqarish huquqini oldi, unga harbiy unvon berildi. Uchuvchi sifatidagi faoliyatining dastlabki oylaridayoq yaralanganiga qaramasdan, keyinchalik samolyotda dunyoning ko‘p joylarini aylanib chiqdi.


1926-yilda Antuan de Sent-Ekzyuperining dastlabki asari – “Uchuvchi” hikoyasi e’lon qilindi. Uning aksariyat asarlari uchuvchilik tajribasidan ilhomlangan tarzda dunyoga keldi. Muallifning “Insonlar sayyorasi” romani Fransiya akademiyasi tomonidan eng yaxshi roman sifatida e’tirof etildi va xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘ldi.

1939-yilda Ikkinchi jahon urushi boshlandi. Urushni boshlagan Germaniyada insonlarni “oliy” va “quyi” toifalarga ajratadigan, o‘zlarini “oliy irq” va dunyoda hukmronlik qilishga haqli deb bilgan natsistlar partiyasi hukmronlik o‘rnatgan edi. 1940-yilda yozuvchining vatani Fransiyani ham natsistlar bosib oldi. Ekzyuperi vatanini tark etib, muhojirlikda yashadi va

harbiy uchuvchi sifatida vatanining ozodligi, insoniyatning natsizm balosidan xalos bo‘lishi uchun kurashdi. 1944-yilda, hali urush ketayotgan bir paytda uning samolyoti bazaga qaytib kelmadi...

MUTOLAADAN OLDIN

“Kichkina shahzoda” asarining o‘zbek tilidagi nashrlaridan birining muqovasi bilan tanishing. O‘ylab ko‘ring-chi, asar nima haqida bo‘lishi mumkin?



Muallif asarni Ikkinchi jahon urushi davom etayotgan, vatanini tark etib, muhojirlikda yashashga majbur bo‘lgan paytida yozgan. Asar qisman muallif boshidan kechirgan voqealarga asoslanadi: bir necha yil oldin Ekzyuperining samolyoti Sahroyi Kabirda halokatga uchragan, bir necha kunlik suvsizlikdan alahsirashni boshlagan uchuvchini oxiri sahroda yashaydigan arablar qutqarib qolgan edi. “Kichkina shahzoda” asari ham sahroda halokatga uchragan va samolyotini tuzata olmay xunob bo‘layotgan uchuvchining oldiga notanish bir bolaning kelishi bilan boshlanadi.

Ma’lum bo‘lishicha, o‘zga sayyoralik bu bola o‘zining jimitdek sayyorasida yolg‘iz yashar ekan. Bir kuni u o‘z uyini tark etishga qaror qiladi, turfa sayyoralar va turfa insonlarni ko‘radi, oxir-oqibat Yer sayyorasiga kelib qoladi. Muallif bu bolakayning sarguzashtlari orqali yaxshilik va yomonlik, do‘stlik, sevgi, sadoqat singari boqiy mavzularni qalamga oladi.



Asarning koreys tilidagi nashriga rassom Kim Min Ji ishlagan surat

Guruhlarda ishlash

Ikki guruhga bo‘linib, quyidagi savollarni muhokama qiling.

1-guruh: O‘ylab ko‘ring-chi, inson dunyoni go‘zal ko‘rishi, har qanday vaziyatda ham inson sifatida qolishi uchun qanday xislatlarga ega bo‘lishi lozim? Sizningcha, buning uchun eng muhim uch xislat qaysi?

2-guruh: Inson dunyoni go‘zal ko‘rishi, har qanday vaziyatda ham inson sifatida qolishi uchun zarur xislatlarni rasmlar orqali ifodalash kerak bo‘lsa, kimning yoki nimaning tasvirini chizgan bo‘lardingiz? Nima uchun?

Xislat	*Bu xislatni ifodalaydigan rasm*
Donishmandlik, chunki donishmand inson har qanday vaziyatda ham o‘ylab ish tutadi, odamiylikni yo‘qotmaydi	Nuroniy kishi tasviri, chunki keksalar odatda ko‘pni ko‘rgan, donishmand bo‘lishadi

Ijodiy ish

Tasavvur qiling, siz ham kichik bir sayyorada yolg‘iz yashaysiz. Uni qanday tasavvur qilasiz? Sayyorangizda qanday qoidalar bo‘ladi? Ana shular haqida “Mening sayyoram” mavzusida 5–7 gapdan iborat ijodiy matn yozib keling.

Asarni o‘qish davomida

Qissada bir qancha obrazlar bilan tanishasiz. Sizningcha, muallif bu obrazlar orqali insonlarga xos qaysi xususiyatlarni ko‘rsatmoqchi bo‘lgan? Ularning qaysi xatti-harakatlari, gap-so‘zlari sizni bunday xulosaga kelishga undadi?

Asarni o‘qish davomida quyidagi jadvalni to‘ldirib boring.

Asardagi obraz	*U orqali muallif insonga xos qaysi xususiyatlarni ko‘rsatmoqchi?*	*Obrazning xatti-harakatlari, gap-so‘zlari*

KICHKINA SHAHZODA

(Asardan parcha)

Leon Vertga

Bu kitobchani katta yoshdagi odamga bag‘ishlaganim uchun bolalardan kechirim so‘rayman. O‘zimni oqlash uchun shuni aytishim mumkinki, bu katta yoshdagi odam mening eng yaxshi do‘stim bo‘ladi. Buning ustiga, u dunyodagi hamma narsani, hatto bolalarga atab chiqarilgan kitobchalarni ham tushunadi. Va nihoyat u Fransiyada yashaydi, u yerda hozir hamma yoq sovuq, ocharchilik, do‘stim esa taskin-tasalliga benihoya muhtoj. Agar bularning barchasi ham meni oqlayolmasa, u holda kitobchamni bir paytlar mana shu katta yoshdagi do‘stimning o‘rnida bo‘lgan kichkina bolakayga bag‘ishlayman. Axir kattalarning hammasi ham avvalboshda yosh bola bo‘lganlar, faqat buni ularning ozginasi biladi, xolos. Shunday qilib, mana, men bag‘ishlovga tuzatish kiritaman:

Leon Vertga – bir paytlar yosh bola bo‘lgan do‘stimga bag‘ishlanadi.

Sizningcha, muallif nima uchun kitobxondan asarni yoshi katta do‘stiga bag‘ishlagani uchun uzr so‘rayapti? Nima uchun bag‘ishlovga “bir paytlar yosh bola bo‘lgan do‘stimga” tarzida tuzatish kirityapti?

Olti yashar paytimda, osuda o‘rmonlar haqida hikoya qiluvchi “Bo‘lgan voqealar” degan kitobda g‘alati bir suratga ko‘zim tushib qoldi. Suratda bahaybat bo‘g‘ma ilonning bir yirtqich hayvonni tiriklay yutayotgani aks ettirilgan edi. Mana o‘sha surat:



Rasmlarni muallifning o‘zi chizgan

Surat tagiga shunday deb yozilgan edi: “Ilon o‘ljasini chaynab o‘tirmay, but-butunicha yutib yuboradi. Shundan keyin u joyidan qimirlay olmay qoladi va to o‘ljasini hazm qilib bo‘lgunicha surunkasiga yarim yil dong qotib uxlaydi”. Men junglidagi sarguzashtlarga to‘la hayot haqida uzoq xayol surdim, so‘ng qalam bilan umrimda birinchi marta rasm chizdim. Bu mening 1-raqamli rasmim edi. Mana, men chizgan narsa:



jungli – changalzor o‘rmon

Ijodim namunasini kattalarga ko‘rsatib, “Qo‘rqinchli emasmi?” deb so‘radim.

– Shlyapaning nimasi qo‘rqinchli ekan? – deb e’tiroz bildirishdi menga.

Ammo rasmdagi narsa sirayam shlyapa emas edi. Bu – filni tiriklay yutib yuborgan bo‘g‘ma ilon edi. O‘shanda kattalarga tushunarli bo‘lsin deb ilonning ichki ko‘rinishini ham chizdim.



Axir kattalarga hamma narsani doim tushuntirib berish kerak-da. Bu mening 2-raqamli rasmim edi.

Kattalar menga ilonlarning ichki-yu tashqi ko‘rinishini chizish o‘rniga jug‘rofiya, tarix, arifmetika va husnixatni ko‘proq o‘rganishni maslahat berishdi. Ana shundan keyin, olti yashar paytimda rassomlikning porloq istiqbolidan voz kechishga majbur bo‘ldim. 1- va 2-raqamli rasmlarim muvaffaqiyatsizlikka uchragach, o‘zimga nisbatan ishonchni yo‘qotdim. Kattalar hech qachon o‘zlaricha biron narsani tushuna olmaydilar, ularga hadeb hijjalab tushuntirib beraverish esa oxir-oqibat bolalarning ham joniga tegib ketadi.

jug‘rofiya – geografiya
arifmetika – hisob-kitob

Shunday qilib, boshqa kasb tanlashimga to‘g‘ri keldi-yu uchuvchilikni o‘rganib oldim. Osmon-u falak bo‘ylab qariyb butun dunyoni kezib chiqdim. Ochig‘ini aytish kerak, jug‘rofiya menga juda qo‘l keldi. Bir qarashdayoq Xitoyni Arizona shtatidan ajrata oladigan bo‘ldim. Kechasi samoda adashib ketsang, bu benihoya asqatadi-da.

Arizona – AQShdagi shtat

Umrim davomida turli-tuman jiddiy odamlarni uchratdim. Kattalar orasida uzoq vaqt yashadim. Ularni yaqindan ko‘rdim, bildim va bundan, tan olishim kerakki, ular haqidagi fikrim yaxshi tomonga o‘zgarmadi.

Kattalar orasida boshqalardan ko‘ra aqlli va farosatliroq biror kishini uchratganimda unga 1-raqamli rasmimni ko‘rsatardim – men uni asrab qo‘ygan edim, doim yonimda olib yurardim. Bu odam chindan ham biror nimani tushunadimi-yo‘qmi – sinab ko‘rmoqchi bo‘lardim. Ularning barchasi rasmga qarab turib: “Shlyapa-ku bu”, – derdi. Shundan keyin men ularga na bo‘g‘ma ilonlar, na junglilar, na yulduzlar haqida og‘iz ochardim. Ularning tushunchalariga moslashardim-da, brij va golf o‘yinlari haqida, siyosat va bo‘yinbog‘lar haqida gap boshlardim. Shunda kattalar menday bama’ni odam bilan tanishganlaridan behad mamnun bo‘lar edilar.

brij – qarta o‘yini
golf – sportning bir turi

Muallif bolaligida chizgan suratlarni kattalar nima uchun tushunishmadi? Sizningcha, muallif bu bilan bolalar va kattalar o‘rtasidagi qanday farqlarni ko‘rsatmoqchi?

Men shu tariqa yolg‘izlikda yashardim, dilimni anglaydigan biror hamdardim yo‘q edi... Olti yil muqaddam samolyotimning motori buzilib, Sahroyi Kabirga qo‘nishga majbur bo‘ldim. Yonimda na mexanik, na bironta hamroh bor edi. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, samolyotni amallab bir o‘zim tuzatishga ahd qildim. Yo motorni tuzataman, yo halok bo‘laman. Bir haftaga bazo‘r yetadigan suv qolgan.

mexanik – avtomobil, samolyot singari texnikalarni tuzatadigan usta

Shunday qilib, birinchi kechani huvullab yotgan sahroda, qum ustiga uzala tushib o‘tkazdim. Minglab chaqirim narida ham tirik jon asari sezilmasdi. Kemasi halokatga uchrab, bepoyon okeanda sol uzra suzib borayotgan odam ham menchalik yolg‘iz bo‘lmagandir. Shu bois tong saharda meni kimningdir ingichka ovozi uyg‘otib yuborganda naqadar hayratga tushganimni tasavvur ham qilolmasangiz kerak.

sol – bir-biriga arqon bilan biriktirilgan xodalardan iborat tashish vositasi

– Iltimos... menga qo‘zichoq chizib ber! – degan qo‘ng‘iroqdek tovush yangradi yonginamda.

– A?..

– Menga qo‘zichoq chizib ber...

Tepamdan go‘yo yashin urgandek sapchib o‘rnimdan turdim. Apil-tapil ko‘zlarimni ishqalab, atrofga alangladim. Qarasam – ro‘paramda allaqanday g‘aroyib bir bolakay menga jiddiy tikilib turibdi. Mana, uning eng yaxshi surati, men uni keyin chizishga muvaffaq bo‘ldim.



Albatta, bu rasmda u aslidagidek yaxshi chiqmagan. Nachora, bunga men aybdor emasman. Olti yashar paytimda kattalar sendan rassom chiqmaydi deb rosa miyamga quyishgani uchun men bo‘g‘ma ilonlarning ichki va tashqi ko‘rinishidan boshqa narsani chizishni o‘rgana olmadim.

Shunday qilib desangiz, ko‘zlarimni katta-katta ochgancha bu g‘aroyib bolakayga qarab turardim. Odamzod makonidan minglab chaqirim olisdagi yaydoq biyobonda ekanim yodingizdan chiqmagandir. Shunisi g‘alatiki, bu bolaning aft-angoriga qarab, adashib qolgan yoki nihoyatda horib-charchagan, qo‘rquvdan yuragi yorilib, ochlik va tashnalikdan o‘lar holga yetgan deb bo‘lmasdi. Kimsasiz sahroda, inson qadami tegmagan cho‘l-u biyobonda daf’atan paydo bo‘lib qolgan bu bolaning ko‘rinishidan bunday fikrlarni xayolga ham keltirish mumkin emasdi. Nihoyat menga yana til ato bo‘lib, asta so‘radim:

yaydoq – hech narsa o‘smaydigan joy

– Lekin... sen bu yerda nima qilib yuribsan?

U tag‘in ohistalik bilan va g‘oyat jiddiy ohangda:

– Iltimos... qo‘zichoq chizib ber... – dedi.

Bularning barchasi shu qadar sirli, anglab bo‘lmas bir tarzda ro‘y berayotgan ediki, rad qilishga jur’atim yetmadi. Jazirama sahro qo‘ynida, hayotim qil ustida turgan bir pallada qanchalik bema’ni ko‘rinmasin, cho‘ntagimdan qog‘oz-qalam oldim-u, lekin shu zahoti o‘zimning asosan jug‘rofiya, tarix, arifmetika va husnixatni o‘rganganim lop etib esimga tushdi-da, bolakayga qarab (hatto biroz achchiqlanib) rasm chizishni bilmasligimni aytdim. Bu gapimga u:

jazirama – juda issiq

– Baribir qo‘zichoq chizib ber, – deb javob qildi.

Men umrimda qo‘zichoq rasmini chizib ko‘rmaganim uchun o‘zim bilgan o‘sha eski ikkita suratdan birini – bo‘g‘ma ilonning tashqi ko‘rinishini chizib ko‘rsatdim. Ammo bolakay rasmni ko‘rib:



– Yo‘q, yo‘q! Menga ilon ham, fil ham kerak emas! Ilon haddan tashqari xavfli, fil esa haddan tashqari katta. Mening uyimdagi narsalarning hammasi kichkina. Menga qo‘zichoq kerak, qo‘zichoq chizib ber, – deb xitob qilganida nihoyatda hayron qoldim-da, shu rasmni chizib berdim:



U rasmni sinchiklab ko‘zdan kechirgach:

– Yo‘q, bu qo‘zichoq judayam oriq-ku, – dedi. – Boshqasini chizib ber.

Men boshqa qo‘zichoq rasmini chizdim:

Yangi do‘stim xushfe’llik bilan muloyim jilmayib qo‘ydi.

– Bu qo‘zichoq emas-ku, – dedi u. – O‘zing ham ko‘rib turibsan-a, qo‘chqor-ku bu. Ana, shoxiyam bor...


Kichkina shahzoda nima uchun aynan qo‘zichoq chizib berishni so‘radi? Qo‘zichoqda qanday ramziy ma’no bor?



Men qo‘zichoqni tag‘in boshqatdan chizdim. Biroq bu rasm ham unga ma’qul bo‘lmadi:

– E, bu o‘lguday qari-ku. Menga uzoq yashaydigan qo‘zichoq kerak.

Endi sabr-toqatim tugadi. Axir tezroq motorni tuzatish kerak edi-da! Shuning uchun apil-tapil mana shu narsani chizib tashladim. Keyin bolaga qarab:



– Mana senga quticha. Qo‘zichog‘ing shuning ichida yotibdi, – dedim.

Shunda meni butkul lol qoldirib, bu talabchan hakam gul-gul yashnab ketdi:

– Menga xuddi shunaqasi kerak edi-da! U ko‘p o‘t yermikan, nima deysan-a?

– Nima edi?

– Axir mening uyimda unchalik serobgarchilik emas-da.

– Unga ko‘p narsa kerak emas. Men senga judayam kichkina bir qo‘zichoq beraman.

– U judayam kichkina emas... – dedi u boshini egib, rasmga termilarkan. – Qara! U uxlab qoldi...

Men Kichkina shahzoda bilan shu tariqa tanishdim.

Asar muallifi bolaligida chizgan suratni tushunmagan kattalar bilan uchuvchi o‘rtasida farq bormi?

* * *

...Xuddi shu payt ro‘parasida Tulki paydo bo‘ldi.

– Salom, – dedi u.

– Salom, – deya alik oldi Kichkina shahzoda xushfe’llik bilan, biroq tevarak-atrofiga alanglab, hech kimni ko‘rmadi.

– Men bu yerdaman, – degan ovoz eshitildi yana. – Daraxtning tagidaman...

– Sen kimsan? – deb so‘radi Kichkina shahzoda. – Bunchayam chiroylisan!

– Men – tulkiman, – dedi Tulki.

– Men bilan o‘ynagin, – deb o‘tindi Kichkina shahzoda. – Bilsang, hozir shu qadar xafamanki...

– Sen bilan o‘ynayolmayman, – dedi Tulki. – Men qo‘lga o‘rgatilmaganman.

– E, kechirasan, bo‘lmasa, – dedi Kichkina shahzoda, ammo biroz o‘ylanib:

– “Qo‘lga o‘rgatilmagan” degani nima? – deb so‘radi.

– Bu yerlik emas ekansan-da, – dedi Tulki. – Nima izlab yuribsan bu joylarda?

– Odamlarni izlayapman, – dedi Kichkina shahzoda. – “Qo‘lga o‘rgatish” degani nima?

– Odamlarni izlayapman degin? Ularning yonida quroli bo‘ladi, shuni taqib ovga chiqishadi. Juda chatoq-da shunisi. Ular tovuq ham boqishadi. Yagona ma’qul ishi shu ularning. Sen tovuq izlamayapsanmi?

– Yo‘q – dedi Kichkina shahzoda. – Men do‘st izlab yuribman. Xo‘sh, “qo‘lga o‘rgatish” degani nima?

– Bu allaqachonlar unut bo‘lib ketgan tushuncha, – deb tushuntirdi Tulki. – Bu degani rishta bog‘lamoq demakdir.

Tulkining “Qo‘lga o‘rgatmoq – rishta bog‘lamoqdir” degan fikriga qo‘shilasizmi?

– Rishta bog‘lamoq?

– Xuddi shunday, – dedi Tulki. – Hozir sen men uchun dunyodagi o‘zingga o‘xshagan yuz ming bolaning birisan xolos. Hozircha sen menga kerak emassan, men ham senga kerak emasman. Men ham senga hozir dunyodagi yuz minglab tulkining biriman xolos.

Ammo bordi-yu, sen meni qo‘lga o‘rgatsang, ikkimiz bir-birimizga kerak bo‘lib qolamiz. Sen men uchun dunyodagi yagona odamga aylanasan. Men ham sen uchun dunyoda yagonaga aylanaman...

– Tushungandek bo‘lyapman, – dedi Kichkina shahzoda. – Bir gul bor edi... chamasi, u meni qo‘lga o‘rgatgan ekan...

– Bo‘lishi mumkin, – deb tasdiqladi Tulki. – Yer yuzida nimalar bo‘lmaydi, deysan.

– Bu voqea Yerda bo‘lmagan, – dedi Kichkina shahzoda.

Tulki hayron qoldi:

– Qayerda bo‘lgan? Boshqa sayyoradami?

– Ha.

– O‘sha sayyorada ham ovchilar bormi?

– Yo‘q.

– E, soz ekan-ku! Tovuq bormi?

– Yo‘q.

– Bir kam dunyo degani shu ekan-da! – deb xo‘rsindi Tulki. Ammo zum o‘tmay, tag‘in so‘z boshladi: – Hayotim judayam zerikarli. Men tovuqni poylayman, odamlar esa meni poylaydi. Tovuqniyam hammasi bir xil, odamniyam. Shuning uchun hayotim mudom zerikish bilan o‘tadi. Agar sen meni qo‘lga o‘rgatsang, qorong‘i turmushimga nur kirardi. Shunda sening oyoq tovushlaringni men minglab odam ichidan ajrata oladigan bo‘laman. Hozir odam sharpasini sezsam, bas, darhol bekinish payiga tushaman. Ammo meni qo‘lga o‘rgatsang bormi, qadam olishing xuddi ohanrabo yanglig‘ meni o‘ziga chorlaydi-yu, yashirinib yotgan joyimdan istiqbolingga yugurib chiqaman. Undan keyin, huv anavi bug‘doyzorni ko‘ryapsanmi? Qara, bug‘doy g‘arq pishib yotibdi. Men don-dun yemayman, g‘alla bilan ishim yo‘q. Bug‘doyzor dalalarning men uchun hech qanday ma’nosi yo‘q. Buning qanchalar qayg‘uli ekanini bilsang edi! Sening sochlaring ajoyib, tillarang tovlanadi. Agar meni qo‘lga o‘rgatsang, shunday

soz bo‘ladiki! Oltin tusli bug‘doyzor endi menga seni eslata boshlaydi. Va shunda men boshoqlarning shamolda chayqalishini yaxshi ko‘rib qolaman...

Tulki jimib qoldi, Kichkina shahzodaga uzoq termildi, nihoyat:

– Iltimos... meni qo‘lga o‘rgatgin, – dedi.

Tulkining Kichkina shahzoda bilan rishta bog‘lashga ishtiyoqi sababini qanday izohlaysiz?

– Jonim bilan o‘rgatardim-u, – dedi Kichkina shahzoda, – lekin vaqtim ziqroq-da. Men hali do‘stlar orttirishim, juda ko‘p narsalarni bilib olishim kerak.

– Faqat qo‘lga o‘rgatilgan narsalarnigina bilib olish mumkin, – dedi Tulki. – Hozir odamlarning biror narsani bilishga vaqti qolmagan. Hamma narsani tayyorligicha magazindan olishadi. Lekin do‘st sotadigan magazin yo‘q-da, shuning uchun ham odamlar endi do‘st orttirmaydi. Agar do‘st orttirmoqchi bo‘lsang, meni qo‘lga o‘rgataqol!

Xo‘p, buning uchun nima qilish kerak? – deb so‘radi Kichkina shahzoda.

– Sabr-toqatni bir joyga yig‘ish kerak, – deb javob berdi Tulki. – Dastlab, sal uzoqroqda, huv anavi yerdagi maysaning ustiga kelib o‘tirasan. Men senga avval biroz hadiksirab qarayman, sen bunga indamaysan, maylimi? Chunki so‘z bir-birimizni anglashimizga xalaqit beradi xolos. Keyin esa kun sayin asta-sekin yaqinroq kelib o‘tiraverasan...

Ertasiga Kichkina shahzoda yana shu joyga keldi.

– Yaxshisi, har kuni bir paytda kela qolgin, – deb iltimos qildi Tulki. – Masalan, agar soat to‘rtda keladigan bo‘lsang, men soat uchdan o‘zimni baxtiyor his qila boshlayman. Muddat yaqinlashgani sari bu quvonch orta boradi. Soat to‘rtda esa yuragim hayajonga to‘lib, shodumonlik bilan tepa boshlaydi. Ana shundagina men baxt-saodatning qadrini sezaman! Bordi-yu, sen har kuni har xil vaqtda keladigan bo‘lsang, meni bu baxtiyorlik tuyg‘usidan mahrum qilasan...

Shu tariqa Kichkina shahzoda Tulkini qo‘lga o‘rgatdi. Mana, nihoyat ayriliq chog‘i ham yetdi.

– Endi seni eslab yig‘lab yuraman, – deya xo‘rsindi Tulki.

– Ayb o‘zingda, – dedi Kichkina shahzoda. – Seni ranjitishni sira-sira istamasdim, axir o‘zing aytgan eding-ku, meni qo‘lga o‘rgat, deb...

– Ha, albatta, – dedi Tulki.

– Lekin yig‘layman, deyapsan-ku!

– Albatta yig‘layman-da.

– Demak, seni qo‘lga o‘rgatib noto‘g‘ri qilibman-da?

– Yo‘q, – deb bosh chayqadi Tulki, – bundan xafa emasman. Esingdami, oltin boshoq haqida senga aytgan gaplarim? – U jimib qoldi, oradan sal o‘tgach, tag‘in qo‘shib qo‘ydi: – O‘sha gulzorga yana bir marta borib qaragin, feruza gulingning olamda chindan ham yagona ekaniga ishonch hosil qilasan. Qaytib kelganingdan so‘ng, xayrlashar chog‘i seni yana bir sirdan ogoh etaman. Mayli, bu senga mendan hadya bo‘lsin.

Kichkina shahzoda chamanzorga qarab ketdi.

– Sizlar mening feruza gulimga sirayam o‘xshamaysizlar, – dedi ularga. – Sizlar hali hech nima emassizlar, chunki sizlarni biror kimsa qo‘lga o‘rgatgan emas, sizlar ham biror kimsani qo‘lga o‘rgatgan emassizlar. Mening Tulkim ham avval shunday edi, yuz minglab boshqa tulkilardan aslo farqi yo‘q edi. Ammo men u bilan do‘st tutindim, endi u men uchun yorug‘ olamdagi yagona tulkiga aylandi.

Gullar xijolatdan qip-qizarib ketishdi.

– Sizlar chiroylisizlar, ammo dilingiz bo‘m-bo‘sh, – deya davom etdi Kichkina shahzoda. – Sizlarni deb odamning qurbon bo‘lgisi kelmaydi. Albatta, feruza gulimga tasodifan ko‘zi tushib qolgan o‘tkinchi uni so‘zsiz sizlarga o‘xshaydi, deb aytishi mumkin. Ammo uning yolg‘iz o‘zi menga sizlarning barchangizdan ko‘ra qadrliroq. Chunki men har kuni sizlarni emas, uni sug‘organman-da. Parda tortib, shisha qalpoq tutib sizlarni emas, uni izg‘irin-u sovuqlardan asrab-avaylaganman. Uni deb, kapalaklar tezroq ochib chiqib u bilan o‘ynasin deb g‘umbaklar olib kelganman. Men uning arz-u dodini ham, noz-u firog‘ini ham eshitganman, hatto sukutga cho‘mgan chog‘larida ham ko‘nglini sezib turganman. U meniki, u mening yolg‘izim, yagonam...

Shundan so‘ng Kichkina shahzoda Tulkining yoniga qaytib keldi:

– Xayr, yaxshi qol... – dedi u.

– Xayr, yaxshi bor, – dedi Tulki. – Mana senga aytmoqchi bo‘lgan sirli gapim: faqat ko‘ngil ko‘zigina ochiq, eng asosiy narsani ko‘z bilan ko‘rolmaysan.

– Eng asosiy narsani ko‘z bilan ko‘rolmaysan, – deb takrorladi Kichkina shahzoda bu hikmatni eslab qolish uchun.

– Guling senga shuning uchun ham qadrliki, unga ko‘nglingni bergansan.

– Chunki unga ko‘nglimni berganman... – deb takrorladi Kichkina shahzoda yaxshiroq eslab qolish uchun.

– Odamlar bir haqiqatni unutdilar, – dedi Tulki, – ammo sen aslo yodingdan chiqarma: kimniki qo‘lga o‘rgatgan bo‘lsang, uning taqdiriga hamisha javobgarsan. Unutma, feruza guling uchun ham javobgarsan.

– Feruza gulim uchun javobgarman... – deb takrorladi Kichkina shahzoda yaxshiroq eslab qolish uchun...

Muhokama qilamiz

1. Bola turli xarakterga ega kattalar bilan uchrashgan, uzoq vaqt birga yashagan bo‘lsa ham, ular haqida fikri nega ijobiy tomonga o‘zgarmagan deb o‘ylaysiz?
2. Filni yutib yuborgan ilon suratini odamlar shlyapa deb o‘ylashi tasviriga qanday ramziy ma’no yuklangan? Javobingizni izohlang.
3. Nega bolakayga uchuvchi chizgan qo‘zichoqlar emas, aynan quticha ichidagisi yoqqan bo‘lishi mumkin?
4. Tulki bilan suhbatdan Kichkina shahzodaga xos qaysi xususiyatlarni kuzatdingiz?
5. Nima uchun feruza gul Kichkina shahzoda uchun hamma narsadan qadrli? Feruza gulning boshqa gullar bilan qiyosidan nimalarni angladingiz?
6. Siz o‘zingizni kimlar uchun javobgar deb hisoblaysiz? Fikringizni hayotiy misollar bilan dalillang.

Ijodiy ish

Tasavvur qiling, Kichkina shahzoda bugun Yerga qaytib keldi. Zamonaviy dunyoga moslashishi osonroq kechishi uchun siz unga qanday maslahatlar bergan bo‘lardingiz? Yozib keling.

* * *



Uning qayerdan paydo bo‘lganini hadeganda bilib ololmadim. Kichkina shahzoda meni savollarga ko‘mib tashlar, ammo o‘zidan biror nimani so‘rasam, eshitmaganga olar edi. Faqat anchadan keyin gap orasida tasodifan aytib qolgan ba’zi so‘zlaridan uning sirli tashrifi birmuncha oydinlashdi. Masalan, samolyotimni birinchi marta ko‘rganida (samolyot rasmini chizib o‘tirmayman, negaki buni baribir eplayolmayman) u shunday deb so‘radi:

– Bu qanaqa narsa?

– Bu narsa emas, samolyot. Mening samolyotim, u uchadi.

Keyin unga osmon-u falakda uchish qo‘limdan kelishini faxrlanib aytdim. Shunda u:

– E, shoshma! Sen hali osmondan qulab tushdingmi? – deya xitob qilib qoldi.

– Ha, – dedim kamtarlik bilan.

– Ana xolos! Qiziq-ku!..

Kichkina shahzoda shunday deb qo‘ng‘iroqdek tovush bilan kulib yubordi. Buni ko‘rib picha achchig‘im chiqdi: axir men boshimga kulfat tushganda odamlar bunga jiddiy munosabatda bo‘lishlarini yoqtiraman-da. Birozdan keyin u:

– Demak, sen ham osmondan tushib kelibsan-da, – dedi. – Xo‘sh, qaysi sayyoradan kelding?

“E, bu kimsasiz sahroda to‘satdan qayerdan paydo bo‘lib qoldi, desam, gap bu yoqda ekan-da!” – deb o‘yladim o‘zimcha va dabdurustdan:



– Bundan chiqdi, sen bu yerga boshqa sayyoradan tushib kelibsan-da? – deb so‘radim. Biroq u savolimga javob bermadi. Samolyotimni ko‘zdan kechirarkan, asta bosh chayqadi:

– He, buning bilan uzoqdan uchib kelolmaysan, ko‘rinib turibdi...

So‘ng nima haqdadir xiyla o‘ylanib qoldi. Keyin cho‘ntagidan men chizib bergan boyagi qo‘zichoqni olib, uni go‘yo qimmatbaho xazinadek tomosha qilishga kirishdi.

“Boshqa sayyoralar” xususidagi bu chala-yarim e’tirofdan so‘ng ko‘nglimdagi qiziqish hissi naqadar alanga olib ketganini tasavvur qila olsangiz kerak. Iloji boricha ko‘proq narsa bilib olish niyatida ustma-ust savol yog‘dira ketdim:

– Sen qayoqdan uchib kelding, bolakay? Uying qayerda o‘zi? Qo‘zichog‘imni qayoqqa olib ketmoqchisan?

U o‘yga cho‘mgancha jimib qoldi-da, keyin:

– Menga quticha berganing juda soz bo‘ldi-da, qo‘zichoq kechasi uning ichida uxlaydi, – dedi.

– Albatta. Agar aqlli bola bo‘lsang, senga arqon ham hadya qilaman – qo‘zichoqni kunduzlari bog‘lab qo‘yasan. Qoziq ham beraman.

Kichkina shahzodaning qoshlari chimirildi:

– Bog‘lab qo‘yasan? Nima keragi bor buning?

– Chunki bog‘lab qo‘ymasang, u biron yoqqa ketib, adashib qoladi.

Buni eshitib, do‘stim xandon otib kulib yubordi:

– E, qayoqqayam ketardi u?

– Bilib bo‘lmaydi-da. Boshi og‘gan tomonga ketaveradi, ketaveradi.

Shunda Kichkina shahzoda jiddiy tortib:

– Mayli, hechqisi yo‘q, – dedi. – Axir men yashaydigan joy nihoyatda kichkina... – Birozdan so‘ng anduh bilan qo‘shib qo‘ydi:

– Boshing og‘gan tomonga ketaverganing bilan uzoqqa ketolmaysan...

Kichkina shahzoda qushlar bilan koinot bo‘ylab sayr etishga qaror qiladi. Uning sayyorasi yaqinida bir nechta asteroid bor edi. Uning birida qirol, ikkinchisida shuhratparast, uchinchisida piyonista, to‘rtinchisida korchalon, beshinchisida chirog‘bon, oltinchisida esa jug‘rofiy olim yashar edi. Kichkina shahzoda bu asteroidlarning har birida bo‘lib, ularda yashovchi kimsalar bilan suhbatlashadi. Biroq bu suhbatlarning hech biridan uning ko‘ngli taskin topmaydi va u o‘z sayohatini yettinchi sayyora – Yerda davom ettiradi. Kichkina shahzoda Yerda ancha kezib yuradi; tog‘ cho‘qqilariga chiqadi, qum barxanlari, muzliklardan, chamanzorlardan o‘tadi, bir tulki bilan tanishadi, bekat nazoratchisi bilan suhbatlashadi. Nihoyat, qissa boshida aytilganidek, samolyoti buzilib, sahroga qo‘nishga majbur bo‘lgan uchuvchiga duch kelib qoladi.

korchalon – o‘zini hammadan bilimdon deb hisoblovchi, bilarmon; mahmadona

* * *

Falokatga uchraganimga rosa bir hafta bo‘lgan edi, g‘aroyib ichimlik sotadigan savdogar haqida eshitgach, so‘nggi qultum suvimni ichib tugatdim.

– Ha-a, – dedim Kichkina shahzodaga qarab, – bu aytgan gaplaring hammasi qiziq, ammo men hali samolyotimni tuzatolganim yo‘q. Mana, ko‘rding, oxirgi tomchi suvni ham quritdim, agar to‘ppa-to‘g‘ri buloq boshiga borib qolsam, men ham o‘zimni behad baxtiyor hisoblardim.

– Men do‘st bo‘lgan tulki aytardiki...

– Azizim, hozir tulki-pulking qulog‘imga kirmaydi!

– Nega?

– Chunki tashnalikdan o‘lib ketishimga ko‘zim yetib turibdi...

U gap nimadaligini baribir tushunmadi-da, yana e’tiroz bildirdi:

– Do‘sting bo‘lsa yaxshi-da, qo‘rqmay o‘limga ham boraversang bo‘ladi. Mana men tulki bilan do‘st bo‘lganimdan shunday xursandmanki...

“Qanday dahshatli: balo xavf solib turganini u sezmaydiyam, bilmaydiyam. Umrida na ochlikni, na tashnalikni ko‘rgan. Unga quyosh nurining o‘zi kifoya...” Men buni tovush chiqarib aytmadim, o‘zimcha o‘yladim xolos. Biroq Kichkina shahzoda menga qaradi-da, to‘satdan:

– Men ham chanqadim... Yur, quduq qidirib ko‘ramiz, – dedi.

Men horg‘in qo‘l siltadim: bu poyonsiz sahroda tusmollab quduq izlashdan nima ma’no bor? Ammo baribir yo‘lga tushdik. Uzoq vaqt bir-birimizga churq etmay bordik, nihoyat qorong‘i tushib, osmonda birin-ketin yulduzlar charaqlay boshladi.

tusmollamoq – taxminga asoslanmoq, taxmin asosida ish ko‘rmoq

Tashnalikning zo‘ridan meni biroz bezgak ham tutmoqda edi, shu bois yulduzlarni tushdagidek elas-elas ko‘rardim. Kichkina shahzodaning gapi yodimga tushib, so‘radim:

– Demak, tashnalik nimaligini sen ham bilar ekansan-da?

Biroq u indamadi, faqat shunchaki so‘zlagandek:

– Suv ba’zan yurakka ham kerak bo‘ladi... – deb qo‘ydi.

Uning nima demoqchiligini tushunmadim-u, so‘rab o‘tirmadim – uni so‘roq qilishning behuda ekanini yaxshi bilardim.

U nihoyat holdan toyib, qumga muk tushib o‘tirdi. Men ham yoniga ohista cho‘zildim. Allamahalgacha hech birimiz churq etmadik. Bir payt u sekingina:

muk tushmoq – boshini juda quyi solib engashmoq

– Yulduzlar judayam chiroyli, chunki qayeridadir guli bor, faqat ko‘rinmaydi, xolos, – deb qoldi.

– Ha, albatta, – dedim men oy yog‘dusida tovlanib yotgan qum to‘lqinlariga tikilgancha.

– Sahro ham chiroyli... – deb qo‘shib qo‘ydi Kichkina shahzoda.

Bu gap chindan ham to‘g‘ri edi. Sahro menga hamisha yoqadi. Qum barxaniga chiqib o‘tirasan, hech narsa ko‘rinmaydi, hech narsa eshitilmaydi, ammo baribir sahro qo‘ynida nimadir bilinar-bilinmas yaltiraydi...

– Bilasanmi, sahro nima uchun yaxshi? – dedi u. – Chunki uning bag‘rida, ko‘z ilg‘amas allaqayerlarida buloqlar yashiringan bo‘ladi...

Hayratdan qotib qoldim. Birdaniga qumlardan taralib yotadigan sirli yog‘duning nima ekanini angladim. Bir paytlar, yosh bola chog‘imda ko‘hna bir uyda yashardim. Naql qilishlaricha, bu uyga katta bir xazina ko‘milgan ekan. Ravshanki, uni biror kimsa hech qachon topib ololmadi, kim bilsin, balki, biror kimsa hech qachon qidirib ham ko‘rmagandir. Ammo o‘sha mish-mish tufayli uy go‘yo tilsim qilingandek sehrli ko‘rinardi – uning bag‘rida sir pinhon edi...

– Haa, – dedim ohista, – yulduzmi, uymi, sahromi, nimaiki bo‘lmasin, undagi eng go‘zal narsa – ko‘zga ko‘rinmaydigan narsadir.

“*Eng go‘zal narsa – ko‘zga ko‘rinmaydigan narsa*” deganda uchuvchi nimani nazarda tutgan?

– Do‘stim tulki bilan hamfikr ekansan, judayam xursand bo‘ldim, – dedi Kichkina shahzoda quvonib.

Saldan keyin u uxlab qoldi. Men uni qo‘limda ko‘targancha yo‘lda davom etdim. O‘z-o‘zimdan hayajonlanib ketgan edim. Nazarimda, qo‘limda nafis bir xazinani ko‘tarib borayotgandek edim. Nazarimda, Yer yuzida bundan ko‘ra nozik va nafisroq hech narsa yo‘qdek tuyulardi. Oy yog‘dusida uning bo‘zdek oqargan manglayiga, yumuq mijjalariga, shamolda to‘zg‘ib yotgan tillarang kokillariga termilib borarkanman, o‘zimga o‘zim bularning barchasi – shunchaki qobiq, der edim. Eng asosiy narsani ko‘z ilg‘amaydi, u siyratda, botinda pinhon...

Uning xiyol ochiq lablarida tabassum o‘ynardi, bunga tikilib turib o‘zimcha yana shunday deb o‘yladim: mana, Kichkina shahzoda beozorgina uxlab yotibdi, feruza guliga shunchalar sadoqatliki, odamning beixtiyor ko‘ngli erib ketadi, gulining yodi-xayoli sham shu’lasining sharpasidek uni biron zum, hatto uyqusida ham tark etmaydi... Va shunda men uning

aslidagidan ham ko‘ra nozikroq ekanini angladim. Axir sham shu’lasini ehtiyot qilish kerak – quturgan shamol uni o‘chirib qo‘yishi mumkin. Alqissa, shu tariqa yo‘l yurdim-u mo‘l yurdim va tong chog‘i bir quduq boshiga yetib bordim.

Xayriddin Sultonov tarjimasi

Muhokama qilamiz

1. Muallif asarni Ikkinchi jahon urushi yillarida, ezgulik va yovuzlik o‘rtasida kurash kechayotgan paytda, vatandan uzoqda yozgani sabablari nimada?
2. Asarda nega kattalar va bolalar olami bir-biriga qarshi qo‘yiladi? Uchuvchi kattalar olamiga mansubmi yoki bolalar olamiga? Nega muallif Kichkina shahzoda do‘stlashgan yagona inson sifatida uchuvchini tasvirlagan? Nima deb o‘ylaysiz, Kichkina shahzoda va uchuvchi ... bir inson bo‘lishi mumkinmi?
3. Nima uchun muallif asar voqealarini uchuvchi tilidan hikoya qilishni tanlagan? Voqealar Kichkina shahzoda tilidan bayon qilinganda asar qanday o‘zgarar edi?
4. Asar muallifi do‘stlik, sadoqat va javobgarlik deganda nimalarni tushunadi? Bu tushunchalarni ochib berish uchun muallif qanday obrazlarga va ishoralarga murojaat qiladi?
5. Asardan sizga eng kuchli ta’sir qilgan iqtibosni tanlang. Bu iqtibos asarning qaysi o‘rnida va kimning tilidan aytiladi? Nima uchun aynan shu iqtibosni tanladingiz?

Tavsiya



Asarning to‘liq matni bilan quyidagi havola orqali tanishishingiz mumkin.

2

Tavsiya

Fransiya kinoijodkorlari yaratgan “Kichkina shahzoda” multfilmida (2015-yil) keksayib qolgan uchuvchi va uning qizaloq do‘sti Kichkina shahzodani qidirib yo‘lga tushishadi. Ushbu multfilmni internet manbalaridan topib, tomosha qiling.



Nazariy ma’lumot

MAJOZ

Majoz ramzning bir ko‘rinishi bo‘lib, voqea-hodisa yoki narsa-buyumning mavhum tushunchasi o‘rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so‘z (obraz)ni qo‘llash, ya’ni adabiy asarda o‘quvchiga noaniq bo‘lgan tushunchani ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usulidir. Badiiy adabiyotdagi ko‘pchilik majoziy obrazlar folklordan, asosan, hayvonlar haqidagi ertaklardan olingan (bo‘ri – ochko‘zlik, tulki – ayyorlik timsoli kabi). Majoz turli janrlarda, ayniqsa, masal, rivoyat, hajv kabilarda keng qo‘llanadi. Masalan, “Ninachi va chumoli” masalida ninachi yozni o‘yin-kulgi bilan o‘tkazadi, ertangi kunini o‘ylamaydi, qishga ovqat g‘amlayotgan chumolining ustidan kuladi. Qish kelganda esa chumolidan yordam so‘rashga majbur bo‘ladi. Bu masal orqali muallif donishmandlik, mehnatsevarlik, ertangi kunni o‘ylash hamda o‘yinqaroqlik, yengiltaklik, boqibeg‘amlik kabi tushunchalarni chumoli va ninachi obrazlarida ifodalagan.



“Kichkina shahzoda” – majoziy asar. Undagi har bir obraz orqali muallif biror bir g‘oyani o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘ladi. Masalan, Kichkina shahzoda borgan sayyoralardan birida yashovchi qirol bir o‘zi yashasa-da, buyruqlar beradi, “Quyosh mening amrim bilan botyapti”, deydi. Aslida, atrofdagi voqealar uning buyrug‘isiz ham sodir bo‘laveradi. Asarda qirol majoziy ma’noda “hamma narsa mening qo‘limda, men hamma narsani boshqaraman” deb o‘ylashni, o‘zini o‘zi aldashni ifodalab kelyapti.

Topshiriq

“Kichkina shahzoda” asaridagi obrazlardan birini tanlang. Sizningcha, u nimani ifodalaydi? Muallif bu obraz orqali kitobxonga nima demoqchi? Jadvalni to‘ldiring va fikringizni asoslang. Buning uchun asarni o‘qish davomida to‘ldirgan jadvalingizdan foydalanishingiz mumkin.

Men tanlagan obraz	
Obrazning asardagi xatti-harakatlari va gap-so‘zlari	
Bu obraz orqali muallif qanday g‘oya yoki tushunchani ifodalayapti?	
Muallif yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oya yoki tushunchaga bugungi hayotimizdan misol	



G‘AFUR G‘ULOM (1903–1966)

Dars davomida:

- G‘afur G‘ulom she’rlarini mutolaa qilamiz;
- ijodkor lirikasiga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz.

O‘zbek adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri G‘afur G‘ulom 1903-yili Toshkent shahrining Qo‘rg‘ontegi mahallasida tug‘ilgan. Avval eski maktabda, keyin rus-tuzem maktabida tahsil olgan. Keyinchalik muallimlar tayyorlash kursini tamomlab, yangi usuldagi ta’lim maskanida o‘qituvchilik qilgan. G‘afur G‘ulom ota-onasidan erta ayrilib, og‘ir hayot sinovlarini boshidan kechirgan. Lekin hayotning bunday qiyinchiliklari shoir maqsadlariga to‘sqinlik qilolmagan. U yoshligidan bilim olishga, badiiy adabiyotga qiziqdi. Ijodkor bo‘lishida oilaviy muhitning ta’siri katta bo‘lganini shoir quyidagicha xotirlaydi: “Otam adabiyot bilan juda qiziqar edi, uyimizga o‘zbek shoirlari kelib yurganini es-es bilaman. U kishi Muqimiy, Furqat, Muhyi va boshqalarning biznikiga ko‘p kelganini aytadilar. Otam “Mirzo” va “G‘ulom” taxalluslari bilan talay she’rlar yozgan...”

G‘afur G‘ulomning ilk she’riy to‘plami “Dinamo” va “Tirik qo‘shiqlar” nomi bilan 1931-1932-yillarda chop etilgan. Uning “Ko‘kan”, “To‘y”, “Ikki vasiqa”, “Netay”, “Yodgor”, “Tirilgan murda” kabi doston, ballada, hikoya va qissalari nashr etilgan. “Shum bola” qissasi ijodkorni jahon miqyosida ham mashhur qilgan. U tarjimon sifatida Uilyam Shekspirning “Otello”, “Qirol Lir” dramalarini o‘zbek tiliga o‘girgan.

G‘afur G‘ulom ko‘plab davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan.

U 1966-yili Toshkent shahrida vafot etgan.



Zulfiya (chapda), G‘afur G‘ulom (o‘rtada) va rus yozuvchisi Nikolay Tixonov (o‘ngda)

MUTOLAADAN OLDIN

Sizningcha, she’r nima haqida? Shoir kimni yoki nimani sog‘ingan bo‘lishi mumkin? She’r haqidagi mutolaadan avvalgi va keyingi qarashlaringizni qiyoslang. Nimalar o‘zgardi?

SOG‘INISH

Zo‘r karvon yo‘lida yetim bo‘tadek,
Intizor ko‘zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O‘zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh.

Uzilgan bir kiprik abad yo‘qolmas,
Shunchalar mustahkam xonayi xurshid.
Bugun sabza bo‘ldi qishdagi nafas,
Hozir qonda kezar ertangi umid.

Xoki anjir tugab, qovun g‘arq pishgan,
Baxtli tongotar chog‘ uni kuzatdim.
Bir mal’un gulshanga qadam qo‘ymishkan,
Joni bir jondoshlar qolarmidi jim.

Unda yetuk edi meros mard g‘urur,
Ostonani o‘pib, qasamyod qildi.
Ukalarin erkalab, o‘zimday mag‘rur,
Ya’ni obod uyimni u dilshod qildi.

Iblisning g‘arazi bo‘lgan bu urush
Albatta yetadi o‘zin boshiga.
O‘g‘lim omon keladi, g‘olib, muzaffar,
Gard ham qo‘ndirmasdan qora qoshiga.

Ne qilsa otamen, meros hissiyot...
Jondan sog‘inishga uning haqqi bor.
Kutaman, uzoqdan ko‘rinsa bir ot,
Kelayapti, deyman ko‘rinsa g‘ubor.

xonayi xurshid – Quyosh uyi

sabza – yam-yashil barra o‘t; yashil

mal’un – la’natlangan, yomon niyatli kishi

Bahor novdasida bo‘rtgan har kurtak
Sog‘ingan ko‘ngilga berar tasalli.
Ko‘chatlar qomatin eslatganidek,
Nafasin ufurar tongotar yeli.

Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam,
Qo‘msayman birovni – allakimimni.
Doimo umidim bardam bo‘lsa ham,
Ba’zan vasvasalar bosar dilimni.

Balki, bir g‘alat o‘q yo xavf-u xatar
Xazinayi umrimdan yo‘qotdi olmos...
Yo‘q, u o‘lmas, qadami olam yaratar,
Hayotiy bu olam siz-u bizga xos.

Tongotar chog‘ida juda sog‘inib,
Bedil o‘qir edim, chiqdi oftob.
Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob.

O‘rog‘-u gulqaychi, istak ko‘tarib,
Hovrimni bosishga bog‘ga jo‘nadim.
Hasharchi qo‘shni qiz – uning sevgani,
Ma’yus bosar edi orqamdan odim.

Bog‘da sarvinozim yo‘q edi garchand,
Ko‘makchim arg‘uvon yoring Nafisa.
Seni sog‘inganda qildim gul payvand,
Bu bahordan hayot olardi bo‘sa.

Dur bo‘lib taqilur yoring bo‘yniga
Sadafday ko‘zimda behuda bu yosh.
Ikkoving ikki yosh, labing labiga
Qo‘yar. Vasvasamdan kuladi quyosh.

Asaldan ajragan mumday sarg‘ayib,
Ini yo‘q aridek to‘zg‘iganim yo‘q.
Ulug‘ e’tiqodda o‘laman qarib,
Abaddir mendagi padariy huquq.

Sizlarni keldi deb eshitgan kuni
O‘zing to‘qib ketgan katta savatda
To‘latib shaftoli uzib chiqaman,
G‘alaba kunlari yaqin, albatta.

“Bahor novdasida bo‘rtgan har kurtak” nima uchun sog‘ingan ko‘ngilga tasalli beradi?

Yayov, ko‘ksim ochiq, boshda shaftolu,
Xuddi mo‘ylabingdek mayin tuki bor.
Har bitta shaftolu – misoli kulgu,
Shafaqday nimpushti, sarin, beg‘ubor.

Suyganing labida reza ter kabi
Unda titrab turar sabuhiy shabnam.
Munchalik mazani topa olmaydi
Uyquda tamshangan chaqaloqlar ham.

E o‘g‘lim, jonginang salomat bo‘lsin,
O‘z bog‘ing, o‘z mevang danagin saqla.
Shu meros bog‘ingni o‘z qo‘lingga ol,
Menga topshirilgan merosiy haq-la.

Bog‘da tovus kabi xiromon bo‘lib,
Umid danagini birga ekingiz.
G‘olib kelajakni sayr qilaylik
Mushfiq onaginang bilan ikkimiz.

1942-yil



Muhokama qilamiz

1. “Sog‘inish” she’rida qanday kayfiyat hukmron? Qaysi so‘z yoki so‘z birikmalari ushbu kayfiyatni yuzaga chiqarmoqda?
2. “Uzilgan bir kiprik” kabi kichik detallar she’rda qanday mazmun yuzaga chiqishiga xizmat qilgan?
3. Otaning sog‘inch iztiroblari qaysi satrlarda yaqqolroq namoyon bo‘lgan?
4. Shoir nega tabiatdagi bahor va yangi hayot timsollarini sog‘inish bilan bog‘laydi? Tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi bu bog‘lanish nimani anglatadi?
5. Shoir she’rda qaysi badiiy tasvir vositalariga murojaat qilgan? Matndan ularni topib, izohlang.
6. Matnga tayanib, shoir tilga olgan meros tushunchasining ma’naviy vazifalari haqida fikringizni bildiring.

Ijodiy ish

G‘afur G‘ulomning “Sog‘inish” she’ri asosida partadoshingiz bilan birga eydos konspekt (shoir ifodalagan fikrdan olingan xulosalarni she’riy matn asosida kalit so‘z va jumlalar, suratlar, shakllar orqali tasvirlovchi ijod namunasi) yarating. Muhim detallarni ranglardan foydalanib tasvirlash orqali o‘z munosabatingizni ifodalashga harakat qiling.

“Vaqtimni behuda o‘tkazdim”, deb o‘ylagan paytlaringiz bo‘lganmi?
Nima uchun shunday o‘ylagansiz?

VAQT

Menga soat taqdim etgan jiyanim – mayor Hamidulla Husan o‘g‘liga bag‘ishlanadi

G‘uncha ochilguncha o‘tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba’zida bir nafas olgulik muddat –
Ming yulduz so‘nishi uchun yetgulik.

Yashash soatining oltin kapgiri
Har borib kelishi bir olam zamon.
Koinot shu damda o‘z kurrasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Yarim soat ichida tug‘ilib, o‘sib,
Yashab, umr ko‘rib, o‘tguvchilar bor.
Ko‘z ochib yumguncha o‘tgan dam qimmat,
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.

Bir onning bahosin o‘lchamoq uchun
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.
Nurlar qadami-la chopgan sekundning
Barini tutolmas ayhannos ovoz.

Yigit termiladi qizning ko‘ziga,
Kiprik suzilishi, mayin tabassum...
Qo‘sha qarimoqqa muhr bo‘ladi
Hayotda ikki lab qovushgan bir zum.

Yashash darbozasi ostonasidan
Zarhal kitob kabi ochilur olam.
Tiriklik ko‘rkidir mehnat, muhabbat,
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.

Bebaho damlarning tirik joni biz,
Har oni o‘tmishning yuz yiliga teng.
O‘zbekning barhayot avlodlarimiz,
Har nafas mazmuni fazolardan keng.

Qatrada osmon aks etganidek
Jahonday ma’nodor qorachig‘imiz.
G‘olib asrimizga quyoshdan mash’al,
Zamon ko‘rasining so‘nmas cho‘g‘imiz.



“Bir lahza mazmuni bir butun bahor” satrini izohlang.

Nega shoir: “Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram”, – demoqda?

Shoir “so‘nmas cho‘g‘imiz” deganda nimani nazarda tutmoqda?

Zamona soati zang urar mudom,
Minglab hodisalar minutlarga qayd,
Qahramon tug‘ildi, shahar olindi,
Bir gigant qurildi sharafli bu payt.

Reyxstag ustiga g‘alaba tug‘in
Qadashda otilgan adolat o‘qi –
Yalt etgan umri-la barqaror qildi
Basharning muqaddas, oliy huquqin.

G‘alaba amri-la mag‘lub nemisning
Generali qo‘l qo‘ydi. Uch sekund faqat...
Shu mal’un imzoda odamlar o‘qir
Million yil fashistning umriga la’nat.

Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so‘raydi qadrin.
Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog‘idir umr daftarin.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek
Diana ma’badin yoqmoq shart emas,
Ko‘plarning baxtiga o‘zlikni jamlab,
Shu ulug‘ binoga bir g‘isht qo‘ysak bas.

Har lahza zamonlar umridek uzun,
Asrlar taqdiri lahzalarda hal.
Umrdan o‘tajak har lahza uchun
Qudratli qo‘l bilan qo‘yaylik haykal.

Hayot sharobidan bir qultum yutay,
Damlar g‘animatdir, umrzoq soqiy.
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.

1945-yil

Reyxstag (nem. Reichstag) – Berlin shahrida joylashgan, 1933-yilgacha Germaniya parlamentining qarorgohi bo‘lgan. 1945-yilning may oyida sovet askarlari Reyxstag ustiga g‘alaba bayrog‘ini qadagan. Shundan keyin bu bino g‘alabaning timsoli, adolat qaror topgan lahza, insoniyat huquqlari himoyasi va urushdan keyingi tinchlik boshlanishi kabi ma’nolarda adabiyot va san’atda tilga olinadi.

Sizningcha, “*Basharning muqaddas, oliy huquqi*” nima?

Shoir nima uchun *“Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy”* tarzida xulosa qilyapti? Izohlang.

Muhokama qilamiz

1. G‘afur G‘ulomning “Vaqt” she’rida qaysi mash’um voqealar tilga olinadi?
2. Shoir “bir on”, “bir lahza”ning qadr-qimmatini ko‘rsatishda qanday obrazlardan foydalangan?
3. Qaysi sifatlash she’rning mazmunini ochishda alohida ahamiyat kasb etmoqda?
4. “Bir onning bahosin o‘lchamoq uchun” misrasida aynan qanday o‘tkazilgan vaqt – “on” haqida aytilgan?
5. She’rdagi vaqt tavsifining eng go‘zal namunasi, sizningcha, qaysi satrda aks etgan? Javobingizni asoslang.

Topshiriq

Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. “Vaqtning she’r va tasvirda ifodalanishi” mavzusida loyiha ishi tayyorlang. Unda guruh a’zolarining vaqt to‘g‘risidagi qarashlarini umumlashtiring.
2. G‘afur G‘ulomning “Sog‘inish” she’ri asosida quyidagi jadvalni namunadagi kabi to‘ldiring.

“To‘g‘ri, noto‘g‘ri hukmlar” jadvali

№	*Hukmlar*	*To‘g‘ri / Noto‘g‘ri*	*Izoh*
1	She’rda urushga ketgan o‘g‘lining qaytib kelishini kutgan o‘zbek onasining sog‘inch tuyg‘ulari aks etgan.	*Noto‘g‘ri*	She’rda o‘zbek otasining sog‘inchi aks etgan.
2	“Eng kichik zarradan Yupitergacha O‘zing murabbiysan...” misralarida Yupiter eng katta sayyora ekaniga ishora bor.		
3	“Uzilgan bir kiprik abad yo‘qolmas” jumlasi orqali o‘g‘lining o‘limi qo‘rquvi ifodalangan.		
4	“Xoki anjir tugab, qovun g‘arq pishgan…” misrada kuz fasli tasvirlangan.		
5	“Bir mal’un gulshanga qadam qo‘ymishkan, Joni bir jondoshlar qolarmidi jim!” misralarida Vatan himoyasiga otlantirish da’vati kuchli.		
6	“Kutaman, uzoqdan ko‘rinsa bir ot, Kelayapti, deyman ko‘rinsa g‘ubor” misralarida otaning faxr tuyg‘ulari aks etgan.		
7	“Loyqa xayolotlar chashmaday tindi, Pok-pokiza yurak bir qatra simob” misralarida shoir lirik qahramon qalbidagi xavotir, bezovtalikni nazarda tutgan.		
8	“O‘z bog‘ing, o‘z mevang danagin saqla…” misrasida vatanparvarlik hissi, vatanni himoya qilish tuyg‘ulari ifodalangan.		

3. G‘afur G‘ulomning she’rlaridan birini yod oling.




CHINGIZ AYTMATOV (1928–2008)

Dars davomida:

- “Oq kema” asaridan olingan parcha bilan tanishamiz;
- Chingiz Aytmatov ijodiga xos xususiyatlarni o‘rganamiz;
- syujet va uning elementlari haqida bilib olamiz.

XX asr jahon adabiyotining iste’dodli vakili Chingiz Aytmatov 1928-yilda Qirg‘izistonning Talas vodiysidagi Shakar ovulida ziyolilar oilasida tavallud topgan. U dastlab rus, keyin qirg‘iz maktabida tahsil oldi. 1948-yili Jambul zooveterinariya texnikumini, 1953-yili Qirg‘iziston qishloq xo‘jaligi institutini tamomladi, Moskvada Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Oliy adabiyot kursida o‘qidi. Chingiz Aytmatov bolaligidan badiiy adabiyotga mehr qo‘ygani, bunda buvisining xizmati katta bo‘lganini shunday eslaydi: “Buvim men uchun ertak, doston, qadimiy qo‘shiqlarning bitmas-tuganmas xazinasi edi. Ehtimol, o‘shanda buvim o‘zi sezmagan holda ona tilimni sevishga, hurmat qilishga o‘rgatgandir. Bunga hech qanday shubham yo‘q. Buvim mening bolaligimni turli ertak, qo‘shiq, dostonlar bilan bezagan. U meni turli davralarga, to‘y-hashamlarga o‘zi bilan birga olib borardi. Menga tez-tez o‘zining tushlari haqida gapirib berardi.

ovul – chorvachilik bilan shug‘ullaniladigan kichik qishloq



Yosh Chingiz (chapda) ota-onasi va ukasi bilan. 1934-yil

Bu tushlar shunchalik qiziq ediki, uxlab qolsa ham, uni uyg‘otib, tushning davomini aytib berishini so‘rardim”.

Yozuvchining asarlari 150 dan ortiq tilga tarjima qilingan, adabiyotshunoslar e’tirofiga sazovor bo‘lgan.

Chingiz Aytmatov 2008-yil 10-iyunda vafot etgan.



Toshkentda Chingiz Aytmatovga o‘rnatilgan yodgorlik











Chingiz Aytmatovning turli tillarga tarjima qilingan asarlari

MUTOLAADAN OLDIN

Asarning yaratilish tarixi

Mutaxassislarning yozishicha, “Oq kema” hayotiy shaxslar va voqealarga asoslangan. Kunlarning birida Chingiz Aytmatov mahalliy aholi bilan tosh haykallarni izlab Issiqko‘l viloyatidagi Qarqira yaylovlariga boradi. Sayohat chog‘ida Mo‘min ismli o‘rmonchi va uning yonidagi bolakay bilan tanishadi. O‘rmonchi yozuvchi bilan deyarli ikki soat suhbatlashadi. Shundan keyin Chingiz Aytmatov “izlaganimni topdim” deya tosh haykallarni qidirishdan voz kechib, ortga qaytadi va eshitganlari asosida “Oq kema” asarini yozadi. Asar birinchi marta 1970-yili “Yangi olam” (“Новый мир”) jurnalida nashr etilgan. “Oq kema” qissasining boshqa nomi ham bor – “Ertakdan so‘ng”.



OQ KEMA

(qissadan parcha)

“Oq kema” qissasi nima haqida bo‘lishi mumkin? Nega aynan oq rangli kema? Kemalar odatda qanday rangda bo‘ladi?

I

Uning ikki ertagi bo‘lardi. Biri o‘ziniki bo‘lib, uni hech kim bilmasdi. Ikkinchisini esa bobosi so‘zlab bergandi. Keyin birontasi ham qolmadi. Gap shu xususda.

O‘sha yili u yetti yoshga to‘lib, sakkizga qadam qo‘ygandi.

Avval portfel sotib olindi. Qop-qora dermantin portfelning ochib yopganda shiqillaydigan qulfi yaltirab turardi. Yonida mayda-chuyda soladigan kissasi ham bor. Kissasi g‘aroyib, ayni paytda oddiy maktab portfeli edi. Hamma narsa, ehtimol, shundan boshlandi.

Bobosi uni ko‘chma do‘kondan sotib oldi.

U o‘sha ko‘chma do‘konni uzoqdan ko‘rib qoldi, mashina ketidan to‘zon ko‘tarib, tog‘dan tushib kelayotgan edi. Shunda u o‘ziga portfel olinishini bilgandek quvonib ketdi. Shu zahotiyoq suvdan sakrab chiqdi, chillakdek oyoqlarini pochalariga tiqdi-yu, suvning sovuqligidan ko‘karib ketgan badanining ho‘li bilan ko‘chma do‘konning kelayotganini birinchi bo‘lib yetkazish uchun so‘qmoqdan uylar tomonga chopib ketdi.

Bola butalar ustidan hatlab, sakrab o‘tish qiyin bo‘lgan xarsangtoshlarni yonlab o‘tib, na o‘siq o‘tlar, na xarsangtoshlar oldida, bular shunchaki narsalar emasligini bilsa-da, bir daqiqa ham to‘xtamay chopib borardi. Ular ranjib qolishi, hatto chalib yiqitishi ham mumkin edi. “Mashina-magazin keldi. Men keyin kelaman”, – yo‘l-yo‘lakay u “cho‘kib yotgan tuya”ga gap qotdi. U bag‘rini yerga berib yotgan sarg‘ish bukri toshni shunday deb atardi. Odatda bola o‘z “tuya”sining yonidan uning o‘rkachini silamasdan o‘tmasdi. Xuddi bobosi dumi cho‘ltoq axta otini shapatilagani kabi u ham ishning ko‘zini biladigan kishilar singari o‘z “tuya”sining yonidan o‘tib borayotib naridan beri, sen sabr qilib turasan endi, mening ishim chiqib qoldi, deb uni shapatilab qo‘yardi. Uning xarsangtoshida “egar” ham tayyor edi. Yana “bo‘ri” degan tosh bor – bo‘riga juda o‘xshash qo‘ng‘ir, oq oralagan, yoldor va cho‘ng peshonali. Bola uning oldiga pisib, emaklab borardi-da, mo‘ljalga olardi. Lekin eng sevimli tosh bu suv yuvib ketgan qirg‘oqdagi kattakon xarsang “tank” edi. Qarab tursang, “tank” qirg‘oqdan otilib chiqadi-yu, daryoni shovqin-suronga solib, to‘lqinlantirib, ko‘piklantirib yurib ketadigandek. Tanklar kinolarda axir shunday yuradi-ku, qirg‘oqdan suvga otiladi, ketadi! Bola kinolarni kam ko‘rgan, shuning uchun ham ko‘rganlari yodida qattiq o‘rnashib qolgan. Bobosi ba’zan uni kino ko‘rsatgani tog‘ ortidagi – qo‘shni daradagi naslchilik fermasiga olib borardi. Shu sababli ham qirg‘oqda daryoni har qachon kesib o‘tishga shay turgan “tank” paydo bo‘ldi. Yana boshqa – “yaxshi” va “yomon” toshlar, hatto “ayyor” va “ovsar”lari ham bor.

Bola nega toshlar bilan do‘st tutingan deb o‘ylaysiz?

O‘tlar orasida ham “sevimli”, “botir”, “hurkak”, “yovuz” hamda boshqa har xillari mavjud edi. Chaqirtikan, masalan, eng birinchi dushman. Bola u bilan kuniga o‘n martalab jang qilgan, chopib tashlagan. Lekin bu jangning oxiri ko‘rinmasdi – chaqirtikan hadeb o‘saverar, ko‘payaverardi. Mana shu daladagi pechakgullar, to‘g‘ri, ular ham yovvoyi, shunga qaramay, bular eng aqlli va quvnoq gullardir. Ular ertalab quyoshni hammadan ortiq yayrab qarshi oladi. Boshqa o‘tlarga – tong nima, tun nima baribir. Pechakgullar esa kun ilishi bilan ko‘z ochadi, kulib boqadi. Oldin bir ko‘zini, keyin ikkinchisini ochadi, shundan so‘ng bag‘ridagi barcha gullar birin-ketin ochila boshlaydi. Oq, och ko‘k, binafsha va yana har xil rangda... Agar ularning oldida sukut saqlab o‘tirsang, go‘yo bu gullar uyqudan uyg‘onib, allanimalar haqida shivirlayotgandek tuyuladi. Chumolilar ham buni sezadi. Ular ertalabdan pechakgullar huzuriga chopib, quyosh nurlaridan ko‘zlarini qisib, gullarning o‘zaro nimalar haqidadir shivirlashayotganiga quloq soladi. Balki, ko‘rgan tushlarini so‘zlashayotgandir?

Kunduzlari, odatda tush vaqtiga borib bola serpoya shiroljinlar g‘uj bo‘lib o‘sgan tomonga jo‘nashni yaxshi ko‘rardi. Shiroljin baland bo‘yli, gulsiz, lekin xushbo‘y hidli bo‘ladi. Ular yon-veriga boshqa o‘simlikni yo‘latmay, to‘da-to‘da bo‘lib, alohida o‘sadi. Shiroljin sadoqatli do‘stdir. Ayniqsa, biror ko‘ngilsizlik yuz berib, pinhona yig‘laging kelganda shiroljin tagidan yaxshi panoh topish mumkin. Ular o‘rmon yoqasidagi qarag‘ayzorlar singari yoqimli hid taratib turadi. Shiroljinlar quchog‘i qaynoq va sokin. Avval ko‘z yoshlari orasidan hech narsani

ajrata olmaysan. Keyinchalik esa bulutlar suzib ketadi va sen o‘ylayotgan narsalar osmonda, ko‘z oldingda aniq namoyon bo‘la boshlaydi. Bulutlar yaxshi biladi: ko‘ngling ancha noxush, qayoqlargadir jo‘nab qolging yoki uchib ketging keladi, toki seni topolmay oh-voh qilishsin: “Eh, bolagina, bedarak ketdi-ya, endi uni qayerdan topamiz?” – deb kuyib yurishsin. Bunday bo‘lmasligi uchun – sen yo‘qolib qolmasliging va jimgina yotib, bulutlardan zavqlanishing uchun sen nimani istasang, bulutlar o‘shanga aylanib qoladi. O‘sha birgina bulutning o‘zidan turli-tuman shakllar yuzaga kela boshlaydi. Faqat bulutlar qanday shaklga kirayotganini ko‘rib bilsang bas.

Boladagi bedarak yo‘qolib qolish, jo‘nab ketish istagining sabablarini izohlashga harakat qiling.

Bola yolg‘iz, jo‘ralarsiz mana shu sodda – bayov narsalar qurshovida yashardi, avtolavkagina hamma narsani unutishga, ko‘ringanda chopishga majbur qila olardi. Shuning uchun ko‘chma do‘konni ko‘rgan zahoti hamma narsani unutib, o‘zini o‘sha tomonga otardi. Nimasini aytasan, ko‘chma do‘kon bu senga allaqanday tosh yoki o‘tlar emas. Unda kishining jonidan bo‘lak hamma narsa bor!

avtolavka – yuk mashinasini o‘zgartirib qilingan ko‘chma do‘kon, qishloqlar yoki chekka hududlarga borib, oziq-ovqat yoki turli mahsulotlar sotadi

Bola uyiga yetib kelganida ko‘chma do‘kon ham orqa tomondan hovliga yaqinlashib qolgan edi. Bola o‘z vaqtida yetib kelmaganida, ko‘chma do‘kon kelganini hech kim bilmay qolardi.

Bu payt erkaklardan hech kim yo‘q, hammalari ertalaboq tarqab ketishgan, ayollar uy ishlari bilan mashg‘ul edi. Bola ochiq turgan eshiklarning oldidan quloqni qomatga keltirib qichqirib o‘tdi:

– Keldi! Mashina-magazin keldi!

Ayollar tipirchilab qolishdi. Yashirib qo‘ygan pullarini topish uchun yugurib qolishdi, uylaridan otilib chiqqanlaricha bir-birlaridan o‘zib ketishdi. Mashina oldiga chopishdi, hatto buvisi uni maqtab qo‘ydi:

– Ko‘zi o‘tkir-da bizning bolaning!

Bola ko‘chma do‘konni o‘zi boshlab kelganday boshi osmonga yetgan edi. Bu xush-xabarni odamlarga o‘zi yetkazgani, birga hovlidan chopib chiqqani, eshigi ochiq turgan avtofurgon oldida ular bilan tiqilishib turganidan xursand edi.

Ko‘pni ko‘rgan kishilar keksa Mo‘minni Mo‘min chaqqon deb atashardi. Bu atrofda uni hamma tanirdi, u ham hammani tanirdi, u hammani bilardi. U ochiqko‘ngil, hatto sal-pal biladigan odamiga ham biron yaxshilik qilishga tayyorligi, har kimning xizmatiga hozir-u nozirligi, hammaga sadoqatli va xushmuomalaligi tufayli shunday laqab olgandi. Ammo tillani tekin tarqatishganda hech kim uchun qadri qolmaganidek uning jonbozligi qadriga ham hech kim yetmasdi. Uning yoshidagi kishilarga qanday hurmat, izzatda bo‘lishmasin, Mo‘minga hech kim bunday munosabatda bo‘lmasdi. U bilan betakalluf muomala qilishardi.

Bug‘u avlodining mashhur oqsoqollaridan birontasining ulug‘ ma’rakalarida (Mo‘min bug‘u avlodidan bo‘lib, bu bilan g‘oyatda faxrlanar va o‘z qabiladoshlaridan birontasining ma’rakasidan qolmasdi) unga mol so‘ydirishar, martabali mehmonlarni qarshi olib, otdan tushirish, choy uzatish-u o‘tin yorib, suv keltirishgacha hamma ishni unga topshiraverishardi. Turli tarafdan son-sanoqsiz mehmonlarni kutib olish lozim bo‘lgan bunday katta ma’rakalarda ozmuncha tashvish bo‘ladimi? Mo‘minga nima xizmat buyurilmasin, u ana-mana deguncha barini saranjom-sarishta qilar, eng muhimi, boshqalardek bo‘yin tovlamasdi.

Ba’zida nabirasi bilan uzoqdan kelgan chol choyxonachi yigitga qarashib ketardi. Mo‘minning o‘rnida boshqa odam bo‘lganda bu ishni haqorat deb bilardi, lekin Mo‘min parvo ham qilmaydi. Keksa Mo‘min chaqqonning mehmonlarga yelib-yugurib xizmat qilishi hech kimni ajablantirmas – shuning uchun ham o‘z nomi bilan Mo‘min chaqqon-da.

Mo‘min chol qanday o‘tirdim, bilib gapirdimmi, qanday javob qildim, qanday kulumsiradim deb tashvishlanmas, birovlarning oldida obro‘yi to‘kilishidan cho‘chimasdi. Mo‘min mana shu ma’noda, o‘zi sezmagan holda kamdan kam uchraydigan baxtli odam edi...

Faqat bir narsa Mo‘minni qattiq xafa qilishi mumkin edi: birontasining ma’rakasini o‘tkazish uchun qarindoshlar to‘planadigan kengashga uni chaqirishni unutib qo‘yishsa... U qattiq ranjir va buni unutolmay azob chekardi, gap uni chetlab o‘tganlarida emas, u kengashda baribir hech nimani hal qilmas, faqat qatnashardi, xolos. Buning boisi qadimiy urf-odatlarning poymol bo‘lgani edi.

...Bobosi avtodo‘kondan bolaga yangi va yaltiroq portfel olib berdi. Chunki u bu yil kuzda maktabga borishi kerak edi.

Muhokama qilamiz

1. Asar muqaddimasidagi “Uning ikki ertagi bo‘lardi. Biri o‘ziniki bo‘lib, uni hech kim bilmasdi” jumlasiga e’tibor qarating. Voqealar rivojidan bu qanday ertakligini taxmin qildingizmi? Bu ertakni qanday nomlagan bo‘lardingiz?
2. Bolalar dunyosida kattalarning burch va mas’uliyati nimalarda aks etishi kerak deb hisoblaysiz? Asar matnidan kelib chiqib fikr yuriting.
3. Mo‘min chol obraziga xos sifatlar aks etgan o‘rinlarga alohida e’tibor qarating. U atrofidagilar bilan murosa qilib yashashining qanday sabablari bo‘lishi mumkin?
4. Nima uchun Mo‘min chol “Kamdan kam uchraydigan baxtli odam edi” deya ta’riflangan?

Topshiriq

Asardan olingan parchaning **II** qismini uyda o‘qib keling.

II

...Bola shu ondan portfeldan ajralmay qoldi. Shodligidan terisiga sig‘may maqtanib, qorovulxonaning butun hovlisini aylanib chiqdi. Avval buvisiga ko‘rsatdi. Mana, bobom olib berdi! Keyin Bo‘key xolasiga ko‘rsatdi. U ham portfelni ko‘rib xursand bo‘ldi va bolani maqtab qo‘ydi.

Bo‘key xolaning xushnud damlari kamdan kam bo‘lardi. Ko‘pincha g‘amgin va tajang yurar, jiyaniga e’tibor ham qilmasdi. Uning o‘z dardi bor. Buvisi farzandi bo‘lganda butunlay o‘zgacha yurardi, derdi. Eri O‘rozqul ham, Mo‘min bobo ham hozirgiday emas, balki boshqacha odam qiyofasida yurgan bo‘lardi. Uning ikkita qizi: Bo‘key xola va bolaning onasi bo‘lsa-da, baribir cholga og‘ir edi; o‘z bolang bo‘lmasa – bir balo, bolangdan bola bo‘lmasa, ming balo. Buvisi shunday deb zorlanadi. Kim bilsin...

Bola Bo‘key xolasidan so‘ng olgan narsasini ko‘rsatish uchun yoshgina Guljamol bilan uning qizchasi oldiga yugurdi. Bu yerdan esa pichan o‘rayotgan Seydahmadning oldiga tushib ketdi. Jigarrang “tuya” oldidan chopib o‘tarkan, uning o‘rkachlariga urib qo‘yishga ham vaqti bo‘lmadi, “egar” yonidan, “bo‘ri” va “tank” yonidan o‘tib, keyin qirg‘oq bo‘ylab yugurib borardi. Yopishqoq butazor orasidagi so‘qmoq yo‘ldan chopib o‘tdi. Bugun Seydahmadning yolg‘iz o‘zi edi. Bobo allaqachon o‘zining tegishini (biryo‘la O‘rozqulning ham) o‘rib qo‘ygandi. Pichanni ham allaqachon tashib bo‘lishdi – buvisi bilan Bo‘key xola tashib turdi, bobosi bosaverdi, u esa bobosiga yordamlashdi. Molxonaning oldiga ikkita g‘aram uyishdi. Bobosi ularni shunday ixcham bosdiki, bir tomchi yomg‘ir ham o‘tmasdi. G‘aramlar xuddi taroq bilan tarab qo‘ygandek silliq edi. Har yili shu. O‘rozqul pichanga qo‘lini urmaydi, hammasi qaynotasining bo‘ynida – har holda u amaldor. “Istasam, – deydi u, – senlarni bir zumda ishdan haydab yuboraman!” U bobo bilan Seydahmadga shunday do‘q qilardi. Bu ham mastlikning kasofati.

Mo‘min cholning kuyovi O‘rozqul nega oila a’zolariga bunday munosabatda bo‘lgan deb o‘ylaysiz?

Boboni haydab bo‘pti. Unda kim ishlaydi? Bobosiz ishlab ko‘rsin-chi! O‘rmonda ish oshib-toshib yotibdi, ayniqsa, kuzda. Bobom aytadiki, o‘rmon qo‘y suruvi emas, tarqalib ketmaydi, lekin tashvishi oz emas. Tasodifan o‘t tushsa, tog‘dan sel kelsa bormi, daraxt bir joydan qo‘zg‘almaydi, turgan joyida nobud bo‘laveradi. Kimki daraxtni asrab qololsa, o‘sha haqiqiy o‘rmonchi bo‘la oladi. O‘rozqul Seydahmadni haydab bo‘pti, unday yuvosh odam bormi? Hech nimaga aralashmaydi, talashib-tortishmaydi. Biroq Seydahmad qanday yuvosh, baquvvat yigit bo‘lmasin, yalqov, uyquni yaxshi ko‘radi. O‘rmonchilikka ham shu vajdan kelib qolgan.

Seydahmad pichan o‘rimini ham kechiktirib yubordi. Bobo hatto o‘tgan kuni uni koyib berdi. “O‘tgan qishda senga emas, mollarga ichim achidi. Shuning uchun pichan berdim. Agar yana men keksa cholning pichaniga ko‘z tikadigan bo‘lsang, hoziroq ayta qol, sen uchun ham o‘rishga tayyorman”.

Gap ta’sir qildi. Seydahmad bugun ertalabdan o‘rimga tushib ketdi. Orqadan kelayotgan qadam tovushini eshitib, Seydahmad qayrildi, ko‘ylagining yengi bilan yuzini artdi.

– Nimaga kelyapsan? Meni chaqirishyaptimi?

– Yo‘q, portfel oldim. Mana. Bobom olib berdi. Men maktabga boraman.

– Shunga shunchalik chopib keldingmi? – Seydahmad xoxolab kuldi. – Mo‘min boboning esi kirarli-chiqarli bo‘lib qolgan, – u barmog‘ini chakkasiga bosib aylantirdi, – sen ham shunaqa, chog‘i! Qani, qanaqa portfel?

U qulfchasini shaqillatib, portfelni u qo‘lidan bu qo‘liga oldi-da, kallasini likillatganicha kulumsirab qaytarib berdi.

– To‘xta, – xitob qildi u, – sen qaysi maktabga ham borarding? Qayerda senga maktab tayyor turibdi?

– Qayerda bo‘lardi, fermada-da.

– Jilisoyga qatnamoqchimisan? – hayratlandi Seydahmad. – Axir u yoqqa tog‘ osha besh kilometrcha yurish kerak, bundan kam emas.

– Bobom otda olib borib kelaman, dedi.

– Har kuni u yoqqa borib, bu yoqqa kelarkanmi? Esini yebdi chol. Uning o‘zini ham o‘qitish kerak. Sen bilan bir partaga o‘tiradi, dars tugadimi – qaytaveradi. – Seydahmad Mo‘min bobo nabirasi bilan bir partada o‘tirishini ko‘z oldiga keltirib qotib-qotib kuldi.

Nega bolaning maktabga borish istagi hammani hayratga solardi?

Bola o‘yga tolib jim qoldi.

Seydahmadning yangilikni masxaraomuz qarshi olishi bolaga yoqmadi. U xo‘mrayib, furajkasining soyabonini manglayi ustiga ko‘tardi va Seydahmad burniga chertmoqchi bo‘lganda boshini burib g‘ijindi:

– Tegishma!

Bola yana chopganicha o‘sha so‘qmoqdan, yana o‘sha toshlar yonidan uyga qaytdi. Toshlar bilan ovunishga hali-beri vaqti yo‘q edi. Portfel – jiddiy narsa.

Bola o‘z-o‘zi bilan suhbatlashishni yaxshi ko‘rardi. Lekin bu safar o‘zi emas, portfeliga so‘z qotdi: “Sen uning gapiga ishonma, bobom unaqa emas. Uning sira shumligi yo‘q, shuning uchun ham undan kulishgani-kulishgan. Chunki quvlik-shumlikni bilmaydi. U biz ikkalamizni maktabga olib borib yuradi. Sen hali maktab qayerdaligini bilmaysan-a? U unchalik uzoq emas. Men senga uning qayerda ekanligini ko‘rsataman. Biz unga Qorovultog‘dan durbinda qaraymiz. Men yana senga oq kemani ko‘rsataman. Faqat biz avval molxonaga kirib chiqamiz. U yerda durbinimni yashirib qo‘yganman. Men unda buzoqchamni kuzatib turishim kerak, lekin men har kuni oq kemani ko‘rishga chopaman. Buzog‘imiz katta bo‘lib qoldi, tortib ketsa, to‘xtatolmaysan, sigirni emib qo‘yadigan odat chiqardi. Sigir uning onasi, sutini undan ayarmidi? Tushundingmi? Onalar hech qachon hech nimani ayashmaydi. Mana, Guljamol shunday deydi, uning qizchasi bor... Tezda sigirni sog‘ib bo‘lishadi, keyin biz buzoqni yaylovga haydaymiz. O‘shanda biz Qorovultog‘ga chiqamiz-da, tog‘dan turib oq kemani ko‘ramiz. Men axir durbin bilan ham xuddi ana shunday gaplashaman. Endi biz uchtamiz – men, sen va durbin...”

U shu zaylda uyga qaytdi. Portfel bilan gaplashish unga juda yoqib qoldi. U bu suhbatni davom ettirib, o‘zi haqida hali portfeliga noma’lum bo‘lgan voqealardan so‘zlab bergisi kelib turganda unga xalaqit berishdi. Yon tomonda otning do‘pir-do‘piri eshitilib qoldi. Qishloq tarafdan bo‘z otliq kelardi. Bu – O‘rozqul.

O‘rozqul xrom etigining uchini uzangiga tirab, egarda mudrab borardi.

Bola qo‘lidagi portfelini silkitib ro‘parasidan chopqillab chiqib qolganda tasodifan uning otdan uchib ketishiga sal qoldi.

– O‘rozqul amaki, portfelimni ko‘ring! Men maktabga boraman! Mana, mening portfelim!

– Obbo falokat-e! – O‘rozqul seskanib jilovni tortarkan, koyiy boshladi.

U bolaga uyqu aralash qizargan, shishgan, shirakayf ko‘zlarini tikdi:

– Nima qilib yuribsan, qayoqdan kelyapsan?

– Uyga ketyapman, portfelimga qarang, uni Seydahmadga ko‘rsatib kelyapman, – dedi bola ming‘irlab.

– Mayli, o‘ynayver, – to‘ng‘illadi O‘rozqul va egarda omonatgina tebranib yo‘lida davom etdi. U o‘z taqdiridan ranjib yurgan, Xudo uni farzand dog‘ida kuydirib, boshqalarga saxiylik bilan besh-o‘ntalab bola berib qo‘ygan bir paytda bu ahmoqona portfel-u ota-onasi tashlab ketgan, xotiniga jiyan bo‘lmish bu bola bilan qanchalik ishi bor...

Qorovultog‘ cho‘qqisidan hamma yoq yaqqol ko‘rinib turardi. Bola qorni bilan yotib olib, durbinni ko‘ziga to‘g‘riladi. Bu o‘tkir dasht durbini edi. Qachonlardir boboga qorovulxonadagi uzoq yillik xizmatlari uchun mukofotga berishgandi. Chol durbinni olib yurishni yoqtirmasdi... Biroq durbin nabirasiga yoqib qoldi.

Bu safar u tog‘ga durbin va portfel bilan birga keldi. Boshda hamma narsa yumaloq oynachada sakrab aralashib ketaveradi, keyin birdan tiniqlik va turg‘unlik kasb etdi. Mana shunisi hammasidan zavqli edi. Bola topilgan fokusni buzib qo‘ymaslik uchun nafasini ichiga yutar, manzaralarni go‘yo o‘zi yaratayotgandek mahliyo boqardi. Keyin u nigohini boshqa nuqtaga tikdi, yana hamma narsa aralashib ketdi, tiniqlik yo‘qoldi. Bola yana okulyarni aylantirishga tushdi.

okulyar – durbin linzasini tutib turadigan qism

Bu yerdan atrofdagi hamma narsa, hatto osmono‘par yuksak cho‘qqilar ham ko‘rinib turardi. Qorli cho‘qqilar poyidagi o‘rmonzor tog‘lar, pastroqdagi serbarg butazorlar, yuqorida qalin qarag‘ayzorlar bilan burkangan tog‘lar ham ko‘rinib turardi. Kungay tog‘ining pastki tomonlarida o‘tdan bo‘lak hech nima o‘smasdi. Tog‘ning ko‘lga qaragan tomonidan yanada pastroq tushilganda nuqul mayda toshlar ko‘chmasiga duch kelinardi. Bu ko‘chmalar vodiyga quyilib tushgan, vodiy esa ko‘l bilan tutashib ketgandi. Bu atrofda dalalar, bog‘lar, qishloqlar yastanib yotardi... Yam-yashil ekinzorlarning u yer-bu yeri sarg‘ish tus olgan, o‘rim payti yaqinlashyapti. Yo‘llarda zig‘irday ko‘rinayotgan mashinalar xuddi sichqonlardek g‘izillar, ular orqasidan uzun dum – chang-to‘zon ko‘tarilardi. Dalaning arang ko‘z ilg‘ab oladigan uzoq chekkasida, qumloqdan tasma tortgan qirg‘oq ortida ko‘l samoviy rangda tovlanardi. Bu – Issiqko‘l. U yerda suv bilan osmon bir-biriga tutashib turardi.

Yozuvchining Issiqko‘l tabiati manzarasini tasvirlashi sabablari nimada?

Bola o‘sha tomonga uzoq qarab turdi. “Oq kema hali ko‘rinmayapti, – dedi u portfelga. – Kel, bir marta maktabimizga qaraylik”. Bu yerdan tog‘ning ortidagi qo‘shni pasttekislik ravshan ko‘rinardi. Hatto durbinda uy oldidagi deraza ostida o‘tirib olib, qo‘lda urchuq yigirayotgan kampirgacha kuzatsa bo‘lardi.

Qishloqcha tepalikdan pastga tomon cho‘zilib tushgan edi. Qishloqning eng chekkasida ko‘rinishidan turarjoyni eslatmaydigan kichkinagina uy turardi. To‘rt yillik maktab mana shu edi. Yuqori sinf o‘quvchilari sovxozga, maktab-internatga qatnashardi. Bu yerda esa kichkintoylar o‘qishardi.

U kulrang cherepitsa bilan yopilgan, yolg‘iz trubasi qiyshayib turgan, qo‘lda yasalgan taxta-lavhada: “Maktab” deb qo‘yilgan kichkinagina binoga durbindan uzoq tikilib turdi. U o‘qiy olmasa-da, xuddi shu so‘z yozilganini faraz qiladi. U qo‘lda portfeli bilan bu yerga kelishini va hozir kattakon qulf osig‘liq turgan anavi eshik ostonasidan qanday hatlab o‘tishni tasavvur qilib ko‘rdi.

Bola maktabni tomosha qilib bo‘lgach, durbinni yana ko‘lga to‘g‘riladi. Lekin u yerda hamma narsa ilgarigidek edi. Oq kema hali ko‘ringanicha yo‘q. Bola teskari o‘girildi-da, durbinni bir chetga qo‘yib, pastga, tog‘ tubiga qaray boshladi. Pastda, shundoq tog‘ning tagida cho‘zinchoq pastqamlik bo‘ylab jo‘shqin daryo kumushdek tovlanib oqardi. Qirg‘oqdan daryo bo‘ylab yo‘l ketgan va u daryo bilan birga qoya burilishida ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Ro‘paradagi qirg‘oq jarlik va o‘rmonzor edi.

Bola ularga, bostirmalarga, qorovulxona hovlisidagi qurilishlarga masxaraomuz qarab chiqdi. Ular yuqoridan kichkina va omonat ko‘rinardi. Qorovulxonadan nariroqda, qirg‘oq bo‘yida u o‘zining tanish toshlarini topdi. “Tuya”, “bo‘ri”, “egar”, “tank” – hammasi joyida, ularning hammasini birinchi marta durbinda mana shu yerdan, Qorovultog‘dan turib kuzatgan, ularga o‘shanda ot qo‘ygandi-da.

Bola miyig‘ida kulib o‘rnidan turdi va uylar tomonga tosh yumalatdi. Tosh shu yerning o‘zida, tog‘ning ustidayoq qoldi. Bola yana joyiga o‘tirdi-da, durbindan qorovulxonaga qaray boshladi. Avval linzaning kattasidan kichigi tomonga tutib qaray boshladi – uylar uzoq-uzoqlarga siljib, o‘yinchoq qutichalarga aylanib qoldi. Xarsanglar kichkina toshchalar holiga keldi. Daryoning qirg‘oqqa yaqin yerdagi sayoz joyida bobosi qilgan ko‘lob esa kulgili, chumchuqning inicha kelardi. Bola bosh chayqab kulumsiradi-da, durbinni tez aylantirib okulyarni to‘g‘rilay boshladi. Uning ulkan shaklga kengaygan suyukli xarsangtoshlari durbinning oynalariga manglayini tirab turganday tuyuldi. “Tuya”, “bo‘ri”, “egar”, “tank”, kemtik yoriqlari, yon-veridagi sarg‘aygan otquloqlari bilan juda haybatli va eng muhimi, ular haqiqatan ham bola atagan narsalarga juda o‘xshardi.

Xarsangtoshlar ortidagi sayozlikda bolaning cho‘milishi uchun bobo ko‘lob qilgandi. Durbindan qirg‘oqdagi mana shu joy yaqqol ko‘rinib turardi. Shitob bilan oqqan suv bu yerdan, keng toshloq sayozlikdan qiyalab ko‘pirib o‘tardi-da, yana shiddatli oqimga qo‘shilib ketardi. Sayozlikdagi suv tizzadan kelar, lekin oqimi shunchalik kuchli ediki, bolalarni daryoga oqizib ketishi hech gap emasdi. Oqim surib ketmasligi uchun bola qirg‘oq bo‘yidagi tolni ushlab olardi. Tol butalari ayni qirg‘oqning chekkasidan o‘sib chiqqan bo‘lib, bir shoxi yerda, bir shoxi naq suvga botib turadi. Buning nimasi cho‘milish? Bog‘lab qo‘yilgan otdan farqi yo‘q. Buning ustiga yana qancha dilsiyohlik, so‘kish eshitishlar! Buvisi bobosiga uqtirardi: “Daryoga oqib ketsa, o‘zidan ko‘rsin, qo‘limni cho‘zmayman.

Endi shunisi yetmay turgan edi. O‘z ota-onasi tashlab ketdi. Menga boshqa tashvishlar ham yetib ortadi, majolim yo‘q”.

Unga nima deb bo‘ladi? Kampir bir hisobda to‘g‘ri gapirayotir. Lekin bolaga ham rahming keladi-da: daryo yonginasida, naq eshigining ostida. Kampir qancha qo‘rqitmasin, bola baribir suvga tushaveradi. Mana shundan keyin Mo‘min chol bola bexatar cho‘milsin deb sayozlikda toshlardan ko‘lob qilishga qaror qildi.

Mo‘min chol oqim yumalatib ketmasligi uchun qanchadan qancha katta toshlarni ko‘tarib keldi. Ularni qorniga qo‘yib tashidi, toshlar orasidan suvning bemalol o‘tib turishini hisobga olgan holda ularni suvning ichida tik turib, shunday taxlab terdiki, suv haqiqatan ham bemalol oqadigan bo‘ldi. Siyrak soqolli qotma chol ho‘l ishtonlari badaniga yopishgan holda kun bo‘yi shu to‘siq bilan ovora bo‘ldi. Kechqurun esa yo‘taldi, belini ololmay qoldi.

Nima bo‘lmasin, sayozlikda ajoyib ko‘lob paydo bo‘ldi. Endi bola hech qo‘rqmasdan cho‘milardi. Shoxchadan ushlaganicha qirg‘oqdan pastga tushar va oqimga o‘zini otardi, otganda ham hamisha suvga ko‘zini ochgan bo‘yi tushardi. Shuning uchun ko‘zini ochiq tutardiki, baliqlar ochiq ko‘z bilan yuradi-da. Uning g‘alati orzusi bor: baliqqa aylanib qolishni va uzoq-uzoqlarga suzib ketishni xayol qilardi.

Bolaning baliqqa aylanib qolish orzusi va oq kema o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

Bola hozir durbindan ko‘lobga qarab turib, ko‘ylak-ishtonini yechib, qip-yalang‘och junjikib suvga tushishini tasavvur qildi. Tog‘ daryolarining suvi hamisha sovuq, entiktiradi, lekin keyin ko‘nikib qolasan. Tolning shoxchasini ushlab, oqimga yuzi bilan otilishni ko‘z oldiga keltirdi. Boshi uzra suv shovullaganicha qo‘shilib ketadi, qorni ostidan, yelkalari ustidan suv qaynab oqib o‘tadi. Suv ostida tashqaridagi hamma tovushlar tinib, quloqlarda faqat suvning shildirashi qoladi. U ko‘zlarini katta-katta ochib, suv ostida nimaiki ko‘rinsa, jon-jahdi bilan tikiladi. Ko‘zlari sanchib ketadi, og‘riydi, lekin u mag‘rur jilmayadi, hatto suvda turib tilini ko‘rsatadi. Bilib qo‘ysin, hech qayerda ham cho‘kmaydi va hech qayerda hech nimadan qo‘rqmaydi. Keyin u qo‘lidagi shoxchalarni qo‘yib yuboradi, toki u oyoqlari bilan to‘siqdagi toshlarga tiralib qolmagunga qadar suv uni surib ketaveradi. Shu yerda nafasi ham qaytadi. U suvdan sapchib turadi-da, qirg‘oqqa chiqadi va tol shoxchasi tomon chopqillab ketadi. Bu takrorlanaveradi. U bobosi yasagan ko‘lobda kuniga yuz marta cho‘milishga ham tayyor. Xullas, baliqqa aylanmaguncha cho‘milaveradi. Qanday bo‘lmasin, uning baliqqa aylanishi shart...

Quyosh ko‘l tomonga og‘a boshladi. Havo unchalik issiq emasdi. Sharq tarafdagi qiyaliklarga birinchi, kalta soyalar tushdi. Quyosh endi tobora pastga, tog‘lar poyiga cho‘zilaverdi. Odatda kunning ayni shu mahalida Issiqko‘lda oq kema ko‘rinardi.

Bola durbinni ko‘zga tashlanib turgan o‘sha eng uzoqdagi joyga burdi va nafasini yutib kutib turdi.

Ana u! Hamma narsa birdan unutildi: u yerda, oldinda, Issiqko‘lning ko‘m-ko‘k sathida oppoq kema paydo bo‘ldi. Mana, qalqib chiqdi. Ana u! Trubalari qator tizilgan, o‘zi kuchli va chiroyli. U xuddi ip tortib qo‘ygandek to‘g‘ri va bir tekis suzib borardi. Bola shosha-pisha durbin oynalarini ko‘ylagining etaklari bilan artdi-da, yana okulyarni to‘g‘rilay boshladi. Kemaning ko‘rinishi yanada tiniqroq bo‘ldi. Endi uning to‘lqinlararo qanday chayqalib, quyrug‘i ortidan qanday oppoq ko‘pikli iz qoldirib ketayotganligini ilg‘asa bo‘lardi. Bola oq kemadan ko‘z uzmay, unga zavq bilan tikilardi. Bolaning ixtiyorida bo‘lganda edi, undagi odamlarni ko‘rish mumkin bo‘lishi uchun oq kemani yaqinroq suzib kelishiga yolvorib ko‘ndirgan bo‘lardi. Lekin kema bulardan bexabar edi. U o‘z yo‘lidan ... ohista va ulug‘vor suzib borardi.

Kemaning suzib borishi uzoq vaqt ko‘rinib turdi, bola ham uzoq vaqt baliqqa aylanib, daryo bo‘ylab unga – oq kemaga qarab suzib ketishi haqida xayol surib qoldi...

Bola bir kuni Qorovultog‘dan turib ko‘m-ko‘k Issiqko‘lda oq kemani birinchi marta ko‘rib qolganida uning go‘zalligidan yuragi gupurib, darhol otasini – issiqko‘llik matrosni – xuddi shu oq kemada suzayotir degan qarorga kelgandi. Bola o‘zi bunga ishonar, chunki shunday bo‘lishini juda-juda istardi.

U na otasini, na onasini eslay olardi. Bola ularni biron marta ham ko‘rmagan. Ularning hech biri uni biron marta ham yo‘qlab kelmagan. Lekin bola bilardi: otasi Issiqko‘lda matros, onasi esa otasidan ajrashgandan so‘ng o‘g‘lini boboga qoldirib, o‘zi shaharga ketgan. Ketgan-u, shu bo‘yi g‘oyib bo‘lgan. Tog‘ ortidagi, ko‘l ortidagi, yana tag‘in tog‘ ortidagi uzoq shaharga ketgan.

Kema sekin uzoqlashib borardi. Trubasidan tutun burqsitib, ko‘lning ko‘m-ko‘k silliq sathida suzib borayotgan bu oppoq va uzun kema baliqqa aylangan bolaning o‘zi tomon suzib kelayotganini bilmasdi. U shunday baliqqa aylanib qolishni orzu qilardiki, baliqning hamma joyi: tanasi, dumi, suzgich qanotlari, tangachalari unga o‘tsa-yu, faqat ingichka bo‘yinli, shalpangquloqli, tirnalgan burunli boshi o‘zida qolsa bas. Ko‘zlari ham o‘ziga qolsin. Lekin xuddi hozirgiday emas, chin baliqday ko‘radigan bo‘lishsin.

Bolaning kipriklari xuddi buzoqnikiga o‘xshash uzun-uzun bo‘lib, hamisha o‘zidan o‘zi nimagadir pirpirab turadi. Guljamol: “Qizimning ham kipriklari shunday bo‘lgandami, qanday chiroyli bo‘lardi!” – deydi. Chiroyli bo‘lishning nima keragi bor? Shaxsan unga chiroyli ko‘zlarning keragi yo‘q, unga suv ostida ko‘ra oladigan ko‘zlar kerak.

Bobo yasagan ko‘lobga kelganda u baliqqa aylanadi. Bir qarabsizki, u baliq-da. So‘ngra ko‘lobdan daryoga, naq pishqirib shiddat bilan oqayotgan daryoga sakrab, oqim bo‘ylab suv ostiga sho‘ng‘ib ketardi. Keyin ham shu tarzda sakrab-sakrab atrofga nazar tashlab boradi, qizig‘i yo‘q joylarda faqat suv ostida suzadi. Qorovulxona yonidan suzib o‘tayotganda esa suvdan sakrab chiqib, suzgich qanotlarini bobosiga silkitadi: “Xayr, bobo, men tezda qaytaman”. Bobo shunda hayratdan dovdirab nima qilishini bilmay qolarmidi? Buvi, Bo‘key xola, Guljamol qizchasi bilan – hammasi og‘zini ochib qolarmidi? Qayerda kim ko‘ribdi – kallasi odam-u, tanasi baliqni? Bola esa ularga suzgich qanotlarini silkitib qo‘yardi: “Xayr, men Issiqko‘lga, oq kemaga suzib boraman. U yerda mening

matros dadam bor”. O‘zi esa suzib ketaveradi. Osma ko‘prikning sim arqoni ostidan, keyin to‘qaylar yonidan, so‘ng gumburlab turgan daradan o‘tib, to‘g‘ri Issiqko‘lga suzib boradi.

Issiqko‘l deganlari – bu butun bir dengiz. U Issiqko‘l to‘lqinlarida suzib yuradi, to‘lqindan to‘lqinga ko‘chadi va shunda oq kemaning qarshisidan chiqib qoladi. “Salom, oq kema, bu menman! – deydi u. – Durbindan har doim senga qaragan menman”. Kemadagi odamlar hayratdan yoqa ushlab, mo‘jizani ko‘rgani yugurishadi. Shunda u o‘zining matros otasiga so‘z qotadi. “Salom, dada, men sizning o‘g‘lingizman. Men sizning oldingizga suzib keldim”. “Sen qanaqa o‘g‘ilsan? Sen yarim baliq, yarim odamsan-ku!” “Siz meni o‘z oldingizga, kemaga chiqarib oling, shunda sizning o‘g‘lingiz bo‘lib qolaman”. “Voy, tavba. Qani, ko‘raylik-chi”. Otasi to‘r tashlab uni suvdan palubaga tortib oladi. Shunda u o‘z asliga qaytadi. Keyin-chi, keyin...

Keyin oq paroxod o‘z yo‘lida suzib ketaveradi. Bola otasiga hamma narsa haqida, butun hayoti davomida nimaiki bilgan bo‘lsa, hikoya qilib beradi. O‘zi yashab turgan tog‘lar haqida, o‘sha xarsangtoshlar haqida, daryo va noyob o‘rmon haqida, baliqday ko‘zi ochiq suzishni o‘rgangan yeri – bobosining ko‘lobi haqida so‘zlaydi.

Oq kema uzoqlashib ketdi. Uning trubasini durbinda ham ko‘rish mumkin bo‘lmay qoldi. Hademay u ko‘zdan yo‘qoladi. Endi bolaga otasining kemada suzishi haqidagi o‘ylariga nuqta qo‘yish payti keldi. Hammasi yaxshi boshlangan edi, mana, oxiri uncha xush kelmadi.

Oq kema ko‘zga elas-elas ilashuvchi bir nuqtaga aylanib, tobora uzoqlashib boradi. Quyosh suvga bosh qo‘ydi. Ko‘l yuzasidagi ko‘zni qamashtiruvchi olovli binafsharang yog‘du durbindan ko‘rinib turadi.

Kema ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Shunday qilib, oq kema haqidagi ertak ham tugadi.

Muhokama qilamiz

1. Bolaning xayolparastligi sabablarini qanday izohlagan bo‘lardingiz?
2. Nima uchun durbin va portfel bola uchun qadrli edi? U “Endi biz uchtamiz – men, sen va durbin...” deganda nimani nazarda tutdi?
3. Bolaning “Otasi – issiqko‘llik matros, oq kemada suzayotir” degan fikrga ishonishi sabablarini qanday izohlaysiz?

Ijodiy ish

“Oq kema” qissasidagi bolaga maktub yozing. Maktubingizda uning kechinmalariga munosabatingizni va tavsiyalaringizni aks ettiring.

Topshiriq

Asarning III qismini o‘qing.

III

Bobosi bolaga qirg‘izlar uchun muqaddas hisoblangan Shoxdor ona bug‘u haqidagi ertakni aytib beradi. Bolaning qalbida pokiza, oliyjanob va mehribon bug‘uga nisbatan cheksiz muhabbat paydo bo‘ladi. Quyida shu ertakning bayoni beriladi.

...Bu juda qadimda bo‘lib o‘tgan. Bir qirg‘iz qabilasi ulkan va muzday daryo bo‘yida yashardi. U bu yerlardan uzoqda, Sibirdan boshlanadi. U yerlarga otda uch yil-u uch oyda yetib borish mumkin. Bu daryoni hozir Yenisey deyishadi, ilgarilari Enasoy deb yuritishgan. U haqda shunday qo‘shiq ham to‘qishgan:

Sendan ulkan daryo bormi, Enasoy?!
Senday aziz tuproq bormi, Enasoy?!
Sendan chuqur dard ham bormi, Enasoy?!
Sendan ozod quchoq bormi, Enasoy?!

Sendan ulkan daryo yo‘qdir, Enasoy,
Sendan aziz tuproq yo‘qdir, Enasoy,
Sendan chuqur dard ham yo‘qdir, Enasoy,
Sendan ozod quchoq yo‘qdir, Enasoy.

Enasoy bo‘yida turli elatlar yashashardi. Ular g‘oyat og‘ir hayot kechirishardi, chunki bir-biriga doimo adovat ko‘zi bilan qarar edilar. Qirg‘iz qabilasini dushmanlar turli tomondan qurshab olgandi. Goh ular, goh bular hujum qilishar, goho qirg‘izlarning o‘zi ham boshqalarga chovut solib, mollarini haydab ketishar, uylariga o‘t qo‘yishar, odamlarini o‘ldirishardi. Odamning odamga ichi achimasdi. Odam odamni g‘ajirdi. Shu darajaga borildiki, hech kimning dehqonchilik qilgisi, mol boqqisi, ov qilgisi kelmay qoldi. Qaroqchilik bilan kun kechirish oson tuyulardi: qo‘qqisdan bosasan, o‘ldirasan, olasan-ketasan. Bir qotillikka qasdma-qasd o‘n qotillik bilan javob berishga harakat qilishardi. Shu zaylda kun o‘tgan sayin ko‘proq qon to‘kilardi. Dushmanga qiron keltirib, o‘zga qabilaning so‘nggi odamigacha qonini oqizgan, mol-u mulkini qo‘lga kiritganlar eng aqlli va uddaburon sanalardi.

Enasoy bo‘yidagi elatlarning og‘ir hayot kechirishi
bir-biriga adovati bilan bog‘liqmi?

O‘rmonda bir g‘aroyib qush paydo bo‘ldi. Inson ovoziga o‘xshash ayanchli ovoz bilan tundan tonggacha sayrar va yig‘lar, shoxdan shoxga sakrar va so‘ylardi: “Katta baxtsizlik bo‘ladi! Katta baxtsizlik bo‘ladi!” Shunday bo‘ldi ham. O‘sha qora kun keldi.

O‘sha kuni qirg‘iz qabilasi Enasoy bo‘yida o‘zining buyuk oqsoqolidan judo bo‘ldi. Botir Qulchi ko‘p yillar yo‘lboshchilik qildi, ko‘pgina yurishlarda, jang-jadallarda qatnashdi. Janglarda omon qoldi, lekin ajali yetdi. Qabiladoshlar ikki kun g‘am-alamda o‘rtandilar, uchinchi kuni esa botirning jasadini yerga topshirgani yig‘ildilar. Eski odatga ko‘ra, buyuk oqsoqolni Enasoyning o‘nqir-cho‘nqir qirg‘og‘i bo‘ylab so‘nggi yo‘lga kuzatish kerak

edi, toki marhumning ruhi Enasoy daryosi bilan yuksaklikda judolashsin, qalbi Enasoy haqidagi qo‘shiqni so‘nggi bor kuylasin.

...Botirning jasadini dafn etishga olib o‘tishganda har bir oila o‘z ostonasi oldida u bilan vidolashdi, oq motam yalovini egib, uv tortib yig‘lashdi, keyin boshqalar bilan birga qo‘shilib yana oq motam yalovlarini egiltirgan holda aytib yig‘lashayotgan kelgusi o‘tov tomon ilgarilab borishadi va shu zaylda so‘nggi manzil – qabristongacha yetib borish uchun motam kunlarida barcha qabiladoshlar o‘tovlarini daryo yoqasiga qator tikishdi.

O‘sha kuni hamma tayyorgarlik ko‘rib bo‘linganda quyosh uyqudan bosh ko‘targandi. Uchiga otning dumi bog‘langan tug‘ va botirning urush aslahalari – nayza va qalqoni olib chiqildi. Uning oti dafn yopinchiqlari bilan burkalgan edi. Karnaychilar jangovar kuy chalishga, barabanchilar barabanga tayoqni jon-jahdlari bilan urishga shay edilarki, toki o‘rmon larzaga kelsin, qushlar bulut yanglig‘ osmonga ko‘tarilib, shovqin-suron va nola solsinlar. Yirtqich hayvonlar bo‘kirib-hayqirib chakalakzorlarga chopib qolsin, maysalar yerga qapishib ketsin, sadolar jaranglab, tog‘lar larzaga keltirilsin. Motamsaro ayollar sochlarini yoyib botir Qulchiga aza ochishga shay turishardi. Yigitlar zabardast yelkalarida botirning katta og‘ir jasadini bezovta qilmay ko‘tarish uchun tiz cho‘kkan edilar. Hamma narsa botirni oxirgi yo‘lga kuzatib qo‘yishga tayyor edi. O‘rmon etagida esa to‘qqizta biya, to‘qqizta ho‘kiz, to‘qqizta to‘qqizlik qo‘y qurbonlik uchun hozirlab qo‘yilgan edi.

Shunda kutilmagan hodisa ro‘y berdi. Enasoyliklar bir-birlariga qanchalik dushman bo‘lmasin, oqsoqollarning dafn marosimi kunlarida bir-biri bilan urush qilishni rasm qilmagan edilar. Mana hozir esa bir to‘da dushman g‘am-anduhga botgan qirg‘oqdagilarni tong chog‘i to‘rt tomondan sezdirmay o‘rab kelib, pistirmalardan barobariga otilib chiqib, hamlaga o‘tdilarki, oqibatda hech kim otga ham minolmadi, qo‘liga qurol ham ololmadi. Shu tariqa ko‘z ko‘rmagan qirg‘in boshlandi. Hammani bir chekkadan o‘ldira boshlashdi. Hammani bir boshdan qilich damidan o‘tkazishdi, toki bu yovuzlikni hech kim yodga olmasin, qasoskor qolmasin, vaqt esa o‘tmish izlarini qumlar bilan ko‘mib tashlasin.

Insonni tug‘ish va o‘stirish qanchalar qiyin, o‘ldirish esa oson. Ba’zi birovlar o‘z qoniga botib qiymalanib yotishar, birovlar esa qilich va nayzadan qutulib qolmoq uchun o‘zini daryoga otar, Enasoy to‘lqinlari orasida cho‘kib ketardi. Daryo yoqalab jarliklar-u, tikka kesib tushgan qirg‘oqlar bo‘ylab butun bir chaqirim yo‘lda olovga qoplangan qirg‘iz o‘tovlari lovullab yonardi. Hech kim qochib qutula olmadi, hech kim omon qolmadi. Hammasi o‘ldirildi va kuydirildi. O‘lib yotganlarning jasadini qirg‘oqdan Enasoyga uloqtirdilar. Dushmanlar: “Endi bu yerlar bizniki! Endi bu o‘rmonlar bizniki! Endi bu mollar bizniki!” deb quvonishardi. Ular boy o‘lja bilan qaytishar ekan, o‘rmondan ikki bola – bir o‘g‘il va bir qizning qanday chiqib kelganini payqashmadi. Bu o‘zboshimcha va sho‘x bolalar ota-onalaridan yashirincha ertalaboq yaqin o‘rmonga qo‘lsavat uchun po‘stloq shilgani ketishgandi. Ular o‘ynab yurishib, o‘rmonning ancha ichkarisiga kirib ketishganini sezmay qolishdi. Jang suronini eshitib orqaga otilgan go‘daklar na otasini, na onasini, na akasini, na opasini tirik topa oldilar. Ular bo‘zlab kultepadan kultepaga chopishar, lekin bironta tirik jonni topib bo‘lmasdi. Bir zum ichida yetim bo‘lib qolishdi.

Matnda enasoyliklarga xos qanday xususiyatlarni kuzatdingiz?

Bolalar tuyoqlar ostidan ko‘tarilgan changni ko‘rib, o‘sha tomonga yugurishdi. Ular qonxo‘r dushman izidan yig‘lab, qichqirib chopishardi. Faqat bolagina shunday soddadil bo‘ladi. Jallodlardan yashirinish o‘rniga ularga yetib olishga shoshiladi. Har nima bo‘lsa ham yolg‘iz qolishmasa, bu vayronadan, la’nati joydan nari ketishsa bas. Bir-birining qo‘lidan ushlab olgan bola va qizcha ketayotganlar orqasidan quvib yetishsa, ularni o‘zlari bilan birga olib ketishlarini yolvorib so‘rashardi.

Bolalar jon-jahdi bilan uzoq chopishdi. Lekin baribir yetib olisholmadi. Keyin esa yiqilib qolishdi. Atrofga boqishga, qimirlashga qo‘rqishardi. Shu zaylda bir-birining pinjiga kirib, ko‘zlari yumilganini bilmay qolishdi. Tun bexatar o‘tdi. Hayvon ularga tegmadi, o‘rmon maxluqlari ko‘tarib ketmadi. Ular uyg‘onishganda tong otgandi. Quyosh nur sochib, qushlar sayrardi. Bolalar o‘rinlaridan turib yana yo‘lga tushishdi.

Yo‘l yura-yura uchinchi kuni bir tog‘ tepasida to‘xtashdi. Pastga qarashsa, keng, yam-yashil maysazorda katta tantana bo‘layotibdi. Bu yerda tikilgan o‘tovlarning, gurullab yonayotgan gulxanlarning, gulxan atrofida o‘tirganlarning son-sanog‘i yo‘q. Qizlar hayinchak uchib, polvonlar xuddi burgutday gir aylanib, bir-birini irg‘itib otishyapti. Dushmanlar o‘zlarining g‘alabasini nishonlashardi.

Bola bilan qiz yaqin borishni ham, bormaslikni ham bilmay, tog‘ tepasida turishardi. Lekin go‘sht qovurdoq, non, sarimsoqning yoqimli hidi ufurib turgan gulxan atrofida paydo bo‘lib qolishni istashardi. Bolalar chidab turisha olmadi, tog‘dan tusha boshlashdi. Tantana egalari ularni to‘da bo‘lib o‘rab olishdi.

– Kimsanlar? Qayoqdan?

– Biz ochmiz, – javob berdi bola bilan qizcha, – bizga yeydigan bir nima bersangiz.

Ular bolalarning tilidan kim ekanligini darrov payqab qolishdi. Baqirib, chaqirib shovqin solishdi. “Tugatilgan dushman oilasining omon qolgan a’zolarini hozir o‘ldirish kerakmi?” – deb bahsga tushib ketishdi. Ular bahslashib turganda rahmdilgina bir ayol bolalarga jindek pishgan ot go‘shti uzatdi. Bolalarni xon huzuriga sudrab borishar ekan, ular qo‘llaridagi ovqatni yutoqib yeyaverishdi. Ostonada oybolta ushlab turgan yasovullar ularni xonning baland qizil o‘toviga olib kelishdi. Butun qarorgoh bo‘ylab esa allaqayoqdan paydo bo‘lib qolgan qirg‘iz zotlari haqidagi tashvishli xabar tarqaldi. Bu nimadan darak berishi mumkin? Hamma o‘yin va tantanani tark etib, ur-to‘polon bilan xonning o‘tovi tomon chopib ketdi. Bu payt xon mashhur lashkarboshilari bilan qorday oppoq namat to‘rida savlat to‘kib o‘tirardi. U asal qo‘shilgan qimizni simirib, maqtov qo‘shiqlarini sel bo‘lib tinglab o‘tirardi. Xon odamlar nima uchun to‘planishganini bilgach, g‘azabdan quturib ketdi: “Meni bezovta qilishga qanday jur’at etdilaring? Biz axir qirg‘iz zotini butunlay qirib tashlamagan edikmi? Men senlarni Enasoyning abadiy hukmroni qilib qo‘ymadimmi? Namuncha o‘pkalaringni qo‘ltiqlab yugurib kelmasanglar, qo‘rqoqlar? Qaranglar, oldilaringda kim turibdi! Ey cho‘tir yuzli Baymoq kampir!” – qichqirdi xon. Kampir olomon orasidan ajralib chiqqanda dedi: “Mana bularni o‘rmonga olib borib shunday qilginki, shu bilan qirg‘iz zoti tugasin, xayolda ham qolmasin, nomi abadiy o‘chsin”.

Cho‘tir Baymoq kampir jimgina itoat etib, bola bilan qizning qo‘lidan ushladi-da, olib ketdi. Ular o‘rmon oralab uzoq yurgach, Enasoy qirg‘og‘idagi baland jarlikka yetib kelishdi. Cho‘tir Baymoq kampir bolalarni shu yerda to‘xtatib, ularni jar yoqasiga olib keldi. So‘ng ularni jarlikka itarib yuborishdan oldin shunday dedi:

– O, muazzam Enasoy daryosi! Agar yuz yillik qarag‘ayni tashlasa, uni cho‘pday oqizib ketasan. Kel, endi ikki qum zarrasi – ikki inson bolasini bag‘ringga olgin. Ularga yer yuzida joy yo‘q. Senga men aytib turishim kerakmi, Enasoy? Agar yulduzlar odamga aylanib qolsa bormi, osmon ularga torlik qilib qoladi. Senga men aytib turishim kerakmi, Enasoy? Ol bu bolalarni, uloqtirib ket. Qo‘y, ular bu manfur dunyoni go‘daklikda, toza qalb bilan, bolalik hayosi bilan, yovuz niyat va yovuz ishlar qilib o‘z nomiga isnod keltirishga ulgurmasdanoq tark etishsin, toki insonga azob-uqubatni ko‘rish va boshqalarning ham g‘am-alamiga sababchi bo‘lish nasib etmasin. Ol bularni, ola qol bularni, qudratli Enasoy...

Bolalar zor qaqshab, ho‘ngrab yig‘lardi. Tik qirg‘oqdan pastga qarash qanchalik dahshatli ekanini ko‘rib turgan bolalarning qulog‘iga kampirning so‘zi kirmasdi. Pastda quturgan to‘lqinlar sapchiydi.



– Quchoqlashinglar, bolalar, oxirgi marta xayrlashib olinglar, – dedi Cho‘tir Baymoq. O‘zi esa ularni jarga irg‘itish qulay bo‘lsin uchun yenglarini shimardi. Keyin shunday dedi:

– Endi meni kechiringlar, bolalar. Peshonangizga yozgani shu ekan. Bu ishni hozir o‘z ixtiyorim bilan qilmayotgan bo‘lsam ham, lekin sizlarning baxtingizga...

U gapini tugatmagan ham ediki, yonginasidan bir ovoz keldi.

– To‘xta, dono, oqila kampir. Gunohsiz bolalarni juvonmarg qilma.

Cho‘tir Baymoq kampir qayrilib qaradi-yu hayratda qoldi: qarshisida g‘aroyib Ona bug‘u turardi. Uning yirik-yirik ko‘zlari ta’nali va g‘amgin boqardi. U sutdek oq, qorni bo‘taloqning yungidek qo‘ng‘ir yung bilan qoplangan. Shoxlari bo‘lsa, serbutoq, go‘yo kuzgi daraxtning bir shoxi. Yelini emizikli ayolning ko‘kragidek top-toza va silliq.

– Kimsan? Nega odamga o‘xshab gapiryapsan? – so‘radi Cho‘tir Baymoq kampir.

– Men Ona bug‘uman, – javob berdi u. – Shuning uchun odamga o‘xshab gapirdimki, bo‘lmasa sen tushunmaysan, quloq ham solmaysan.

– Nima istaysan, Ona bug‘u?

– Qo‘yib yubor bolalarni, donolarning donosi. Sendan iltimos qilaman, ularni menga ber.

– Nima qilasan ularni?

– Odamlar mening ikki egizimni, ikki bug‘u bolasini o‘ldirishdi. Men o‘zimga bola izlab yuribman.

– Sen bularni boqmoqchimisan?

– Ha, donolarning dono ayoli.

– Yaxshilab o‘ylab ko‘rdingmi, Ona bug‘u? – masxaraomuz kuldi Cho‘tir Baymoq kampir. – Bular axir odam bolasi-ku. Bular katta bo‘lishadi, keyin sening bolalaringni o‘ldirishadi.

– Ular katta bo‘lishsa, mening bolalarimni o‘ldirishmaydi, – javob qildi unga bug‘ular onasi. – Men ularga ona bo‘laman, ular esa mening bolalarim. Axir ular o‘z aka-ukalarini o‘ldirisharmidi?

– Eh, Ona bug‘u, sen odamlarni bilmaysan, – bosh tebratdi Cho‘tir Baymoq kampir, – ular hayvonlargagina emas, hatto o‘z-o‘zlariga ham rahm-shafqat qilishmaydi. Bu yetimchalarni senga berardim, shunda mening so‘zlarim qanchalik rostligiga o‘zing guvoh bo‘larding, lekin odamlar baribir qo‘lingdan tortib olib, bu bolalarni o‘ldirishadi. Buncha g‘amning senga nima keragi bor?

– Men ularni uzoq o‘lkalarga olib ketaman, u yerdan bolalarni hech kim qidirib topolmaydi. Bolalarga rahm qil, donolarning donosi, ozod qil ularni. Men ularga sadoqatli ona bo‘layin. Yelinlarim to‘lib turibdi, sutim bolalarni orziqib kutyapti. U bolalarga intizor.

– Ha, mayli, unday bo‘ladigan bo‘lsa, – dedi oxiri Cho‘tir Baymoq kampir o‘ylab turib, – bularni tezroq olib jo‘na. Yetimlarni o‘zingning uzoq yurtingga olib ket. Agar ular uzoq yo‘l yurib toliqib halok bo‘lsa yoki duch kelgan qaroqchilar o‘ldirib ketsa, yoki bu odam bolalari sening yaxshiligingga yomonlik bilan javob qaytarishsa, o‘zingdan ko‘r.

Muhokama qilamiz

1. Mutolaa qilingan parchada qanday mazmun, mohiyat aks etgan?
2. Baymoq kampir va Ona bug‘u suhbatidan nimalarni uqdingiz? Nima uchun bolalarning xaloskori sifatida aynan bug‘u tanlangan?
3. Parchadan ezgulik va yovuzlik ifodalangan o‘rinlarni toping hamda ularni bugungi hayot bilan bog‘lang.
4. Enasoyga bag‘ishlangan qo‘shiq xalqning daryoga qanday munosabatini ifodalaydi?
5. Sizningcha, yozuvchi asarga Shoxdor ona bug‘u haqidagi ertakni kiritishdan qanday maqsadni ko‘zlagan?

Topshiriq

Asardan olingan parchaning IV qismini o‘qing.

IV

Ona bug‘u Cho‘tir Baymoq kampirga minnatdorchilik bildirdi. Bola bilan qizga esa:

– Endi men sizlarning onalaringman, sizlar esa mening bolalarimsiz, – dedi. – Sizlarni uzoq yurtga, qorli tog‘ va daraxtzorlar qo‘ynida joylashgan iliq dengiz – Issiqko‘lga olib ketaman.

Bola va qizcha shodlanib, Shoxdor ona bug‘u ortidan chopqillab ketishdi. Lekin asta-sekin charchab, holdan toyishdi, yo‘l esa olis – dunyoning bu chetidan u chetiga cho‘zilgan. Ona bug‘u bolalarni o‘z suti bilan boqib, kechalari bag‘riga bosib isitmaganda ular hech qayerga yetisholmasdi. Ular uzoq yurishdi. Ona yurt bo‘lmish Enasoy tobora ortga chekinib borar, lekin yangi vatan bo‘lmish Issiqko‘lga hali juda uzoq edi. Yo‘l yurishdi, yo‘l yurishsa ham mo‘l yurishdi. Yoz-u qish, ko‘klam-u kuz, yana yoz-u qish, yana bahor-u yana yoz va kuz qalin o‘rmonlardan, jazirama cho‘llardan, ko‘chma qumli sahrolardan, baland tog‘lardan va hayqirib oqqan daryolardan ne mashaqqatlar bilan o‘tishdi. Ularning izidan bo‘rilar galasi quvdi. Shoxdor ona bug‘u esa bolalarni ustiga mindirib yovuz yirtqichlardan qutqarib ketdi. Ularning izidan tushgan otliq ovchilar o‘q uzib: “Bug‘u odam bolasini o‘g‘irlab ketyapti! Ushla! Tut!” deya qichqiriqlar va ketma-ket o‘qlar uzishardi. Shoxdor ona bug‘u bolalarni opichib, g‘izillab uchayotgan o‘qlarga, chaqirilmagan qutqaruvchilarga qaramay yelib borardi.

Oxiri Shoxdor ona bug‘u o‘z bolalarini Issiqko‘lga yetkazib keldi. Chor atrof qorli tog‘lar bilan qoplangan, tog‘lar o‘rtasida ko‘m-ko‘k o‘rmon, ko‘z ilg‘agan hamma joyda dengiz chayqalib shovullab turardi. Ko‘m-ko‘k suv yuzida oppoq to‘lqinlar yugurar, shamol ularni uzoqlardan haydab kelib, yana yiroqlarga haydab ketardi.

– Mana shu yangi vataningiz bo‘ladi, – dedi Shoxdor ona bug‘u. – Mana shu yerda yashaysizlar, yer haydaysizlar, baliq tutasizlar, mol-u hol qilasizlar. Ming yillar tinch-totuv yashanglar. Ha, sizlarning avlodingiz yashaydi, ko‘payadi. Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutishmaydi. Ularga o‘z ona tillarida so‘zlash va kuylash yoqimli bo‘ladi. Insonlar qanday yashashi lozim bo‘lsa, shunday yashanglar.

Ona bug‘uning bolalariga qarata aytganlariga munosabat bildiring.
Qanday yashash “odamday yashash” bo‘ladi?

Mana shunday qilib, bola va qizcha mangu jannatmakon Issiqko‘lda o‘zlariga yangi makon topdilar.

Vaqt tez o‘tib boraverdi. Bola baquvvat yigit bo‘ldi, qiz bo‘yga yetdi. Shunda ular er-xotin bo‘ldilar. Shoxdor ona bug‘u esa Issiqko‘lni tark etmasdan, yaqin o‘rtadagi o‘rmonda yashay boshladi.

Bir kuni tong mahali Issiqko‘l qo‘qqisdan notinchlanib, shovullay boshladi. Qizni to‘lg‘oq tutib, azoblanmoqda edi. Er esa cho‘chib ketdi. Qoya ustiga chopib chiqdi-da, ovozining boricha chaqira boshladi:

– Qaydasan, Shoxdor ona bug‘u? Issiqko‘l qanday shovqin solyapti, eshityapsanmi? Qizing tug‘yapti, tezroq kel, Shoxdor ona bug‘u, bizga yordam ber...

Shoxdor ona bug‘u yetib keldi. U shoxlarida beshik keltirdi. Beshik oppoq qayindan yasalgan bo‘lib, bandida kumush qo‘ng‘iroqcha jaranglab turardi. Shoxdor ona bug‘u yetib keldi, shu payt qizning ham ko‘zi yoridi.

– Bu beshik sizlarning to‘ng‘ichlaringiz uchun, – dedi Shoxdor ona bug‘u. – Hali ko‘p farzand ko‘rasizlar. Yetti o‘g‘il, yetti qiz!

Ota-ona xursand bo‘lishdi. To‘ng‘ich farzandlarini Shoxdor ona bug‘u sharafiga – Bug‘uboy deb atashdi. Bug‘uboy o‘sib ulg‘aydi, qipchoqlar avlodidan bo‘lgan go‘zal qizga uylandi, shu bilan uning avlodi ko‘paya boshladi. Bug‘uboy avlodlari Issiqko‘lda ko‘p va qudratli bo‘lib qoldi. Bu avlod Shoxdor ona bug‘uni muqaddas deb bilishardi. Bug‘uboy avlodlarining o‘tovida eshik tepasiga bug‘u shoxi osib qo‘yilar, bu esa, uzoq-uzoqlardan ham o‘tovning bug‘uboylar avlodiga mansub ekanligidan darak berib turardi. Bosqinchi dushmanlarni daf etganda yoki poyga musobaqalarida Bug‘uboy avlodlarini “Bug‘u!” degan birgina laqabning o‘zidan ham anglab olishar, ular esa har doim g‘olib chiqishardi. O‘sha kezlar Issiqko‘l o‘rmonlarida oppoq shoxdor bug‘ular bo‘lardi, go‘zalligiga hatto ko‘kdagi yulduzlarning ham rashki kelardi. Ular Shoxdor ona bug‘uning bolalari edi. Ularga hech kim tegmasdi, hech kim hurkitmasdi.

Bug‘uboy avlodlari bug‘uga duch kelgan joyda otdan tushib, unga yo‘l berishardi. Oshiqlar suygan qizlarini suluvlikda go‘zal oq bug‘uga qiyos qilishardi...

Bug‘uboy avlodining oshib-toshib ketgan mashhur bir boyi o‘lgunga qadar shu odat saqlanib qoldi. Uning ming-minglab qo‘ylari bo‘lib, mollariga qaraydigan qancha-qancha cho‘ponlar ham izmida edi. O‘g‘illari unga katta ma’raka qilishdi. Ular bu ma’rakaga yer yuzining hamma mashhur kishilarini chaqirishdi. Mehmonlar uchun Issiqko‘l qirg‘og‘iga bir ming bir yuzta o‘tov tikdilar. Qancha mol so‘yildi, qancha qimiz ichildi, qancha noz-ne’matlar berildi, sanog‘iga yetib bo‘lmasdi. Boyning o‘g‘illari gerdayib yurishardi. Axir otadan bitmas-tuganmas meros qolganligini, farzandlar otani hurmatlab, uning xotirasini qanday e’zozlashlarini odamlar ko‘rib qo‘yishsin-da...

Dovruq solgan ma’raka ko‘p kunlik bayramday o‘tdi. Boyning maqtanchoq o‘g‘illari boshqalarni lol qoldirishni, shuhratlari olamga yoyilishini orzu qilishdi. Yana buning ustiga mangu uyquga ketgan shavkatli otalari Shoxdor ona bug‘u avlodidan ekanligini hamma bilishi uchun qabriga bug‘u shoxini o‘rnatishni o‘ylab topishdi.

Aytilgan so‘z – otilgan o‘q. Ovchilarni yollashdi. Ovchilar bug‘u otib, shoxini tanasidan ajratishdi. Bug‘u shoxlarining tepaga taranib turishi ko‘kda parvoz qilayotgan burgutning qanotlariga o‘xshardi. Bug‘u shoxlari o‘g‘illarga yoqib tushdi: ularning har biri o‘n sakkiz butoqqa bo‘lingan, demak, o‘n sakkiz yoshda ekan.

Ular shoxni qabr ustiga o‘rnatish uchun ustalarga farmon berishdi.

Hamma balo shundan boshlandi. Shoxdor ona bug‘u avlodlarining boshiga katta baxtsizlik tushdi. Deyarli har bir kishi o‘rmonlarda oq bug‘ularni ovlashga tushib ketdi. Bug‘uboy avlodidan bo‘lgan har bir kishi o‘z ajdodlari qabriga bug‘u shoxi o‘rnatishni burch deb bilar edi. Bu ish endi marhumlar xotirasiga bo‘lgan muqaddas vazifa, alohida hurmatga aylandi. Kimki bug‘u shoxlarini topolmas ekan, endi uni odam o‘rnida sanamay

qo‘yishdi. Bug‘u shoxlari bilan savdo qilish, ularni oldindan g‘amlab qo‘yish odat tusiga kirib qoldi. Shoxdor ona bug‘u avlodlari orasida shunday kishilar paydo bo‘ldiki, ular bug‘u shoxlaridan o‘lja yig‘ishni, ularni pullashni hunar qilib oldilar.

Issiqko‘l o‘rmonlarida bug‘ularga qirg‘in keldi. Ularga shafqatsiz bo‘lishdi. Bug‘ular qadam yetmagan joylarga qochishdi, lekin u yerda ham qo‘yishmadi. Ovchilar tozilarni qo‘yib pistirma tomon haydashar, o‘zlari esa pistirmalarda bekinib yotib, yaqinlashgan bug‘ularni bexato otib olishardi. Bug‘ularni to‘da-to‘dasi bilan qirishdi. Shox butoqlari eng ko‘p bo‘lgan bug‘uni kim otarga garov bog‘lashardi.

Bug‘ular g‘oyib bo‘lishdi. Tog‘larni tark etishdi.

Shoxdor ona bug‘uga nima bo‘ldi? U odamlardan ranjidi, juda qattiq ranjidi. Aytishlaricha, son-sanoqsiz o‘qlar va tozilar dastidan bug‘ularga kun qolmagan, ularning eng so‘nggi avlodi barmoq bilan sanarli darajada oz qolgan chog‘da Shoxdor ona bug‘u eng baland cho‘qqiga ko‘tarilib, Issiqko‘l bilan vidolashibdi va so‘nggi bolalarini ulkan dovon ortiga, boshqa yurtlarga, boshqa tog‘larga boshlab ketibdi.

Shoxdor ona bug‘u ketishi oldidan bundan buyon bu yerlarga aslo qadam bosmayman, debdi...

Insoniyatning tabiatga shafqatsiz munosabatini qanday izohlaysiz?

* * *

Hammaga ezgulik qiluvchi Shoxdor ona bug‘u haqidagi ertakni aytib, bolaning qalbida cheksiz hayajon uyg‘otgan oliyjanob Mo‘min chol O‘rozqulning zug‘umi va baxtsiz qizining iltijosi tufayli o‘z qo‘li bilan bug‘u so‘yishga majbur bo‘ladi. Bu yoqimsiz hodisaga tasodifan guvoh bo‘lib qolgan ko‘ngli toza bola olamdan, odamlardan butunlay bezadi. Ulardan uzoq-uzoqlarga bosh olib ketgisi keladi.

* * *

...Chol bolaga qandaydir begonaday, g‘ayritabiiy va yovvoyi qarash qildi. Uning yuzlari qizarib ketgandi, u nabirasini ko‘rib yana ham qizarib ketdi. Qizillik nim pushti rangga kirdi va shu zahotiyoq boboning yuzlari oqara boshladi. Chol shoshilib o‘rnidan turdi.

– Iye, senmi? – dedi u bo‘g‘iq ovoz bilan nabirasini bag‘riga bosib. – Iye, senmi? – bundan boshqa biron so‘z ayta olmadi. Undagi to‘lqinlanish bolaga o‘tgandi.

– Tobingiz qochdimi, bobo? – tashvishlanib so‘radi bola.

– Yo‘q-yo‘q, o‘zim shunday, – ming‘illadi Mo‘min. – Sen bor, o‘ynab kel. Men bu yerda o‘t yoqyapman, bu hammadan...

U nabirasini deyarli itarib yuborib go‘yo butun olamdan yuz o‘girganday yana o‘choqqa qarab o‘girilib oldi. U tiz cho‘kkancha go‘yo faqat o‘t bilan bandday biron yoqqa burilib qaramasdi. Chol nabirasining tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgancha hovlida o‘tin yorayotgan Seydahmad tomon yo‘l olganini ham ko‘rmadi.

Bola bobosiga nima bo‘lganini, umuman, hovlida nima bo‘layotganini tushunmasdi. U saroyga yaqinlashgandagina yungi yerga qaratib yoyilgan teri ustiga yangi so‘yilgan molning uyib qo‘yilgan go‘shtiga ko‘zi tushdi. Teri chekkalaridan hamon xira qon tomchilari sizib tushayotgan edi. Sal nariroqda it ichak-chavoqlarni irillagancha silkilab tortardi.

Bola devor tagidagi shoxli bug‘u kallasini ko‘rib esankirab qoldi. Kesilgan kalla qop-qora qon tomchilarini oqizib changda yumalab yotardi. Bu yo‘lda yotgan egri-bugri daraxtni eslatardi. Kalla yonida tizzadan qirqilgan to‘rtta tuyoq yotardi. Bola bu dahshatli manzarani ko‘rib cho‘chib ketdi. U o‘z ko‘zlariga ishonmasdi. Uning oldida Shoxdor ona bug‘uning kallasi yotardi. U bu yerdan qochib ketishni istardi, lekin oyoqlari unga itoat etmasdi. U kalla-pocha qilingan oq bug‘uning qarshisida turardi. Kechagina Shoxdor ona bug‘u bo‘lib yurgan, unga oqko‘ngillik bilan suqlanib qaragan, xayolan gaplashgan va shoxida qo‘ng‘iroqcha taqilgan beshik keltirishni iltijo qilib so‘ragani o‘sha bug‘u edi.

Bola ketmoqchi edi, lekin u toshdek qotib, bu voqeaning qanday va nega sodir bo‘lganini tushuna olmay turardi. Go‘sht bo‘layotgan qora barvasta kishi uyilib turgan go‘shtning ichidan buyrak oldi-da, uni pichoqning uchiga sanchib bolaga uzatdi.

– Ma, bola, kabob qil, lazzatli bo‘ladi, – dedi u.

Bola qimirlamay turardi.

– Ol, – buyruq qildi O‘rozqul.

Bola beixtiyor qo‘lini cho‘zdi, so‘ng muzdek qo‘lida Shoxdor ona bug‘uning hali ham issig‘i ketmagan yumshoq buyragini g‘ijimlagancha ushlab turdi. Shu payt O‘rozqul oq bug‘uning kallasini shoxidan ushlab ko‘tarib ko‘rdi.

– Eh, og‘irligini qarang-a, – u kallani tebratib, og‘irligini salmoqlab ko‘rdi, – bitta shoxning o‘zi qancha keladi-ya.

U kallani g‘o‘laga ko‘ndalang qilib qo‘ydi va boltani olib shoxini ajratishga kirishdi.

– Mana, shox! – ushlab turib gapirardi u, o‘tkir boltani shoxlarning tubiga qadab. – Bu sening bobongga. – U bolaga qarab ko‘z qisib qo‘ydi. – O‘lishi bilan bu shoxni uning qabriga qo‘yamiz. Qani, endi kim bizga u kishini hurmat qilmaysizlar, deb ayta olar ekan. Yana nima kerak. Bunday shox uchun hatto bugunoq o‘lsang arziydi! – deya mo‘ljalga olarkan, O‘rozqul xoxolab kuldi.

Shoxni osonlikcha olib bo‘lmaydi. Uni olish juda qiyin edi. Mast O‘rozqulning boltasi nishonga borib tegmadi, bu esa battar jahlini chiqardi. Kalla g‘o‘la ustidan dumalab ketdi. Shunda O‘rozqul uni yerdayoq chopa boshladi. Kalla sirg‘alib chiqib ketaverdi. O‘rozqul bolta ko‘targanicha uning orqasidan chopib yurdi.

Bola seskanib ketdi, har gal ketmoqchi bo‘lib beixtiyor tisarilsa-da, bu yerdan ketishga o‘zini majbur etolmasdi. Uni allaqanday dahshatli bir kuch tutib turganday edi, u o‘z joyida turgancha shu narsaga ajablanar ediki, kiprik qoqmay baqrayib turgan Shoxdor ona bug‘uning ko‘zlari boltadan o‘zini olib qochmasdi. Qo‘rquvdan qisilib yumilmasdi. Kalla allaqachon loy va tuproqqa belangan bo‘lsa ham, ko‘z qorachig‘i musaffoligicha boqib turardi, aftidan, u o‘zini o‘limga mahkum etgan shu yorug‘ jahonga tilsiz, unsiz hayratda

qolib hamon boqib turgandek edi. Bola mast-alast O‘rozqul bilan ko‘zi ko‘ziga tushib qolishidan cho‘chirdi. Shox hamon bo‘sh kelmasdi. O‘rozqul esa borgan sari tutaqib, goh boltaning tig‘i bilan, goh orqasi bilan kallaning duch kelgan joyiga urardi.

...O‘rozqul molxona orqasida qaysarlik bilan Shoxdor ona bug‘u kallasini tilkalashda davom etardi. Uning bu holati uzoq kutilgan qasosni bajo keltirgandek tuyulardi.

– Dabdala qilmasam, otimni boshqa qo‘yaman. Mana senga! Mana senga! – shunday deb bolta bilan kallani urdi. Kalla chirsillab yorilib, mayda suyaklar har tomonga sochilib ketdi.

Boltaning tig‘i ko‘zga ko‘ndalang kelib tegganda bola chinqirib yubordi. Ochilib qolgan ko‘z chanog‘idan qop-qora quyuq suyuqlik oqib tushdi. Ko‘z so‘ndi, barbod etildi...

– Men bundan zo‘rroq kallalarni ham maydalaganman! Bundan boshqa shoxlarni ham sug‘urib ola bilaman! – deb jazavasi tutib bo‘kirardi O‘rozqul gunohsiz kalladan nafratlangancha.

Nihoyat kallaning peshona suyaklarini ham maydalashga muvaffaq bo‘ldi. U endi boltani tashlab kallani oyog‘i ostiga olib, shoxdan ikki qo‘llab ushlagancha vahshiyona kuch bilan buray boshladi va shoxlarni yulib oldi. Ular sug‘urilib olingan ildiz singari qarsillardi. Bu shoxlar bolaning iltimosiga ko‘ra, O‘rozqul bilan Bo‘key xolaga sehrli beshik keltirishi lozim bo‘lgan o‘sha Shoxdor ona bug‘uning shoxlari edi...

Bolaning ko‘ngli behuzur bo‘ldi. U burildi va qo‘lidagi buyrakni tushirib yuborib, sekingina nari ketdi. U yiqilib tushadigandek yoki bo‘lmasa odamlar ko‘zi oldida qayt qilib yuboradigandek juda qo‘rqdi. U oqarib, gezarib, manglaylari yopishqoq terga botgancha o‘choq yonidan o‘tib borarkan, o‘choqda lovullab o‘t yonib, qozondan burqirab qaynoq bug‘ ko‘tarilardi. Baxtsiz Mo‘min bobo bo‘lsa hamon avvalgidek yuzini o‘tga burib, hammasiga chap berib o‘tirardi.

Bola bobosini bezovta qilgisi kelmadi. U tezroq o‘rniga yetib borishni va to‘shakka boshi bilan burkanib yotishni istardi. Qani endi hech narsani ko‘rmasa, eshitmasa, unutsa.

U biroz o‘ziga kelish uchun hovliga chiqdi. Hovlida hech kim yo‘q, huvullab yotardi... O‘ti o‘chib qolgan o‘choq yonida ichkilikning zo‘ridan o‘lar holatda yotgan Mo‘min boboga ko‘zi tushdi. Chol tuproqda, o‘sha Shoxdor ona bug‘uning kesib tashlangan shoxlari yonida, hushsiz yotardi. Bug‘uning maydalangan kallasini it g‘ajiyotgandi.

Bola bobosining ustiga engashgancha uning yelkasidan tortqiladi.

– Bobo, yuring, uyga ketamiz, uyga, – dedi u.

Chol javob bermadi, u hech nima eshitmadi, boshini ham ko‘tara olmadi. Ha, u nima ham deya olardi.

– Qani, turing, bobo, uyga ketamiz, – dedi bola.

Kim bilsin, u o‘zining bolalik aqli bilan bobosining Shoxdor ona bug‘u haqidagi ertagi uchun bu yerda ta’zirini yeb yotganini, o‘z erki bilan unga qasd qilmaganligini, uning o‘zi bu haqda bolaga hamma vaqt nasihat qilib kelganligini, ota-bobolar udumiga, o‘z vijdoniga va vasiyatlariga zid borganligini, baxtiqaro qizini deb... nabirasini deb shu ishga qo‘l urganligini fahmlay oldimikin yoki anglab yetmadimikin?..

Cholni bu vahshiylikka majbur qilgan narsa nima edi?

Chol og‘ir ahvolga tushib, g‘am-alam o‘tida yonib, bolaning ovoziga javob qilmasdan, go‘yo o‘lik singari yuzini yerga bosib yotardi. Bola bobosining yoniga cho‘qqayib o‘tirganicha uni qo‘zg‘atishga harakat qildi.

– Bobo, boshingizni ko‘tarsangiz-chi, – dedi u. Bolaning yuzlari oqarib, bo‘shashib ketgan edi. Qo‘llari, lablari qaltirardi.

– Bobo, bu menman. Eshityapsizmi? – derdi u. – O‘zimni juda yomon sezyapman, – deya yig‘lardi. – Boshim og‘riyapti, juda qattiq og‘riyapti.

Chol ingrab qimirlay boshladi, biroq hamon o‘ziga kelolmagan edi.

...Bola bobosini yonbosh bilan ag‘darilib yotishga majbur etdi va nogahon mast holda yotgan cholning yuziga ko‘zi tushib, seskanib ketdi. Bola shu daqiqada haligina O‘rozqul bolta bilan maydalab tashlagan oq bug‘uning kallasini xayolidan o‘tkazdi va qo‘rquvdan o‘zini chetga oldi. Bobosidan nari ketar ekan dedi:

– Men baliqqa aylanaman, eshityapsizmi, bobo, suzib ketaman...

Chol hech qanday javob qaytarmadi.

Bola yurishda davom etdi. Daryoga tushib suv kecha boshladi.

Bolaning suvda baliq bo‘lib suzib yurganidan hali hech kimning xabari yo‘q edi.

Sen o‘z ertagingdagi baliq kabi suzarding, bo‘talog‘im. Bilasanmi, sen hech qachon baliqqa aylanib qololmaysan va Issiqko‘lgacha suzib ketolmaysan... Oq kemani ham ko‘rolmaysan...

Asil Rashidov tarjimasi

Muhokama qilamiz

1. “Oq kema”da Chingiz Aytmatov ijodiy uslubiga xos qanday xususiyatlarni kuzatdingiz? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.
2. Parchadan tabiat tasviri aks etgan o‘rinlarni toping va ularning asar g‘oyasini ochishdagi ahamiyatini izohlang.
3. Bug‘uboy avlodlarining bunday yovuzlik qilishi sababini qanday izohlaysiz?
4. Asar bosh qahramoni – “bola”ga muallif nega ism bermagan deb o‘ylaysiz?
5. Oq kema, Shoxdor ona bug‘u obrazlariga qanday ramziy ma’nolar yuklangan? Asar matniga tayanib javob bering.

Topshiriq

“Oq kema” asaridan olingan parchada aks etgan muammolarning yuzaga kelish sabablari, oqibatlari va yechimlarini quyidagi jadvalda izohlang.

№	Muammo	Sabablar	Oqibat	Yechim
1.	Bolaning yolg‘izligi	Bolaning qalbi ezgulikka to‘la bo‘lgani uchun u atrofidagi yovuz insonlar bilan til topisholmadi	Bolaning o‘limiga sabab bo‘ldi	Bolani yaxshilik borligiga ishontirish, hamma ham O‘rozqulga o‘xshamasligini uqtirish orqali
2.				

Tavsiya

Asarning to‘liq matni bilan ushbu havola orqali tanishishingiz mumkin.

3

Nazariy ma’lumot

SYUJET VA UNING ELEMENTLARI

Syujet – badiiy asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimi. Syujet badiiy asarning voqealar ketma-ketligi, rivoji, o‘zaro bog‘liqligini tashkil etuvchi eng muhim elementi hisoblanadi. Badiiy asar syujeti ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim singari elementlardan tarkib topadi.

Ekspozitsiya syujetning boshlanish qismi bo‘lib, unda muallif voqealar sodir bo‘ladigan joy, zamon, qahramonlar haqida ma’lumot beradi. Masalan, *“Rastalar obod. Qaymoq bozorining burilishida, mahkamaning boshida Ilhom samovarchining kattakon choyxonasi bo‘lib, unda grammofon chalinadi. Turli-tuman plastinkalar orqali To‘ychi*

hofiz, Hamroqul qori, Hoji Abdulaziz va Farg‘ona yallachi xotinlari ketma-ket maqomlar, yallalar, ashulalar aytadi...” (G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasidan) Muallif shum bola tilidan voqea sodir bo‘layotgan joy (rastalar, bozor, choyxona), asardagi ijtimoiy-madaniy muhit (plastinka-grammofon, hofizlar) haqida ma’lumot bermoqda.

Tugun – asar voqealari boshlanishiga sabab bo‘lgan muammo, ziddiyat. Masalan, *“Kampir tong qorong‘isida xamir qilgani turib ho‘kizidan xabar oldi. O!.. Ho‘kiz yo‘q, og‘il ko‘cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi”. (Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasidan)* Ho‘kizning yo‘qolishi keyingi voqealar rivojiga turtki beradi. Ho‘kizni kim o‘g‘irlagani, qachon o‘g‘irlagani kabilar asar qahramoni uchun ham, kitobxon uchun ham noma’lum. Asardagi keyingi voqea-hodisalar shu muammoning yechimiga qaratiladi.

Voqealar rivoji – syujet voqealarining bosqichma-bosqich rivojlanib borishi. Qobil boboning yo‘qolgan ho‘kizni topishga harakat qilishi, ellikboshi, amin bilan uchrashuvlari voqealar rivojini tashkil etadi.

Kulminatsiya – asardagi voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida Anvarning xon bilan to‘qnashuvida, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida Qobil bobo va amin o‘rtasidagi suhbatda kulminatsiyani ko‘rish mumkin.

Yechim – syujet voqealari rivojining yakuni. Qahramonlar hayotidagi muammolar, o‘zaro ziddiyatlar o‘zining turli xil yechimini topadi. Siz quyi sinfda mutolaa qilgan Qamchibek Kenjaning “Baliq ovi” hikoyasidagi Komilning o‘limi asar yechimi hisoblanadi.

Topshiriq

Chingiz Aytmatovning “Oq kema” asaridagi syujet elementlarini tahlil qiling va quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Syujet elementlari	“Oq kema” qissasidan misollar

ADABIY LABORATORIYA
TURLI JANRDAGI ASARLARNING AUDIOMATNINI TAYYORLASH

Audiokitob (audiomatnlar) audio tashuvchi vositalar (masalan, CD disklar, telefon xotirasi, internetdagi audiofayllar)ga yozilgan har qanday badiiy yoki badiiy bo‘lmagan asarlar yig‘indisidir. Bugungi shiddatli zamonda vaqt yetishmasligi hamma uchun jiddiy muammoga aylanmoqda. Audiokitoblar vaqtni tejashdan tashqari nogironlar, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchilar uchun ham samarali mutolaa imkoniyatini taqdim etadi. So‘nggi yillarda butun dunyoda audiokitoblar tobora ommalashib bormoqda.

Guruhlarga bo‘lining. Adabiyot darsida o‘tilgan yoki mustaqil o‘qigan asarlaringizdan birining audionusxasini yarating. Asar audiosini tayyorlashda quyidagilarga diqqat qiling:

1. Gap va jumlalarni to‘g‘ri va ifodali o‘qing, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling.
2. Asar qahramonlarining ruhiy holati, ularning xarakter xususiyatlarini chuqurroq ochib berish uchun intonatsiyaga e’tibor bering.
3. Imkon qadar sifatli ovoz yozish uskunalaridan foydalaning.
4. Ayol, erkak obrazlarining ovozini farqlang.

Eslatma! “Mutolaa” ilovasidagi audiohikoyalardan namuna sifatida foydalanishingiz mumkin.



TUYG‘ULAR TOZALIGI – ODAMIYLIK BELGISI



LUTFIY (1366–1465)

Dars davomida:

- Lutfiy g‘azallarining badiiy xususiyatlari haqida bilib olamiz;
- g‘azal janri haqidagi bilimlarimizni mustahkamlaymiz.

Mavlono Lutfiy XIV–XV asr o‘zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyandasi, o‘zbek va fors tillaridagi asarlari bilan Sharqda katta shuhrat qozongan so‘z san’atkoridir. Shuning uchun ham zamonasining ahli adabi va ahli fuzalosi uni “malik ul-kalom”, ya’ni “so‘z podshosi” deb e’zozlagan. Manbalarda taxallusi oldidan “ulug‘ ustod” ma’nosidagi “mavlono” sifatining qo‘shib tilga olinishi ham shundan. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da shoir haqida iliq so‘zlar aytadi: *“Mavlono Lutfiy o‘z zamonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi... va turkcha devoni ham mashhurdur”*.

Lutfiy Alisher Navoiyning ham ustozlaridan biri bo‘lgan. U 1366-yili tug‘ilib, 1465-yili vafot etgan. Manbalarga ko‘ra, Lutfiy madrasada tahsil olgan, arab va fors tillarini yaxshi bilgan, ayniqsa, turkiy tilda go‘zal asarlar yaratgan. Uning yuksak iste’dod sohibi ekanini o‘z zamonasining hukmdorlari, olim-u fuzalolari yaxshi bilgan. Shoir g‘azal, qit’a, ruboiy, tuyuq va fard kabi janrlarda ijod qilgan. Shoirning g‘azal va tuyuqlari XV asr o‘zbek she’riyatining go‘zal namunalaridir. Lutfiyning ko‘plab g‘azallari qo‘shiq qilib kuylangan.

MUTOLAADAN OLDIN

Siz quyi sinfda g‘azal haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lgansiz. G‘azalga xos xususiyatlarni eslang va uning zamonaviy she’r namunalaridan farqini misollar bilan tushuntirib bering.

“SENSAN SEVARIM...”

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Haqqoki, qilich kelsa boshimg‘a eshikingdin,
Yo‘qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Usruk ko‘zing ashkolina har gah nazar etsam,
Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.

Ya’qub bikin ko‘p yig‘idin qolmadi sensiz
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

Oy yuzung‘a ko‘z solg‘ali o‘zga kishi birla,
Yo‘qtur nazarim, xoh inon, xoh inonma.

Ishq o‘tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.

inonma – ishonma

charxi falak – osmon

guzar – ketish

usruk – mast, sarxush

ashkol – shakl

nuri basarim – ko‘zimning nuri

Ya’qub – yo‘qolgan o‘g‘li Yusuf alayhissalomni yig‘lay-yig‘lay kutib, ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan payg‘ambar

siymbar – oq badan, kumush badan

Muhokama qilamiz

1. G‘azalda har bir bayt oxirida takrorlanadigan “xoh inon, xoh inonma” radifi qanday ma’no ifodalamoqda?
2. Shoirning isbot talab qilmaydigan muhabbati va sevgi iztiroblari qaysi bayt(lar)da yaqqolroq namoyon bo‘lgan? Fikringizni dalillang.
3. Oshiqning yoriga sadoqati aks etgan o‘rinlarni toping va izohlang.
4. “Ishq o‘tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi” satrida qanday mazmun aks etmoqda?
5. G‘azaldagi badiiy san’atlar (tashbih – o‘xshatish, tazod – ziddiyat, mubolag‘a – bo‘rttirma)ni toping va izohlang.

“MENI SHAYDO QILADURG‘ON...”

Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul,
Xor-u rasvo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

O‘qdayin qomatimizni qora qoshlig‘lar uchun
Muttasil yo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Meni yozg‘urma sevar debki, mening haddim emas,
Ul tamanno qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Borma derlar eshiki sori damodam, netayin,
Ko‘p taqozo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Tori mo‘yin havasi birla qorong‘u kechada
Jonni savdo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Dushman-u do‘st orasinda meni g‘ofilni mudom
Besar-u po qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

O‘zgadin ko‘rma, ki ko‘zung yoshini, ey Lutfiy,
Ayni daryo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

yozg‘urma – gunoh-kor qilma, ayblama

tamanno – talab, orzu

tori mo‘y – soch tolasi

besar-u po – qo‘lsiz, oyoqsiz (bu yerda besaranjom, ovora ma’nosida)

Muhokama qilamiz

1. G‘azalda lirik qahramonning qanday kayfiyati ustuvorlik qiladi: shikoyat yoki e’tirof? Fikrlaringizni izohlashga harakat qiling.
2. G‘azalda oshiqning holati qanday tasvirlangan? U nega ishq bobidagi barcha ayblarni aynan ko‘ngilga yuklamoqda?
3. G‘azalning ikkinchi baytida oshiqning qomatini *qora qoshlig‘lar uchun muttasil yo qiladurg‘on* ko‘ngilning maqsadi nima bo‘lishi mumkin?
4. G‘azalning to‘rtinchi baytida oshiqni yorning oldiga bormaslikka kimlar da’vat qilyapti deb o‘ylaysiz?
5. G‘azalning birinchi va oxirgi baytlarini taqqoslang. Oshiq muhabbat haqidagi o‘z qarashlari va xulosalarini o‘zgartirdimi yoki yo‘q? Javobingizni g‘azal matniga tayanib asoslang.
6. Azoblar behad ko‘p bo‘lishiga qaramasdan nega oshiq ko‘ngli ma’shuqaga talpinaveradi deb o‘ylaysiz?

Topshiriq

Quyi sinflarda egallagan nazariy bilimlaringiz asosida yuqoridagi g‘azallarda uchraydigan badiiy san’atlarni toping, ularni daftaringizga yozing va izohlang.

“AYOQINGG‘A TUSHAR...”

Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu,
Masaldurkim: “Charog‘ tubi qorong‘u”.

Tuturmen ko‘zki, ko‘rsam orazingni,
Ki derlar: “Oqqan ariqqa oqar su(v)”.

Yuzungni tuttum ortuq oy-u kundin:
“Kishining ko‘zidur, ore, tarozu”.

Ko‘zing qonimdin iymanmas, ajabtur,
Ki: “Qo‘rqar qaydakim qon ko‘rsa hindu”.

Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat,
Ki ayturlar: “Tiloganni tilogu”.

gisu – soch

masal – maqol

oraz – chehra, yuz

vasl – diydor

Muhokama qilamiz

1. Irsoli masal san’ati (gapda yoki she’rda biror maqol, matal, ibora yoki hikmatli so‘z keltirib, nutq ta’sirchanligini oshirish usuli) asosiga qurilgan ushbu g‘azaldagi maqollarning bugungi kundagi ko‘rinishlarini toping va taqqoslang. Masalan: *“Oqqan ariqqa oqar su(v)”* maqolining zamonaviy ko‘rinishi *“Oqqan daryo oqaveradi”*ga mazmunan yaqin.
2. Sizningcha, g‘azalning so‘nggi baytini shoirning hayotiy xulosalaridan biri sifatida qabul qilish to‘g‘riroqmi yoki oshiqning yor vasliga umidi deb hisoblash ma’qulmi?
3. *“Ko‘zing qonimdin iymanmas, ajabtur, Ki: “Qo‘rqar qaydakim qon ko‘rsa hindu”* baytini sharhlashga harakat qiling.

Topshiriq

Siz bilan Lutfiy ijodiga mansub bir nechta g‘azalni ko‘rib chiqdik. Quyidagi topshiriq orqali g‘azallar mohiyatini chuqurroq ochib berishga harakat qiling. Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

T/r	G‘azal	Qofiyadosh so‘zlar	Asosiy g‘oya	Asosiy g‘oyani ifodalaydigan kalit so‘zlar
1.	“Sensan sevarim...”			
2.	“Meni shaydo qiladurg‘on...”			
3.	“Ayoqingg‘a tushar...”			

Tavsiya

Havola orqali “Lutfiyxonlik” ko‘rsatuvini tomosha qiling. Lutfiy g‘azallari asosida kuylangan qo‘shiqlarni tinglang. G‘azallardagi so‘zlar hozirgi tilimizga qay darajada yaqinligini aniqlang.

4

Nazariy ma’lumot

G‘AZAL HAQIDA TUSHUNCHA. G‘AZAL TURLARI

G‘azal mumtoz lirikaning mashhur janrlaridan biri. U dastlab ishqiy mavzuda yozilgan bo‘lsa-da, keyinchalik mavzu doirasi kengayib borgan. XV asrdan g‘azal o‘zbek she’riyatida asosiy va yetakchi janrga aylandi. G‘azal 3 baytdan 21 baytgacha bo‘lishi mumkin. G‘azalning ilk bayti matla, oxirgisi maqta deb ataladi.

G‘azal ma’no jihatidan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Hamd g‘azallar – Allohni madh etuvchi g‘azallar.
2. Na’t g‘azallar – payg‘ambarimizning sifatlarini aks ettiruvchi g‘azallar.
3. Oshiqona g‘azallar – oshiqning ma’shuqaga bo‘lgan muhabbati, ayriliq, iztirob va orzu-umidlari ifodalangan g‘azallar.

4. Orifona g‘azallar – ilohiy muhabbat, ma’naviy kamolot, inson ruhiyatining nozik tomonlari tasvirlangan g‘azallar.

“HAQ UL KUNKIM...”

Haq ul kunkim, jamoling bor etibdur,	*matla*	-a
Jahon husnin borin sizga beribdur.		-a
Pari-yu odami mundoq xo‘b ermas,		-b
Farishta go‘yiyo ko‘ktin enibdur.		-a
Quyosh oydek yuzungning xijlatidin		-d
Qochib, to‘rtinchi ko‘k uzra chiqibdur.		-a
Yuzung nogah ko‘rib oydek, sog‘indim,		-e
Magar hush-u xirad mendin ketibdur?		-a
Xirad ketmay netar mendek gadodin,		-f
Qoshimg‘a ul shahi xo‘bon kelibdur?		-a
Qilur da’voyi nur ul sham’i majlis,		-g
Magar parvona shomimdin olibdur.		-a
Necha bu Lutfi(y) qulg‘a javr etarsen,	*maqta*	-h
Vafo qilkim, jafo haddin oshibdur!		-a

xirad – es, aql, zehn

magar – garchi, chunki

Topshiriq

Lutfiy g‘azallari mazmunidan kelib chiqib ularning turlarini aniqlang va jadvalni to‘ldiring.

T/r	G‘azal	Hamd	Na’t	Oshiqona	Orifona	Izoh
1.	“Sensan sevarim...”					
2.	“Meni shaydo qiladurg‘on...”					
3.	“Ayoqingg‘a tushar...”					
4.	“Haq ul kunkim...”					

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

“AGAR SEN BO‘LMASANG...”

Agar sen bo‘lmasang guldek chamanda,
Kishi netgay o‘shal baytul hazanda?

Falak yulduz kibi xo‘blarni yig‘sa,
Yuzung bo‘lg‘ay quyosh ul anjumanda.

Aqiq irning qoshinda nozuk ermas,
Ne yaxshilik bor ul asli Yamanda?

Qilur qon g‘amzasi ko‘zlarni bog‘lab,
Halol o‘lsunki, sehr aylar bu fanda.

Labing qandini so‘ray desam, aytur:
“Ayo ko‘rdungmu solmish ko‘zni qanda?”

Sochingdin chun o‘g‘urlar mushk xushbo‘y,
Qilurlar band-band oni Xo‘tanda.

Tishing injusini to ko‘rdi Lutfiy,
Topilmas yoshidek bir dur Adanda.

baytul hazan – g‘am, qayg‘u uyi

xo‘b – yaxshi; chiroyli, go‘zal

anjuman – ko‘pchilik, jamoat

aqiq – qizil rangli qimmatbaho tosh

irin – lab, dudoq

“NOZUKLIK ICHRA...”

Nozuklik ichra belicha yo‘q tori gisuyi,
O‘z haddini bilib belidin o‘lturur quyi.

Zulfi shikastasinda u kun ongladi o‘zi,
Oylarda sinmadi bu ko‘ngulning bir orzuyi.

Mundoqki yaxshi yerga tushubtur topib qabul,
Shak yo‘qki, muqbil ul dudog‘ing xoli hinduyi.

Qush og‘zi tegsa la’l o‘la minqori to‘tidek,
Yoqutung uchun ondaki oqsa ko‘zum suyi.

Ko‘rguzmadung tushumda biror zulf-u orazin,
Ey baxt, dedi senga kim tun-u kun uyi.

Javr etsa, mehr umidi tutarmen hanuzkim,
Bir tavr qolmas odamining xislat-u xo‘yi.

Lutfiy boshin evurdi sochi inichka bel ila,
Ul hind-u rishta birla magar qildi joduyi.

zulf – soch

shikasta – halqa-halqa, buramli

muqbil – baxtli, iqbolli

la’l – qizil tosh; qizil lab (maj.)

minqor – tumshuq

oraz – yuz, jamol

uyi – uxla

tavr – odat, qiliq, usul



XAYRIDDIN SULTONOV (1956)

Dars davomida:

- “Saodat sohili” qissasining mavzusini aniqlaymiz, badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritamiz;
- Xayriddin Sultonov ijodidagi tarixiylik va zamonaviylikning mushtarak jihatlari haqida bilib olamiz.

Xayriddin Sultonov 1956-yili Toshkent viloyati Qibray tumani Tuzel qishlog‘ida tug‘ilgan. Talabalik yillaridayoq badiiy ijod bilan jiddiy shug‘ullangan yozuvchining “Chol” nomli dastlabki hikoyasi XX asrning yetmishinchi yillarida “Toshkent oqshomi” gazetasida chop etilgan. Uning “Quyosh barchaga barobar”, “Bir oqshom ertagi” , “Onamning yurti”, “Umr esa o‘tmoqda”, “Boburning tushlari”, “Boburiynoma”, “Ko‘ngul ozodadur…” kabi nasriy kitoblari nashr etilgan. “Tushlarimda ko‘rib yig‘layman”, “Yozning yolg‘iz yodgori” ssenariylari asosida badiiy filmlar suratga olingan. So‘nggi yillarda ijodkorning “Navoiy – 30”, “Ishonch telefoni”, “Odamlardan tinglab hikoya”, “Osmoni falaklarda” kitoblari nashr etildi. Adib ijodida hayotiy voqealar, muallif bevosita guvohi bo‘lgan voqea-hodisalar, yon-atrofimizda yashayotgan, tarixi va taqdiri bir-biriga o‘xshamaydigan turli insonlarning xarakterlari, ruhiy kechinmalari, dard-u armonlari o‘ziga xos shaklda ifoda topgan.

Xayriddin Sultonov Antuan de Sent-Ekzyuperi, I. Nagibin, V. Shukshin asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

MUTOLAADAN OLDIN

O‘z yurtidan uzoqda yashagan kishilarning vatanga muhabbatini qanday izohlaysiz? Shunday insonlardan kimlarni bilasiz?

SAODAT SOHILI

(Qissadan parcha)

I

– Usta Binoqul, qani turing, shom tushmay huv dovonga yetib olaylik! O‘sha dovonga yetaylik, u yog‘i – yo Razzoq!

– Uh, taqsir, oyoq bosgulik holim qolmadi. Yurolmayman, taqsir, yurolmayman!

– Andak bardosh qiling, usta Binoqul! Chekkan mashaqqatlarimiz, inshoolloh, besamar ketmas! Ajab emaski, dovon ortida biror qo‘nalg‘a bo‘lsa... Shu manzilga yetib olsak bas, jarohatingizga ham bir davo toparmiz. Qani, qo‘lingizni bering, usta Binoqul!

qo‘nalg‘a – turarjoy, boshpana bo‘lib xizmat qiladigan joy; makon, manzil

– Ehhh, taqsir...

Uch kundan buyon ahvol shu: usta Binoqul shishib ketgan oyoqlarini sudrab bosgancha zorlanib inqillaydi, har qadamni ming bir azob bilan qo‘yadi. Hofiz Ko‘ykiy esa lablarini mahkam qimtigancha ko‘proq o‘z yuragidagi vahmni yengish uchun unga tinimsiz taskin-tasalli beradi, sabr-bardosh sari da’vat etadi. Binoqul ingraydi, og‘riqqa chiday olmay yig‘lagudek yolvoradi, Hofiz Ko‘ykiy go‘dakni aldagan kabi uni yupatmoqqa tirishadi, “ko‘pi ketib, ozi qolgani”ni aytib ishontirmoqchi, ishonmoqchi bo‘ladi, lekin bundan na yo‘l qisqaradi, na yo‘l azobi kamayadi.

Ular o‘n yetti kun aziyat nima, mashaqqat nima bilmay, vaqtichog‘lik bilan yo‘l bosdilar. Taglarida o‘ynoqlagan dulduldek otlar, xurjunlarning ko‘ziga to‘ldirilgan lazzatli ozuqalar belga quvvat, dilga mador bo‘lib keldi. Karvondagi dunyo kezgan savdogarlarning vazmin, maroqli gurunglari yo‘l tanobini tortar, huvullagan, fayzsiz cho‘lning o‘lik manzarasiga bir qadar jonlanish bag‘ishlagandek bo‘lar edi.

O‘n sakkizinchi kuni sahar chog‘i kimsasiz biyobonda hali mast uyquda yotgan karvonni qaroqchi bosdi.

Ular olatasir to‘polonda tog‘ unguri yoqalab qochishga muvaffaq bo‘ldilar. Binoqul qo‘liga ilingan kichkina bir tugunchagini olishga ulgurdi xolos.

– Taqsiiir, – dedi Binoqul yig‘lamsirab, – hech vaqomiz qolmadi-ku, taqsir?!

– Binoqul, – dedi Hofiz Ko‘ykiy, – jon qoldi, jon!

U dunyoning qariyb yarmini kezgan jahongashta odam edi, hayot qadrini, tiriklikning nechog‘li ulug‘ ne’mat ekanini teran anglardi, kechagina safar-sayohat zavqi, sirli, noma’lum manzillar ishtiyoqi bilan sarmast Binoqulning musichadek javdirab turganini ko‘rib kulgisi qistadi, soddadil yigitning yuragiga mador bo‘ladigan biror og‘iz so‘z aytgisi keldi. Hali oldinda

jazirama issiq, ochlik, tashnalik, tushkunlik singari mislsiz uqubatlar kutayotgan, istiqbolda ajal sovuq quchog‘ini ochib turgan bir paytda bu so‘zning mahzun ko‘ngilga naqadar ulkan quvonch va quvvat bag‘ishlashini u yaxshi bilardi.

– Kuyinmang, Binoqul, – dedi u jilmayib, – padari buzrukvoringiz Hind sori ayni shu yo‘ldan o‘tgan bo‘lsa, ne ajab!

Binoqulning yuzi yorishdi. Hofiz Ko‘ykiy yigitning dilida pinhon muqaddas sirdan voqif: Binoqul hali go‘dak ekan, Bobur Mirzo Farkatda bir muddat to‘xtagan kezlar otasi cherikka kirgan, amirzoda Hindistonga otlanganda birga jo‘nagan. Binoqul otasini enasining so‘zlaridan tanib ulg‘aydi. Dom-daraksiz ketgan otasining yo‘liga ko‘z tika-tika enasi bultur olamdan o‘tdi.

cherik – qo‘shin, askar

Binoqul – qaddi-qomati kelishgan, pishiq-puxta, chayir yigit, kulganda kuldirgichli yuzlarida ajib bir joziba paydo bo‘ladi – chin dildan yayrab kuladi. U har ishga tirishqoq, havasmand, uzun qish kechalari kulbasida etik, mahsi tikadi, yozda ikki tanob yerida ter to‘kadi, kitobga, ilmga cheksiz ixlos qo‘yganidan hammahallasi – Mozori Hoji masjidining imomi Hofiz Ko‘ykiyni o‘ziga ustoz deb biladi, uning kechmish voqealar, ayniqsa, jangnoma-yu jahongirlar tarixiga doir dilkash suhbatlarini soatlab jon qulog‘i bilan tinglaydi. Hofiz Ko‘ykiy safarga ketgan paytlarda Binoqul uni intizor kutadi.

tanob – O‘rta Osiyo xonliklarida tomonlari 60 gazdan iborat bo‘lgan maydonga teng, ya’ni ekin maydonini o‘lchash uchun qo‘llangan yuza birligi

Hofiz Ko‘ykiy va usta Binoqul tabiatiga xos qanday xususiyatlarni kuzatdingiz?

Ustozi so‘qqabosh, vorasta ko‘ngil odam bo‘lib, umri muttasil safarlarda o‘tardi. U ba’zan ikki-uch yillab benom-u nishon ketar, safardan qaytgach, masjid xonaqosiga tutash hujrasida mutolaadan bosh ko‘tarmay, allanarsalar yozgani yozgan edi. Binoqul bu bitiklarning nimaligini bilmas, so‘ragani botinolmas, ammo ustozining yosh bo‘lsa-da, ulug‘ odam ekanini sezardi: masjid eshigiga Toshkand, Samarqand va boshqa shahr-u kentlardan otliqlar, hashamatli soyabon aravalar tez-tez kelib turar – zarbof to‘n kiyib, simobiy salla o‘ragan turli-tuman basavlat kishilar Hofiz Ko‘ykiyni ziyorat qilib chiqar edilar...

vorasta – ozod, erkin

kent – ma’lum xususiyati bilan shahar va qishloqdan farqlanib turuvchi, aholi yashaydigan joy, shaharcha

Bir oy muqaddam u ustozining Hindiston safariga hozirlanayotganini eshitib qoldi. Eshitdi-yu yuragiga g‘ulg‘ula tushdi, oromidan ayrildi.

Otasi bundan yigirma yetti yil avval – yigirma yoshida xonadonini tark etgan ekan. O‘shanda Binoqul uch yashar go‘dak bo‘lgan. U otasining tirikligiga, qirg‘inbarot janglardan omon chiqqaniga, yot ellarda sog‘-salomat yurganiga so‘nmas ishonch bilan inonar, nazarida, padari buzrukvori ona yurtda qolgan murg‘ak zuryodining diydorini intiqlik bilan kutayotgandek tuyular edi. Binoqul chidab turolmadi, ustozining oyog‘iga bosh urib, birga olib ketishini so‘radi. Hofiz Ko‘ykiy rozi bo‘ldi.

Ular o‘n yetti kun aziyat nima, mashaqqat nima bilmay, vaqtichog‘lik bilan yo‘l yurdilar...

Karvonni qaroqchi bosgan o‘sha mash’um juma oqshomida ular yana bir falokatga yo‘liqdilar: toshdan toshga sakrab, tog‘ yonbag‘ridan pisib borarkanlar, Binoqul oyog‘i toyib, yetti-sakkiz gaz pastdagi xandaqsimon ungurga – qirrador xarsang ustiga yiqilib tushdi. Beli shilinib momataloq bo‘ldi, to‘pig‘i handalakdek shishib, qadam bosolmay qoldi. Hofiz Ko‘ykiy yigitning belini, boldirini silab, chiqqan suyakni solgan bo‘ldi, biroq ertasi og‘riq battar zo‘rayib, Binoqulning o‘rnidan qo‘zg‘alishga ham majoli kelmadi...

Hofiz Ko‘ykiy Binoqulning umurtqasi qattiq shikast yeganini payqadi, labini tishladi-yu, indamadi. U hamrohini goh opichib, goh suyab, shu kuni yarim yig‘och ham yo‘l yurolmadi. Ertasi kuni ochlik va og‘riqdan sillasi qurigan Binoqul ustozidan o‘tinib iltijo qildi:

yig‘och – qadimgi masofa o‘lchov birligi; taxminan 6 km ga teng

– Taqsir, endi menga ozor bermang! Sezib turibman, kunim bitgan ko‘rinadi. O‘zingizni ham, meni ham qiynamang. Meni shunda qo‘yib, yo‘lingizdan qolmang, taqsir, uhhh...

– Unday demang, Binoqul, ayb emasmi? Qani, menga mahkamroq suyaning, ha!

Tog‘ yo‘li, soqov xarsanglar. Yalang‘och tovonlarning qoni tomgan chag‘ir toshlar. Ufq qadar cho‘zilgan kimsasiz yo‘l.

– Uh, taqsir, endi madorim qolmadi... Oh, suv, bir qultumgina suv bering!

– Binoqul... – Hofiz Ko‘ykiy atrofga nochor alangladi. – Binoqul, biroz sabr qiling, huv ko‘kalamzorni ko‘ryapsizmi? Shoyad o‘sha yalanglikdan suv topilsa…

– Suv... Suuuv... Taqsirjon, bir qultumgina suv, umrimni beray, taqsirjon, bu azobdan qutqaring!

– E Olloh! O‘zingdan bo‘lak madadkorim yo‘q, shafqat qilg‘aysen! Sel bosib kelmoqda, sel – olov seli. Ho‘l-quruqqa barobar o‘t qo‘yib quyosh yonayotir, quyosh!

– Oh... Meni yerga qo‘ying, taqsir, ohhh! Taqsir, men o‘laman. Ey Olloh berahm, murodimga yetkazmading-a!

– Binoqul, tavba deng, kufrga botmang!

– E Yaratgan egam, mayli, bu ko‘rsatgan kuningga ham shukur. Armonim ichimda qoldi, taqsir. Padarimning daragini bilsam edi. Bobur shohni bir ko‘rsam... – Binoqul jim bo‘lib qoldi, so‘ng majolsiz barmoqlari bilan tugunchagini yecha boshladi. – Taqsir, mana shu kitobni men unga ixlos bilan tortiq etmoqchi edim. O‘zim kitobat qilib edim... Bilmaysiz, taqsir, o‘zim ham bilmayman, lekin nechundir Xudo mening mehrimni ul zotga tushirgan...

kitobat qilmoq – qo‘lyozma kitoblarni yaratish va ziynatlash

– Ko‘ngilni buzmang, Binoqul... – Hofiz Ko‘ykiy titrab ketdi. – Hali tortig‘ingizni, inshoolloh, o‘z qo‘lingiz bilan topshirursiz. Faqat niyatni bardam qilmoq kerak.

– Yo‘q, taqsir, hol-kunim ayon-ku... – Binoqul unga qarab ma’yus bosh chayqadi. – So‘nggi tilagim ham, vasiyatim ham shu: bu kitobni Bobur hazratlariga eltib, duoyi salomimni yetkazgaysiz.

– Binoqul, inim...

– Aytgaysizki: “G‘arib dunyoda Ollohning Binoqul degan bir quli bor edi, otasi navkaringiz edi, u ham sizga ixlos qo‘yib, xizmatingizga o‘zini chog‘lagan edi. Yetib kelolmadi – yo‘lda Tangri rahmatiga bordi”.

– Qo‘ying, Binoqul... – Hofiz Ko‘ykiy uning cho‘g‘ kabi yonayotgan yuz-ko‘zlarini, peshonasini siladi. – Ko‘ngilni ezmoq nechun? Qo‘ying...

– Mana, taqsir... Ohhh! – Binoqul tugunchagidan kitobni olib uzatdi, mijjalarida yosh yiltiradi.

mijja – kiprik

– “Nasoyim ul-muhabbat”?

– Ha, taqsir.

– Shoshmang, axir bu... Navoiy hazratlarining...

– O‘zim kitobat qilib edim. Bu endi sizga qiyomatlig‘ qarz, taqsir.

– Inshoolloh...

– Uhhh! Taqsir, so‘nggi o‘tinchim: imkon topsangiz, otamning daragini so‘roqlab ko‘rarsiz. Yodingizda bo‘lsin, taqsir, otamning ismi Boboqul, otasining oti O‘rinqul. Xotiringizdan chiqmas, taqsir?

– Binoqul...

– Haah! Taqsir, rozi... mendan rozi bo‘ling...

– Mingdan ming roziman, inim, siz ham rozi bo‘ling... Binoqul! Binoqul! E Olloh, vo darig‘!

Hofiz Ko‘ykiy va usta Binoqul suhbatidan nimalarni angladingiz?

* * *

Uch kundan so‘ng tog‘dan o‘tin terib qaytayotgan o‘tinchilar behush yotgan Hofiz Ko‘ykiyni dara etagidagi nuragan qoya tagidan topib oldilar...

* * *

Bog‘i Nurafshonning yashil qo‘ynida yarqirab turgan oq marmar saroyda Afg‘on, Hind va Bangola o‘lkalarining mutlaq hukmdori – keyinchalik yevropalik muarrixlarning “faromushxotirligi” tufayli tarix sahifalariga “Buyuk Mo‘g‘ul imperiyasi” degan mubham nom bilan bitilguvchi ulkan saltanat sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo arkoni davlat bilan ertalabki mashvarat o‘tkazmoqda.

mubham – mujmal, noaniq

U viloyatlardan kelgan turli nomalarni ko‘zdan kechirib, a’yonlarga tegishli farmoyishlar berib bo‘lgach, majlis ahlidan mamlakatning ichki ahvoliga taalluqli xabarlarni tinglamoqqa kirishdi, so‘ng Kobuldan kelgan chopar bilan bir necha arzgo‘ylarni qabul qildi. Mashvarat nihoyasiga yetay deb qolganda zarbof to‘ni yoqasiga zarrin uqa tutilgan barvasta eshik og‘asi kirib ta’zim qildi:

mashvarat – kengash, maslahatlashish

– Olampanoh, Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy otlig‘ bir zot husni tavajjuhingizga muntazir!

Bobur sergak tortib, eshik og‘asiga qaradi:

– Kim ul? Qaydin kelibdir?

– Toshkanddin, olampanoh. Siz zoti shariflarini ziyorat etmoq orzusida kelibdir!

“Toshkanddin?..”

“Toshkanddin?..” Vatan sog‘inchi bilan yashayotgan Bobur Toshkand so‘zini eshitganda nimalarni his qildi deb o‘ylaysiz?

Endi faqat tushlarida ko‘radigan, olislarda armon bo‘lib qolgan yurtidan Boburni ko‘pdan buyon biror kimsa yo‘qlab kelmagan edi. Ko‘ngli allanechuk to‘lib:

– Ayting, kirsin! – dedi.

So‘ng Ko‘histon va hind javohirlari, asl afg‘on yoqutlari bilan ziynatlangan taxtdan turib, o‘z mavqelariga ko‘ra tizilishib joy olgan arkoni davlatga bir-bir razm soldi. Yo‘g‘on gavdali, siyrak mo‘y Abulvohid Forig‘iyga ko‘zi tushgach:

– Mavlono Forig‘iy, – dedi ohista, – bu zot kim bo‘lsa ekan? Sizning hech eshitganingiz bormi?

damqisma – nafas qisishi; astma

Abulvohid Forig‘iy damqisma kasaliga mubtalo edi, o‘rnidan qo‘zg‘alib, hansiragancha so‘z boshladi:

– Olampanoh, sizni yo‘qlaguvchi bu zot Movarounnahrning mashhur allomalaridan bo‘lur. “Ko‘ykiy” taxallus qilibdur deb eshitganim bor. Toshkandda ekanimda bir kitobatini mutolaa qilib edim. “Risola fi fani at-tafsir val usul val furu’ val mantiq val kalom” deb nom bermishlar ekan, shoyon tahsinga sazovor edi. Yana bir nima tasniflari ham bor, alalxusus, ilmi tarixda benazirdur.

ilmi tarix – tarix ilmi

– Siz Toshkandda suhbat quribmi edingiz?

– Yo‘q, olampanoh, men bisyor orzumand bo‘lib edim, lekin, taassufki, hamsuhbatliq nasib etmagan edi. Sababki, ul zot Toshkanddin o‘n yig‘och narida, Farkat otlig‘ bir kentda istiqomat tutgan ekanlar, fursatim ziq edi, men u yerga borolmadim.

– Farkatda?

– Ha, olampanoh, tog‘ning ortidagi bir kent u. Bu zot asli jannatoso Ali Qushchining nabirasi Kamoliddinning o‘g‘li bo‘lur, alar azaldan shu manzilda muqim bo‘lib kelurlar.

Abulvohid Forig‘iy yana allanarsalarni gapirar, ammo Bobur endi eshitmas – teran xayolga cho‘mgan edi. “Farkat” degan so‘z unga sovuq yomg‘ir savalab turgan izg‘irinli kunlarni, kuzak osmonida favqulodda chaqnagan chaqmoqlarni eslatdi, umrining rutubatli, hazin onlarini yodiga soldi. O‘sha voqealarga qancha bo‘ldi ekan? Yo rabbiy, yigirma yetti yil! Qarchig‘aydek bir yigit umri! O‘shanda yonida hamroh-u hamkor bo‘lganlardan kimlar bor? U turli-tuman nomlarni eslashga urinarkan, ularning bari barmoq orasidan shuvullab to‘kilgan qum singari xotirasi qatlaridan bir-bir sirg‘alib tushayotganini sezdi. No‘yon ko‘kaltosh, G‘ulda Qosimbek, Xoldor, Mirshoh qavchin, Qo‘chbek... Evoh, qayda ular? Qayerlarda? Barchasi endi rahmatli! Ba’zilari shiddatli janglarda boshidan ayrildi, ba’zilari g‘anim nayrangiga duchor bo‘ldi, ayrimlarining umri qisqa ekan, ayrimlari esa... xiyonat qildi... Oqibat, o‘sha kunlardan bu kun faqat achchiq, mahzun xotiralar yodgor xolos.

Bobur alamli o‘ylardan egilgan boshini ohista ko‘tardi. Abulvohid Forig‘iy jimgina qo‘l qovushtirib turardi. Eshik og‘asining ortidan adl, tik qomatli, odmi to‘n kiygan, bodomqovoq, yuzlari shishinqiragan, malla soqolli ko‘hlik bir kishi ichkari kirib, ta’zim qildi:

– Yetti iqlimning shamsi anvori, zarofatliq podishohimiz Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo hazrati oliylariga duo-yu ehtiromlarimiz bo‘lg‘ay! Assalomu alaykum, olampanoh!

– Vaalaykum assalom, xush kelibsiz, – dedi Bobur iltifot bilan mehmonga joy ko‘rsatarkan. – Marhamat, o‘ltiring. Ziyoratingiz Olloh dargohida qabul bo‘lg‘ay!

– Qulluq, olampanoh.

Boburning ilmi hikmat ustodi Shayx Zayn Sadr fotihaga qo‘l ochdi:

– Ilohi omin, olampanohimizning umrlarini uzun, davlatlarini ziyoda qilsin, jumlayi mo‘minning ko‘ngillari shod, oxiratlari obod bo‘lsin!

Mashvarat ahli “Omin!” deya gurullab fotihaga qo‘shildi.

– Mening betakalluf tashrifim olampanohga g‘alati tuyular, – deya so‘z boshladi Hofiz Ko‘ykiy. – Men bir Olloh quli, ishim – yo‘l yurmoq, dunyo kezmoq. Ko‘p mamlakatlarda bo‘ldim. Turk, Misr, Bag‘dod, Lubnon, Damashq, Qashqar diyorlarini ko‘rdim, undagi el-elat, yurt-ulusning turmush-yumushlari ila oshno bo‘ldim. Bu safar esa ona vataningizdan, ko‘z ochib ko‘rgan viloyatlaringizdan sizlarga ko‘pdan ko‘p duoyi salomlar keltirdim. Ota yurtimizning tabarruk yodi muborak xotirlaridan ko‘tarilmagan bo‘lsa kerak...

– Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutgay? – dedi Bobur ohista. Ovozi titrar edi. – Unutgan kishining ko‘zlariga tiriklayin tufroq to‘lmasmi?

Ahli majlis mutaassir bo‘lib, o‘rtaga xiyla vaqt sukut cho‘kdi.

– Haq so‘zni aytdingiz, olampanoh, – dedi Hofiz Ko‘ykiy. – Komil inson kindik qoni to‘kilmish yurtni hargiz unuta olmas. Xotiringiz jam bo‘lsin, olampanoh, ul diyorlarda muborak nomingizni hanuz yod eturlar. Inchunin, sizga atalmish bir omonatni topshirmoq menga qiyomatlig‘ qarz edi.

– U qo‘ynidan nafis saxtiyon muqovali kitobni olib, Boburga avaylab uzatdi. Bobur andak taajjublanib o‘rnidan turdi, kitobni olib ilk sahifasini ochdi.

saxtiyon – yumshoq charm

– “Nasoyim ul-muhabbat”! – Boburning ko‘zlari chaqnab ketdi. – Mir Alisherbekning tabarruk bitiklari-ku!

Sizningcha, tortiq etilgan kitob nega Mirzo Boburni qattiq hayajonga soldi?

– Ha, olampanoh.

– Ne chog‘ go‘zal san’at! – Bobur kitobni zavq va ardoq bilan ko‘zdan kechirardi. – O‘zingiz kitobat etdingizmi, mavlono? Xatlari bu qadar ravshan, nafis...

– Yo‘q, olampanoh. Men bilan birga Ollohning g‘arib bir quli ham diydoringizga orzumand bo‘lib yo‘lga otlanib edi. Ming bor taassufki, yetib kelmoqlik nasib etmadi – yo‘lda shikast topib qazo qildi. Shul tortiqni sizga hadya etmoq umidida ixlos bilan kitobat qilgan ekan, yetkazmoqni mendan o‘tinib so‘radi.

– E Olloyi Karim! Kim ekan ul do‘sti sodiq? – Bobur Mirzo olimning bu so‘zlaridan g‘oyat ta’sirlangan edi.

– Olampanoh, u yigitning nomi Binoqul edi, diyonat va idrokli bir muslim edi. Asli kosiblik qilardi, kaminadan birmuncha xat-savod o‘rganib edi. Balki, xotiringizda bordir, otasi bir paytlar cherikingizga navkar bo‘lib kirgan ekan.

Boburning qoshlari chimirildi:

– Qay vaqt? Qayda?

– Bir muddat Farkatda muqim turgan ekansiz, o‘sha kezlari chamasi.

– Haa... U kentda ko‘p mardona yigitlar cherikka qo‘shilib edi. Ismi kim bo‘lsa ekan?

– Olampanoh, hamrohim jon taslim qilayotib otasining ismini aytgan edi: Boboqul otlig‘ bir odam ekan, otasini O‘rinqul der ekanlar.

– Ehha, Boboqulmi? – Bobur jonlanib bosh irg‘adi. – Nechun xotirimda bo‘lmasin? Jasorati mumtoz navkarlarimizdan edi. Hamrohingiz shuning zuryodi ekanmi?

– Ha, olampanoh. Olampanoh, u... qazo etganmi?

– Yo‘q, – Bobur g‘amgin bosh chayqadi. – Biz Hindni olganda Boboqul ko‘p mardliklar ko‘rsatib edi. Uch-to‘rt yil chamasi o‘tgach, yurtiga qaytmoq bo‘lib bizdan izn so‘radi. Tilagini o‘rinlatdik, biroq tonglasi Ponipatda Ibrohim Lo‘diy yuz ming qo‘shin bilan bosh ko‘tardi. Bizning navkar o‘n mingning nari-berisida edi. Bizni bundoq mushkul ahvolda qoldirgali ko‘zi qiymadi, chog‘i, Boboqul qanotimizga kirib Ponipat sari yurdi. O‘sha chopqinda boshidan zarb yeb, xayoli xiyla parishon bo‘lib qoldi. Ne muolaja, dori-darmon bo‘lsa, barini qildirdik, hech bir naf ko‘rmadi. So‘ng saroydan bir hujra berib, istiqomatidan xabardor bo‘lib turadigan kishi tayin etdik. Yo‘q, bunda turolmadi, bir oqshom eshitdimki, chiqib ketgan emish. Endilikda ko‘cha-ko‘ylarda hamd-u sano aytib yuradir, deb qulog‘imga chalinadir...

– Shu kunlar yana Ograda paydo bo‘lgan emish, – deya so‘z qo‘shdi poygakda o‘tirgan Boburning xos mulozimi Yusufiy.

“Yaratgan egam yarlaqagan ekan seni, boyoqish Binoqul!” deb nadomat bilan ko‘nglidan o‘tkazdi Hofiz Ko‘ykiy.

– Xayr, mayli, Ollohning irodasi... – dedi Bobur suhbatga yakun yasagandek. – Bizga ehtiromi shu qadar ustuvor ekan, endi bizdan-ku qaytmas, Xalloqi olamdan qaytsin. Mavlono Abulbaqo!

Ko‘rkam soqolli, nuroniy mo‘ysafid – shayxulislom Mavlono Abulbaqo o‘rnidan turdi:

– Labbay, olampanoh?

– Ertan juma namoziga fatvo beringkim, saltanatdagi barcha masjidlarda bandayi mo‘min Binoqulning haqiga xatm bag‘ishlansin. Biz ham, inshoolloh, g‘oyibona sadoqati uchun arvohi pokiga besh vaqt namoz uzra tilovat qilurmiz.

– Bosh ustiga, olampanoh!

A’yonlar kitobni navbatma-navbat hayrat va zavq bilan tomosha qilib bo‘lgach, Abulvohid Forig‘iy uni Boburga uzatdi.

– “Nasoyim ul-muhabbat”! – Bobur hamon kitobga termilib to‘ymas edi. – Muhabbat nasimi kelgan yurtga jon sadqa bo‘lsin...

– Tangri rahmat qilsin, padariga tortgan ekan-da, Boboqul ulug‘ yurakli yigit edi…

Muhokama qilamiz

1. Bobur xarakteriga xos xususiyatlarni ochishda qaysi obraz yoki detallar muhim ahamiyat kasb etmoqda? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.
2. *“Tog‘ yo‘li, soqov xarsanglar. Yalang‘och tovonlarning qoni tomgan chag‘ir toshlar. Ufq qadar cho‘zilgan kimsasiz yo‘l...”* tasvirining asar badiiyati va g‘oyasini ochishdagi ahamiyatini izohlang.
3. Bobur: *“Muhabbat nasimi kelgan yurtga jon sadqa bo‘lsin...”* deya nimaga ishora qilmoqda?

Topshiriq

Asarning II qismini uyda o‘qing.

II

Hofiz Ko‘ykiy yuz shamli muhtasham tilla qandillar yog‘dusiga cho‘mgan bo‘m-bo‘sh salomxonaga kirib borganda Bobur to‘rdagi kumush lavh ortida barqut bolishlarga yonboshlagancha mutolaaga berilgan edi.

barqut – baxmal; yumshoq, mayin

U Hofiz Ko‘ykiyni xush kayfiyat bilan qarshi oldi. Olim lavh ustidagi kitobga asta razm solarkan, o‘zi topshirgan tortiqni tanidi. Bu favqulodda hadya tufayli Boburning dilida qo‘zg‘algan o‘sha botiniy hayajon, o‘sha o‘tli taassurot hanuz so‘nmagan edi. U do‘stona jilmayib, sassiz bir harakat bilan mehmonga joy ko‘rsatdi, so‘ng yana “Nasoyim ul-muhabbat”ning ochiq turgan sahifasiga tikildi.

Hofiz Ko‘ykiy hanuz muntazir qo‘l qovushtirib o‘tirarkan, hamsuhbatining ulug‘vor chehrasida lahza sayin tajassum topayotgan turfa hislarning oniy jilvalarini, fikrning tutqich bermas shiddatini zo‘r diqqat bilan kuzatar, ulardan o‘zicha ma’no topmoqqa tirishar edi.

– Alisherbek benazir zot erdi, – dedi Bobur kitobdan bosh ko‘tarib. Qiyiq ko‘zlarida horg‘in quvonch uchqunlari chaqnar edi. – Har daf’a o‘qib hayrat qilamenki, turkiy tilda hech kim ash’orni ul hazratdek ko‘p va xo‘b aytqon emas.

– Yaxshi kitob – kishi ruhining jon ozig‘i, – dedi Hofiz Ko‘ykiy uni quvvatlab.

– Har qanday kishining ham emas, – deya birdan e’tiroz bildirdi Bobur.

– Albatta, olampanoh. Lekin yaxshi kitobni o‘qigan kishiga ham yaxshilik sharofati yuqmog‘i shubhasizdir.

– O‘qiganga yuqmaydir, mavlono! – Bobur Mirzoning qaysar qoshlari mardona chimirildi. – Uqqanga yuqadir.

– Haq so‘z, olampanoh.

qimtinmoq – tortinib turmoq, iymanmoq

Oraga og‘ir jimlik cho‘kdi.

– Olampanoh... – Hofiz Ko‘ykiy shohga qimtinibgina murojaat qildi. – Mening qutlug‘ huzuringizga kelmoqdan maqsadim, avvalo, siz zoti shariflarini ziyorat etmoq bo‘lsa, so‘ng shuhrati yetti iqlimga mashhur allomalaringiz bilan tanishmoq, kutubxonangizdagi noyob durdonalardan bahramand bo‘lmoqlik umidi hamdir. Kamina qulingiz ne vaqtlardan buyon ilmi tarixga doir bir risola bitmak orzusida yuradirman. Kutubxonangizda tilloga topilmas mo‘tabar kitoblar bisyor deb eshitaman. Agar zoti muboraklari ijozat etsalar...

Boburning chehrasiga taajjub ifodasi qalqidi:

– Mavlono Abulvohid Forig‘iy sizni ko‘p ulug‘ alloma deb ta’riflab edi, taassuf...

Hofiz Ko‘ykiy kutilmagan bu gapdan gangidi, kalovlanib boshini ko‘tardi:

– Olampanoh...

– Niyatingiz xolis ekaniga shubha yo‘q, mavlono, biroq... – Bobur suhbatdoshini ayagandek bir zum taraddudlanib qoldi, – biroq ilm ko‘yida o‘zlarini bozordan olib, bozorga solguvchi allomalarning allomaliklari menga har vaqt kulgili va qalbaki tuyulur!

Olim duv qizardi, o‘rnidan og‘ir qo‘zg‘alib qo‘ydi: yer yorilsa, kirgudek holi bor edi, ammo yer yorilmadi! U so‘nggi jur’atini to‘plab, hayajon ichra izohga og‘iz chog‘ladi:

– Olampanoh mening tilagimni yanglish angladilar, chog‘i...

– Sizni ranjitmoq maqsadim yo‘q edi, – dedi Bobur kulumsirab. – Faqat so‘z o‘rni

uchun aytdim xolos. Zero umrim mobaynida qalbaki tangalardan ko‘ra qalbaki allomalarni ko‘proq uchratdim. Alarning haq va ma’rifat nomidan so‘ylagan yolg‘onlari meni muttasil g‘azabga soldi, imkonim yetgan chog‘larda unday betavfiqlarning barchasini og‘ir jazolarga mustahiq etdim. Imonim komilki, bu qilmishim Qodiri lamyazalga ham xush kelg‘ay!

“Umrim mobaynida qalbaki tangalardan ko‘ra qalbaki allomalarni ko‘proq uchratdim”, deganda Bobur kimlarni nazarda tutgan deb o‘ylaysiz?

Bobur tovushining allanechuk keskin pardalarda yangrab ketganini sezdi shekilli, xiyol tin olib, vazmin ohangda so‘zlay boshladi.

– Rahmatli padari buzurgvorim aytur edilar: jannatmakon imom Muhammad G‘azzoliy hazratlari Bag‘dod madrasasida tahsilni tugallab, karvon bilan o‘z yurtlariga qaytar ekanlar, yo‘lda karvonni qaroqchi bosibdir. Qaroqchilar savdogarlarning mol-mulklarini tortib olibdilar. Hazrati imom qaroqchiboshiga ro‘baro‘ bo‘lib arz etibdilar: “Men bir tolibi ilmman, na oltin, na kumushim bor. Bor bud-shudim ikki sandiq kitob erdi, odamlaring tortib oldilar. Ey marhamatlig‘ sardor, amr etkim, kitoblarimni qaytarib bersinlar. Baribir alarning senga ham, yigitlaringga ham hech qanday nafi yo‘qdir”. Qaroqchiboshi qahrga minib so‘roqqa tutibdir: “Xo‘sh, alardin senga ne naf bor?” Imom hazratlari benihoya taajjubda qolib: “Nechun naf yetmasin? – deb javob beribdilar. – Axir bu mening o‘n yil musofirlikda riyozat chekib orttirgan ilmlarim-ku!” “Sen o‘zingni olim sanaysanmi?” – debdi qaroqchiboshi. “Ollohning inoyati bilan...” – debdilar imom hazratlari. “Yo‘q, sen olim emassan! – debdi qaroqchiboshi. – Chindan ham fozil bir kimsa bo‘lsang erdi, kitoblaring butkul yo‘qolsa-da, parvoyingga keltirmagan bo‘lur eding. Chin olim kishining ilmi sandiqda emas, yuragida bo‘lur, uqdingmi?” Qaroqchiboshi shunday deya imom hazratlariga marhamat ko‘rsatib, sandiqlarini qaytarib berishni amr etibdir. Ul zoti sharifga vahshiy bir qaroqchining bu yanglig‘ malomat-minnatlari g‘oyat og‘ir botibdir. Yo‘lning qoq o‘rtasidan ortga – Bag‘dodga qarab qaytibdilar. Qaytadan madrasaga kirib, o‘shal ikki sandiq kitobni xatmi kutub qilib chiqibdilar va barcha egallagan ilmlarini yurak va ko‘ngilning qatlariga jo qilib olgunlariga qadar madrasa ostonasini tark etmabdilar. Shundan so‘ng imom hazratlari hargiz kitobga qaramabdilar: ilm ul zoti bobarakotning qalb chamanida yashnay boshlabdir...

Olim ich-ichidan iztirob chekar, uning so‘zlari haq ekanini chin dildan e’tirof etsa-da, o‘zga bir fikr xayolidan ketmas edi: “Qilich sig‘gan qinga qalam sig‘mas ekan-da...” Yuragining tubidan e’tiroz g‘alayoni toshib kelsa hamki, boshini quyi solib, tasdiq alomati bilan cheklanmoqqa tirishdi:

– Ko‘p ibratomuz rivoyat ekan, olampanoh.

Bobur shahodat barmog‘i bilan kumush lavhni asta chertgancha hamon savolomuz tikilib turardi:

– Xo‘sh, mavlono?

– Olampanoh... – Hofiz Ko‘ykiyning manglayidagi chiziqlar yanada chuqur tortdi, mulohaza yuki yelkalaridan xarsangtosh bo‘lib bosdi, andisha tig‘i tiliga ko‘ndalang keldi – qiynaldi, ammo baribir... chidayolmadi:

– Shakkok qulingizni ma’zur tuting, olampanoh, biroq, taassufki, sizni ham ko‘p donishparvar zot, ilm-ma’rifatning chin homiysi deb ta’riflab edilar!

Olimning ko‘ksini to‘ldirgan bezovta og‘riq birdan tindi, so‘ng o‘rtaga cho‘mgan qaltis sukunat ichra butun vujudini larzaga solib gursullayotgan yuragining dukuri yaqqol eshitila boshladi. Va banogoh... darg‘azab farmon o‘rniga momaqaldiroqdek qahqaha yangradi. Hofiz Ko‘ykiy quloqlariga ishonmay, boshini bazo‘r ko‘tardi-yu, ko‘zlariga ham ishonmay qoldi: shohning yuzida tabassum balqirdi!

Bobur Hofiz Ko‘ykiyga aytib bergan rivoyat sizda qanday taassurot qoldirdi?

– Borakallo, mavlono! – dedi Bobur ko‘zlariga qalqqan yosh tomchilarini artib. – Dovyurak kimsa ekansiz! Asli bu istehzolarni sizni bir sinab ko‘rmoq yo‘liga aytib edik. E’tiqodingiz sha’ni uchun, aning pokligi uchun bizning na savlatimizni, na davlatimizni istihola etdingiz! Bilsangiz, shu chog‘ga qadar kamdan kam odam bizning bu yo‘sin da’volarimizga e’tiroz aytgan. Aksincha, bunday damlar aksariyat kishi yo‘q gunohlariga ham iqror bo‘lib, tavba-tazarruga zo‘r beradur. Tasanno jur’atingizga, mavlono! Chin fozil inson asli shunday bo‘lmog‘i lozim. Zero odamzod iymonining barqarorligi avvalo uning ne chog‘ mard va haqgo‘y ekani bilan o‘lchanur. Bizni qora tortib shundog‘ joylardan zahmat chekib kelibsiz, nainki muruvvatimizni darig‘ tutsak!

Hofiz Ko‘ykiy bori-borlig‘i hayajondan titrab, qulluq qildi.

– Bizning huzurimizga ne-ne muhtaram zotlar ganj-u davlat tilab, rutba-yu unvon tilab qadam ranjida qildilar, – deya so‘zida davom etdi Bobur. – Lekin shu vaqtgacha kitob izlab, ma’rifat istab kelgan kimsani ko‘rganimiz yo‘q edi. Shukur Tangrigakim, alhol inoyat aylab, zoriqib ko‘z tutgan kishimizning diydoriga yetishtirdi… Toshkanddan qachon chiqib edingiz? El-ulus, raiyatning kayfiyati nechuk? – Bobur kutilmaganda suhbat mavzusini o‘zgartirdi. – Farkatda istiqomat qilurmi edingiz?

– Ha, olampanoh.

– Samarqanddan quvilib, Andijondan ayrilgan sargardon kunlarim ul manzilda bir muddat turib edim, – deya Bobur xayolchan so‘zlarkan, tuyqusdan tovushi hayratomuz ohang kasb etdi. – Yodimda, bir oqshom bir yuz-u o‘n oltiga kirgan kampirning kulbasida yomg‘irdan jon saqlab edim. Ko‘p umr topqon tabarruk kampir edi. Bir og‘asi Sohibqiron Temur zamonasida cherikka qo‘shilgan ekan, muttasil shuni so‘ylar edi. Og‘asini “Hindistonda o‘lgan” deb edi. Manglayimga bitmish g‘aroyib savdoni ko‘ringkim, bu kun o‘shal ko‘hna kampirning tilidan tushmagan yetti yot yurtda o‘ltirib uni eslayotirman... Haa... Siz bunga qay yo‘l bilan keldingiz? Ho‘rmuzdanmi?

– Yo‘q, olampanoh. Oloy va Qarategindan oshib, Maschoh kentiga o‘tdik, andin Obigarm yoqalab Hisor vodiysiga tushdik.

Bobur sergak tortdi:

– Maschoh?! G‘alat! Yo‘qsa, Obiburdondan ham o‘tgan chiqarsiz?

– Ha, olampanoh.

– Yo qudratingdan! – deya xitob qildi Bobur.

– Axir biz bir paytlar Kobul sari otlanganda xuddi shundog‘ yo‘l tutmish edik! Siz esa, bukun go‘yo bilgandek, ortimizdan izma-iz yurib kelibsiz. Voajab! Obiburdondan oshg‘an chog‘imiz bir chashma labida to‘xtab edik. Shu chashma yoqasida bir toshga bayt ham yozdirib edim. Banogoh ko‘zingiz tushgani yo‘qmi?

Olim afsuslanib bosh chayqadi:

– Hech, olampanoh... Ne bayt edi o‘zi?

– Hanuz xotirimdan o‘chgan emas, – dedi Bobur. – Jonfizo baytlar edi:

Shunidam ki, Jamshidi farrux sirisht,
Ba sarchashmaye bar sange navisht:
“Bar in chashma chun mo base dam zadand,
Biraftand chun chashm barham zadand...”

She’r ma’nosi: Eshitdimki, qutlug‘ tabiatli Jamshid bir buloq boshida toshga shunday deb yozdiribdi: “Bu chashma qoshiga ko‘plar biz kabi kelib o‘ltirdilar, biz kabi ketdilar va yo‘q bo‘ldilar”.

Bobur Mirzo qattiq hayratga tushgan edi. Ammo chinakam hayratangiz ishlar keyinchalik – oradan asrlar o‘tgach sodir bo‘lib, oradan asrlar o‘tgach oshkor bo‘lajagini u mutlaqo bilmas edi.

...Ming to‘qqiz yuz ellik uchinchi yili arxeologik ekspeditsiya Obiburdon qishlog‘idan Bobur bayt yozdirgan o‘sha xarsangtoshni topadi. “Boburnoma”da qayd etilgan tafsilot dalili shu yo‘sin qo‘lga kiritiladi. Lekin eng hayratlanarli nuqta shundaki, qissamiz qahramonidan uch asr muqaddam yashab o‘tgan shoirlar shohi – Shayx Muslihiddin Sa’diyning jonbasta kalomidan vujudga kelgan va xushnavo shoir Mirzo Bobur ko‘ngligagina emas, balki cho‘ng xarsangga ham naqsh ettirib abadiyat bag‘ishlashga intilgan bu baytlar, oradan uch asr o‘tgach, yana bir buyuk otashnafas shoir – “rus she’riyatining quyoshi” Aleksandr Pushkinning ham yuragiga titratma soladi: “Bog‘chasaroy favvorasi”ga aynan shu baytlar epigraf qilib olinadi!

Bir-biriga g‘oyibona talpingan buyuk qalblar ana shunday g‘oyibona diydor ko‘rishadilar. Bir-biridan asrlar osha, millatlar, til va mazhablar osha ayri yashagan uch daho shoirning so‘nmas nafasi bu baytlarning mo‘jizakor qudrati tufayli shu tariqa ulug‘vor sir, tengsiz sehr kasb etadi. Vaqtning qattol, beshafqat yellari turfa zamonlar qa’riga sovurgan ularning jism-u joni she’riyat diyorining boqiy bag‘rida yagona vatan topadi...

Yuqoridagi uch buyuk ijodkorning qalban yaqinligini aks ettirgan to‘rtlikni qanday izohlaysiz?

Bu hayot chashmasi qoshiga biz kabi juda ko‘p kishilar keldilar, tiriklik nash’asiga g‘arq bo‘lib o‘ltirdilar, so‘ng bir-bir abadiy yo‘qlik sari ketdilar. Bukun chashma labida biz zavq-u safoga to‘lib o‘ltiribmiz. Bizdan avval o‘tganlarning barchasi ketdi. Bizdan keyin kelguvchilarning ham barchasi ketajak.

Bizning ham azaliy qismatimiz shu. Hammamiz keturmiz – istisnosiz, istig‘nosiz. Bu chashma qoshida na jismimiz, na ruhimiz sobit qolur. Faqat qachondir, qaydadir o‘rtangan yurakning o‘rtangan tili bilan bir haq so‘z ayta olgan bo‘lsak, yolg‘iz shu so‘zgina zamonlar suroniga bo‘y bermay, asrlar osha, millatlar, til va mazhablar osha haqqa tashna, o‘rtangan bir yurakka yetib bormog‘i ehtimol...

istig‘no – muhtoj bo‘lmaslik, ehtiyoj sezmaslik

Qayda u – o‘sha O‘lmas so‘z?..

Bobur Mirzo “O‘lmas so‘z” deganda qanday so‘zni nazarda tutgan?

Bog‘i Nurafshon – yer yuzining jannati – sirli farog‘at va shukuhga to‘lib shovullaydi. Hofiz Ko‘ykiy bu dilkash maskanga birinchi kundanoq qizg‘in mehr qo‘ydi. U kun bo‘yi goh kutubxonada, goh hujrasida mutolaadan bosh ko‘tarmay o‘tiradi, oqshom tushib, qosh qoraya boshlagach, adoqsiz bog‘ sahnida xayolkash kezib, horg‘inlikni butkul unutadi. Shunday oqshomlarning birida u Bobur Mirzoga duch kelib qoldi. Bog‘ etagida, azim shamshod va dafna daraxtlari orasida qad ko‘targan muazzam toqi ravoqda Bobur yolg‘iz o‘ltirar edi. Umrining so‘nggi yillarida u saroydagi xushchaqchaq suron bilan to‘la bazm-u tomoshalardan sovigan, jon olguvchi hind raqqosalarning sitamkor ishvalari ham, bulbuligo‘yo shoirlarning shon-shuhrat ko‘yida o‘rtanib aytguvchi dilrabo baytlari ham endi ko‘ngliga zavq bag‘ishlamas edi. U ko‘p vaqtini ko‘zdan yiroq, xilvat shu toqi ravoqda tanho o‘tkazar, ahyon-ahyon, hushi kelgan chog‘lardagina Yusufiyni chaqirib, chog‘ir buyurar edi. Bunday paytlarda Bog‘i Nurafshonga teran sukunat cho‘kar, olampanohning dardmand, miskin kayfiyatini sezgan saroy ahli, mulozimlar un chiqarmaslikka tirishar edilar. Hofiz Ko‘ykiy Boburni qattiq xayol og‘ushida ko‘rib, sekin iziga qaytmoqchi bo‘ldi. U qizg‘ish qum sepilgan yo‘lkadan mo‘jaz xiyobonga burilganida ortidan Boburning:

– Mavlono, marhamat qilg‘aylar! – degan sarxush ovozi eshitildi.

Toqi ravoqda, qizil sandal og‘ochidan ishlangan pastak xontaxta ustidagi oltin barkashda munaqqash ko‘zachalar, nafis chinni piyolalar tizilib turar edi. Hofiz Ko‘ykiy ohista ta’zim qilib, poygakka tiz cho‘kdi.

– Istirohatmu? – Bobur ko‘zlarini qisgancha kulumsirab unga qaradi.

– Ha, olampanoh, bu kun oqshom g‘oyat latif...

– Ha, ha... – Bobur bosh irg‘adi. – Latif, latif...

Xiyla vaqt so‘zsiz-sadosiz qoldilar. Quyosh bog‘ ortida jimirlab oqayotgan Jamna suviga zar kokillarini yuvmoqda edi. Nihoyat Bobur intihosizdek tuyulgan jimlikni buzib:

– O‘shning oqshomlari ham ko‘p so‘lim, tarovatli bo‘lur, – dedi.

Hofiz Ko‘ykiy bosh irg‘ab qo‘ydi.

– Bu olamda men kezmagan yurt kam qoldi, – deb davom etdi Bobur o‘ychan ohangda.

– Ne-ne go‘zal maskanlami zabt etmadim! Lekin hech qayda O‘shdek latofatlik bir viloyatni ko‘rmadim...

U xayolga cho‘mgancha tag‘in jim bo‘lib qoldi.

– U yerda bir ustuvor tog‘ bor, Baroqko‘h derlar. Men O‘shni olganimda – tarix to‘qqiz yuz ikkida – Tangri taolo inoyati bilan ushbu tog‘ning tumshug‘ida bir ayvonliq hujra soldim... Tamom shahr va mahallot oyoq ostida edi. Hanuz o‘sha hujra ko‘z o‘ngimdan ketmaydir. Ayniqsa shu kunlar... Qani edi inon-ixtiyorim o‘zimda bo‘lsa-yu, besh kunlik gunohkor umrning qolganini o‘sha hujrada o‘tkarsam! – deya tuyqusdan shivirladi Bobur.

Hofiz Ko‘ykiy unga hayronalik bilan qaradi. Bobur go‘yo suhbatdoshini unutgandek parishon o‘ltirar edi.

– Ming taassufki, dard bor, darmon yo‘q. – U og‘ir tin oldi. – Saltanat shunday bir tilsim ekanki, mavlono, uni qo‘lda tutmoq uchun kishi avvalo qo‘lidagi inon-ixtiyoridan xalos bo‘lmog‘i lozim ekan...

Hofiz Ko‘ykiy nima deyarini bilmay qoldi.

– Meni “sohibqiron”, “yetti iqlimning shamsi anvori”, “shahanshohi olam” deb ko‘klarga ko‘taradilar, – deya hasratli tovush bilan so‘zlardi Bobur. – Lekin biror kimsa bilmaydiki, men ham asli shu yog‘och taxtga qaramman, mana shu yaltiroq tojga qulman... Illo, har bir banda faqat Ollohgagina qul emas.

Olim birdan qizarindi. Axir u ham Boburni necha daf’a takror va takror ayni o‘sha so‘zlar bilan madh etmaganmidi? Lekin azal-abad shunday bo‘lgach, unda ne ixtiyor? Chindan-da mushkul muammo bu: axir hukmdorni inson insonni ataganidek “birodar” yoxud “og‘a”, yoxud “ini” deb atab bo‘lmasa!..

Demak, bu so‘zlarni u har safar botiniy istehzo va ijirg‘anish bilan tinglar ekan-da... Hofiz Ko‘ykiy hindlar Boburga “qalandar shoh” deya nom berganliklari bejiz emasligini daf’atan angladi.

– U yurtlar endi bizga harom... – Bobur qo‘lidagi piyoladan paydar-pay boda sipqarardi. – Olmaning sarxilini qurt yermish. Yurt buzg‘uvchi, badfe’l, boyqush shohlarga qoldi u viloyatlar... Alarning aqli boshidagi tojidan hargiz tashqariga chiqmag‘ay. Yo‘qsa, birining etini biri yeb, yurtini g‘animga berarmidi?

Olimning vujudiga simobdek titroq yugurdi. “Alarning aqli boshidagi tojidan hargiz tashqariga chiqmag‘ay...” Boburning sarmast, ammo ma’nodor so‘zlari uning yuragida ilhom o‘tini yoqdi – shu bir jumla ne vaqtdan buyon to‘xtab yotgan asariga najotbaxsh ko‘prik bo‘lib tushuvi muqarrar edi...

U olampanohdan tezroq ijozat olib qo‘zg‘alish istagida o‘rtana boshladi. Yana sukunat cho‘kdi. Hofiz Ko‘ykiy na bu osoyishta, dilbar sukunatni, na o‘yga tolgan Boburning xayolini buzishga jur’at etardi...

– Mavlono... – Bobur tuyqusdan unga o‘girildi. – Siz ko‘p mushkulotlarni boshdan kechirgan sohibi aqlsiz. Men sizdan yana bir so‘roq so‘rasam maylimi?

– Bosh ustiga... – Olimning birdan tili tutildi, so‘ng jur’atsizgina: – Bosh ustiga, olampanoh, – dedi.

– Mana, siz... Yo‘q, Ollohning har bandasi goh hud, goh behud tushlar ko‘rur. Tushda kishiga ko‘p biliksiz narsalar ayon bo‘lg‘usidir. Shunday emasmi, mavlono? Ammo mening... Ne vaqtlarkim, men muttasil bir tush ko‘rib, mazmunini anglamoqdin ojizman. Tunlar ba’zan

yakkash bir yo‘sin manzara namoyon bo‘lur, o‘sha Farkatda ko‘rganim – toshqin soy hududsiz bir dengiz kabi ayqirib yotadi. Suv betini yupqa muz bosgan. Qo‘limda aso, muz uzra shitob ila qaygadir yelib boraman. Har qadam qo‘yganimda oyog‘im ostida muz qirs-qirs ushalar, muz har qisirlaganda yuragim qalqib-qalqib ketar... Na dengizning poyoni bor, na yo‘limning, vahm ichra qaro terga botib tentib yuraman. Sahar chog‘i hushim boshimdan uchib, ne vaqt hayron-u parishon o‘ltiraman. So‘ng arkoni davlat, munajjimlardan ta’bir so‘rayman. “Olampanoh, muborak nazaringiz tushgan ul kanora, inshoolloh, saodat sohili bo‘lur”, deydilar...

kanora – sohil, qirg‘oq

Mag‘ribdan shamol turdi. Gullarning boshi egildi. Quyoshning so‘nggi jilvasi toqi ravoqning gulgun naqshlarini yallig‘lantirdi.

– Saodat sohili! – Bobur yoniq bir xo‘rsinish bilan xitob qildi. – Qayda u? Qay baxtiyor kimsa unga yetibdir?

Hofiz Ko‘ykiy hanuz some’ bo‘lib o‘tirarkan, lablari beixtiyor shivirladi: “Darhaqiqat, qayda u? Bu rub’i maskunda saodat istagan banda hech vaqt uning chin diydoriga erishurmikan? Dunyoni zir titratgan jahongirki, unga yetmagan ekan...”

some’ – eshituvchi, tinglovchi

– Ko‘p allomalardan, ulamoyi kiromlardan so‘roqladim: “Qayda u?” Ko‘ngil tingudek bir javob topmadim, – deya davom etdi Bobur. – Goh aytdilarki, u chog‘ir dengizining qirg‘og‘ida, goh dedilarki, ma’rifat daryosining kanorasida... Goh esa uqtirdilarki, savob ummonining sarhadlarida...

Hofiz Ko‘ykiy dilidagi gap tiliga qay yo‘sin qalqib chiqqanini bilmay qoldi:

– Saodat sohili vatanda, olampanoh...

Bobur birdan yalt etib qaradi. Shohning sarxush ko‘zlarida nogoh o‘kinch ko‘lankasi paydo bo‘lganini ko‘rib, Hofiz Ko‘ykiy g‘ayrishuuriy tarzda uning dilidagi bitmas jarohatga tig‘ tortganini payqadi-yu, xijolat chekib, yerga tikildi.

Ufq quyoshni o‘z bag‘riga dafn etdi. Bulutlarning ko‘ksi qonga to‘ldi. Olisdagi tog‘lar unsiz faryod chekdi. Yorug‘ olamda bu faryodni muazzam toqi ravoqda o‘z xayollariga g‘arq bo‘lib o‘tirgan ikki kishidan bo‘lak biror kimsa eshitmadi...

Muhokama qilamiz

1. Uch buyuk qalb egalarining g‘oyibona diydorlashishi sabablari nimada?
2. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, yozuvchi asar syujetini shakllantirishda tarixiy faktlardan qanday foydalanganini izohlang.
3. Dialoglarning obrazlar xarakterini ochishdagi ahamiyatini asar matni asosida dalillang.
4. Hofiz Ko‘ykiy “saodat sohili”ni vatanda deya izohladi. Sizningcha, saodat sohili qayerda?

Topshiriq

Asarning **III** qismini uyda o‘qing.

III

Hofiz Ko‘ykiy hujrasidan chiqib, asta kundalik mashg‘ulotlariga otlanganida mulozim kelib, huzuri muborakka – shoh qabuliga taklif etdi. Bobur uni shu paytgacha hali biror marta ertalabdan yo‘qlamagan – oqshomlarigina suhbatga chorlar edi. Olim kutilmagan taklifdan taajjublanib, saroy sari yo‘l oldi. Devonda Bobur negadir yolg‘iz, arkoni davlatdan hech bir kimsa ko‘rinmas edi. Hofiz Ko‘ykiy ta’zim ado qilib, ko‘rsatilgan joyga o‘ltirarkan, Bobur unga sinchkov nazar solib:

– Ustingizdan shikoyat bor, mavlono, – dedi.

Hofiz Ko‘ykiy azbaroyi gangiganidan talay vaqt tili kalimaga kelmay qoldi. “Yo Rabbano! Quruq tuhmatdan o‘zing asra!” Nihoyat yurak yutib, bo‘g‘iq ovoz chiqardi:

– G‘ofil qulingizdan ne gunoh sodir bo‘libdir, olampanoh?

– Gunoh shulkim, – dedi Bobur qat’iy ohangda, – bakovullarimiz sizdan qattiq ranjibdirlar: tortgan taomlaridan loaqal bir luqma tanovul etmas emishsiz. Shu gap chinmi, mavlono?

Hofiz Ko‘ykiyning vujudi zirillab bo‘shashdi. “Xayriyat!”

– Ha, olampanoh, – dedi u bosh irg‘ab.

– Sabab? – deb so‘radi Bobur chimirilib.

– Sabab... Olampanoh, xotiringizga badgumonlar kelmasin, bakovullaringizda ham, taomlarda ham hech bir ayb yo‘qtur, – dedi olim ohista tin olib. – Alardin tanovul etmasligimning boisi shundakim, men tutmish tariqat yo‘li bunga imkon bermaydir. Ma’lumingizkim, maqomoti naqshbandiyaga binoan, o‘zganing minnatisiz, o‘zganing mehnatisiz, o‘z mehnati bilan topilgan narsagina kishiga halol sanalur...

Bobur birdan so‘zsiz qoldi, sukutga cho‘mdi.

– Xo‘p, bu uzringizni inobatga olaylik, – dedi u nihoyat hamdardona bir yo‘sinda. – Lekin sizning ko‘cha-ko‘ylarda suv tashib, yer supurib yurishingiz o‘z sha’ningizga ham, bizning sha’nimizga ham yarashmas. Og‘ziga kuchi yetmagan mardum aytmasmiki, musofir mehmonini sig‘dirmabdir deb?

Hofiz Ko‘ykiy xijolat chekib kulumsiradi:

– Ko‘ngil to‘g‘ri bo‘lgach, mardumning har ne gap-so‘zi hech emasmi, olampanoh?

Bobur yana uzoq o‘yga toldi.

– Xayr, mayli, biroq xizmatingizga berilgan mulozimlarni jo‘natib yubormoq na hojat erdi?

– Olampanoh... – dedi olim qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib. – O‘tinib so‘raydirmen, bu harakatlarim zinhor noshukurlik deb baholanmasa... Nachora, bu notavon banda mulozim saqlamoqqa qodir emas. Men – bir Olloh quli, bas, o‘zim qul bo‘lganim holda yana qay yo‘sin qul saqlamoqqa haddim sig‘sin?

– Nechuk xotirimdan faromush bo‘libtur? – deya bosh tebratdi Bobur. – Axir “Qachon bu bandalig‘ xojalig‘ bila rost kelur?!” Shunday emasmi, mavlono?

– Haqqasti rost, olampanoh.

Gap-so‘z tugagandek, har kim o‘z fikr-o‘ylariga g‘arq bo‘lgandek edi. Bir payt Hofiz Ko‘ykiyning qulog‘iga allaqanday hasratli, shikvakor shivir chalindi:

shikvakor – noligannamo, shikoyatnamo

– Unda bizning ahvolimiz ne kechur, mavlono?

Olim boshini ko‘tarib, Boburning mubham iztirob cho‘kkan ko‘zlarini ko‘rdi, ko‘rdi-yu botinib qaray olmadi.

– Labbay, olampanoh?

– Bizning ahvolimiz ne kechur? – shohning sezilar-sezilmas taassuf ohangi zohir ovozi asta titrab ketdi.

Hofiz Ko‘ykiy shoshib:

– Sizning yo‘rig‘ingiz bo‘lak, olampanoh, – dedi.

– Nechun, mavlono? Yoinkim Tangriga bandalikni bizga ravo ko‘rmaysizmi?!

Yana ezgin jimlik, yana bezovta sukut...

– Gohi damlar ozodavash darvish bo‘lgim keladi, – deya nogoh tilga kirdi Bobur. – Barchasiga etak silkib, “Hayyo-huyt!” deb oyoq yetguncha ketsam deyman... Mundin ikki yil muqaddam Chandara otlig‘ bir viloyatda bo‘lg‘on qattiq chopqindan so‘ng shu xayol xotirimg‘a bot-bot keladigan bo‘lib qoldi. Ul qattol bir jang edikim, to‘kilgan qon daryo bo‘lib, murdalar esa o‘shal daryoda xas-cho‘p bo‘lib oqqan edilar. Tangri bizga yana bir bor inoyat qilib, qo‘limiz baland kelgan edi. Chopqindan so‘ng barcha beklar bazmga yig‘ilib, zafar nash’asidan to‘lib-toshib so‘yladilar: kim fillar podasini talato‘p etgan, kim zarbzan palaxmonlarni g‘animning o‘ziga qarab o‘q otmoqqa majbur qilgan... Men esa bir so‘z demay o‘ltirardim, parishon, aftodahol. Ko‘z o‘ngimda sodir bo‘lmish qo‘rqinch bir jasorat aql-u hushdan tamom ayirgan edi: juvong‘or qurshovida qolgan qal’a devori ostida hindi askarlari navkarlarimiz zarbidan bir-bir qirilib bitdilar, axiri o‘n besh nafar yov askari muqarrar bandilik xavfida qoldi. Shu chog‘ alardin biri ag‘darilib yotgan aroba uzra chiqib, qilich yalang‘ochladi, boshqa o‘n to‘rt nafari bir-bir kelib qilich tig‘iga boshlarini tutib berdilar... Nihoyat qilich tutqon navkar qo‘ynidan dudama xanjar chiqarib, o‘z ko‘ksiga sanchdi... Alarning jasoratig‘a sidqidildan tong qoldim. Va so‘ngroq gunohkor dilimga sitam kirdi.

palaxmon – toshotar qurol

juvong‘or – qo‘shinning so‘l (chap) qanoti

Hofiz Ko‘ykiy qarshisida ko‘ngil yorib istig‘for keltirayotgan muztarib bu kimsaga ich-ichida Ollohdan shafqat va muruvvat tilar edi.

muztarib – iztirob chekuvchi

Boburning *“Gohi damlar ozodavash darvish bo‘lgim keladi”* degan fikriga izoh bering.



– Angladimki, bu o‘lkada alarning yolg‘iz jismlarini bo‘ysundira olur ekanman, ruhlarini itoat ettirmakka hargiz qudratim yetmas ekan... Va yana angladimki, alar o‘z yurtlaridan tiriklayin judo bo‘lmoqdin ko‘ra o‘limni afzal ko‘rdilar. Men esa, ne yuz qarolig‘kim, o‘zga yurtni o‘z yurtimdan afzal bildim...

Boburning miskin kayfiyati olimga ham yuqdi. To‘satdan olis tog‘ etagidagi qishlog‘ini, kitoblarga to‘la hujrasini benihoya sog‘inganini his etdi, hoziroq yo‘lga otlangisi keldi.

– Qaytgim keladir, mavlono! – dedi Bobur to‘liqib. – Ammo imkon qayda?.. Siz bilan ko‘rishganimdan buyon g‘arib bir xayol tun-u kun tinim bermaydir: ul viloyatlarni endi zo‘r-u zarb bilan ola bilmasmen. Xayr, olayin ham. Lekin dastimdan shuncha sitam ko‘rgan ona yurtimga yana sitam o‘tkazamanmi?.. Yo‘q, balki o‘zga chora izlab ko‘rmoq darkordir. Rozimen, kindik qonim to‘kilmish yurtga shohlik minnatidan xalos bo‘lib, qalandar libosida qaytay...

* * *

Hofiz Ko‘ykiy ertalabdan buyon kutubxonada mutolaa bilan mashg‘ul edi. U ne vaqtlarki bir kitobni izlab yurar, uni Tehronda ham, Istanbulda ham, Qohirada ham axtarib topolmagan edi. Boburning kutubxonasidagi dunyoning jamiki tafakkur xazinalaridan keltirilgan qimmatbaho qo‘lyozmalar orasida bu nodir asarning nafis nasta’liq xat bilan ko‘chirilgan nusxasini ko‘rib, shohlik teggan gadodek quvonib ketdi. Bu – Muhammad ibn In’omning “Tarixi Turkiston” asari edi. Olim kitobni zo‘r ishtiyoq bilan mutolaa qildi, son-sanoqsiz istilo va bosqinlar, mislsiz kulfatlarda toptalib, vayrona kultepalar uzra qaqnus singari qayta mag‘rur qad tiklagan, asrlar bo‘yi kimsaga bo‘yin egmagan ona xalqi, ona yurtining shonli tarixi qalbiga larza soldi, shu ajoyib asar yuragida qo‘zg‘agan hayrat va hayajon to‘lqinlari tinmasdan turib, uni ona tiliga o‘girmoqqa kirishdi. Shu tariqa bor olamni unutib o‘tirarkan, kitobdor kelib yelkasiga ohista kaftini qo‘ydi:

– Ma’zur tutgaysiz, mavlono, sizni yo‘qlab kelmishlar.

Hofiz Ko‘ykiy ostonada xomush turgan Yusufiyni ko‘rib, shosha-pisha o‘rnidan qo‘zg‘aldi:

– Ne gap?

– Olampanoh sizni ko‘rmoq tilaydilar, – dedi Yusufiy g‘amgin tovush bilan.

– Tinchlikmu? – Hofiz Ko‘ykiyning ko‘nglida bezovta bir hadik paydo bo‘ldi. – Ne gap?

Yusufiy yerdan ko‘z uzmay jimgina borar edi. Qorong‘ilik qo‘ynida hayhotdek bo‘lib turgan Bog‘i Nurafshonga burilib, saroyning oq marmar zinalaridan ko‘tarilayotganda parishon ohangda shivirladi:

– Olampanoh betob... Og‘ir yotibdilar...

To‘rdagi xosxonada besh-o‘n chog‘li odam to‘plangan, hamma tashvishmand qiyofada, shivirlashib so‘zlashadilar.

Hofiz Ko‘ykiy yuragi uvishib ichkariga qadam qo‘yarkan, ostonada ko‘zlari qizargan, chehrasi parishon Humoyunga duch keldi. Chetlanib yo‘l berarkan, yengil ta’zim bilan so‘radi:

– Qiblagohingizning sihatlari nechuk?

Humoyun g‘amli ko‘zlarini yerga tikdi.

– Shukur, – dedi bo‘g‘iq ovoz bilan. Keyin ipak sallasining pechi bilan ko‘zlarini artarkan: – Kiring, – dedi.

O‘rtadagi baland o‘rinda Bobur Mirzo yotardi. Ranglari siniqqan, kirtaygan ko‘zlarida intihosiz bir anduh...

– Salomatmisiz, olampanoh?

Bemor sezilar-sezilmas bosh irg‘adi, ko‘zlarini shiftdan uzib, olimga qaradi. Mavlono Abulbaqo uning yostig‘ini to‘g‘rilab qo‘ydi-da, Hofiz Ko‘ykiyning poyqadamiga fotiha o‘qidi:

– Omin, dard bergan Tangrim o‘zi shifo bersin!

Xobgoh jimjit bo‘lib qoldi. Hofiz Ko‘ykiy ikki kun muqaddam Boburning huzurida Toshkandga qaytish uchun ijozat so‘raganini

xobgoh – yotoqxona

esladi. “Bemavrid bo‘lgan ekan”, deya ko‘nglidan o‘tkazdi afsuslanib. Bobur boshini bolishdan kuch bilan uzib, unga yuzlandi-da:

– Ahvolingiz nechuk, mavlono? – deb so‘radi.

– Ollohga ming qatla shukur, olampanoh.

– Safaringiz qaribdi-da?

Olim qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi:

– Zoti shariflari ijozat etsalar...

– Ijozat eturmiz! – dedi Bobur ichki bir zo‘riqish bilan, so‘ng mushkul bir vaziyatda qolgandek boshini yostiqqa tashladi. – Mavlono, mening sizni bunga chorlamoqdin maqsadim... – Uni birdan yo‘tal tutib, so‘zi bo‘lindi. – Maqsadim shulki, bitmak orzusida yurgan tasniflaringizga rivoj tilamakdir xolos. Bizdan ne ko‘mak lozim bo‘lsa, zinhor tortinmangiz.

– Qulluq, olampanoh.

– Xotiringizdan faromush bo‘lmog‘on ersa, ilk bor suhbat qurganimizda qalbaki allomalar xususida so‘zlab, sizga nohaq ranj yetkurgan edim, – dedi Bobur. – Azbaroyi o‘shal ko‘zi ochiq, qalbi basirlarga qahrim tufaylidan... Alarning kitob kemirguvchi sichqonlardan ne farqi bor? Ma’rifat xazinasining chin qadriga yolg‘iz sizdek ahli fazllargina yeta olur. Bizni ham o‘zingizga teng ko‘rib, ko‘p mutaassir etib edingiz, bilmam, ne yo‘sin tashakkur ayturmiz... Kitobdorga farmoyish berilur: ko‘nglingiz tilagan ismiki kitobni o‘zingiz bilan olmog‘ingiz mumkin.

Borlig‘i hayajondan titragan Hofiz Ko‘ykiy qayta-qayta qulluq qildi.

Sizningcha, Bobur kimlarni *“kitob kemirguvchi sichqonlar”*ga o‘xshatgan?

– Biror “sichqon”ga yemish bo‘lgandan ko‘ra sizdek zarshunos qo‘liga tushsa, odamizodga ko‘proq nafi tegur...

Og‘ir jimlik cho‘kdi. Muhtasham tilla qandillardagi shamlarning lipillab yonishigina sukunatga raxna solardi. Anchagacha hech kimdan sado chiqmadi. Bu o‘ng‘aysizlikdan yana Boburning o‘zi qutqazdi.

– Kecha oqshom g‘arib xayolimga bir nimarsalar kelib, qog‘oz qoralab edim, – deya zaif jilmaydi u.

Barchada allanechuk bir jonlanish sodir bo‘ldi:

– Olampanoh marhamat etsalar...

– Tabarruk bitiklari nomuborak quloqlarimizga sazovor ko‘rilsa, boshimiz ko‘kka yeturdi...

Bobur bir zum o‘ylanib qoldi, so‘ng horg‘in ko‘zlarini yonidagi lavhga tikdi. Yusufiy o‘rnidan ildam turdi-da, lavh ustidagi saxtiyon muqovali kitobni Boburga uzatdi. Bobur kitob qatidan buklangan yupqa qog‘oz olib, tizzasiga qo‘ydi, bemajol lablariga nimpushti qizillik yugurgandek bo‘ldi:

Yo qahr-u g‘azab birla meni tufroq qil,

Yo bahri inoyatingda mustag‘roq qil.

Yo Rab, sengadur yuzim, qaro, xoh oq qil...

Boburni tag‘in quruq, qattiq yo‘tal tutdi, nafasi bo‘g‘ilib, so‘nggi misrani kuch bilan bazo‘r shivirladi:

Har nav sening rizong erur, andoq qil...

Ruboiyning ajib ohangiga sehrlangandek hamma bir lahza tek qoldi. Nihoyat birin-ketin a’yonlarning olqishlari eshitila boshladi:

– Xo‘p aytibdursiz, olampanoh, bisyor go‘zal!

– Haq so‘z, g‘oyat xushtakallum baytlar...

– Oshiqona go‘zal lutf bo‘libdir, olampanoh...

Bobur Mirzo ohista bosh chayqadi, hazin jilmaygandek bo‘ldi. Siniqqan chehrasida bir lahza alamnok taassuf ifodasi ko‘rindi... Bu dardli misralarning “oshiqona go‘zal lutf” emas, balki suronli umri so‘nggi manzil sari borayotgan ulkan muztarib qalbning kelgusi nasllar oldida berajak iztirobli hisobi, davron hukmi qarshisidagi ma’yus o‘tinchi ekanini yolg‘iz Hofiz Ko‘ykiygina o‘z savqi tabiiysi bilan angladi.

Bobur buni sezdi, minnatdor ko‘zlari olimga javdirab boqdi...

Olamning qariyb yarmini qilich bilan, qariyb yarmini qalam bilan zabt etgan, bir og‘iz kalomiga ming-minglab odamlarni muntazir itoatda tutgan, hamisha sha’n-u shavkat og‘ushida muzaffar yashagan bu ulug‘ zakovat sohibini bunday mahzun va g‘arib holda ko‘rmoqlik g‘oyat og‘ir edi. Hofiz Ko‘ykiy mutaassir bo‘lib, beixtiyor nigohini olib qochdi...

Ertalab bemorning ahvol-ruhiyasi xiliy yengillashdi, ammo hamon darmonsiz edi. Hofiz Ko‘ykiy bomdod namozidan so‘ng u bilan xayr-xo‘shlashib, barcha yaxshiliklari uchun qayta-qayta tashakkur aytdi, Ollohdan shifo tiladi. Xobgohda talay odam bor edi, biroq Bobur mijjalaridagi yiltiragan tomchilarni ipak chorsi bilan artishdan istihola qilmadi.

– Sizga nechog‘li havasim kelishini bilsangiz edi!

Uning Hofiz Ko‘ykiyga aytgan so‘nggi so‘zlari shu bo‘ldi...

Karvon endigina Hindiston sarhadidan chiqqanida ko‘pirib ketgan chavkar otda Kobul sari yelib borayotgan chopar orqadan quvib yetdi: “Saodatmand” shoh – Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo olamdan o‘tgan edi...

chavkar – ola-bula; qora xolli

* * *

Hofiz Ko‘ykiy bir haftagacha Bog‘i Nurafshonda motamdorlar bilan bo‘ldi. Nogahoniy bu musibatdan dil-dilidan iztirob chekarkan, butun qalbi, butun borlig‘i Bobur Mirzo yodi bilan bog‘lanib qolganini yana bir bor teran his etdi, o‘zini benihoya g‘arib, mehrga zor sezdi. Olimning nazarida, butkul dunyo huvullab qolgandek... Faqat Bog‘i Nurafshongina hamon avvalgidek shukuhga to‘lib shovullar edi...

* * *

Ertasi kuni murch, dolchin, zaytun moyi ortilgan kichik bir karvon tong saharda shahar darvozasidan chiqib, Sharq sari yo‘l oldi. Karvon so‘ngida ko‘rimsizgina ot mingan Hofiz Ko‘ykiy xomush borar edi.

dolchin – tropik daraxt; uning quritilgan po‘stlog‘i ziravor hamda dorivor sifatida ishlatiladi

... Bepoyon sahro. Quyosh olov seli purkaydi. Ufq qadar yastangan qumlikda qilt etgan tirik jon ko‘rinmaydi. Ahyon-ahyon ko‘hna sardobalar uchraydi. Karvon qo‘ng‘irog‘idan atrofga sarob halqalari singari hazin sadolar taraladi:

Moli vofir, eli kofir, yo‘l yovuq...

vofir – mo‘l, ko‘p

yovuq – yaqin

Bu mungli sadolar og‘ushida horg‘in ko‘zlarini yumgancha tebranib borayotgan Hofiz Ko‘ykiy mahzun shodumonlik bilan ohista shivirlaydi:

Sharq sori gar yiroqtur...

1981-yil

Hofiz Ko‘ykiy tarixiy shaxs bo‘lib, Ko‘hakiy Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy, Ko‘ykiy Hofiz Toshkandiy (1490–1584) nomlari bilan tanilgan tarixchi, huquqshunos, tarjimon. U Ali Qushchining nabirasi bo‘lib, parkentlik ziyoli Mirzo Kamoliddin oilasida tug‘ilgan. Keyinchalik Toshkent shahriga ko‘chib kelgan. U jug‘rofiya, etnografiya, handasa, riyoziyot, falsafa, mantiq, fiqh va adabiyot sohalarining ham bilimdoni bo‘lgan. Olim o‘ndan ziyod asarlar yozgan. Ko‘hakiy o‘z zamonasining ilmli va obro‘li kishisi bo‘lgani uchun Toshkentdan to‘y munosabati bilan Hindistonga Bobur huzuriga yuborilgan (1528). Bobur “Boburnoma”da bu haqda yozadi: “Ulug‘ osh tortilganidan keyin… Xoja Mirsultong‘a va o‘g‘lonlariga va Hofiz Toshkandiy va mullo Farrux boshliq Xojaning mulozimlariga va o‘zga elchilarga ham oltundin, kumushdin tarkash bila in’omlar bo‘ldi”.

tarkash – sadoq (o‘qdon)

Muhokama qilamiz

1. Asarda Zahiriddin Muhammad Bobur qanday shaxs sifatida tasvirlangan?
2. “*Qachon bu bandalig‘ xojalig‘ ila rost kelur*” jumlasini qanday izohlaysiz? Fikringizni matn asosida dalillang.
3. Sizningcha, inson uchun qayerda yashash muhimmi yoki qanday yashash?
4. Boburga xos qaysi fazilatlar uning ham shoh, ham olim sifatida shakllanishiga asos bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
5. “*Chin olim kishining ilmi sandiqda emas, yuragida bo‘lur*” degan fikrni asardagi rivoyat asosida izohlab bering.
6. Tug‘ilgan joy sog‘inchi sizni ham bir lahza bo‘lsa-da qiynaganmi? Bu holatda qalbingizdan nelar o‘tgan?

Topshiriq

Asardan obrazlar ruhiyatiga mos keluvchi tabiat tasviri manzaralarini topib, jadvalga namunadagidek yozing. Tanlagan parchangizni izohlang.

Tabiat tasviri (peyzaj)	Izoh
Ufq quyoshni o‘z bag‘riga dafn etdi. Bulutlarning ko‘ksi qonga to‘ldi. Olisdagi tog‘lar unsiz faryod chekdi.	Boburning o‘sha paytdagi ruhiy holatiga uyg‘un.



ALISHER NAVOIY (1441–1501)

Dars davomida:
- Alisher Navoiy g‘azallarining mavzusi va badiiy mazmunini tahlil qilamiz;
- she’riy san’atlar haqida nazariy ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Alisher Navoiy shoir, olim, faylasuf, davlat arbobi va kuchli siyosatchi sifatida turkiy xalqlarning faxr-u iftixoridir. Navoiy turkiy va forsiy tillarda birday mohirlik bilan ijod qilgan, “So‘z mulkining sultoni” deya ulug‘langan buyuk mutafakkirdir.

Alisher Navoiy 1441-yilda Xurosonning madaniy markazi Hirot shahrida tavallud topgan. Otasi G‘iyosiddin Muhammad temuriylar saroyida yuqori lavozimli amaldor bo‘lib, ijodga, ilm-ma’rifatga muhabbati baland shaxs edi. Onasi Kobul shahzodalari avlodidan bo‘lib, tog‘alari Kobuliy va G‘aribiylar ham she’riyat bilan shug‘ullanganlar. Yosh Alisher mana shunday ijodiy va ma’rifiy muhitda ulg‘aygan. Uning benazir shoir bo‘lib yetishishiga o‘z davrining mashhur adiblari, olim-u fozillari katta ta’sir ko‘rsatgan. Navoiy bolaligidan ustoz shoirlarning baytlarini, Qur’oni karimni, Farididdin Attorning 4600 baytdan iborat “Mantiq ut-tayr” (“Qush tili”) dostonini to‘liq yod bilib, o‘z davrining mashhur kishilarini hayratga solgan, Lutfiy kabi ulug‘ shoirlar e’tirofiga sazovor bo‘lgan.

Xuroson – “kun chiqish, sharq” degan ma’noni anglatadi. Eronning shimoli-sharqiy qismidagi tarixiy viloyat

Alisher Navoiy siyosiy arbob sifatida Xurosonda tinchlik, adolat o‘rnatishga harakat qilgan, ilm va san’at ahlini qo‘llab-quvvatlagan, bunyodkorlik va obodonchilik ishlariga keng e’tibor qaratgan. O‘z hisobidan madrasa, masjid va ko‘priklar qurdirgan.

Alisher Navoiyning zamon va makon tanlamaydigan lirik merosi, “Xamsa” dostonlari, o‘zbek adabiy tili mavqeyini mustahkamlab bergan “Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) risolasi hamda boshqa ko‘plab ilmiy-adabiy merosi o‘z hajmi, mazmuni va badiiy qiymati bilan nafaqat turkiy, balki jahon adabiyotining ham durdonasiga aylangan.

ALISHER NAVOIYNING LIRIK MEROSI

Devonning nomi	*Sarlavha mazmuni*	*Qo‘shimcha izoh*
“Ilk devon”	Dastlabki devon	Shoirning mashhur she’rlarini jamlab, uning zamondoshlari, muxlislari 1465-1466-yillarda tuzgan.
“Oqqo‘yunli muxlislar devoni”	Oqqo‘yunlilar saltanati hududidagi Navoiy she’riyati muxlislari tartib bergan	Adabiyotshunos Aftondil Erkinov Alisher Navoiyning muxlislari tuzgan ushbu qo‘lyozmani 2012-yilda fanga ma’lum qildi. Devonni shoirning Oqqo‘yunlilar sulolasi (Ozarbayjon va G‘arbiy Eron hududlari) hukmronligi ostidagi hududlarda istiqomat qilgan ixlosmandlari tuzgan. Devon hozircha fanda shartli ravishda “Oqqo‘yunli muxlislar devoni” deb yuritiladi. U 1471-yilda tuzilgan.
“Badoye’ ul-bidoya”	Go‘zallikning boshlanishi	Husayn Boyqaro topshirig‘i bilan 1470–1480-yillarda tuzilgan.
“Navodir un-nihoya”	Nihoyasiz nodirliklar	1480–1487-yillar oralig‘ida tuzilgan.
“Xazoyin ul-maoniy”	Ma’nolar xazinasi	1492–1498-yillarda tuzilgan, to‘rt mustaqil devondan iborat lirik kulliyot.
“Devoni Foniy”	Foniy devoni	Foniy taxallusini Alisher Navoiy fors tilida bitgan she’rlari uchun qo‘llagan. Devonga o‘n ikki ming misradan ortiq she’r jamlangan.



Alisher Navoiy haykali. Boku, 2008-yil

Alisher Navoiy so‘z bobida yetuklik maydonining chavandozidir.

G‘iyosiddin Xondamir

Sizningcha, nima uchun tarixchi Xondamir Navoiyga shunday ta’rif bergan? Biz kimlarni chavandoz deb ataymiz?

MUTOLAADAN OLDIN

Siz quyi sinflarda Alisher Navoiyning kichik janrdagi asarlari (ruboiy, qit'a va fard) haqida ma'lumotlarga ega bo'lgansiz. Ushbu bilimlar asosida shoir qalamiga mansub quyidagi ijod namunalarining janrini aniqlang va jadvalni to'ldiring.

* * *

1. Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
   Har nechaki ag'yordurur, yor aylar,
   So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,
   Yumshog'i ko'ngullarni giriftor aylar.

* * *

2. Kamol et kasbkim, olam uyidin
   Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
   Jahondin notamom o'tmak biaynih
   Erur hammomdin nopok chiqmoq.

biaynih – xuddi o'zi, aynan

* * *

3. Kishi aybin yuziga qilma izhor,
   Tahammul ayla o'z aybingg'a zinhor.

tahammul – toqat, sabr, chidam

№	Lirik janr nomi	Izoh
1		
2		
3		

"KIMKI BIR KO'NGLI BUZUG'NING..."

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

Garchi xalq ozodasimen, yor agar bandam desa,
Andin ortuq anglakim, bir banda ozod aylagay.

Yordin har kimki bir so'z der, tuganmasdin burun
Istaramkim, avvalidin yona bunyod aylagay.

Yor hijronidin o'lgumdur, bu nav ermish sazo
Ul kishigakim, biravga o'zni mu'tod aylagay.

mu'tod – o'rganish, odat

Necha sabr avroqi yozg‘ay ko‘nglum-u, bir oh ila
Sarsari ishqing yetib, borini barbod aylagay.

Shayxdin zuhdi riyoyi kasb o‘lur, yo Rab, qani
Dayr pirikim, fano rasmini irshod aylagay.

Odam avlodida kamdur odamiyliq shevasi,
Odam ermas, ulki mayli odamizod aylagay.

Ne balodurkim, falak har kimga cheksa tig‘i kin,
Yongilib avval mening jonimg‘a bedod aylagay.

Besha ichra devlar maqtuli o‘lsun, ey pari,
Gar Navoiy yona azmi Astrobod aylagay.

dayr – dunyo

irshod – to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish

sheva – odat

kin – adovat

yongilib – yanglishib

besha – changalzor

maqtul – qatl etilgan

Muhokama qilamiz

1. G‘azalning matlasida shoir qanday g‘oyani ilgari suryapti? Javobingizni asoslang.
2. Lirik qahramon ozod holida ham *yor agar bandam desa*, *bir bandi ozod* bo‘lganidek xursand bo‘lishini aytadi. Shoirning bunday to‘xtamga kelishi sabablarini aniqlashga harakat qiling.
3. Oltinchi baytda shoir *shayx uzlatga chekinib, ikkiyuzlamachiligini boshlayotgani*dan yozg‘irib, *tariqatning tartibini ta’minlab, haq yo‘lidan yo‘qlikka ketishni ko‘rsatadigan yo‘lboshchi qayerdaligini so‘rab* Yaratganga munojot qiladi. Ushbu baytning g‘azal umumiy mazmunida qanchalik ahamiyati bor? Fikringizni dalillang.
4. Yettinchi baytni diqqat bilan o‘qing. *Odam avlodida kamdur odamiyliq shevasi* misrasi orqali shoir insondagi qanday qusur va illatlarni nazarda tutgan deb o‘ylaysiz?
5. G‘azaldagi qaysi baytni o‘z hayot yo‘lingizda shior qilib olgan bo‘lar edingiz? Javobingizni izohlang.
6. Alisher Navoiyning so‘zga munosabati uning ruboiy va g‘azalida qanday ifodalangan?

Topshiriq

1. Radifni aniqlab, uning g‘azaldagi ahamiyatini tushuntiring.
2. G‘azaldagi qofiyadosh so‘zlarni topib, ma’nolarini izohlashga harakat qiling.
3. G‘azalning nasriy bayonini tuzing va sinfda muhokama qiling.

“KECHA KELGUMDUR...”

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimg‘a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqdim-u chektim yo‘lida intizor,
Keldi jon og‘zimg‘a-yu, ul sho‘xi badxo‘ kelmadi.

Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot,
Ro‘zgorimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim, yig‘ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko‘rganda kulgu kelmadi.

Ko‘zlaringdin necha su(v) kelgay, deb o‘lturmang meni –
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha su(v) kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yo‘qsa kim qo‘ydi qadam,
Yo‘lg‘akim, avvalqadam ma’shuqe o‘tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.

Muhokama qilamiz

1. Tazod (bir-biriga zid, ma’noli so‘zlarni qo‘llash) she’riy san’atining g‘azaldagi ahamiyati haqida ayting.
2. Yorning yuzi oydinligi bilan u kelmagani sabab turmushining har kuni qorong‘i bo‘lgan oshiqning iztiroblari yonma-yon qo‘llanganini izohlang.
3. Yor yo‘liga intizor ko‘zlardan suv emas, qon kelishi haqidagi ifoda tasavvuringizda qanday manzarani gavdalantirdi? Shu bayt asosida oshiqning holatiga izoh bering.
4. G‘azalning maqtasida Navoiy bir emas, ikki marotaba “boda” (may, sharob) so‘zini ishlatishi sizda qanday tasavvur uyg‘otdi? “Boda” nimaning ramzi? Fikringizni asoslang.
5. Navoiy yorni “sarvi gulro‘” deya ta’rif etib, yana uni “badxo‘” (yomon fe’lli) deya atashiga qanday qaraysiz? Nega oshiq yor yomon fe’lli bo‘lsa-da, unga ko‘ngil qo‘ygan bo‘lishi mumkin yoki bu so‘zning boshqa ma’no jilvalari ham bormi? Javobingizni asoslang.
6. Oshiqning telbasifat bo‘lib qolganidan kulmagan kishining qolmagani (“Kimsa bormukim, anga ko‘rganda kulgu kelmadi”) holatiga qanday munosabat bildirasiz?

Topshiriq

* * *

G‘azaldan olgan taassurotlaringizni qisqacha yozib keling.

“QOSHI YOSINMU DEYIN...”

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,
Ko‘ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?!

Ko‘zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,
Bu kudurat ichra ruxsori safosinmu deyin?!

Ishqi dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,
Bu qatiq dard aro vaslining davosinmu deyin?!

Zulfi dominmu deyin, la’li kalominmu deyin,
Birining qaddin, yana birining adosinmu deyin?!

Turfa xolinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,
Moviy ko‘nglak uzra gulrangi qabosinmu deyin?!

Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin,
Jonima har birining javr-u jafosinmu deyin?!

Ey Navoiy, dema qosh-u ko‘zining vasfini, ayt:
Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin?!

kudurat – xafalik, g‘ashlik; g‘am, qayg‘u

safo – poklik, tozalik; go‘zallik

hajri nabardin – hijron jangi

dom – tuzoq
kalom – so‘z

ko‘nglak – ko‘ylak, kiyim

qabo – uzun va keng ust kiyim

shikanj – ranj, azob

Muhokama qilamiz

1. G‘azaldagi qaysi baytda yor tasviri ifodalangan?
2. G‘azalning beshinchi baytidagi *moviy ko‘nglak*, *gulrang qabo* kabi birikmalar tasviri nimaga ishora?
3. G‘azalning oltinchi baytidagi *“Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin”* misrasida qanday mazmun aks etgan?
4. Nega shoir g‘azal baytlarini asosan so‘roq gaplardan tuzgan deb o‘ylaysiz?
5. Oshiq muhabbatini ifodalashda *qosh, ko‘z, kiprik, xol, yuz* kabi so‘zlar qanday badiiy vazifa bajargan?

Topshiriq

Alisher Navoiyning “Qoshi yosinmu deyin...” g‘azalini yod oling.

Nazariy ma’lumot

TAKRIR, TANOSIB, RADD UL-MATLA

Adabiyotda badiiyat masalasi hamisha she’r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ijodkor salohiyati haqida so‘z borganda uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan qanday tasvirlaganiga e’tibor qaratilgan.

She’riy san’atlar badiiy asar g‘oyasining hayotiy, ta’sirchan ifodalanishiga, timsollarning yorqinroq gavdalanishiga, misralar, baytlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Badiiy (she’riy) san’atlar Sharq mumtoz adabiyotining, shu jumladan, o‘zbek adabiyotining o‘ziga xosligi, milliyligi, latofat-u nazokati, rango-rangligi, jozibadorligi va ta’sirchanligini ifodalovchi tasvir vositasidir. Quyida ularning ayrim namunalari bilan tanishamiz.

TAKRIR

Takrir “takrorlash” ma’nosini ifodalovchi she’riy san’at bo‘lib, she’rda u yoki bu so‘zni takror qo‘llashni nazarda tutadi. Takrorlash vositasida so‘z ma’nosini, uning mohiyatini ta’kidlab ko‘rsatish ushbu san’atning asosiy xususiyati sanaladi. “Qoshi yosinmu deyin...” g‘azalida takrir san’ati ustuvorlik qiladi.

TANOSIB

Tanosib arabchadan olingan bo‘lib, “mos, mutanosib, daxldor” ma’nosini bildiradi. Shoirning mantiqan bir-biriga bog‘liq va bir-birini taqozo etadigan so‘zlardan foydalanishi tanosib deyiladi.

__Ko‘zi__ qahrinmu deyin, __kirpiki__ zahrinmu deyin,
Bu kudurat ichra __ruxsori__ safosinmu deyin?!

ruxsor – yuz, chehra

Alisher Navoiy

Masalan, bu baytda “ko‘z” so‘zining ishtiroki o‘z-o‘zidan “kirpik”, “ruxsor” kabi so‘zlarning bo‘lishini taqozo etmoqda.

RADD UL-MATLA

Radd ul-matla (arabcha – “matlaning takrorlanishi”) she’riy san’atida g‘azal yoki qasida boshlang‘ich baytining birinchi misrasi maqtada yoki ba’zan boshqa baytlarda qayta keltiriladi. Bunday takror muayyan badiiy maqsadda ishlatiladi. Dastlabki baytda ilgari surilgan g‘oya keyingi baytlarda izchil rivojlantiriladi va yakunda misraning takrorlanishi orqali bu fikr yana bir bor alohida urg‘u bilan ta’kidlanadi. Masalan, “Deyin” radifli g‘azal matlasida:

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,
Ko‘ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?!

Maqtasida:

Ey Navoiy, dema qosh-u ko‘zining vasfini, ayt,
Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin?!

Topshiriq

Mavzu davomida o‘rganilgan g‘azallardan badiiy san’atlarni toping. Jadvalni to‘ldiring.

She’riy san’at nomi	Misollar
Tanosib	
Takrir	
Tazod	
Tashbeh	

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

“QARO KO‘ZUM...”

Qaro ko‘zum, kel-u mardumliq emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

mardumliq – odamiylik, insoniylik

Yuzung guliga ko‘ngul ravzasin yasa gulshan,
Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il.

Takovaringg‘a bag‘ir qonidin xino bog‘la,
Itingg‘a g‘amzada jon rishtasin rasan qilg‘il.

takovar – yo‘rg‘a ot

rasan – arqon, ip

Firoq tog‘ida topilsa tufroqim, ey charx,
Xamir etib yana ul tog‘da ko‘hkan qilg‘il.

ko‘hkan – tog‘ qazuvchi, Farhodga ishora qilinmoqda

Yuzung visolig‘a yetsun desang ko‘ngullarni,
Sochingni boshtin ayoq chin ila shikan qilg‘il.

Xazon sipohig‘a, ey bog‘bon, emas mone,
Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il.

Yuzida terni ko‘rub o‘lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuv-u gul bargidin kafan qilg‘il.

gulob – gul suvi

Navoiy, anjumane shavqi jon aro tuzsang,
Aning boshoqliq o‘qin sham’i anjuman qilg‘il.



ALFONS DODE (1840–1897)

Dars davomida:

- “So‘nggi saboq” hikoyasi syujetini tadqiq etamiz;
- hikoyadagi vatan, til, ma’rifatga muhabbat masalasini tahlil qilamiz.

Alfons Dode nasriy asarlari bilan mashhur bo‘lgan fransuz yozuvchisidir. U 1840-yili Fransiyaning Nim shahrida tavallud topgan. O‘rta maktabni Lionda tamomlagan. U yozuvchilik faoliyatini she’rlar yozish bilan boshlagan bo‘lsa-da, nasriy asarlari bilan mashhurlikka erishgan. Alfons Dode maktabda o‘qituvchilik qilgan, jurnalistika sohasiga ham qiziqqan. Yozuvchi bo‘lish maqsadida Fransiya poytaxti Parij shahriga ko‘chib kelgan. U o‘zi istaganidek mashhur yozuvchi bo‘la oldi, jumladan, 1866-yilda nashr etilgan “Tegirmonimdan maktublar” nasriy asari Dodeni dunyoga tanitdi. Yozuvchining “Arlezianka”, “Borliq bilan kurash”, “Surgundagi qirollar” kabi pyesa va romanlari ham kitobxonlar ko‘nglidan joy oldi.

Alfons Dode 1897-yili Parijda vafot etgan.

MUTOLAADAN OLDIN

1870-yillarda Fransiya Prussiya (hozirgi Germaniya)ning mustamlakasiga aylangan. Fransiyaning ko‘plab shaharlari, jumladan, “So‘nggi saboq” hikoyasida tilga olingan Elzas va Lotaringiya shaharlari ham nemislar qo‘l ostiga o‘tadi. Ko‘p cheklovlar kiritiladi, maktablarda darslarni fransuz tilida o‘tish taqiqlanib, nemis tilida o‘tish haqida buyruq keladi.



Fransiya – Germaniya urushi, 1870-yil

Hayotingizda sodir bo‘lgan voqealar, o‘z xatolaringizdan saboq olganmisiz? Saboqning so‘nggisi ham bo‘ladimi?

SO‘NGGI SABOQ

(Elzaslik bolakay hikoyasi)

O‘sha kuni ertalab maktabga juda ham kech qolayotgan edim. Muallimdan tanbeh eshitishimni o‘ylasam, yuragim orqaga tortib ketardi. Ustiga-ustak mosye Amel bizdan avvalgi dars mavzusini – sifatdoshlarni so‘ramoqchi edi. Men esa yarimta so‘z ham yodlamaganman. Bir zum xayolimga darsga kirmasdan sayr qilib yurish fikri keldi.

Havo juda ochiq va iliq edi...

O‘rmon chetida sayroqi qorayaloqlarning kuylayotgani, taxta yo‘nish zavodi ortidagi River o‘tlog‘ida nemislarning safda yurish mashg‘ulotlarini bajarayotganlari eshitilib turardi. Bularning bari meni darsdagi sifatdosh qoidalaridan ko‘ra ko‘proq o‘ziga jalb qildi, lekin men o‘zimni qo‘lga olib, maktabga yugurdim.

Meriya yonidan o‘tayotib e’lonlar taxtasi oldida to‘planib turgan odamlarga ko‘zim tushdi. So‘nggi ikki yil ichida biz u yerda barcha ko‘ngilsizlikdan xabardor bo‘lar edik: boy berilgan janglar, rekvizitsiyalar, komendant buyruqlari; o‘ylanib qoldim: “Yana qanday noxushliklar bo‘lishi mumkin?”

meriya – biror hudud yoki shahar hokimining boshqaruv organi

rekvizitsiya – mulkni majburiy ravishda doimiy yoki vaqtincha davlat ixtiyoriga olish

Shu payt shogirdi bilan e’lonlarni o‘qib turgan temirchi Vaxter meni chaqirib qoldi:

– Shoshma, bolakay, ulgurasan o‘sha maktabingga.

U ustimdan kulyapti deb o‘yladim va halloslagancha mosye Amelning uyi oldidagi gulzor tomonga yugurdim.

komendant – komandir, boshliq

Odatda dars boshida ko‘chaga eshitilarli darajada shovqin ko‘tarilardi. Bolalar quloqlarini qo‘llari bilan yopgancha o‘tilgan mavzularni g‘o‘ng‘illab takrorlashar, partani do‘mbira qilib chalishar, muallimimiz esa chizg‘ichi bilan tinchlantirishga urinardi:

– Sekinroq, sekinroq, bolalar!

Men mana shu shovqin-suron ostida joyimga sezdirmasdan o‘tirishni mo‘ljallagandim, ammo shu bugun yakshanba tongidek jimjit edi.

Nega bugun dars odatdagidek emas? Jimjitlik sababi nimada deb o‘ylaysiz?

Ochiq oynadan o‘rtoqlarim allaqachon joy-joylarida o‘tirganini, mosye Amel esa vahimali chizg‘ichini qo‘ltiqlagancha u yoqdan bu yoqqa borib kelayotganini ko‘rdim. Bu jimjitlikda qanday qilib eshikni ochib kirsam ekan? Qo‘rquvdan qanchalik qizarib, qaltirayotganimni tasavvur qilib ko‘ring.

Xavotirim o‘rinsiz ekan, mosye Amel menga muloyim qaradi va erkalab dedi:

– Qani, Frans, o‘g‘lim, kira qol. Biz sensiz darsni boshlamoqchi bo‘lib turgandik.

Men stulni hatlab o‘tib o‘z joyimni egalladim. Shundagina, qo‘rquvim bosilganidan keyin muallimning egnidagi dabdabali yashil syurtuk, burama galstuk va boshidagi qora ipak taqyani ko‘rdim. U faqat inspektor tashrif buyurganda yoki mukofotlar taqdim etilayotganda shunday

syurtuk – erkaklarning uzun belburma kamzuli

kiyinardi. Butun sinf ko‘zimga ajib va dabdabali bo‘lib ko‘rindi. Ammo meni boshqa holat hayron qoldirdi: ko‘pincha bo‘sh turadigan orqa o‘rindiqlarda qo‘lida uchburchak musiqa asbobi bilan qariya Xauzer, uning yonida sobiq mer, pochtachi va boshqa qishloq kishilari o‘tirardi. Ularning yuzi g‘amgin, Xauzerning tizzasida chetlari titilgan eski alifbe, uning ustida esa katta ko‘zoynak turardi.

Ustoz mosye Amel nega bugun “faqat inspektor tashrif buyurganda yoki mukofotlar taqdim etilayotganda” kiyadigan maxsus kiyimida edi?

Mosye Amel avvalgiday muloyim, lekin jiddiy ohangda hammamizga murojaat qildi:

– Bolalar, bugun sizlar bilan so‘nggi bor dars o‘tishimiz. Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqat nemis tili o‘qitilishi haqida buyruq keldi. Yangi o‘qituvchi ertaga keladi. Bugun fransuz tilidan oxirgi mashg‘ulotimiz. Iltimos, e’tiborliroq bo‘linglar!

Mana shu ikki og‘izgina so‘z meni larzaga soldi. Ax, razillar! Meriya devoriga ilingan e’lon nima haqida ekaniga endi tushundim.

So‘nggi fransuz tili darsi!..

Men bo‘lsam zo‘rg‘a yoza olardim! Demak, endi yozishni yaxshi o‘rganolmayman! Butun umr savodsiz bo‘lib qolaman! Darsga kirish o‘rniga qush uyasini axtarib yurganim, muzlagan Saara ko‘li ustida sirpanchiq uchib yo‘qotgan vaqtimga shunchalar achinib ketdimki! Biroz oldin zerikarli bo‘lgan kitoblar endi men uchun qadrdon do‘stlardek bo‘lib tuyuldi. Ulardan ajralish men uchun og‘ir edi. Mosye Amel-chi?! Xayolimda uni boshqa ko‘rolmaydigandek edim. Bir lahzada uning tanbehlari, chizg‘ich bilan jazolashlarini ham unutdim. Bechora!

U oxirgi dars sharafiga o‘zining bayramona liboslarini kiygandi.

Muhokama qilamiz

1. Temirchi Vaxterning bolakayni chaqirishdan maqsadi nima bo‘lishi mumkin?
2. Sizda ham Fransga o‘xshab uy vazifasini bajarmay kelgan holatlar bo‘lganmi?
3. Fransning vaqt qadri haqidagi fikrlaridan qanday xulosa chiqardingiz?
4. Mosye Amelning darsiga keksa musiqachi Xauzer, sobiq mer, pochtachi va qishloq odamlari ham kirib o‘tirgani, sizningcha, nimadan dalolat beradi?

Topshiriq

Hikoyaning qolgan qismini uyda o‘qing va asar qahramoni Fransning kechinmalariga o‘z munosabatingizni yozma shaklda bayon qiling.

Orqa o‘rindiqlardagi qishloq odamlarining nima uchun bu yerda o‘tirishganini endi tushundim. Ular tez-tez bu yerga – maktabga kelib turmaganliklaridan afsusda edilar. Ularning bari muallimning qirq yillik halol xizmati uchun minnatdorlik bildirayotganga o‘xshab ko‘rinardi.

Ism-familiyam yangraganini eshitib xayolim bo‘lindi. Javob berish navbati meniki edi. Qaniydi sifatdosh qoidalarini baland ovozda, tutilmasdan, dona-dona qilib gapirib bera olsam. Biroq men hammasini chalkashtirib yubordim, og‘irligimni u oyog‘imdan bu oyog‘imga tashlab, ko‘zimni yerdan uzolmay turaverdim. Mosye Amel menga tikilgancha so‘zlay boshladi:

– Men seni koyimayman, Frans, o‘g‘lim, shundoq ham jazolanganingni bilsang kerak. Har safar “Qayoqqa ham shoshardim, ertaga yodlayman”, deb o‘ylaysan. Oqibati nima bo‘ldi? Biz elzasliklar o‘qishni doimo ortga suramiz – fojiamiz ham ana shunda. Sizlar o‘zingizni fransuz deb bilasiz, vaholanki, o‘z ona tillaringda to‘g‘ri gapirishni ham, yozishni ham eplay olmaysiz. Bunda sening aybing boshqalarnikidan kam emas, Frans, o‘g‘lim. Biz o‘zimizdan o‘pkalashimiz kerak. Ota-onalarimiz o‘qishimiz haqida ko‘p ham qayg‘uraverishmaydi. Maktabga jo‘natish o‘rniga qo‘shimcha aqchaga ega bo‘lish maqsadida sizlarni dalaga yoki fabrikaga ishlash uchun yuborishadi. Men o‘zim-chi? Men emasmi sizlarga bilim berish o‘rniga bog‘dagi gullarni parvarishlashni zimmangizga yuklagan? Men emasmi baliq ovlagim kelib qolganda sizlarni tap tortmay darsdan ozod qilgan?

Shundan so‘ng mosye Amel fransuz tili dunyodagi eng ajoyib til ekanini, bu tilni asrashimiz lozimligini, chunki mustamlaka xalq o‘z ona tili yordamidagina yorug‘likka chiqa olishini uqtirdi...

So‘ng muallim grammatikadan ma’ruza o‘qidi. Darsni yaxshi tushunayotganimdan o‘zim ham hayratda edim. Mosye Amel mavzuni juda ravon tushuntirardi. Avvallari darsni bunchalik diqqat bilan tinglamagandim. Muallimimiz ketish oldidan bor bilimini bizga qoldirmoqchidek edi go‘yo.

Grammatikadan so‘ng yozuvga o‘tdik. Mosye Amel namuna sifatida doskaga chiroyli husnixat bilan quyidagi so‘zlarni yozib qo‘ydi: “Fransiya, Elzas. Fransiya, Elzas”.

Mosye Amel: *“Men seni koyimayman, Frans, o‘g‘lim, shundoq ham jazolanganingni bilsang kerak”*, deganda nimani nazarda tutgan edi? Ustozning “Fransiya, Elzas” degan yozuvidan nimani uqish mumkin?

Sinf suv quygandek jimjit, faqat qog‘oz ustida yugurayotgan qalamning qitirlashigina eshitilardi...

Maktab tomida kaptarlarning g‘uvg‘uvlagani qulog‘imga chalindi. O‘ylanib qoldim: “Hali ularni ham nemischa kuylashga majburlash kerakdir?”

Ko‘zimni daftardan uzganimda mosye Amelning maktab bilan qayta ko‘risholmaydigandek har bir narsaga sinchiklab qarayotganini ko‘rdim. O‘ylab ko‘ring-a, u qirq yillik umrini shu maktabga baxshida etdi. Eski stul va partalar kirlanib yaltirar, hovlidagi kashtan daraxtlari osmon qadar bo‘y cho‘zgan, ularning tagiga o‘tqazilgan xmel butun derazani to‘sib turardi. Uning uchun bularning hammasi bilan xayrlashish og‘ir edi. Axir u ertaga bu yerlarni butunlay tark etadi.

Mosye Amel darsni oxirigacha yetkazishga o‘zida kuch topa oldi.

Yozuv-chizuvdan so‘ng tarix darsiga o‘tdik; keyin barchamiz xor bo‘lib harflarni qaytardik: ba, be, bi, bo, bu. Orqa o‘rindiqdagi qariya Xauzer ham ko‘zoynagini taqib, alifboni qo‘lida

tutgancha bizga jo‘r bo‘ldi: uning ovozi hayajondan titrab chiqardi; uni eshitib yig‘lashni ham, kulishni ham bilmasdik. O, yo‘q! Bu dars sira ham yodimdan ko‘tarilmaydi...

To‘satdan cherkov soati kun yarim bo‘lganini, ibodatga shoshilish kerakligini eslatgandek bong ura boshladi. Shu onda deraza tagidan mashg‘ulotdan qaytayotgan pruss askarlarining trubalari jarangladi. Mosye Amelning rangi bo‘zdek oqardi va o‘rnidan turdi.

– Do‘stlarim, – dedi u, – do‘stlarim, men, men...

Uning bo‘g‘ziga nimadir tiqilganday bo‘ldi. Shunda u qo‘liga bo‘rni olib, katta harflar bilan kuchining boricha quyidagi so‘zlarni yozdi:

“Yashasin Fransiya!”

Keyin u boshini eggancha stulga o‘tirib, qotib qoldi va qo‘li bilan bizga ishora qildi:

“Endi tamom... Ketinglar!”

Saidjalol Saidmurodov tarjimasi

Ona tilining qadr-qimmati, ahamiyati matnning qaysi o‘rinlarida ta’sirli ifodalangan? Nega ustoz bu qadar qayg‘uga botdi?

Muhokama qilamiz

1. Hikoyada sizni ta’sirlantirgan lavhalar qaysi? Fikrlaringizni dalillang.
2. Nega asar “So‘nggi saboq” deb nomlangan? Hikoyadagi eng katta saboq nima edi?
3. Mosye Amelning “Endi tamom… Ketinglar!” jumlasidan nimalarni anglash mumkin?

Guruhlarda ishlash

Guruhlarga bo‘lining. Asardan va hayotdan olgan saboqlaringizni quyidagi jadvalda ifodalang. Ularni boshqa guruhlar bilan muhokama qiling.

Hikoyadan olingan saboq	Hayotdan olingan saboq	Ushbu saboqning ahamiyati

Topshiriq

Erkin Vohidovning “Ona tilim o‘lmaydi”, Abdulla Oripovning “Ona tilim”, Muhammad Yusufning “Kechir meni, ona tilim!” she’rlarini topib o‘qing va ularning “So‘nggi saboq” hikoyasi mazmuni bilan bog‘liq jihatlarini aniqlang.

ADABIY LABORATORIYA
KITOB MUQOVASINI TAYYORLASH

Kitob muqovasi faqat himoya o‘rami vazifasini bajarmaydi. U kitobxon asar mazmuni va g‘oyasini tasavvur qilishiga yordam beradi, kitob hamda o‘quvchi o‘rtasida muhim aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Muqova kitobning jozibadorligida katta ahamiyat kasb etadi. U kitobxonda asar haqidagi dastlabki tasavvurlar shakllanishiga ham xizmat qiladi. Muqovadagi rang va tasvirlar estetik vazifa bajarishidan tashqari asarga xos kayfiyat, u yaratilgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy an’analar, muammolar haqida ham ma’lumot berishi mumkin.


Badiiy asar muqovasi ko‘pincha muallifning uslubi va asarning mazmuniga mos ravishda yaratiladi. Masalan, mumtoz adabiyot uchun yaratilgan muqovalar jiddiy va sodda bezaklar bilan ajralib turadi. Zamonaviy adabiyot muqovalarida rang-barang, ba’zida abstrakt yoki ramziy ifodalar ustunlik qiladi. Muqovada aks etgan har bir kichik detal, jumladan, shriftlar, ranglarda katta ma’nolar yashiringan bo‘ladi.

Ko‘p holatlarda kitobni muqovasiga qarab tanlashadi. Mukammal muqova, ayniqsa, yoshlar orasida asarning o‘qilishi ehtimolini oshiradi.

O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, qaysi muqova “Shum bola” asariga ko‘proq mos keladi. Fikrlaringizni dalillang.










Guruhlarda ishlash

Guruhlarga bo‘lining. Har bir guruh bobda o‘rganilgan asarlar uchun muqova tayyorlaydi.

Muqova tayyorlashda quyidagilarga e’tibor bering:

1) muqova e’tiborni jalb qilishi va kitobni o‘qib chiqishga undashi;
2) asar janri haqida ma’lumot berishi;
3) mavzuni ochib beradigan, sifatli illyustratsiya yoki bezaklar ishlatilishi;
4) asar yozilgan davrga xos adabiy, ijtimoiy an’analarning aks etishi;
5) asar bilan tanish bo‘lmagan kitobxonda dastlabki tasavvurlarni uyg‘ota olishi lozim.

SINOVLARDA TOBLANAR ODAM



ABDURAUF FITRAT (1886–1938)

Dars davomida:

- Fitrat lirikasidagi erk, ozodlik g‘oyalarini tahlil qilamiz;
- shoir she’rlaridagi badiiy tasvir vositalarini tadqiq qilamiz;
- talmeh san’ati haqida bilib olamiz.

Davlat arbobi, shoir, olim, nosir, dramaturg, ma’rifatparvar Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat 1886-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. Dastlab maktabda, so‘ng Mir Arab madrasasida, keyinchalik esa Turkiyaning Istanbul universitetida tahsil olgan. Turkistondagi jadidchilik harakatining taniqli vakillaridan biri. U o‘z xalqini savodli, ma’rifatli qilish uchun astoydil kurashdi. Asarlarida millatni ozod, hur, erkin yashashga chaqirdi, jadidchilik g‘oyalarini keng targ‘ib qildi. “Turon”, “Buxoroyi sharif”, “Oina” kabi gazeta va jurnallarni tashkil etishga katta hissa qo‘shdi. Turkistonda til, adabiyot, san’at, ma’rifat, madaniyat masalalariga bag‘ishlangan “Chig‘atoy gurungi” tashkilotiga asos soldi va rahbarlik qildi. Buxoroda musiqa maktabini ochdi.

Turkiston – O‘rta Osiyoning qadimgi tarixiy-geografik nomi

Fitrat shoirning taxallusi bo‘lib, *tug‘ma iste’dod* ma’nosini anglatadi.

Abdurauf Fitrat 1938-yil 4-oktyabrda “millatchi”, “xalq dushmani” sifatida otib tashlangan.

MUTOLAADAN OLDIN

XIX asrning 60-yillarida Turkiston o‘lkasida Xiva va Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi mavjud edi. Xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar o‘lkani rus imperiyasi bosib olishiga zamin yaratdi. Turkiston imperiya mustamlakasiga aylangach, xalqning siyosiy, ma’naviy, diniy huquqlariga cheklovlar qo‘yildi. Mahalliy maktab va madrasalar o‘rniga rus-tuzem maktablari, gimnaziyalar ish boshladi. Bundan maqsad millatni ruslashtirish edi. Bu paytdagi siyosiy-ijtimoiy tartibsizliklarga befarq bo‘lmagan ziyolilar ***– jadidlar*** *xalqni zalolatdan, mustamlakachilikdan qutqarish uchun milliy ozodlik harakatini boshladilar. Ular yangi usul maktablarini ochish, iste’dodli yoshlarni xorijga yuborish, gazeta va jurnallar chop etish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish orqali Turkistonda mustaqil davlat qurishni maqsad qilgan edilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi ziyolilar jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalari edi. Ular dastlab o‘zlarini “taraqqiyparvarlar”, keyinchalik “jadidlar” deb atashgan. Ular siyosat, ijod, ijtimoiy hayotda belgilagan maqsadiga erishdilar, lekin chor Rossiyasining siyosati va yerlik hukumat rahbarlarining tarqoqligi sabab mag‘lub bo‘ldilar va “aksilinqilobchi”, “millatchi” sifatida qatl etildilar.*

jadid – arabchada *yangi* degan ma’noni bildiradi



O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, nega jadidlar ozodlik uchun avval xalqni savodli qilish zarur deb hisoblagan?

Nima uchun ko‘p ijodkorlar yulduz obraziga murojaat qiladilar?
Badiiy adabiyotda yulduz qanday ramziy ma’noni anglatadi?

MIRRIX YULDUZIGA

Go‘zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuqg‘ani!
Nega bizdan qochib, muncha uzoqlarg‘a tushibsan,
Tuvg‘aningga nechun sira gapurmasdan turibsan?
So‘yla, yulduz, holing nadir? Nechuk topding dunyoni?
Bizning yerda bo‘lib turg‘an tubanliklar, xo‘rliklar,
So‘yla, yulduz, sening dag‘i quchog‘ingda bo‘lurmi?
Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar?
O‘rtoq qonin qonmay ichkan zuluklar,
Qardosh etin to‘ymay yegan qoplonlar?
Bormi senda o‘ksuz yo‘qsulning qonin –
Gurunglashib, chog‘ir kabi ichkanlar?
Bormi senda butun dunyo tuzugin
O‘z qopchig‘in to‘ldirg‘ali buzg‘anlar?
Bormi senda bir o‘lkani yondirib,
O‘z qozonin qaynatg‘uchi xoqonlar?
Bormi senda qorin-qursoq yo‘lida
Elin, yurtin, borin-yo‘g‘in sotqonlar?

tuqg‘ani – tug‘ishgan aka-uka, qarindosh

dag‘i – ham

o‘ksuz – o‘ksik, ko‘ngli o‘ksigan

yo‘qsul – kambag‘al

chog‘ir – ichkilik (may, sharob)

tuzuk – qonun

Muhokama qilamiz

1. Fitrat Mirrix yulduzi orqali qanday g‘oyalarni ifodalagan?
2. She’rning qaysi misralarida mustamlakachilikning yurt boshiga olib kelgan ayanchli oqibati ifodalangan?
3. She’rda qanday badiiy tasvir vositalari qo‘llangan?
4. *“Bizning yerda bo‘lib turg‘an tubanliklar, xo‘rliklar,*
   So‘yla, yulduz, sening dag‘i quchog‘ingda bo‘lurmi?” satrlarida muallif qanday tubanliklar, xo‘rliklar haqida gapiryapti?
5. *“Bormi senda butun dunyo tuzugin*
   O‘z qopchig‘in to‘ldirg‘ali buzg‘anlar?” misrasida nimaga ishora qilinmoqda?

Topshiriq

Fitratning “Mirrix yulduziga” she’rini yod oling.

YURT QAYG‘USI

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?
Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?
Temur bila Chingiz qoni toshdi tomrimizdan,
Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?
Yov suqg‘ali kelgach qilichini yuragingga,
Tush oldiga, ol ko‘ksumi – qalqonmi kerakdir?
Boq, boq, mana turk tengizi toshqun qila qoldi,
Turon yovini quvg‘ali to‘fonmi kerakdir?
Turon, yigiting, barchaga boq, qalqdi oyoqg‘a,
Yurtda qorovul qo‘yg‘ali arslonmi kerakdir?

Muhokama qilamiz

1. “Yurt qayg‘usi” she’rida qanday kayfiyat ustun? Sizningcha, ushbu kayfiyatni yuzaga chiqaruvchi so‘z va so‘z birikmalari qaysilar?
2. Nima uchun muallif “Yurt qayg‘usi” she’rini onaga murojaat bilan boshlagan? Ona va yurt o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
3. Ushbu she’r Vatan, yurtni ulug‘lovchi boshqa she’rlardan qay jihati bilan farq qiladi? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.
4. “Yurt qayg‘usi” she’ridan Fitrat shaxsiga xos qanday xususiyatlarni sezish mumkin?
5. Yurt qayg‘usini tasvirlovchi so‘zlarni toping va izohlang.

Nazariy ma’lumot

TALMEH

Talmeh arabchada *nazar solmoq* degan ma’noni anglatadi. Bu she’riy san’atda muallif mashhur tarixiy shaxslar, joy nomlari, afsonaviy qahramonlarga murojaat qilish orqali fikrni ta’sirli ifodalashni, tarixiy shaxslar orqali hayotiy haqiqatlarni tasvirlashni maqsad qiladi.

Masalan:

Temur bila Chingiz qoni toshdi tomrimizdan,
Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?

Abdurauf Fitrat

Qiyoslang

“MIRRIX YULDUZIGA” VA “YURT QAYG‘USI” SHE’RLARINI QIYOSLAYMIZ

1. “Mirrix yulduziga” va “Yurt qayg‘usi” she’rlarida qanday o‘xshash va farqli jihatlarni kuzatish mumkin?
2. Sizningcha, qaysi she’r mazmun, mohiyat va badiiylik jihatidan ustunroq? Nima uchun? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.
3. Har ikki she’rdagi badiiy obrazlarga xos xususiyat nimada?

Topshiriq

Abdurauf Fitratning she’rlarida talmeh san’atidan foydalanilgan o‘rinlarni toping. Sizningcha, talmeh muallif ijodida qanday g‘oyaviy-badiiy mazmun kasb etmoqda?

O‘GUT

Og‘ir yigit, sening go‘zal, nurli ko‘zingda
Bu millatning saodatin, baxtin o‘qudim.
O‘ylashingda, turishingda hamda o‘zungda
Bu yurt uchun qutulishning borlig‘in ko‘rdim.

Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal,
Hurkma – kirish, qo‘rqma – yopish, yo‘rilma – qo‘zg‘al.

Yel yo‘lini to‘sib turgan eski bulutlarni
Yondirib qo‘y, yirtib tashla, barchasin yo‘q et.
Qilolmasang shu ishlarni,
Sening uchun xo‘rlikdir bu...
Yiqil, yo‘qol, ket!

o‘gut – yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib aytiladigan gap, nasihat



yo‘rilma – sudralma

Muhokama qilamiz

1. Shoir nega ushbu she'rida aynan yigitlarga murojaat qilgan deb o'ylaysiz?
2. Shoir nazdida "bu yurt uchun qutulish" yo'llari nimalarda edi?
3. "*Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal, Hurkma – kirish, qo'rqma – yopish, yo'rilma – qo'zg'al!"* Shoirning ushbu da'vatida qanday mazmun mujassam?
4. She'rda qanday kayfiyat ustun: pand-nasihatmi yoki da'vat? Javobingizni matnga tayanib asoslang.

GO'ZALIM, BEVAFO GULISTONIM

Go'zalim, bevafo gulistonim,
Bog' umrimda toza rayhonim,
G'am-u qayg'ularim hujumindan
Sen eding mehribon nigahbonim.

Meni behuda tashlading-ketding,
Nega o'ldirmading-da, tark etding?

Kel, gulim, kel, ayoqingg'a yiqilay,
Bir zamon qo'y: to'lib-toshib yig'lay.
Qo'y, biroz qo'yki, xoki poyingni
Surmadek yoshli ko'zuma suray.

Ketma, tur, tingla arzi holimni,
Arz etay holi purmalolimni.

Qani ul damki, sen eding yorim,
Munisim, hamdamim, madadkorim.
Sening og'ushi iltifotingda
Rohat etmishdi jismi bemorim.

Meni behuda tashlading-ketding,
Nega o'ldirmading-da, tark etding?

Kel, ayoqingg'a qon bo'lub to'kulay,
Bir nafas dard-hajrdan qutulay.
Kel, go'zal dilbarim, kel, sochingni
Bir taray, bir o'pay-da, so'ngra...


Meni behuda tashlading-ketding,
Nega o'ldirmading-da, tark etding?

Muhokama qilamiz

1. Qaysi misralarda oshiqning yorga nisbatan eng samimiy tuyg'ulari aks etgan deb hisoblaysiz?
2. Fitrat "G'am-u qayg'ularim hujumindan" deganda qanday "hujum"larni nazarda tutmoqda?
3. "Kel, ayoqingg'a qon bo'lub to'kulay" misrasini qanday tushundingiz? Oshiqning ruhiy holatini tushuntirishga harakat qiling.
4. She'r naqarotiga diqqat qiling. U she'rning mazmuni va ohangiga qanday ta'sir qilmoqda?

Ijodiy ish

Fitratga maktub yozing. Unda ijodkordan o'rganganlaringizni bayon qiling, hayotiy tajribangiz, bilim olishga oid qarashlaringiz va bu borada yoshlarning muammolarini aks ettirishga e'tibor qarating.



XURSHID DO‘STMUHAMMAD (1951)

Dars davomida:

• “Mirkomilboyning qazo bo‘lgan namozi” hikoyasi qahramonlarining ma’naviy olamini tahlil qilamiz;

• hikoyadagi davr voqealarining badiiy ifodasi haqida so‘z yuritamiz.

Jurnalist va yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad 1951-yil Toshkentda tug‘ilgan. ToshDU (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetini tugatgan. U milliy va dunyo adabiyoti tajribalarini puxta o‘rgangan ijodkor. Adib bolaligini shunday xotirlaydi: *“…14–15 yoshimda otam bilan yonma-yon o‘tirib mahsido‘zlik qilardim. Oilada otamning so‘zlari ikki bo‘lmas, u kishi o‘ta muloyim, kamgap bo‘lsalar-da, bir nigoh tashlashlarining o‘zi har qanday sho‘xlikning o‘tini o‘chirib qo‘yar edi… Hayotim to‘laligicha kitob bilan, mutolaa bilan bog‘liq. Biror kunimni kitobsiz tasavvur qilolmayman. Kitob o‘qimagan kunimni behuda o‘tgan deb hisoblayman”.*

Xurshid Do‘stmuhammad Behbudiy haqida hikoya qiluvchi “Yuz yillik qotillik” nomli tarixiy-ma’rifiy qissa, Abdulla Qodiriy hayoti haqida “Yolg‘iz”, Abdulla Qahhor haqida “Qahr” qissalarini yozgan. Shuningdek, uning “Bozor”, “Donishmand Sizif”, “O‘yin” kabi romanlari, “Hovli etagidagi uy”, “Panoh”, “Oromkursi”, “Jajman”, “So‘roq”, “Sof o‘zbekcha qotillik”, “Mahzuna”, “Hijronim mingdir mening” kabi qissa va hikoyalari ham mashhur asarlari sirasiga kiradi.

Xurshid Do‘stmuhammad yapon, ispan, rus ijodkorlarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

MUTOLAADAN OLDIN

Xurshid Do‘stmuhammadning “Mirkomilboyning qazo bo‘lgan namozi” hikoyasi adolatparvar inson – Mirkomilboy haqida bo‘lib, unda millatni ma’rifatli bo‘lishga undagan, bor boyligini yurt ravnaqi uchun sarflagan, ammo nohaq ayblangan qahramon hayoti haqida so‘z boradi.

“O‘zingdan chiqqan baloga qayga borasan da’voga” xalq maqolini eshitganmisiz? Uni qanday izohlagan bo‘lardingiz?

Bilib oling



Mirkomilboy Mirmo‘minboyev (1860–1918)

Mirkomilboy tarixiy shaxs bo‘lib, 1860-yili Qo‘qon xonligining Andijon shahrida boy savdogar oilasida dunyoga kelgan. XIX asrning 80-yillarida yer-suv va paxta maydonlariga ega bo‘lib, katta boylik to‘plashga muvaffaq bo‘lgan. XX asr boshlarida uning shaxsiy mablag‘i 13–15 mln so‘mni tashkil qilgan. 1915-yilning oktyabrida bo‘hton bilan qamalgan va surgun qilingan. Lekin 1916-yilning boshlarida rus armiyasini qurollantirish uchun 500 ming so‘m berish sharti bilan surgundan ozod bo‘lib, Andijonga qaytgan. Mirkomilboy Andijon shahrida 30 o‘quvchiga mo‘ljallangan maktab-internat, 100 talabaga mo‘ljallangan madrasa, kasalxona qurmoqchi bo‘lib, loyiha tayyorlatgan. Biroq mahalliy ma’murlar bu loyihalarni amalga oshirishga ruxsat bermagan. 1917-yil boshlarida “Sho‘royi Islomiya” jamiyatining Andijondagi eng faol ishtirokchisi” ayblovi bilan Muvaqqat hukumatning Turkistondagi vakillari tomonidan nohaq qamoqqa olingan va 1918-yilda otib tashlangan.

Xurshid Do‘stmuhammad 1992-yili “Sharq yulduzi” jurnalida e’lon qilgan “Uch hukumat qolipiga sig‘magan boy” maqolasida shunday yozadi: “…Biz Vatanimiz tarixiga, xalqimiz o‘tmishiga doir voqea-hodisalarni hozirgi kun nuqtayi nazaridan qayta baholash zarurati tug‘ilgan davrda yashamoqdamiz. Nomlari, qilgan ishlariga faqat qora bo‘yoq chaplangan boy-badavlat o‘tmishdoshlarimiz hayotini, bosib o‘tgan yo‘lini qayta o‘rganish, ularni xolis nazardan kechirish bugungi kunimiz manfaati jihatidan ham nihoyatda zarur. Mirkomil Mirmo‘minboyev ana shunday ahamiyatga molik yirik tarixiy shaxslardan biridir”.

MIRKOMILBOYNING QAZO BO‘LGAN NAMOZI

Izvosh guzardan o‘tib, katta ko‘chaga burildi hamki, Yoqubxo‘jadan sado chiqmadi. Boy ikki-uch daf’a hamrohining avzoyiga zimdan ko‘z yugurtirdi. Yoqubxo‘janing qaddi unikidan yarim qarich tik, shu bois u o‘tirgan holida ham xiyla salobatli ko‘rinadi. Odamlar “Yoqubboyning shaxsiy qo‘riqchisi”, deb gap tarqatishdi, “Mirkomil uning izmidan chiqmaydi”, deganlar ham bo‘ldi. To‘g‘ri, Yoqubxo‘ja ko‘z ochib topgan maslahatgo‘yi bo‘lmasa-da, uncha-bunchani xushlayvermaydigan Mirkomilning ishqi shu odamga tushgan, binobarin, yonida doim uni olib yurishga odatlangan edi.

izvosh – rezina g‘ildirakli, usti ochilib-yopiladigan yengil ot-arava

Haqiqatan, uning Yoqubxo‘jadan yashirgan-netgan siri bo‘lmagan.

Surishtirib kelganda, Mirkomil kimdan, nimani sir tutgan o‘zi!.. Quv yoxud makkor bo‘lganida, rahmatli otasining Makka va Madinada takya qurdirish niyatida o‘ttiz ming tillo vasiyat qilib qoldirganini uyezd hokimiga aytarmidi?! Soyasidan cho‘chisa, hatto o‘z pushtikamaridan bo‘lgan o‘g‘il-qizlaridan hadik-xavotirda yashasa, yetti yot begona, buning ustiga, g‘ayridin Iskandarni gumashta qilib olarmidi?! Ikki ko‘zning biri yanglig‘ yonidan uzoqlashmaydigan Yoqubxo‘jadan ham gumondor yursa, uni do‘stmi-dushmanmi deya bosh qotirsa… odamning har narsa bo‘lgani yaxshi emasmi!..

takya – boshpana, turarjoy

Iskandar – asli ismi Aleksandr Timofeyev. Orskdan kelib qolgan. 1909–1911-yillar mobaynida Mirkomilboy qo‘lida ishlagan. Boy unga Iskandar laqabini bergan

Yo‘q, Mirkomilning bunday mujmallikka toqati yo‘q – u jini suyganga ham, suymaganga ham dilidagini yamlamay aytgan.

Izvosh ko‘tarmadagi zavod ko‘chasi muyulishiga yetdi, boy “ana yorilar, mana yorilar” degan o‘yda hamrohining quyuq soqoliga qarab qoldi. Shunda:

– To‘xtat izvoshni!.. – deya hayqirdi boy.

Bir maromda yo‘rg‘alab borayotgan qo‘sh ot suvlug‘i tuyqus siltab tortilganidan pishqirib, tumshug‘ini to‘shiga bosguday boshini qiyshaytirib to‘xtadi.

Izvoshchi “nima gap” deya ortiga o‘girilib ulgurmay, boy tosh yo‘lga sakrab tushdi. Izvoshchi ham, Yoqubxo‘ja ham boyning muddaosini tushunmay, uning izidan qarab qolishdi. Mirkomil katta-katta qadamlab, qop orqalagan kishining tepasiga bostirib bordi. Og‘ir yuk ostida ikki bukchaygan kishi boyni ko‘rdi-yu, ko‘sak to‘la qopni “to‘p” etib yerga tashlaganicha tili kalimaga kelmay, qo‘rqqanidan salom berishni ham unutdi.

ko‘sak – g‘o‘zaning guldan so‘ng tugadigan, ichida paxta yetiladigan, chanoqlardan iborat mevasi

– Qayoqqa obketyapsan, ko‘rnamak?! – O‘takasi yorilgan kishi duduqlandi. Boy uning javobiga muhtoj emas edi. – Kuppa-kunduzi or qilmadingmi?!

Changga belangan, yag‘iri chiqqan oq yaktagining yengini bilagiga qadar shimargan ishchi quloq-chakkasiga bexos tushgan tarsaki zarbidan chayqalib borib devorga suyanib qoldi...

Izvosh zavod darvozasining ro‘parasiga yetgandagina Yoqubxo‘ja tilga kirdi:

– Chakki qildingiz, aka...

Hali g‘azabi so‘nib ulgurmagan Mirkomil “sen mahmadonalik qilma” degan ma’noda hamrohiga qattiq o‘qraydi. Yoqubxo‘ja esa boyning jahli chapaqay chiqqaniga yarasha bosiqlik bilan bo‘lsa-da, o‘pkaladi:

– Ashi bir qop ko‘sakni kuppa-kunduzi o‘marib chiqishiga nima majbur qilganini surishtirmadingiz-ku... Jo‘jabirday jondir, hoynahoy...

Tirikchilik uchun o‘g‘rilik qilish to‘g‘rimi? Sizningcha Mirkomilboy to‘g‘ri ish qildimi?

Izvoshchi otning yag‘riniga tarsillatib qamchin bosdi. Mirkomilboyning o‘ng qoshi tepaga sapchidi.

– Jo‘jabirday jon bo‘lsa, oilasini o‘g‘rilik orqasida boqqani ma’qulmi?!

Yoqubxo‘ja darhol javob qaytarmadi, izvosh zavod hovlisiga kirib to‘xtagachgina boyagi o‘pkalangannamo ohangda muloyimlashib dedi:

– Odamlardi ko‘ngliga qarang-da, aka... Haq gapni aytaman deb... u yoqda Temurhojini izza qipsiz...

Temurhojini izza qilgani rost. Izza qilmaslik uchun haq gapni aytmasligi kerak, aytmasa... axir Mirkomilning xusumati yo‘q, talashgan mol-holi yo‘q, uni jin uribdimiki, Temurhojiga dushmanlikni sog‘insa!

Nima bo‘ldi-yu, ellikboshi ko‘cha boshida yo‘liqib, “Taqsir, qozilikka Temurhojini mo‘ljallagandik, siz nima deysiz?” deb so‘radi. Mirkomil ortiq o‘ylab turmadi, “Hoji halol odam, yurtning xizmatini qilsin”, dedi-qo‘ydi. Oradan uch-to‘rt kun o‘tmay, eshikka yo‘qlab kelishdi. Boy tashqari hovliga chiqsa, supa yonida ellikboshi bilan yangi qozi – Temurhoji qo‘l qovushtirib turibdi.

ellikboshi – harbiy-ma’muriy unvon

– Kelinglar, kelinglar! Qani, ichkariga, – dedi boy mehmonxonaga chorlab.

Mehmonlar oyoq tirab turib olishdi.

– Birrov kirdik, – dedi o‘ng‘aysizlanib ellikboshi. – Ashi, hojingiz sira qo‘ymadi... Bir niyat qilgan ekan...

Ellikboshi gapini adog‘iga yetkazgunicha qozi tugunning bog‘ichini yechib, zarbof to‘nni qo‘liga oldi. Mirkomilboy keluvchilarning muddaosini tushundi.

– E, barakalla-a! – deb yubordi u boshini chayqab.

Mezbon mamnun bo‘ldi degan o‘yda harakati dadillashgan mehmonlar to‘nni qo‘lga olib ulgurmay, boy muddaosini oydinlashtirdi:

– Bu ishlaring durust emas... Bir og‘iz rizoligim evaziga hadya keltiribsizlarmi, undan chiqdi, rizolik bermagan taqdirimda ortimdan tosh otar ekansiz-da?!

Temurhoji ikki qo‘llab tutib turgan to‘nni tushirib yubora yozdi. Ellikboshi tushuniksiz g‘o‘ldiradi:

– Yo‘g‘-e, taqsir! Biz... hojingiz, oq fotiha olay deb...

Mirkomilboy o‘ziga yetgancha qaysar ham edi – u ellikboshining tutilib-bo‘g‘ilib gapirishiga quloq solmay, ko‘nglidagini oxirigacha aytdi:

xushomad – sermulozamatlik, laganbardorlik

– Xushomadni bandaga emas, Xudoga qilinglar!

Yoqubxo‘ja bo‘lsa, “To‘g‘ri gapni aytaman deb dushman orttirasiz”, deydi. Haq gapni aytgani uchun dushmani ortadimi? Haq gapni aytish dushmanlikmi? Axir u kimga, qaysi hamyurtiga yomonlikni ravo ko‘rdi?!

Fe’l-atvori shunday ekan, nachora, bir yumalab bo‘lak odamga aylanib qololmasa! Haqdan voz kechib har kimning ko‘ngliga qaray olganida, bir uy boyvachchaning betiga oyoq qo‘yguday ish qilmas edi. Endi afsuslanish, pushaymonlar qilish oson, lekin... tabiatidagi kajbahslikdan qutulish fursati jon chiqar vaqtiga qoldi...

kajbahslik – o‘jarlik

Ubaydulla junfurush Maylisoydagi zavodiga ikki qur kelib, uyiga taklif qilib ketdi. Aytilgan kuni Yoqubxo‘jani ergashtirib borganida bir uy mehmon gurra qo‘zg‘alib Mirkomilning hurmatini bajo keltirishdi. Boy, yonida Yoqubxo‘ja – uyning to‘riga o‘tib joylashib o‘tirib olguncha yig‘ilganlarning qanday odamlar ekanligini, hatto bir-ikkisi o‘zaro ma’noli ko‘z urishtirib olganigacha payqab ulgurdi. Derazaga yaqin o‘tirgan G‘afurjonning tusi gezardi. Berida – G‘afurjonning amakisi Hoshimboy, so‘ng paxta tijoratini endi-endi yo‘lga qo‘yayotgan Nig‘monbek. Ularning hech birida Mirkomilning xusumati yo‘q, xusumat qayda, yig‘ilganlarning hech biri Mirkomil bilan bellashadigan sarmoya jamlamagan, shu ma’noda ham bu davraning posangisi Mirkomilboy uchun xiyla yengillik qilishi ayon edi.

Mirkomil sir boy bermadi. Iliqqina suhbatga goh qo‘shilib, goh so‘zsiz bosh irg‘ab o‘tiraverdi. To‘satdan Hoshimboy gurung mavzusini burdi:

sarmoya – asosiy savdo mablag‘i

– Zakot – farz! Zakotdan bo‘yin tovlash benamozlikdan kam bo‘lmagan gunohi kabira!

Mirkomil umr bo‘yi loyning ichidan chiqmagan kulolday rangi zahil Hoshimboyning aftiga chimirilib qaradi. Yoqubxo‘ja quyuq qora soqolini qo‘l uchida siypaladi.

posangi – tarozi pallalarini tenglashtirish yoki narsa tortilayotganda idish og‘irligini chiqarib tashlash uchun tarozining bir pallasiga qo‘yiladigan qo‘shimcha tosh yoki yukcha

Gapga gap ulandi, suhbatga g‘iybat, fisq-fasod aralashdi. Kim og‘iz ochsa, aytganiga Mirkomildan tasdiq ishorasini kutar, boyning avzoyidan esa na e’tirof, na-da e’tiroz ma’nosini uqib bo‘lardi. Nig‘monbek ham gurungga qo‘shildi:

gurung – suhbat

– Zakot to‘lash niyatidagi odamning ko‘ngli toza bo‘lmog‘i lozim, – dedi u xotinchalish ovoziga zo‘raki salobatli tus berishga urinib. – Bizlar-ku, mayda... davlatmandlikni havas qiluvchilar xolos... errayma boylar orasida ham zakotga xiyonatkorlar bor ekan...

errayma – kekkaygan

Mirkomil tishiga og‘riq turganday ko‘zini bir zum yumib-ochdi-yu, sir boy bermaslikka urinib, ikki barmog‘i bilan iyagini chimdib oldi.

– Nig‘monbek!..

Kelganidan beri ilk bor ovozini baralla qo‘yib murojaat qilgan Yoqubxo‘janing salobati hammani jim qilib qo‘ydi. Odatda Yoqubxo‘ja gapni boshlab qo‘yib, xiyla fursat sukut saqlar, aksari hollarda shunday sukutining o‘ziyoq buzuq niyatli suhbatdoshni ancha sarosimaga solib qo‘yar edi.

Bu safar ham u xuddi gap boshlamagan odamday jim, labini qimtib ko‘zoynagi ostidan Nig‘monbekka qadalib qaradi. U qaytib tilga kirgunicha Nig‘monbek necha qizarib-necha

bo‘zardi. Nihoyat Yoqubxo‘ja sukut bilan azoblash “mashqi”ni maromiga yetkazgach, so‘radi:

– Bu, kichkintoyni kulala qildilarmi?

Nig‘monbekning badanidan sovuq ter chiqib ketdi.

“Yomon chikitti-ku, ablah! ” deb so‘kindi ichida.

chikitti – tagdor kinoya qildi

Mirkomil yengil tortganini sezdirib qo‘yish ma’nosida bir qo‘zg‘aldi. Nig‘monbek o‘tgan yilning jadya (jadiy) kunlari o‘g‘il ko‘rgan, boyning hurmati uchun unga “Komiljon” deb ism qo‘ygan edi. Endi Mirkomilga piching qilib, uni yomonotliqqa chiqarmoqchi... Mirkomil esa... “O‘sha hurmati chinmi, manavi pastkashligimi?” deb, mana, oradan besh yil o‘tgach, mulohaza posangisiga qo‘yib-olib, olib-qo‘yib ko‘ryapti... Og‘ziga kuchi yetmaganlar “Mirkomil ayrim daromadlaridan zakot to‘lamaydi” deb ovoza qilgani boyning qulog‘iga yetgan, shuni esladi-yu, mashvaratning nishabi qay tomonga og‘ganini o‘sha paytda qisman va hozir to‘la-to‘kis payqab yetdi. To‘kin dasturxon tevaragida o‘tirganlar pinhona ko‘zlagan muddao amalga ko‘chayotgandek baravariga boyning og‘ziga tikildi. Mirkomil hech bir davrada so‘zini yo‘qotmas, umuman, tili qisiqlik nima ekanini bilmas edi.

– Zakotdan bahs ketdi. Yaxshi... Ashnaqa munozaralar boshlaganda... – dedi u hafsalasizlik bilan beparvo ohangda va “tortishib o‘tirishga arzimaysanlar” degandek, to‘satdan gapning dumini yuldi:

– Zakot-ku, farz, illo zakotning oldida nima bor? – Boy savoli javobsiz qolishini aniqlashtirib oladigan fursat jim bo‘ldi-da, o‘tirganlarning jon-jonidan uzib oldi: – Ashnaqa-da, zakotdan avval ushr bor... Zakot to‘lovi xususida erraymalik qilishdan burun ushrni tushunib qo‘ysinlar...

ushr – dehqonchilikdan kelgan daromadning o‘ndan biri hisobida olinadigan soliq turi

Boyning so‘zlaridan, uning zakovatiga qanday baho berasiz? O‘zini “tortishib o‘tirishga arzimaysanlar” deganday tutishidan nimalarni uqdingiz?

Topshiriq

Hikoyaning davomini uyda o‘qib keling.

* * *

Tijorat so‘qmog‘ida endi atak-chechak qilayotgan hamyurtlari, dindoshlari bu borada katta-katta ko‘chalar ochib ulgurgan Mirkomilning oyog‘iga osilishlari ne uchun kerak bo‘ldi? Axir boy ularning mushugini “pisht” demadi, aksincha, qaddini rostlab olsin degan murodda nechtasiga qarz berdi... faqat G‘afurjon omonatga xiyonat qildi, ish qozigacha yetdi...

Nahotki shu dushmanlik bo‘lsa?! Kimsan Mirkomilboy shuncha davlat, shuncha izzat-obro‘yni nahotki o‘z xalqiga dushmanlik niyatida to‘plagan bo‘lsa? Agar u o‘z hamshaharlariga g‘ayirlik qilsa, Ubaydulla junfurushnikida yig‘ilganlarga: “Bir farangi boyning zavo‘dini Anjanga ko‘chirib keltirmoqchiman. Ashining maslahatiga boraman”, deb aytarmidi! Axir o‘sha paytlarda barcha boylar topganini xorijga sotish bilan band, zavod qurish hech kimning yetti uxlab tushiga kirmagan, behisob daromad keltiradigan bunday niyatni hech bir boy oshkor etmas edi. Lekin Mirkomil bunday qilmadi. Aytdi. “Bilsa bilsin, uddasidan chiqqanlar harakatga tushsin”, dedi... Dedi-yu, o‘ziga do‘st emas, g‘anim orttirganini, u g‘animlar o‘zga yurtlardan kelib yurtni, diyorni bosib turgan o‘rislar emas, o‘zining o‘zbeklari ekanini... juda-juda kech bildi.

farangi – fransuz, yevropalik

Ko‘pni ko‘rgan Mirkomildek uddaburon inson ham omadi kulib boqqan odamni begonalar emas, avvalbosh o‘z yaqinlari ko‘rolmasligini juda-juda kech angladi. Anglaguniga qadar... hamyurtlari joniga ora kirish, ularni o‘ris istibdodidan himoyalash yo‘llarini izlab, sa’y-harakatlardan tolmadi. Kultepaga masjid, madrasa, musofirxona, kasalxona, hammom qurishni rejalashtirganida o‘zining manfaatini ko‘zlamadi, aksincha, halovatidan ayrildi: shahar hokimiyati viloyat hokimiyatiga, viloyat hokimiyati o‘lka gubernatorligiga ruxsat so‘rab noma yo‘lladi. Yig‘in-u muhokamaning adog‘i ko‘rinmasa ko‘rinmadiki, ish joyidan siljimadi. Uyezd mahkamasidagi yig‘inga boyning o‘zini taklif etishdi.

– Ee, Mirkomil Mirmo‘minbayev o‘zlarimi? – ko‘zoynagining tepasidan mo‘ralab savol qotdi hashamdor stol yuqorisida o‘tirgan semiz yuzli, harbiycha engil-boshli kishi. Bu bepisand gap boyga og‘ir botdi. Harbiycha libosli kishi savolini davom ettirdi: – Ta-aks, bu, straitelstvaga sel nema? Sel-l?!

Mirkomil haybatli, uncha-buncha inson zoti yaqinlasha olmaydigan bunday mahkamalarda shu qadar sayoz, bema’ni savollar berilishi mumkinligini tasavvuriga sig‘dira olmas edi. U hayratidan yoqa tutib turganida boshliq tatarbashara kishi tomonga shox tashlab so‘radi:

– Selni nima aytamiz?

– Maqsad, muddao, – javob qildi tatarbashara kishi.

– Aytmoqchiman... Maqsad, muddao nima qurishdan? Avtoritet... – tatarbashara kishi “obro‘” deb ilova qildi. Boshliq takrorladi: – Abru kerakmi-i?

Endi Mirkomil ko‘zlariga ishonmadi. Tushuntiray desa, boshliqning stoli ustidagi semiz qog‘oz taxlamida ko‘zlagan barcha niyat-u maqsadlari qayta-qayta bayon etilgan. Tushuntirmay desa, so‘lqillagan lunjini osiltirib o‘tirgan boshliq merovroqmi?

Boy o‘yini o‘ylagunicha o‘zini atayin dovdirtabiat qilib ko‘rsatayotgan boshliq qog‘oz taxlamini varaqlay-varaqlay, chekkasiga ikki qat qalin chiziq tortilgan sahifasini ochib, Mirkomilga sinchkov bo‘zraydi. Yuzi, lunji taranglashib qizardi va labini qimtib, lunjini shishirib tatarbashara kishiga nimadir deb po‘ng‘illadi. Tatarbashara kishi bir qo‘zg‘alib olgach, chala-chulpa o‘zbekchaladi:

– Bu qurayotgan uchrejdinlar faqat sartlarg‘a xizmet qilamish ikan, kasalxonada tolko sartlar lechit qilar imish, hammomg‘a faqat yerlik aholi polzovatsya itarmish. Bu qanday gap bo‘lay?!

Mirkomilning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi – musulmonlar kasalxonasining talablarini, musulmon-u kofir bir hammomda yuvinishi oddiy insoniy odobga xilofligini tushuntirmoqchi edi, birdan niyatidan qaytdi – u ko‘nglida tug‘ilgan toza niyati ne sababdan besh-olti yildan buyon cho‘zilayotganini, harchand urinmasin, rahmatli otasining vasiyatini ro‘yobga chiqara olmagani boisini to‘satdan – favqulodda anglab yetdi.

Nima uchun Mirkomilboyning maqsadi,
orzu-umidlarining to‘g‘riligiga hech kim ishonmadi?

Endi o‘ylab ko‘rsa, harbiycha kiyingan boshliq ilonning yog‘ini yalagan ekan. U tarvuzsimon yumaloq kallasini sarak-sarak qilib kulib-tirjaydi va:

– Vot, bunda, – dedi stol javoniga imo qilib. – Ku-up sevedenilar kitirganlar. Tak chto... shutka ketmaydi, bay! Davay, drujno, a to!

Mirkomil o‘rischani chala-yarim gapirar, uncha-buncha tushunsa-da, o‘zini bu tildan mutlaqo bexabardek tutar, shu “hiylasi” ayrim o‘rinlarda ish berib qolar edi. O‘sha safar uyezd mahkamasidan chiqib ketdi hamki, bir necha kunga dovur qulog‘ining tagidan, tilining uchidan “drujno” degan so‘z arimadi. “Drujno, drujno... do‘stona, ittifoq, birlik... har kim uddasidan chiqqan yaxshiligini ayamasa, savobni ko‘zlasa, shum niyat bo‘lmasa... Shu-da, do‘stona yashash! Savob istasang-da, savobing boshqalarga gunohdek botsa, u holda kim do‘st, kim dushman?! Sevedenisi ko‘p emish. “Ku-up sevedenilar kitirganlar”, dedi. Hay, istibdod maqsadida kelgan o‘sha harbiy boshliq toifasidagi qorni, miyasi to‘la g‘araz odamlardan ginasi yo‘q, lekin unga kim “sevedeni” keltirgan? Mirkomilboy haqida ko‘plab “sevedeni”larni kim unga yetkazishi mumkin? Iskandardan shubhasi yo‘q, uning atrofida aylanishadigan boshqa g‘ayridin bo‘lmasa, u holda kim uni sotadi, kim?” Turli davralarda yig‘iladigan barcha tanish basharalarni birma-bir ko‘z o‘ngidan o‘tkazdi – boshi qattiq qotdi.

Mirkomilboy ko‘nglining bir chekkasida aylanishayotgan shubhani ilg‘adi-yu, ilg‘agani tiliga ko‘chishidan qo‘rqib, o‘zini chalg‘itishga tutindi. Tutinsa-da, “Nahotki?!” deb takrorlayverdi.

Rotmistr Rozalion qalin muqova orasidan tepasiga “Chaquvlar” deb yozilgan varaqni olib, uni dahani ingichka polkovnikning stoliga qo‘ydi. Xona sohibi varaqqa erinib ko‘z yugurtirdi.

– Ishonchlimi? – homuza tortib so‘radi u.

– Har xabariga mo‘may-mo‘may olyapti, janobi oliylari!

Polkovnik “chaquvchi” degan yozuv to‘g‘risidagi ismni o‘zicha shivirladi:

– Kel-di... – o‘qib bir zum o‘yga cho‘mdi-da, barmog‘ini nuqib turib so‘radi: – Manavining o‘zi nazoratdami?

– Xuddi shunday, janobi...

Polkovnik “bas” deganday kaftini qulog‘iga bosdi. Gapi bo‘g‘zida qolgan rotmistr tisarilib tashqariladi. Eshik yopilar-yopilmas polkovnikka jon kirdi – u o‘tirgan joyidan enkayib javondan qog‘oz tiqilaverganidan semirgan papkani oldi, ochdi va oxirgi varaqlarga ko‘z yugurtirdi. Shoshib, yutoqib undagi so‘zlarni hijjalab, yangi keltirilgan varaqdagi yozuvlarga solishtirdi:

Mirkomilboyning halokatga uchrashi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

– Ta-aks... Qori chakki emas... Komilboyni Toshkangacha qo‘shni kupeda kuzatib borgan... Boy Toshkanda Olimjonboyev ismli kupes bilan uchrashgan... Ta-aks... Olimjonboyev haqida... Mana, Sodiq keltirgan... To‘xtaboy Olimjonboyev! U bilan ham alohida shug‘ullanamiz! Ta-aks, boyning sarf-xarajati, bankdagi davlati Keldining nazoratida... Ta-aks, yaxshi!

kupes – katta savdogar boy

Polkovnik yangi keltirilgan varaqni qayta nazardan o‘tkazayotib bosh chayqadi. “Bundan xabarimiz bor”, dedi shivirlab. Shu payt telefon jiringladi. Polkovnik zo‘r bir mamnuniyat bilan telefon dastagini qulog‘iga bosayotib, qomatini rostladi.

– Polkovnik Soshalskiy eshitadi!

U tinimsiz bosh irg‘ab nimalarnidir tez-tez qog‘ozga qayd qildi. Nihoyat ko‘rsatmalar tugadi, shekilli, to‘satdan ovozini ko‘tarib: “Bor, janobi oliylari!” dedi topishmoq javobini topgan boladay qariyb hayqirib, so‘ng oromkursining qirg‘og‘iga ketini ilintirib o‘tirdi-da, yangi ma’lumotni cho‘qib-cho‘qib hijjaladi:

– Anjanning uchinchi qismida yashovchi Madrayimhojinikida... yig‘in bo‘ldi. Mirkomilboy raislik qildi... Mazmuni – sart o‘g‘lonlarni soldatlikka jo‘natmaslik maslahati... Da’vat... ha-ha, yozma da’vat tayyorlangan!

Polkovnik jim bo‘ldi. Birozdan so‘ng yana gapirdi:

– Ha-ha, ertasiga... mana, bor-bor, saharlab Mirmo‘minboyev poyezdga minib Skobelevga jo‘nagan. Farg‘ona gubernatorini qo‘lga olishga uringan... Nima dedingiz? Ma’lumot keltiruvchilarmi... Xa-xa-xa-a! Ee, janobi oliylari, bu sartlarga-chi, to‘rt tanga bersangiz, Mirkomil degan boy ekan-u, o‘zining otasini sotadi! Hi-hi-hi! O‘zimizning xufyalarga ish qoldirmaydi bular! Rozalionning bir o‘zi, ha, balo u, bir o‘ziga yigirmatasi tinimsiz ma’lumot yetkazib turadi. Ha-ha, hammasi bir-birining ketidan qo‘yilgan... Xotirjam bo‘ling, janobi oliylari!

* * *

Mirkomil tonggi g‘ira-shirada yuk vokzali yaqinidagi tepalik yonbag‘ridan xandaq qaziyotib Madrayimhojinikidagi yig‘inni, uning ertasiga Skobelevga borganini ham esladi. Harbiy hokimning eshigida uzoq sarg‘ayib o‘tirdi, alhol, uni hokimning muovini qabul qildi.

– Anjandan qancha mardikor olasiz? – so‘radi u gapni cho‘zmay.

– Nima edi? – o‘smoqchiladi muovin.

– Barining haqini to‘laymiz! Bizning yigitlar Rassiya o‘rmonlarida jon saqlab yasholmaydi. Sovuq!

Muovinning rangi gezardi.

– O‘-o‘! Davlatingiz shunchalik ziyodami? – deb yubordi entikib.

– Borini beraman... To‘laymiz, lekin bironta farzandimizni jo‘natmaymiz!

Mirkomil zimdan ish bitiradigan quv tabiatli odam bo‘lganida harbiy hokimga kelib, bor niyatini to‘kib socharmidi! Shunday odam bo‘lgani uchun ham Sodiq, Qori, Keldi... ismli yurtdoshlari, dindoshlari ketida ilashib yurishi, bosgan qadami, aytgan so‘zini oqizmay-tomizmay, peshma-pesh yetkazib turishi mumkinligini sira-sira tasavvuriga sig‘dirolmas, bu shubhasini hatto hozir hazm qilolmayotgan edi. Lekin, mana, o‘ylaydigan payti keldi, hayot shunday ekan-da, voajab! Hatto eng ezgu, savobli orzu-niyatingga yetishmoq uchun ham hiylakorroq, makkorroq bo‘lishga majbur ekansan. Aks holda, tubanlik va makkorlik pardasi bilan himoyalanmagan eng toza va halol niyatlaringga hayotning o‘zi muttasil tupurib, ularni oyoq ostida toptab, tuproqqa qorishtirib o‘tar ekan.

Ehtimol, Mirkomil shu achchiq haqiqatga rioya qilganida surgunma-surgun, qamoqma-qamoq sarson-sargardon bo‘lmas edimi! Atrofida laycha itdek gir-gir aylanib, do‘q-po‘pisa qilayotgan askarchaning izmiga bo‘ysunib shu saharmardonda loy aralash tuproq kovlamayotgan bo‘larmidi?! Ehh, falak!

Loaqal Istanbulda Anvar poshoning maslahatiga quloq solganida...

– Turkistondan umidni qo‘poring, Mirkomil sayim, bizim yurdda qolabilursingiz, – degan edi Anvar posho.

– Men bu yerda qolsam, bolalar-chi, oilamning ahvoli ne kechadi? – deb e’tiroz bildirdi Mirkomil.

– Jujuqlardin, nasllardin-da qayg‘urmang, sayim. Inshaalloh, ularni-da bu yerda getirajakmiz. Ota yurdimiz huriyat edana qadar bizim Istanbulda yashaya biluringiz.

jujuq – turkchada farzand, bola degani

Mirkomil go‘yo Anvar poshoning taklifiga rozilik bergandek bo‘ldi-yu, ichida nimadir uzilib ketdi, qo‘l-oyog‘idan mador qochdi.

– Jujuqlarni, nasllarni ko‘chirib kelarmiz, posho hazratlari, – dedi Mirkomil qahratonda qolgan odamday sovuq qotib. – Lekin vatanni qanday opkelamiz?.. Vatanni ko‘chirib bo‘lmaydi-ku!..

Endi o‘ylasa, o‘shanda Mirkomil ichidan yomon zil ketgan ekan, ko‘ksining allaqayerida “chirt” etib uzilgan narsa endi butun vujudiga tarqagandek bemador-bemajol... o‘y-xayolga g‘arq, qo‘li ongsiz, shuursiz tuproq qazir edi, xolos... To‘ylarda g‘archli bachkana etik kiyib xotinchalish raqsga tushadigan bachchalardek girdikapalak bo‘layotgan askarcha mahbus qaziyotgan chuqurcha odamning beliga kelish-kelmasligini chamaladi-da, dam chuqurga, dam chor atrofga alang-jalanglab olgach, “Bo‘ldi, yetadi!” dedi.

– Endi kuningiz bitdi, boy, – dedi u to‘satdan o‘dag‘aylab.

Mirkomil qulog‘iga ishonmay askarchaga o‘girildi. O‘girildi-yu, qoshi chimirilib, yuragida sanchiq qo‘zg‘adi. G‘udranib, so‘kindi...

– Komiljon aka, shoshiling, qochishdan bo‘lak iloj qolmadi! – dedi qo‘lga olingan kunga o‘tar kechasi uyiga yashirincha kelgan do‘stlaridan biri.

– Tinchlikmi? – bamaylixotir so‘radi Mirkomil.

– Ertaminan sizni hibs etishga buyruq bor. Bolshovoylarning niyati buzildi.

– Niyati buzilsa, menga nima? Mening niyatim buzuq emas-ku! Hibsga necha qayta oldi, tag‘in chiqib kelaveraman-da!

– Gapni cho‘zmang, aka, tong otmay Anjandan chiqib ketasiz. Zudlik bilan Afg‘onga yoxud Turkiyaga jo‘naysiz. Xo‘p deng!

Mirkomil qaysar edi – xavotirni his etmay miyig‘ida kuldi.

– Afg‘onminan Turkiyada Xudo boshqami? Hamma yerda Xudo bir, peshonada borini har yerda-da ko‘raveramiz...

Do‘sti yig‘lab yubordi, saharda – kun g‘ira-shira yorishmay esa – boyni olib ketishdi hamki, mana, uch oy o‘tyapti: na so‘roq bor, na javob! Mana, endi mishiqi askarcha bola “kuningiz bitdi” deb miltiq o‘qtalib turibdi.

– Yo rahmdil Egam, – deb yubordi Mirkomilboy, – kimlarning qo‘liga topshirding qulingni?!

– Inqilobiy tribunal qo‘liga! – bidirladi askarcha.

Mirkomil hibsxonadan olib chiqishganidan buyon ketidan kelib xandaq qazigunicha besh-olti odim narida “churq” etmay, bosim tamaki tutatib turgan o‘rta yoshlardagi ko‘zlari moviy soqchiga ma’nosiz tikildi. U hamon jim edi, o‘zbek bola yana bidirladi: – Hukm bor, hozir, shetta bajo keltiriladi!

Inqilobiy tribunal – favqulodda sud organi, inqilob davrida yoki undan keyin “xalq dushmanlari” va inqilobga qarshi chiqqan shaxslar ustidan tezkor va keskin hukm chiqarish maqsadida tashkil etilgan

– O‘ylab gapiryapsanmi? Valdirayvermay, otingni ayt, bola?

– Menga do‘q urmang, Mirmo‘minboyev! Askarni haqoratlash – inqilobni haqoratlashdir!

– Otangdi otini bilasanmi?

– Otamdi otini nima qilasiz surishtirib, baribir otilasiz!

Sahar epkini esdi-yu Mirkomilning dimog‘ini yangi qazilgan tuproqning yoqimli isi qitiqlab o‘tdi. Boy yuzini xandaq tomon burdi. Askarcha hamon nimalardir deya bidirlayverdi.

– Menga suv keltir, tahorat olay! – cho‘rt kesdi uning gapini boy.

Askarcha bir zum vaysashdan to‘xtadi-yu, ovozini baralla qo‘yib xoxolab yubordi. Zum o‘tmay qo‘qqisdan kulgini bas qildi, birdan jiddiy tortdi. Turqi gezarib, jussasi inqilobiy tus oldi.

– Nimalar deyapsiz, boy! Buyruq qiladigan davringiz o‘tdi. Endi po‘pisangiz ketmaydi!

Mirkomil og‘ir burilib, askar va askarcha tomon o‘girildi, uning mosh-guruch mo‘ylabi asabiy titrar edi. Afsus-nadomat o‘rnini adoqsiz va og‘ir o‘ychanlik egallayotgan nigohini ko‘tarib askarchani bosh-oyoq kuzatdi. Mahbusdagi bunday o‘zgarishni ko‘rib hayratini yashirolmagan moviy ko‘z soqchi nihoyat askarchaga qarab do‘rilladi:

– Nima deyapti?

– “Suv keltir” emish! Tahorat qilarmishlar! Tahoratni o‘sha yoqda qiladi endi!

Moviy ko‘z soqchi tutaqib ketdi.

– Odamning bolasimisan, mol?! O‘zingning sarting bo‘lsa, musulmon bo‘lsalaring, oxirgi iltimosini bajarsang, o‘lib qolasanmi!

Mirkomilboy va “askarcha” o‘rtasidagi suhbatning hikoya mazmunini ochishdagi ahamiyatini tushuntiring.

Askarcha qo‘rqqanidan yerga o‘tirib qola yozdi. Tizzasi qaltirab, enkayib soqchining yoniga miltig‘ini qo‘ydi-da, qoqilib-suqilib qamoqxona binosi tomon g‘izilladi. Mirkomil moviy ko‘z soqchidan andisha qilganidan unga ortiq qarab turolmadi – shahar tomon o‘girilib, olis-olislarga ko‘z tashladi. “Nahotki?” dedi beixtiyor pichirlab. Oradan ko‘p o‘tmay, askarcha shoshilib qaytib keldi-da, Mirkomilning oyog‘i ostiga obdasta qo‘ydi. Boy ikki-uch qadam chetlab o‘tib cho‘nqaydi, tahorat olishga kirishdi. Yuz-ko‘zlarini yuvdi. Yaktagining etagiga, yengiga artindi. So‘ng chakmonini xandaq yoqasiga o‘girib to‘shadi-da, ortiga o‘girildi.

obdasta – yuz-qo‘lni yuvishda ishlatiladigan idish

chakmon – ustki kiyim turi; erkaklarning oldi ochiq qishki to‘ni

– Menga qara, bola, – dedi juda mayin-vazmin ohangda, – ikki rakaat bomdodni o‘qib olay. So‘ng qad rostlab, “Allohu akbar!” deya qo‘l ko‘targanimda otsa otaversin, tushuntirib ayt, xo‘pmi?

Mirkomilboy “Muqarrar moviy ko‘z soqchi otadi!” degan fikrda edi. Askar bola jim bo‘lib qoldi. Xiyol fursat o‘tib, “Yaxshi” dedi bosh irg‘ab.

Mirkomil yalang oyog‘i bilan kamzulining etagida qad rostlab na qo‘l, na ko‘z yetmas Makkatillo yoqqa uzoq tikilib toshdek qotdi. Shu alfoz xiyla fursat hayalladi, ikki rakaat bomdod namozini o‘qimoqqa niyat qildi, qo‘llarini quloqlari maqomiga ko‘tarib, “Allohu akbar!” dedi baralla. Subhi sodiq sukunatida uning ovozi gurullab chiqdi, ovozining favqulodda mahobatli eshitilganidan ich-ichidan g‘ururlandi. Shu o‘yda yana bir karra “Allohu akbarr!” degisi, shu kalomning sehrli jarangiga uzoq tin olib quloq tutgisi keldi-yu, o‘yi oxiriga yetmay, qattiq siltanib ketdi. Shoshilib “Allohu akbar!” deb yubordi-yu, ushbu kalom sehrini yana bir bor vujudiga singdirish umidida irodasini jamladi. Ikki kuragining qoq o‘rtasidan yana bir qattiq zarb yedi – qanday bo‘lmasin, muvozanatni saqlashga tutindi – xayollari yanayam sokinlashdi: u namozni boshlash uchun niyat qilib ulgurdi, xolos... Parvardigorning buyuklik sifatini zikr etdi, ha, baralla yod etdi... Endi sunnatni, so‘ng farzni ado etadi... Mirkomil yelkasi, beli aralash ustma-ust sanchilayotgan, a’zoyi badanini o‘pirib-qo‘porib o‘tayotgan qo‘rg‘oshin sochmasining go‘yo o‘ziga daxli yo‘qdek bomdod namozini ado etish niyatida tinimsiz “Allohu akbar!” der, basharti, bir soniya ortiga o‘girilsa, keyingi kunlarda tilidan tushmay qolgan “Nahotki?” degan qattol savolga javob topar – zero moviy ko‘z soqchi boyagi-boyagi chekkada turganicha tamaki tutatayotgan, bosar-tusarini yo‘qotgan o‘zbek askarcha esa talvasada ustma-ust tepki bosayotgan edi... Ammo-lekin Mirkomil uchun o‘zidan chiqqan va butun umr ta’qib etgan dushmanini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish orzusi ham nihoyatda arzimas nimarsaga aylangan – uning uchun bu yorug‘ dunyoda xolis niyat-la boshlagan so‘nggi ibodatini ado etishdan muqaddasroq maqsad-muddao qolmagan edi, biroq aqlsiz o‘q uzilaverdi-uzilaverdi...

Mirkomilning tilka-pora bo‘lgan jasadi o‘zi qazigan xandaqqa gursullab ag‘darildi...

Muhokama qilamiz

1. “Mirkomilboyning qazo bo‘lgan namozi” hikoyasining bosh g‘oyasini aniqlay oldingizmi? Javobingizni izohlang.
2. Agar Mirkomilboy do‘stlarining taklifiga ko‘ra, Afg‘oniston yoki Turkiyaga ko‘chib ketganida, sizningcha, hikoya syujetida qanday burilish yuz berardi?
3. Otasining orzusini amalga oshirish uchun kurashgan Mirkomilboy xarakteridagi qaysi jihatlar sizda iliq taassurot qoldirdi? Shu kabi xislatlar sizda ham bormi?
4. Ubaydulla junfurushning yig‘ilishidagi holatidan kelib chiqib, Mirkomilboy tabiatidagi qaysi xususiyatlar sizga yoqdi (yoki yoqmadi)? Buning sabablarini ayta olasizmi?
5. Mirkomilboyning xarakteridagi qaysi jihatlardan o‘rnak olish mumkin?
6. Hikoyada sizga eng ko‘p ta’sir qilgan narsa nima bo‘ldi? Fikringizni matn asosida izohlang.
7. Asardagi qaysi obrazda yurti uchun sinovlarda toblangan inson qiyofasini ko‘ramiz?
8. Mirkomilboy va u yashagan jamiyat o‘rtasidagi farqlarni matn asosida ochib bering. Odamlardagi jaholat sabablarini qanday izohlagan bo‘lardingiz?

Topshiriq

Mirkomilboyning millat uchun qilgan ishlari kimlarning faoliyatini esga soladi? Fikrlaringizni tarixiy faktlar bilan boyitib matn tuzing.

Tadqiq qiling

Guruhlarga bo‘lining.

1-guruh. Mirkomilboy kabi millat qahramonlari haqida ma’lumot to‘plang va taqdimot tayyorlang. Ular qaysi jihatlari bilan Mirkomilboyga o‘xshashi yoki farq qilishini ko‘rsatishga harakat qiling.

2-guruh. Hikoyada tilga olingan “Mardikorlar ishi” (1916-yil) haqida ma’lumot to‘plang. Voqealar rivojini tahlil qilib, Mirkomilboyning Andijon yigitlarini mardikorlikka yubormaslik uchun qilgan harakatlarini tarixiy ma’lumotlar asosida baholang.

3-guruh. Tarix ustozingiz yoki manbalardan hikoyada ismi qayd etilgan Anvar posho, uning siyosiy harakatlari haqida ma’lumot oling hamda yozuvchi nega aynan ushbu turk amaldori bilan Mirkomilboyni qiyoslaganini izohlashga harakat qiling.



MAQSUD SHAYXZODA (1908–1967)

Dars davomida:

- “Jaloliddin Manguberdi” fojiasidagi erksevarlik, vatanparvarlik g‘oyalarini tahlil qilamiz;
- dramatik tur haqida nazariy bilimlarga ega bo‘lamiz.

O‘zbek adabiyotining buyuk namoyandalari – G‘afur G‘ulom va Oybek kabi otashnafas san’atkorlar safida ijod qilgan Maqsud Shayxzoda zuvalasi she’riyat shu’lasi bilan yorug‘ kuychi edi. Uning asarlarida jo‘shqin vatanparvarlik tuyg‘ulari, chinakam ijodiy hissiyotlar bilan yashagan yoniq qalbning gulduros aks sadosi mujassam.

Mirzo Ibrohimov, Ozarbayjon xalq yozuvchisi

Maqsud Shayxzoda aslida qondosh ozarbayjon elidan bo‘lib, keyinchalik o‘zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan. U 1908-yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug‘ilgan. Boshlang‘ich va o‘rta ma’lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirtdan o‘qidi va muallimlik qildi. Mavjud tuzumga qarshi aksilsho‘roviy xatti-harakatlarda ayblangan Shayxzoda Toshkentga uch yillik surgunga hukm qilinadi. U yigirma yoshida Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar tahririyatida, Til va adabiyot institutida, umrining so‘ngiga qadar esa Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida faoliyat yuritdi. Shoirning dastlabki she’riy to‘plami “Loyiq soqchi” deb nomlanib, “Kurash nechun?”, “Jang va qo‘shiq”, “Ko‘ngil deydiki…”, “Kapitan Gastello”, “O‘n besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shu’la”, “Chorak asr devoni”, “Toshkentnoma” lirik



Suratda Maqsud Shayxzoda otasi Mas’udbek, onasi Fotimaxonim va turmush o‘rtog‘i Sakinaxonim bilan

dostoni, shuningdek, “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek” fojiasi singari dramatik asarlari nashr etilgan.

Maqsud Shayxzoda: “Xalqimizning mehnat qahramonligi, kurash va jang, ozodlik va do‘stlik, baxt va alam, yurtning go‘zal manzaralari va insonning ma’naviy jamoli mening qalamimga oshno, dilimga mazmun bo‘lib keldi”, deb ta’kidlagan edi. Shoirning bu fazilatlari, eng avvalo, hayotdagi, voqelikdagi va odamlarimizning ruhiy olamidagi o‘zgarishlar, holatlarni ifodalashga qodir yangi, betakror obrazlarida namoyon bo‘ldi.

Afsuski, shoir 1952-yili asossiz ayblovlar bilan ikkinchi marta hibsga olinib, 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilindi. Ikki yildan so‘ng oqlanib, badiiy ijodga qaytdi.

Shayxzoda umrining so‘ngiga qadar o‘zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko‘rsatdi va O‘zbekiston uning ikkinchi vatani bo‘lib qoldi.

Maqsud Shayxzoda 1967-yil 19-fevralda vafot etdi.

O‘ylab ko‘ring

Nima uchun Mirzo Ibrohimov Maqsud Shayxzodani yoniq qalb egasi sifatida tasvirlaydi? Biz qanday insonlarni “qalbi yoniq” deya ta’riflaymiz?

MUTOLAADAN OLDIN

Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” fojiasi 1217–1224-yillarda mo‘g‘ul istilosiga qarshi kurashgan Jaloliddin Manguberdi to‘g‘risida hikoya qiladi.



Chingizxon boshchiligida mo‘g‘ul qo‘shinlari Xorazmshohlar davlati yerlariga bostirib kirishi 1219-yildan boshlangan. Sulton Alovuddin Muhammad harbiy xatosi tufayli jang maydonini tark etgach, uning o‘g‘li Jaloliddin vatan himoyasiga otlangan.

Tarixchi Nasaviyning yozishicha, sarkardaning ismi Jaloliddin Mangburni bo‘lgan. “Mangburni” laqabini ayrim tarixchilar “burnida xoli bor”, “xoldor” deb talqin qiladilar. Maqsud Shayxzoda o‘z asarida Jaloliddinni “Manguberdi” deb atagan (“Mangburni” so‘zini o‘zbek tilida shunday ifodalagan).

Bu asar drama janrida yozilgan. Drama (yunonchada *harakat* ma'nosini bildiradi) asosan sahna uchun yozilgan asar. Boshqa tur va janrlardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Yozuvchining fikrlari ishtirok etuvchi shaxs (obraz)larning xatti-harakatlari orqali ifodalanadi.
2. Voqealar tomoshabin ko‘z o‘ngida sodir bo‘ladi.
3. Voqealar monolog, dialog ko‘rinishida beriladi.
4. Dramalar pardalarga, pardalar esa ko‘rinishlarga bo‘linadi.
5. Ijodkor remarka (muallif asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, xulqi, xatti-harakati, intonatsiyasi, sahna manzarasiga beradigan izoh)lardan foydalanadi. Remarkalar odatda qavs ichida beriladi. Masalan: (*Xorazmshoh ikkilangan holda o‘yga botadi*).

Akademik Naim Karimov "Maqsud Shayxzoda" ma'rifiy romanida yozishicha, o‘sha vaqtdagi mamlakat rahbari Usmon Yusupov: "Boshqa ishlar bilan xayolingni bo‘lma. Xalq va armiya sendan Jaloliddin to‘g‘risidagi asarni intizorlik bilan kutadi. Vodilga borib, uni tezroq tugallab qayt!" – deb millat qahramoni Jaloliddin Manguberdi haqida asar yozishga rag‘bat beradi.

O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, xalq va armiya Jaloliddin haqidagi asarni nega intizorlik bilan kutgan bo‘lishi mumkin?

Topshiriq

Ikki tomonlama kundalik

Mutolaa jarayonidagi voqealar rivoji haqida farazlaringizni muayyan ishoralarga tayanib, quyidagi jadvalga yozib boring. Asar so‘ngida avvalgi va keyingi fikrlaringizni qiyoslang. Nimalar o‘zgardi?

Farazlar jadvali

Asardagi ishoralar	*Mening farazim*

JALOLIDDIN MANGUBERDI

Besh pardali tarixiy fojia

QATNASHUVCHILAR:
Sulton Muhammad Alovuddin Xorazmshoh *– Xorazm shohi.*
Jaloliddin Manguberdi *– uning o‘g‘li.*
Sultonbegim *– shohning qizi, Jaloliddinning tug‘ishgan singlisi.*
Amir Badriddin *– Samarqand hokimi, Sultonbegimning qaylig‘i.*
Temur Malik *– sardor, Xo‘jand hokimi.*
Elbars pahlavon *– cho‘pon.*
Muhammad Nasaviy *– tarixchi, Jaloliddinning kotibi.*
Ona *– Jaloliddin va Sultonbegimning onasi.*
Imom Shahobiddin Xevaqiy.
Yaroqbek *– Badriddinning mulozimi.*
Chingizxon *– mo‘g‘ul xoqoni.*
Qodog‘on no‘yon *– Chingizxonning sarkardalaridan.*
Devona chol, sipohlar, bozor ahli, saroy xonimlari, kanizlar, mo‘g‘ul askarlari.

no‘yon – mo‘g‘ullarning asilzoda urug‘ boshlig‘i

Voqea XIII asrning birinchi choragida bo‘lib o‘tadi.

BIRINCHI PARDA

BIRINCHI KO‘RINISH

Sulton Muhammad Xorazmshohning Samarqanddagi muhtasham saroyi. Sultonning o‘z qizi Sultonbegimni Samarqand hokimi Amir Badriddinga chiqarish to‘yi. Xorazmcha kiyingan qizlar qatorida kelin – Sultonbegim, samarqandcha kiyingan yigitlar qatorida kuyov – Amir Badriddin o‘tirar edi. Bir yoqda hofizlar, mashshoqlar, raqqoslar, soqiylar.

(*Jaloliddin va Nasaviy kirib keladilar.*)

Maddoh
Assalom, davlatpanoh, hazrat Jaloliddin, yasha!
Assalom, davlatpanoh, hazrat Jaloliddin, yasha!
Mangulik birla yasha, yo Manguberdi, marhabo,
Xorazmshoh davlati bo‘lgay muzaffar doimo!

Hamma
Assalom, davlatpanoh, hazrat Jaloliddin, yasha!
Assalom, davlatpanoh, hazrat Jaloliddin, yasha!

Badriddin *(kelinga)*
Xayolingiz ishqida go‘yo devona,
Qalbim ichra tutdingiz shunday bir xona,
Unutdim men o‘zimni, elni, mansabni,
Vijdonimni, diyorni, din-u mazhabni!

mazhab – islomdagi an’anaviy yo‘nalish

Sultonbegim
Sevgi qildi shunchalik parishonxotir?
Unday bo‘lsa, bo‘layin men ham xavotir,
Tag‘in sevgim tufayli unutmang meni!

Badriddin
Nomimni ham unutsam, unutmam seni!

Jaloliddin o‘ziga xos joyda o‘tiradi. Yonida Nasaviy. Xorazmshoh o‘z vazir va a’yonlari bilan kirib keladi. Hamma ta’zim qiladi. Shoh taxtga o‘tiradi. Soqchilar va maddohlar shoh huzuriga borib madhiya aytadilar.

(Kuyov va kelin kelib, shohga ta’zim qiladilar.)



Xorazmshoh
Parvardigor menga aylab ulug‘ inoyat,
Besh iqlimda qura oldim shonli bir davlat.
Lashkarimning savlatidan titraydi jahon,
Xalifayi Bag‘dod menga bosh egar al’on.
Taxtigohim poygahida g‘urlar, afg‘onlar,
Tiz cho‘kdilar qaroxitoy, saljuq, naymonlar.
Shafqatimg‘a sig‘inmoqda bir yoqda Iroq,
Yonboshimda Hind-u Panjob, bir yoqda Qipchoq.
Bir puflasam, irg‘ib tushar shohlarning toji,
Karvonlarning tashigani – xazinam boji.
Saltanatning andishasin o‘ylaymiz keyin,
Susaytirmay davom eting qizimning to‘yin!

(Raqqosalar o‘yinga tushadilar, hudaychi kirib keladi.)

Hudaychi
Chingizxondan kelmish elchi!

Xorazmshoh *(qaltirab)*
Kira qolsinlar!

Hudaychi chiqib ketadi. *(O‘zicha)*

Oh, yana bu badbashara jinlar, mal’unlar!..
Dashti Qipchoq sahrosida besh yil ilgari
Jang qildim, mo‘g‘ul xuddi shayton singari.

(Qo‘rqinchli qiyofalarda mo‘g‘ul elchilari kirib keladi.)

Elchi boshlig‘i
Ulug‘ xoqon Chingizxon
Yubormishlar bir farmon:

Sizningcha, farmon nima haqida bo‘lishi mumkin?

Xoqon bir-u jahon bir,
Xoqonimiz jahongir.
Taslim bo‘lib xoqonga,
Boj to‘lang Chingizxonga!
Bo‘lmasa jang-u jadal
Boshlanadi shu mahal!

(Xorazmshoh ikkilangan holda o‘yga botadi.)

Jaloliddin
(shohga yaqinlashib)
Javob ber, shahanshoh, kutmasin ular,
Kuttirsak, qo‘rqishga alomat bo‘lar!

(Badriddin kelib to‘rdan joy oladi.)

Xorazmshoh *(dadillanib turadi)*
Hech kimga bo‘ysunmas xorazmshohlar,
Mo‘g‘ul o‘g‘risimi menga barobar?
Yo‘qoling, yo‘qoling, bedin majuslar,
Egam bo‘lmoqchilar shu benomuslar!..

(Elchilar chiqadilar)
Qulasa birgina qal’amda devor,
Ostida ming Chingiz bo‘lur xokisor.
Qani, nima deydi ahli maslahat?

Jaloliddin
Qonlarni qon birla yuvarlar, albat,
Bag‘oyat zo‘ravon g‘animdir Chingiz.
Bunga ko‘z yummayin rostin bilingiz.
Dedingiz, qulasa qal’amda devor,
Ostida chingizlar bo‘lur tor-mor.
Lekin u yotmaydi devor ostiga,
Yo‘l qilib chiqadi qal’a ustiga.
Vayrona ostida halok bo‘lmas ul,
O‘zi vayronalar yasaydi mo‘g‘ul.
Zinhor qal’angizga yaqinlatmang hech,
Yiqilsa poytaxtlar, omad qolur kech.
Sirdaryo bo‘yida bor kuchingizni –
Musht qilib qaytaring qonli Chingizni!

Jaloliddinning bu taklifini qanday baholaysiz?

Xorazmshoh *(asabiy)*
Amir Badriddin?!

Badriddin
Hayronman shunga,
Hayronman valiahd Jaloliddinga.
Olam shahanshohga tom kamarbasta,
Bu nima?.. Chingiz-u Chingiz... payvasta?!
Cho‘llarning bo‘risi sherga ne qilur?
Behayo bir gado elga ne qilur?
O‘ttiz yil damodam qiblayi olam
Xasmlar qasdini qiloldi barham.
Chunki shioridir: tavakkal – Olloh.
U Tangri soyasi, udir ziblalloh!

xasm – raqib, dushman

Xorazmshoh
Imom Shahobiddin?

Imom
Ahkomi Qur’on
Buyurmish: vatanni hifz ayla har on,
Hadisda Muhammad rasul-zishon
Debdi: “Hubbil vatan minal imon”.
Dushman majusiydir, bedin, butparast,
Musulmonobodga aylamishdir qasd.
Unga bermoq kerak hoziroq shikast,
Hazrat valiahdning taklifi xo‘p mos.

hifz ayla – muhofaza qil, asra

1-vazir
Fikri ojizonam: qiblayi olam,
Afg‘on tuprog‘ida askar bo‘lsa jam,
Bu yerda har qal’a o‘zi jang etsun,
Dushmanni charchatib holin tang etsun.

2-vazir
Yovga ko‘rinmaslik – hunar dunyoda,
Qo‘shinni jam qiling Amudaryoda!

Xorazmshoh
(o‘rnidan turib)
Eshiting amrimni... Mulohaza bas!
Hozir jangga kirmak aqldan emas!
Ko‘pdir mamlakatda keraksiz cho‘llar,
Yov kelib yetguncha ochidan o‘lar.

Yovga raddibadal qilgay har qal'a!
(Badriddinga)
Samarqand qal'asi sizga havola!

raddibadal – javob qaytarish

Vazirlar
Ko'p dono qaror, taborakallo!

Xorazmshoh *(o'tirib)*
Men jangdan qochmayman, Tangridir guvoh,
Ammo qumloq dashtda urishsak agar,
Mo'g'ul ko'p, ozor tortadi lashkar.
Yalmog'iz mo'g'ul shum, yotog'idir qum,
Ichgani qimizdir, taomi zaqqum.
Men ko'rdim ularni Dashti Qipchoqda...

Jaloliddin
Shahanshoh, bor edim men ham u chog'da,
Dashtga sipoh tortib yaroqli, o'qli –
Bosgandi Jo'jixon – Chingizning o'g'li.
Siz qo'lga tushmakka sal qolgan edi,
Xossa askaringiz qamalgan edi.
U chog' qilichimning damini o'pib,
Otlanib hamlaga boshladim chopib,
Shahanshoh, u yog'i yodingizdami?!

Xorazmshoh
Najotni yozgandi Tangri qalami!

Nasaviy
Mashhurdir sardorning shu qilgan ishi,
El deydi: "Mo'g'ulni qochirgan kishi".

Badriddin *(Nasaviyga)*
Ne kerak tarixdan o'qimoq qissa,
Taxtigoh qachondan bo'lmish madrasa?

Nega Badriddinga Dashti Qipchoqdagi muvaffaqiyatli jang haqida eslatishgani yoqmadi?

Xorazmshoh
Bas qil maqtanmoqni, Jaloliddin, bas!

Jaloliddin
O'zingiz guvohsiz, bu yolg'on emas!
O'tmish bu sarguzasht Dashti Qipchoqda,
Yovni quva oldik cho'lda, qumloqda!

Xorazmshoh
Odamzod umrida ming sarguzasht bor,
Hammasin eslamoq, aytmoq ne darkor?
Buyrug‘im buyruqdir, boshqa gap bekor...

Jaloliddin
Bizning xonadonga bu – nomus, bu – or,
Taxtnishin bo‘lgandan sulh-u rohatda,
O‘lkaga bo‘laylik sarvar ofatda.
Emas vatanimiz Xorazm faqat,
Kunchiqar tomonda Sirdaryo sarhad.
Buyuring, sipohga bo‘lay sarkarda,
Safarda tug‘ildim, o‘sdim egarda.
Qilichim hassadir, tulporim – o‘rtoq,
Menga koshonadan chodir yaxshiroq.

Jaloliddinning tabiatiga xos
qanday xususiyatlarni sezdingiz?

Qo‘shin bering menga, boshlay jang-u jahd,
Shahanshoh noyibi, menman valiahd.

Badriddin *(shoh qulog‘iga)*
Maqtanar men shohni qutqazdim deya,
Siz hayot, u taxtga bo‘lmoqchi ega!


Xorazmshoh
Itoat... haqqimdir otalik, shohlik!
Bu qanday sarkashlik, qanday gustoxlik?!

Jaloliddin
Otamsiz vallomat va shahanshohim,
Go‘daklik chog‘imdan pushtipanohim.
O‘sdim bu hayotda poyama-poya,
Endi men yurtimni qilay himoya.

Xorazmshoh
U qanday himoya?! Barhayot-ku shoh?

Jaloliddin
Himoya qilmasa u xoh-u noxoh...

Xorazmshoh
(g‘azab bilan)
Sen emas valiahd… Shu kundan boshlab
Qarorim qat’iydir, o‘zgarmas matlab!



Jaloliddin
(tojni taxt oldiga qo‘yadi)
Kishi tug‘ilmaydi boshda toj bilan,
Tug‘ilar erklikka ehtiyoj bilan,
Boshimning tojidir onamga qasam!
(ketadi)

Imom
Shahanshoh, shahanshoh, qiblayi olam,
Turkiston eliga cho‘ktirmang alam.
Mo‘g‘ulni qochirgan kishi – shu kishi,
Faqat shu Jaloldan qo‘rqar ul vahshi.

Ayvondan bir guruh xotinlar yo‘rgakda bir bolani olib o‘tayotganida Xorazmshoh unga imlab…

Xorazmshoh
Bas, imom, valiahd O‘zlig‘ Qutbiddin,
Mening kenja o‘g‘lim. Itoat qiling!

(Vazirlar u tomonga qarab ta’zim qilishadi.)

Nasaviy *(o‘zicha)*
Birovning davlatin olarkan Xudo,
Dastavval aqlidan qiladi judo.

Shohni Badriddin qo‘ltiqlagan holda vazir va a’yonlar chiqib ketadilar.
(Orqalaridan Badriddinga imlab)

Chirikka o‘xshaydi bu qo‘ltiqtayoq,
Nasibni qarangki, bitta chaqaloq
Va yana aljirab qolgan qaysar chol
Sohibi farmonlar... Taxt esiz, uvol!
Ko‘p yillar men yozdim tarixi zamon,
Ko‘rganim, bilganim qayd etdim hamon.
Taxti oliy topdi xorazmshohlar,
Falakka rashk berdi baland dargohlar.
Ammo boshga tushdi yomon tushkunlik,
Shohning donoligi bo‘ldi uch kunlik.
Nifoq-u nizolar tushdi o‘rtaga,
Girdobga botmasak, yo Rab, ertaga:
Agar bo‘lmasaydi Jalol olamda,
Qudrat bo‘lmas edi shu qo‘l, qalamda.
(Jaloliddin kirib keladi.)
Shahzodam, bu ishdan bo‘lmangiz g‘amgin,
Betoj ham siz – sardor, siz – Jaloliddin!

Jaloliddin *(beparvo)*
El-o‘lka sog‘ bo‘lsin, toj kelib-ketar!

Nasaviy
Kalla omon bo‘lsin, soch kelib-ketar.

(kulishadilar)

Jaloliddin
Fursat oz, so‘ylagin tez, xazinador
Bersin lashkarimga bir yuz ming dinor!

(Nasaviy chiqadi.)

Odamlar o‘ylarki, bo‘lmasa tojim,
Qalandar bo‘lurman, qolmas ilojim.
Bechora otam-chi, fahmi shuncha ko‘r?
Bilmaski, shu bilan taxtga qazir go‘r...
Otami azizdur yoki saltanat?
Ko‘p og‘ir masala...
Kufrdir, albat –
Otaga qarshi ko‘tarmak isyon.
Ayyom xatarnokdir, bu menga ayon.
El uzra bulutlar kelsa havodan,
Maydonga kirmaymi qo‘rqib balodan?
Yo‘q, kelsin bo‘ronlar, yog‘sin toshlar ham,
Bular nazarimda sahargi shabnam.
Bu gal o‘xshamaydi otaga o‘g‘il,
Mulk ahli mo‘g‘ulga sira bo‘lmas qul.
Tug‘ildim qilich-u qalqonga xushtor,
Bo‘lay g‘anim uzra misoli ajdar.
Hazar aylamasman devdan, shaytondan,
Hatto Azroildan.

Mahram *(kirib)*
Sizdan ruxsat so‘rar ekan Elbars pahlavon.

Jaloliddin
Darhol kelsin!

(Mahram chiqadi.)

Otaxonim, qadimgi cho‘pon!

(Elbars pahlavon kiradi.)

Jaloliddin
(uni quchoqlab)
Ko‘rganimga o‘n yil bo‘ldi sizni, otaxon!

Elbars
Siz shahzoda, biz Sirdaryo bo‘yida cho‘pon.

Jaloliddin
(kulib)
Qo‘ying, qo‘ying! Sirdaryoning yashil, ozoda
Qirg‘og‘ida chaman ichra bitta shahzoda –
Otni qo‘yib o‘tloqlarga, nay tinglagani
Sira esdan chiqarmikin? O‘sha nay qani?
(Elbars cho‘ntagidagi nayni ko‘rsatadi.)
Qanday xabar bilan kelding, pahlavon og‘a?

Elbars
Podamizga kirgan bo‘ri bag‘oyat katta,
Mo‘g‘ul bosdi Sirdaryoni...

Jaloliddin
Hoy keksa cho‘pon,
Bo‘ri kirar bo‘shang bo‘lsa, albat, posbon.
Darhol Temur Malikka elt bizdan farmon,
Xo‘jand bo‘lsin yovga qarshi bahaybat qo‘rg‘on.
Nayni bekit, yoniga ham bitta xanjar os,
Cho‘pon ota, hunar ko‘rsat, bo‘rilarni bos!

Elbars
Badaxshonning ko‘ppagiday bo‘lib men yovuz,
Yirtib, bo‘g‘ib tashlagayman yovni ayovsiz!

Bir guruh mingboshilar va sipohilar kirib keladi.

Jaloliddin
Do‘stlar, birga edik doim to‘yda, azada,
Yana endi hamsaf bo‘lsak qonli g‘azoda!

Badriddin *(kirib)*
Xorazmshoh bo‘lmish sizdan bag‘oyat diltang,
Yaqin biron sirdoshingiz qildimi nayrang?
Sir bermangiz har kimga ham...

Jaloliddin

Ha! Bu qanday sirdir?

Badriddin

Taxt haqida, balki biron tashvish yoki qasd...

Jaloliddin

Xato! Amir! Jaloliddin emas taxtparast.

Badriddin

Bo‘lmasa, bu qo‘shin – lashkar?..

Jaloliddin
Niyatimiz bir.
El-o‘lkamiz Chingizxonga bo‘lmasin asir.

Badriddin
Samarqandda g‘avg‘oga yo‘l qo‘ymayman sira.

Elbars
(Nasaviyga)
Ana kuyov! Istar kelin bo‘lsin asira.

Badriddin
Ma’lumingiz, Samarqandda menman hukmron,
Bir qal’ada bo‘lmas ikki sohibi farmon!

Nasaviy *(Elbarsga)*
Ko‘p mehmondo‘st hokim ekan bu amir yohu,
Darvozaga kelgan yovga peshvoz chiqar u.

Sizningcha, Nasaviyning fikrlari qanchalik haqiqatga yaqin?

Jaloliddin
Viloyatni kim saqlasa, udir hukmron,
Ko‘kragimga oshnodir selob-u bo‘ron.
Bu qasrning sohibi siz, mayli, bemalol
O‘tiringiz devon ichra va lekin Jalol –
Shu og‘oyin sipohlar-la jangga tayyordir,
Kim eliga g‘amxo‘r bo‘lsa, el unga yordir!
Sizga izzat va ehtirom, to‘smangiz yo‘lim,
Sipohlarning xil’atidir men uchun so‘lim.
Va bilingki, sipohlarning bir odati bor,
Jang chog‘ida sustkash yorni biz deymiz ag‘yor.

Badriddin
Qaynag‘aning domodiga shumi hurmati?
Bu pajmurda sarbozlarning ketmish omadi.
(Chiqib ketadi).

Jaloliddin
Kim charchagan, kim kamarni beldan yechmoqchi,
Ochiq aytsin, kim sipohiy ishdan kechmoqchi?
(Sukut)
Har kim tayyor qilib kutsin o‘z askarini
Intizorda, men berguncha jang xabarini!

Jaloliddin
Elbars polvon, chiqar nayingni!
Pahlavonning nayiga moslab yalla.

Parda tushar

Muhokama qilamiz

1. Fojianing birinchi pardasida qaysi qahramon sizni ko‘proq ta’sirlantirdi? Javobingizni izohlang.
2. Ota va o‘g‘il o‘rtasidagi kelishmovchilik ko‘proq kimga kerak bo‘ldi? Buning sababi nimada?
3. “Jaloliddin Manguberdi” dramasi bugungi yosh avlod uchun qanday saboq beradi? Ushbu asar orqali vatanparvarlik va jasorat haqidagi xulosalaringizni bayon eting.
4. Asardagi qahramonlarning monolog va dialoglari orqali qanday fikrlar ilgari surilgan? Ayniqsa, Jaloliddinning so‘zlari orqali aks ettirilgan ruhiy holatlar tasvirini izohlang.

Topshiriq

Jaloliddin Manguberdi nutqidan o‘zingizga yoqqan ibratomuz fikrlarni ajratib, jadvalning chap ustuniga, bu fikr qanday g‘oyani ifodalashga xizmat qilishini o‘ng ustuniga yozing. Namunaga e’tibor bering.

1.	Qonlarni qon birla yuvarlar, albat.	Dovyuraklik
2.		
3.		

IKKINCHI PARDA

BIRINCHI KO‘RINISH

Urganch... Xorazmshohning oliy qasri. Saroydan bazm va aysh-u ishrat nidolari eshitilmoqda.

Hofizning ashulasi

Ofarin, ey Xorazmshoh, shahriyori purviqor,
Bir qo‘lingda ganji olam, bir qo‘lingda zulfiqor!
Qiblayi olam tasadduq, yo amiralmo‘minin,
Davlatingda mustarixdir ahli islom, ahli din!

(Ayvondan Sultonbegim chiqib hovliga tushadi.)

Sultonbegim

Oh, dilda tashvish bor, ulug‘ andisha,
Ilonlar ko‘raman tushda hamisha...
Xabar yo‘q, Badriddin ne bo‘ldi ekan?
Daryoda qayiqman yo beyelkan?

Sevgini bir balo debdilar:
Bu chin.
Oh, xotin yuragi betinchdir, nechun?!

(Amir Badriddin yonida mulozimi Yaroqbek bilan maydon tomondagi darvozadan kirib keladi. Qo‘lidagi sandiqchani ayvonga qo‘yib, Yaroqbek qasrga kirib ketadi.)

Badriddin
Malikam, farishtam, quyoshim, oyim!

Sultonbegim
Bu tushmi yo o‘ngmi? Rostmi, iloyim?!
Insofsiz, shuncha vaqt na xat, na payom,
Intizorlik mahv etdi umrimni tamom.
Endi sizga beray katta bir jazo...

Badriddin
Hukm sendan chiqsa, dorga ham rizo!

Sultonbegim
Gunohingiz uchun sizga zo‘r jazo:
Men bilan doimo bo‘lmoqlik sazo...

Badriddin
(kulib)
Shunday jazo uchun men yana ko‘p bor
Shu xil gunohlarni qilmoqqa tayyor!

Sultonbegim
Samarqand nechukdir, so‘ylangiz darhol!

Badriddin
Chingiz oyog‘ida bo‘ldi poymol.

Sultonbegim
Urush bo‘lmadimi? Mardlar yo‘qmidi?

Badriddin
Yo‘q edi dushmanni yengmoq umidi.

Sultonbegim
Qal’ada bo‘ldingmi so‘nggi damgacha?

Badriddin
Chiqoldim qal’adan qorong‘u kecha!

Sultonbegim
Azizim, yashirma, jarohat bordir?

Badriddin
Yorga majruh bormoq biz uchun ordir.

Sultonbegim
(xafa)
Nima deb qildingiz Xorazm azmin?

Badriddin
Seni deb...
Keltirgan sovg‘am ham vazmin!
(Ayvondagi sandiqchani olib, qimmatbaho toshlar va gavharlarni ko‘rsatadi.)

Sultonbegim
Samarqand siynamni ilk ochgan shahar,
Sevgimni qutladi u yerda sahar.
Oh, erning yarasin silab bog‘lagan
Baxtli kelinlarga hasad qilaman.
Oh, koshki shunchalar ziynatdan ko‘ra
Keltirsang u yerdan bitta g‘ishtpora!
Ne kerak Samarqand la’li, tillasi?!
Rahmat derdim bo‘lsa mo‘g‘ul kallasi.

Badriddin
Ayt, nega shuncha ham tajang bo‘lmoqlik,
Vaslingga yetganda shunday bir qiliq!
Ana, boq, kokillar xuddi malika,
Naqadar yarashar bu ziynat senga!
(Sandiqchadan chiqargan bilaguzuk, gardanband va halqalarni malikaning o‘ng qo‘li, bo‘yni va qulog‘iga taqib qo‘yadi. Sandiqdan yana bir uzuk chiqadi. Badriddin uni tezda o‘zi oladi.)

gardanband – ayollarning bo‘yinga taqadigan taqinchog‘i

Va lekin bu uzuk meniki, bu sir,
Anchayin sir emas, tilsimli sehr.
Menga bag‘ishlagan ezgu bir ustoz,
Jangda taqsang, derdi, ishing bo‘lur soz.
(Uzukni yashiradi.)
Biroz kul, malikam, ochil va sochil,
Men hijronzodani qilmagil xijil.
Samarqand borurmiz, bil, inshoolloh!
(sekin)
Sen erkin malika, men esa...

Sultonbegim *(sevinib)*
Oh!.. Oh!..

Shu o‘rinda Badriddin nima demoqchi edi? Nega ochiq-oshkor gapirmadi?

Badriddin
Bu sirni men bilay... sen hamda Olloh.

Sultonbegim *(o‘zicha)*
G‘alati imolar, tavakkal Olloh!
(Badriddin uni qo‘ltiqlab saroyga kirib ketadi.)

Yaroqbek
(qasrdan chiqadi.)
Otamni tashlagan Sirdaryosiga –
Yo‘liqay falakning har balosiga!
Temur Malik ekan otam qotili,
A, men-chi? Dunyoning tentak sofdili?!
(Badriddin chiqadi.)

Badriddin
Yaroqbek, nega sen buncha ham ma’yus?

Yaroqbek
Dardni ming aytsam ham kamaymas, afsus!
Gumroh bir darvishday sizni pir dedim.
Beshni bir desangiz, men ham bir dedim.
Amir, yuragimni parchalar qasos!

Badriddin *(kulib)*
O‘zingni tiy, tentak, jahlingni sal bos,
Va’dasin unutmas amir Badriddin.
Manzilga oz qoldi, marraga yetding!

Yaroqbek
Topmog‘im vojibdir Temur Malikni!

Badriddin
Qo‘y deyman, qo‘y deyman shu tentaklikni.
Darbadar yurgansan dasht-u biyobon,
Ammo bo‘lmagansan aslo shikorbon.
Burgutlar boshlig‘in otmasang agar –
Galasin to‘zg‘itmas yuz yil shamollar.
Boshliqdan qasos ol, ammo yashirin,
Qo‘lga tushmagaysan, hayot ko‘p shirin.
Yana bil: xun olay degansan, taqsir,
Xanjarni kim bersa, senga baribir,
Ko‘p bordir yovingga yov bo‘lgan dilgir!
(Uning qulog‘iga pichirlaydi.)

shikorbon – ovchi, ovga mas’ul xodim

Yaroqbek *(xursand)*
Ha... Ha, tushunaman!

Badriddin
Qasosni axtar –
Xaroba cho‘llarda o‘limdan battar.

Yaroqbek
Otamning xuni...Otamning xuni!
(Chopib chiqib ketar.)
Mo‘ljalga yetkaz, baxt, ushbu o‘qimni!

Parda tushar

IKKINCHI KO‘RINISH

Urganch. Bozor. Savdogarlar, dehqonlar, chorvadorlar, to‘ralar, kosiblar, mulla-bachchalar, folbinlar, domlalar, amaldorlar, sarbozlar, mirzalar, masxarabozlar...

Yuruvchilar o‘rtasida turkistonliklar, movarounnahrlik arablar, qipchoqlar, xitoylar, kavkazliklar, eroniylar, hindular, slavyanlar, turkmanlar o‘z qiyofalari bilan ajralib turmoqdalar.

Bozor ahli o‘rtasida erlar qatorida xotinlar ham ko‘rinadi.

Sozandalar soz chalib, masxarabozlar o‘yin-kulgi qilmoqda.

Qassoblar, bozor ahli va savdogarlar umumiy ashula aytadi.

Bozor ahli
(xor)
Poytaxti jahonda,
Xorazmshoh tomonda –
G‘aroyiblar bor anda,
O‘lmay desang armonda –
Urganchni bir ko‘rib ket!
Bozorlar rasta-rasta,
Do‘konlar ham payvasta,
Taom tayyor birpasda.
Qolmay desang dilxasta –
Urganchda kayf surib ket!

Yigit va qizlar
(xor)
Xorazm eli dilnavoz,
Qo‘llarida o‘rdak, g‘oz,
Qizlaridir ko‘p tannoz,
Sevay desang biron yoz –
Urganchda bir turib ket!

Xorazmshoh
Podshoh bir, Xudo bir, va’da ham birdir,
Sabr qiling, xaloyiq, Xudo – sobirdur.

sobir – sabrli

(Xorazmshoh taxtdan turadi. Sipohlar yo‘l ochmoqchi bo‘lib xalqni itara boshlaydi. Xalq esa birdan yoppasiga yerga yotib yo‘lni to‘sadi.)

Xalq
Qiblayi olam, qiblayi olam,
Jasadimiz ustidan o‘t bosib qadam!
(Bir yoqdan Xorazmshohning katta ulamolaridan imom Shahobiddin Xevaqiy paydo bo‘ladi.)

Imom
Bu murtadlik, bid’atdir, tur, ey xaloyiq!
Faqat Tangri taolo sajdaga loyiq.
(Asta-sekin tura boshlaydi, imom Xorazmshohga qarab.)
Payg‘ambar ham, choryor ham bo‘ldi sarkarda,
Umr o‘tkazib chodirda, jangda, egarda.
Charchadimi qo‘lingiz g‘azot jangidan,
Oyog‘ingiz toldimi ot uzangidan?
Yo amiralmo‘minin, omad kutmak bas,
Poytaxtni tashlamang, taxtsiz shoh bo‘lmas.
Buyuring amirlarga, bo‘lsinlar hamkor,
Siz bo‘ling lashkarboshi va sipohsolor!

murtadlik – dindan qaytish

bid’at – dinga xilof yangi amal

sipohsolor – sarkarda, lashkar yetakchisi

Xorazmshoh
Imom, imom, qo‘yingiz, bu gaplar bekor,
Haq taolo o‘zidir menga nusratkor!

nusratkor – madadkor

Yigitlar
Biz tayyormiz, yo‘lga boshla bizni, hukmdor!

Xorazmshoh
Qo‘ying, qo‘ying, o‘g‘lonlar, bu gaplar bekor!

Xotinlar
Bizni ayang, tashlamang, mo‘g‘ul ko‘p g‘addor!

Xorazmshoh
Beklar, torting karvonni, muhlat-fursat tor!
(Shoh turadi. Beklar xalqni itarmoqchi bo‘ladilar. Sahna orqasidan jangovar musiqa eshitiladi.)

Bir necha kishi
Jaloliddin!

Boshqalar
Shahzoda!

Yana birovlar
Manguberdi!

Bittasi
U g‘oziydir!

g‘oziy – muqaddas jangda qatnashuvchi shaxs

Ikkinchisi
U sardor!

Uchinchi kishi
Xorazm mardi!

Imom
Kelayotir mo‘g‘ulni qochirgan kishi!

Xalq
Baxtiyor aylangay dunyo gardishi!
(Jaloliddin yonida Nasaviy va bir to‘da askar ila kirib keladi.)

Xorazmshoh
Jaloliddin, men sendan emasman rizo,
Nega taxtim atrofi nifoq-u nizo?
Nedur da’vong?

Jaloliddin
Da’vomga yo‘q sizda davo.

1-vazir
Shu javobmi o‘g‘ildan otaga ravo?

Xorazmshoh *(g‘azab bilan)*
Da’vong nima, maqsad ne, baxti bad o‘g‘lim,
Sen dono-yu, tentakmish yetti iqlim –
Bo‘ysunarkan falakning kajraftoriga?

Jaloliddin
Bo‘ysunmayman shum falak ixtiyoriga!

2-vazir
Faqat sizmi ixloskor shoh diyoriga?

Jaloliddin
Nifoqlarga oshyon qasringiz, ey shoh,
Qinga qaytmas qilichim, shohiddir Olloh,
Birlashmasa bu ellar, beklar, o‘lkalar,
Xorazmshoh taxtiga pes mo‘g‘ul kelar...
Javobim shu...Keraksa eshiting yana!
Tepib tursa yurak rost, cho‘kmaydi siyna.
Ulug‘ davlat tiz cho‘kmas, botir yolbormas,
Chinor sinar, egilmas, bedov ot hormas.
Chingizxondan qo‘rqmoqlik – kurashsiz o‘lim,
Sizga hamroh emasman, o‘zgadir yo‘lim.

Xorazmshoh
Bu xunrezlik, qonxo‘rlik... Oqibat bekor!

Jaloliddin
Ey padari buzrukvor, shunda xatong bor.
Tavakkalning, sabrning yo‘qmi poyasi,
Siz deysiz, men dunyoda Tangri soyasi.
Lekin soya qochmaydi nuqul bir tomon,
U ham bosar kechki chog‘ tog‘-dashtni, inon!
Sirdaryoda dushmanni qaytarish uchun
Menga lashkar bermasdan ketdingiz nechun?
Garchi sizdan beruxsat talashdim, turdim,
Quyonlarni qochirdim, yovni ko‘p qirdim.
Hanuz nomim aytilsa, qaltirar Chingiz,
Bu lof emas, ota, siz faxr qilingiz!
Muhringizning bor ekan hukmi, obro‘yi –
Ayting menga bosh egsin beklar yurt bo‘yi.
Qo‘shin boshlab Chingizni qilay tor-u mor.

Badriddin *(shoh qulog‘iga)*
Shunchalik ham o‘g‘lingiz taxtga havaskor.
Emish unga lashkarning jilovini tut,
Sizga esa – sultonga – kafan va tobut.

Xorazmshoh *(qat’iy)*
Yo‘q, sarkarda – Qutbiddin O‘zlig‘shoh – kenjam.

Jaloliddin
Qani o‘sha?

Xalq
Chiyillar beshikda beg‘am.
(Qiziq kulgi)

Jaloliddin
Xaloyiq, yo‘l beringiz, jo‘nasin sulton,
Yo‘llarda bor ko‘p zahmat, xatar, biyobon!

(Sulton guruhi jo‘nab ketadi. Sahnadan haram xotinlari o‘tadi. Jaloliddinning onasi ham o‘tar ekan, o‘z kanizlari bilan to‘xtab qoladi.)

Ona, so‘yla, kim haqli, otam yoki men?
Qarorimga ishonay, so‘yla, toki sen!

Sizningcha, ona kim tarafda: o‘g‘lining xatti-harakatini ma’qullaydimi yoxud shohning?

Ona *(tumor beradi)*
O‘g‘lim, javob – tumorni armug‘on qilish,
Otang bo‘lsam, berardim dudama qilich!
Tiz cho‘kmaysan do‘zaxdan kelsa fotih ham,
Oq sutimni oqlagin, senga fotiham!
(Ona o‘pib o‘tadi.)

Voqealar shiddatli tus olayotgan bir paytda Jaloliddinning onasi bilan uchrashuvi sahnasi qanchalik muhim?

Jaloliddin
Xorazmshoh “yo‘q” desa, “ha” der xotini,
Jaloliddin onasi derlar otini.
Bu dunyoda onasiz tug‘ilgan kim bor?
Jon berganga jon bermoq mardlarga darkor!
Onamizning onasi bo‘lsa shu Vatan –
Ko‘rlik afzal bu yurtni asir ko‘rmoqdan.

Xalq
Yoshulli Manguberdi!
Yoshulli Jaloliddin!
(Temur Malik va Elbars pahlavon bir-ikki mulozim bilan kirib keladilar.)

Jaloliddin
Xo‘jandning bahodiri shu Temur Malik,
Ey odamlar, sevinglar uni menchalik!
Agar chidamasaydi Xo‘jand mardona,
Allaqachon bo‘lurdi Urganch vayrona!
Biling, avval bu mening katta og‘amdir,
So‘ngra Temur sardorim, mashhur darg‘amdur.
(quchoqlashadilar)

darg‘a – yo‘lboshchi, yetakchi

Xalq
Temur Malik yoshulli!

Nasaviy
Quyushganday Jayhun ham Sayhun barobar,
Xorazm dengizida misli birodar,
Xorazm sarkardasi, Xo‘jand sardori
Birga bo‘lsa, qurimas elning madori.

Xalq
Jaloliddin yoshulli!
Temur Malik yoshulli!

Temur Malik
Ulug‘ sardor, amringni keltirdim bajo,
Hozir nedur amringki, menman muhayyo!
Yetmish ming yov bo‘g‘ildi, qochdi, tarqaldi!

Elbars
U orolda faqat bir ko‘r quyon qoldi.

Xalq
Temur Malik yoshulli!

Jaloliddin
(Elbarsni ko‘rib, kulib)
Ha, Elbars ota,
Kaptardan keltirmabsan deyman bu safar.

Elbars
Sizga uchib keldi-yu ming-minglab kaptar.

Kulgi.
(Xalqni ko‘rsatib)
Yuz ming kishi yuragi, shahzodam, yetar!

Temur Malik
(Elbarsni imlab)
Unuttirdi azobni nay chalib nuqul,
Bitta o‘zi o‘ldirdi yuz ellik mo‘g‘ul!

Elbars
Cho‘ponlarning qarisi mendirman balki!

Jaloliddin
Sher ming yil keksaysa ham bo‘lmaydi tulki!
Temur Malik, qo‘raylik qal’ani birga.
(mahramga)
Sipohiylar kirishsin aytgan tadbirga!

(Jaloliddin, Temur Malik, Elbarslar ketadi. Orqalaridan xalq va sipohlar har yoqqa tarqalishadi. Sultonbegim bir kanizagi bilan o‘ta turib to‘xtaydi. Yerdan bir hovuch tuproq olib o‘padi.)

Sultonbegim
Vatan, vatan, ajralmoq tuprog‘ingdan, oh,
Bu jazoga sazovor qildim ne gunoh?
Garchi edim Xorazmshoh qasriga bezak,
Baxtiyorman bu yerda qolsam kanizak.
Bedanaday talashar ko‘nglimda hislar,
Tosh otilgan bir ko‘lday qaynaydi eslar!
Erga sevgi, og‘amga mehr-u muhabbat,
Vatanga-chi? Unga ham ishqim zo‘r, albat!

Sevgi, ishq ham muhabbat...
Qanday ajib hol!
Amudaryo suvidek qorishdi xayol!
Aziz tuproq, oh, yana seni quchmoqlik,
Nasibammi chashmangdan suvlar ichmoqlik?
Mabodo shu bo‘lmasa, quriydi sho‘rim,
Hech bo‘lmasa qo‘yningda bo‘lsaydi go‘rim!

Sizningcha, bu o‘rinda Sultonbegim qanday yo‘l tutadi?

(Badriddin shoshilib keladi.)

Badriddin
Sultonbegim, bu ne hol?
Kutmoqlikka yo‘q majol!
Kechikdik-ku biz toza,
Bekilgusi darvoza!
(Uni qo‘ltiqlab elta boshlaydi.)

Sultonbegim
Yo‘q qolmoqqa madorim,
Xayr, yurtim, sardorim!
(Ketadilar. Jaloliddin, Temur Malik, Elbars, qisman sipohlar va xalq to‘plana boshlaydi.)

Mahram *(chopib kelib)*
Sultonbegim dargohdan chiqqan, shahzodam,
Amir Badri birla u ketganmish baqam!

Jaloliddin *(o‘zicha)*
Singlimga so‘ng bo‘sa ham bo‘lmadi nasib,
Kim o‘lar-u kim qolar, taqdir ko‘p ajib!

Temur Malik
Buyuringiz, shahzoda, borib shitoban
Darvozani bekitay, to‘xtasin karvon,
Qaytarayin shohni ham, sipohini ham,
Yo‘lni to‘ssam, o‘tolmas ular bir qadam!

Jaloliddin *(o‘ylanib)*
Yo‘q, ketsin saroy ahli, bizga ne darkor,
Lekin singlim qolsa-chi?.. Ha... ne foydasi bor?
Uzuk taqqan u nozik barmoqlarga, bil,
O‘q-kamonni tortmoqlik bag‘oyat mushkul!

(Xalqqa)
Bu yurt uchun o‘lmakka bo‘ling muhayyo,

Obizamzam deysizlar, shu Amudaryo –
Do‘zaxiylar labidan bo‘lgaymi murdor?!

Xalq
Yo‘q, biz jangga tayyormiz, ey ulug‘ sardor!

Jaloliddin
So‘l qanotning sardori Temur Malikdir,
Men sarkarda, zafarga garov – birlikdir!
(To‘ralarga)
To‘dalarni jam qiling, lashkarlar tuzing,
Qo‘shilmagan beklarni bostiring, buzing!

Nasaviy
Sulton qochdi, sizlarga sarvar, bahodir,
Buyuk Manguberdidur, Jaloliddindur!

Imom Shahobiddin
Istamam la’nat bilan meni qilsin yod,
Islom machitlarida ahli e’tiqod!
G‘azovotga qo‘zg‘oling, yo ayyuhannos,
G‘oziylarga sharofat, shahidga o‘roz!

o‘roz – kelajakka umid

(Minorlarda takbir sadolari. Yigitlar Nasaviy oldiga kelishadi. U ro‘yxatga ola boshlaydi. Qizlar, kelinlar Jaloliddin mahramiga qimmatbaho buyumlarini – halqa, uzuk, isirg‘alarini bermoqdalar.)

Bir kelin
Oling, to‘ram, kelinning oltin uzugi –
Emas uning yagona ziynat-bezagi!

Jaloliddin
Yettidan yetmishgacha qo‘zg‘al, el, o‘lka,
Hurriyatning ishqida boshlayin yo‘lga!

Xalq
Ulug‘ sardor, sen bo‘lgin bizga najotkor!

Jaloliddin
Qilichlar dami o‘tkir, sadaqa o‘t bor,
Qulasa ham bosh egmas bu shahri azim,
Erlar ular, qilmaydi Chingizga ta’zim!

Sizningcha, Jaloliddinning jasoratiga sabab omillar qaysilar?

Xalq
Yoshulli!

Parda tushar

Fojianing ikkinchi pardasidagi qaysi voqeadan ko‘proq ta’sirlandingiz? Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

Topshiriq

Ona tili darslarida egallagan bilimlaringiz asosida jadvalni to‘ldiring. Jadvalning o‘ng tomoniga asardan keltirilgan misralardagi ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan birliklarni izohlab yozing.

	Asardan olingan misralar	Ma’noni kuchaytiruvchi birliklar
1	Sen dono-yu, tentakmish yetti iqlim.	*Dono* va *tentak* antonim (ma’nosi bir-biriga zid) so‘zlar
2	Da’vomga yo‘q sizda davo...	
3	Nega taxtim atrofi nifoq-u nizo?..	
4	Xorazmshoh “yo‘q” desa, “ha” der xotini…	
5	Sevgi, ishq ham muhabbat... Qanday ajib hol!	

BESHINCHI PARDA

BIRINCHI KO‘RINISH

Jaloliddin qarorgohi. Chodirlar... Urushdan qaytgan qurolli sarbozlar ikki qator saf tortib turadi. Zafar marshi chalinadi. Ko‘tarinki musiqa ohangi ostida “Jaloliddin”, “Jaloliddin!” degan tabrik nidolari eshitiladi. Jaloliddin, uning orqasidan Sultonbegim, amirlar va sardorlar kirib keladi.

Sizningcha, beshinchi parda ko‘tarinki musiqa ostida ochilishi nimaga xizmat qiladi?

Jaloliddin
Rahmat sizga, sipohlar, rahmat, amirlar,
Dam oling, amrim kuting, azamat erlar.
(Askarlar tarqalib ketadi.)

Nasaviy
Sultonbegim ko‘rsatdi ulug‘ jasorat,
Dushmanlarga yetkazdi zarar, malomat.

Sultonbegim
Qarasam, bir chekkada bir dushman – a'yon,
Bir tanholik izlardi bamisli no'yon.
To'g'ri otni soldirib ayladim asir!

Jaloliddin *(sho'x)*
Sen menga sardor eding, endi bir vazir!
(Nasaviyga)
U asirni bu yoqqa olib keltirgil!
(Nasaviy chiqadi.)
Qani bo'lsa sendayin yana yuz singil.

Sultonbegim
Hammasi ham vazirmi?

Jaloliddin
Yo'q, bu ko'p mushkul.
Har sohibi mansabga fuqaro kerak.

Sultonbegim
Xo'sh, bittasin chin sevib qolsa-chi yurak?

Jaloliddin
Nahotki sevmak gunoh? Men kimdan yomon?
Yaxshi sevsa, yaxshiroq urishar o'g'lon.

Jaloliddinning *"Nahotki sevmak gunoh? Men kimdan yomon? Yaxshi sevsa, yaxshiroq urishar o'g'lon"* kabi fikrlari mazmunini izohlang.

Lekin Sultonbegimday bo'lsin, vassalom,
Husni, fe'li sen bilan barobar tamom!

(*Sultonbegimning qalpog'ini ko'taradi. Qalin kokillari yelkaga tushadi. Jaloliddin kokillarni qo'liga olib*)
Yana bir shart, kokili kokiling monand,
Mening sarkash ko'nglimga bo'lolsin kamand.
(Asirni keltiradilar. U soyada. Yuzi ko'rinmaydi.)

Sultonbegim
Seni asir aylagan menman – bir ayol.
Sen kim?
(Asir jim.)

Jaloliddin
Sen kim?
(Asir jim.)

Sultonbegim
Bayon ayla, sen kimsan, mo‘g‘ul no‘yoni?
Bergay toki jazzangni hukmi Rabboniy!

Nasaviy
Bu sukut alomati rizodir, sardor,
Ayting, jazosi qanday jazodir, sardor?!

Jaloliddin
Qonli yovning jazosi – itlar o‘limi!

Asir tiz cho‘kadi. Yorug‘da yuzi ko‘rinadi. Bu – Badriddin.
Uning bir qo‘lida sug‘urilgan qilich, ikkinchi qo‘lida kafan.

Badriddin
Hech qasdim yo‘q, shu qilich – yodgoringiz,
Shu – kafanim. O‘ldiring, ixtiyoringiz!
Asir bo‘lib tushuvdim mo‘g‘ulga nogoh,
Chunki yarador edim xoh-u noxoh.

Sultonbegim
Yo‘q, gapingiz yolg‘ondur, to‘g‘risin ayting,
Men bilaman, siz emas amir Badriddin!

Badriddin
Boqing, menman, unutmoq shuncha tez, evoh!

Sultonbegim
Siz Badriddin emassiz, siz Badriddinshoh!
(Amir Badriddinda o‘zgarish)
Muhringizda shunday-ku! Siz Badriddinshoh!

Nasaviy
Xiyonat deb atalar siz qilgan gunoh!

Badriddin
(Sultonbegimga)
Eslagin sevgimizni, visol chog‘larin,
Samarqandning oydinli, gulzor bog‘larin!

Sultonbegim
Qani va’dang, vafodor bo‘lgayman devding,
Ma’shuqaning qalbimi najot umiding?

Badriddin
Oliyhimmat deydilar sevgi dargohin,
U yerda afv etarlar oshiq gunohin!

Jaloliddin
(Badriddinga)
Vatan, sevgi, sadoqat nazaringda hech,
O‘ylaganing toj bo‘ldi sening erta-kech!
Sotding Temur Malikni, ishlatding nayrang,
So‘yla, nedur xoinning jazosi, so‘yla!
(Badriddin andishada. Hudaychilar kiradi.)

Hudaychi
Xorazmshoh shu onda
Qal’ayi “Sar jahon”da
Yashirincha omonda.
Kuyovning ahvolidan –
Xabar olgach u shu dam –
Tartib bo‘ldi shu farmon:
Amirga amn-u omon.
Bo‘shatilsin tez kuyov,
Qal’aga borsin darrov!

(Farmonni Jaloliddinga beradi. Badriddin xursand. U hudaychiga bir xaltacha oltin tashlaydi.)

Sizningcha, Jaloliddin qanday yo‘l tutadi? Farmonni ijro etadimi yoki...?

Badriddin
Ahsan Ollo, oliyhimmat shohimizga ofarin!
Soqchilar uni uzr bilan bo‘shatmoqchi bo‘ladilar. Jaloliddin birdan qat’iy qaror bilan:

Jaloliddin
Modomiki shoh jangdan qochar ovora,
Farmoni ham soqitdir, bu bir xatpora.
(Farmonni yirtib tashlaydi.)

Badriddin
Shahanshohning amriga bu isyonkorlik,
Bu islomda fitnadur, oqpadarlik!

Nasaviy
Shomoniylar butiga cho‘qingan “islom!”

Jaloliddin
Chirik farmon yirtilar, yirtdim, vassalom!
(Hudaychiga)
Shunday najotkor ekan hazrati sulton,
Nega qilar xoinga najotni ehson?

Asoratda yurarkan haramxonasi,
Unga kimdur o‘lkaning bir begonasi?!
Yo‘qdur mendan boshqa hech sohibi farmon.
Ogoh bo‘lgay azmimdan darbadar sulton!
(Hudaychilar ketadi.)

Nasaviy
Na kun ko‘rgan, na kecha shunday dahshatni,
Qurt yer ekan ichidan keksa daraxtni!
Afsus, buyuk bir davlat bo‘lsa-da Xorazm,
Taxtnishinlar bo‘ldilar beg‘ayrat, beazm.

Jaloliddin
Buyur, singlim, hukmingni, buyur shu mahal –
Ijro qilay hukmingni men ham behayal!

Sultonbegim
U ishqidan aynidi, aynidim undan,
Uning yuzin unutdim men o‘sha kundan!
Shu qalbaki sevgi-chun toptaldi ko‘nglim,
Shu xorlangan sevgim der: xabisga o‘lim!
(Chodirdan chiqadi.)

xabis – nopok, iflos

Jaloliddin
Ammo ablah tulkining yana aybi bor:
Yurtfurushlik uchun u o‘lsin ikki bor –
Ikki marta o‘ldirgin buni, jallod, tez,
Avval o‘q-la mixlagin, so‘ngra boshin kes!

Jaloliddin va Sultonbegim munosabatlaridan qanday xulosaga keldingiz?

Badriddin
Musulmonlar, qo‘ymanglar, men shohga domod!

domod – kuyov

Nasaviy
Domodlikning ipini uzding sen badzod!

badzod – yomon naslli, zoti past, tagi past

Jaloliddin
Kallasini aylantir, ko‘rsin el-diyor,
Bilsinlarki, xoinga shu oqibat bor!

Badriddin
Tavba qildim, valiahd, umrimni ayang,
Bu bir xato, jaholat, ma’zurman diltang.
(Jallodlar Badriddinni olib chiqadi.)

Jaloliddin
Qo‘rqoq o‘lar har lahza, mard faqat bir gal,
Soya yanglig‘ yuradi biz bilan ajal.
Undan qochsang quvadi, quvsang qochadi,
Yalinmoq-chi, ajabo, bormi hojati?

Nasaviy
Koshki hech tug‘ilmasa xoinlar deyman!

Jaloliddin
Tug‘ilsa ham baribir qirib haydayman!
Ko‘rganmisan, Nasaviy, Amudaryoda
Ba’zan sohil bo‘yida yotgan bir xoda
Tegishadi suvlarning sarkash labiga,
Shunda o‘sha xodani sekin-ohista
Qimirlatib sudraydi suvlar ko‘p usta.
Tepib-tepib tashlagach suvning bag‘riga,
Polvondaryo ortadi uni sag‘riga –
Bo‘g‘ib, ezib girdobda o‘ynatar toshlar,
Xorazm dengiziga muttasil boshlar!
Men ham Amudaryoman, o‘jar, qasoskor,
Yo‘llarimda har to‘g‘on bo‘lur tor-mor.
Farmonim shu: dam olsin biroz lashkarlar.
Yangi hujum amrida kutsin xabarlar!

Jaloliddin chodirga, Nasaviy boshqa tomonga chiqib ketadi. Amir Ag‘roq bir guruh qipchoq sarbozlari bilan kirib keladi.

Ag‘roq
Ammo yomon bo‘lmadi, yigitlar, o‘lja!

1-sipoh *(o‘zicha)*
Birovga xazina, birovga qulcha!

2-sipoh
Menga bopta o‘lja-chi, yovning qochishi!

Ag‘roq *(sahna orqasini imlab)*
O‘sha tulpor otni-chi, shohona bedov!

(*Sahna orqasida shovqin. Amir Muzaffarning ovozi*.)

Muzaffar *(sahna orqasidan)*
Xo... xo... qonni to‘kkan biz, mazaxo‘r qipchoq,
Yayov chopgan bizlar-u, ot minsin olchoq!
(O‘z sarbozlari bilan kirib keladi.)
Amir Sayfiddin Ag‘roq, haqorat yetar,
Qizimga tajovuzdan bu ishing battar.
Pisib bording orqamdan, bizlar qon to‘kdik,
Menga tegish tulporni minmaklik nechuk?

Ag‘roq
Badbaxt g‘urlar, haromxo‘r, amir maqtanchoq,
Biz shahanshoh tag‘osi, aslimiz qipchoq!
Muzaffar
Vahshiy qipchoq, dashti Gul!
Ag‘roq
Jim, haromzoda!
(Qamchi bilan savaydi.)
Tilingni qis, o‘g‘ri g‘ur!
Muzaffar
(keta turib)
Ha, shundaymi, g‘ur bo‘lak, qipchoq ham boshqa,
Tag‘oyilar bir o‘zi qolsin savashga.
Yuring, g‘urlar, kerakmas bizga shon-shuhrat!
(ketadilar)
2-sipoh *(keta turib)*
Tag‘oyilar bir o‘zi ko‘rsatsin g‘ayrat!
Ag‘roq
Bizga tuhmat, adovat, ularga davlat,
Yuring Dashti Qipchoqqa, unda bor omad.
(Qipchoqlar ham ketadilar.)

Amirlar o‘rtasidagi ichki nizolarning asosiy sababi nimada?

Jaloliddin
(chodirdan chiqib kelib)
Yana mening uyqumga iblis qildi rashk,
Go‘yo janjal... Balki bu sipoh qilgan mashq!
Haftalar mobaynida mizg‘idim biroz,
Tushlar ko‘rdim qayg‘uli, g‘amgin jongudoz.
O‘lim mangu uyqudir, deydi shoirlar,
Achchiq xato: o‘lmasdan buni kim bilar?
Tush olami bir bog‘dur, xayollar, tushlar,
Ammo afsus g‘orlarga kirmaydi tushlar!
Ko‘rdim chaman... Urganchda... Amudaryoda –
Arg‘uvoniy kosada xushbo‘y bir boda,
Menga tutib qadim do‘st der edi kulib:
Ko‘p sog‘indim, shahzoda, sendan ayrilib!
Yana bir bor ichaylik, suvdan kechaylik...
Mayni ichdim, tanidim. U – Temur Malik!
Yig‘lamas deb o‘ylaydi meni odamlar,
Ammo chaqmoqtoshga ham qo‘nar shabnamlar.
Yashirib men olamdan ko‘z yoshlarimni,
Kechalari eslayman yo‘ldoshlarimni!

Nasaviy *(kirib)*
Tong yorisha boshladi, hazrati sardor!

Jaloliddin *(kulib)*
Tarixchiga shart erur bo‘lmoqlik bedor,
O‘tib qolsa basavlat biron hangoma –
Ko‘rmay qolsang, banuqson bo‘ladi noma.
Menga ayt-chi, urishdik, shuncha jang qildik,
Goho yovni yiqitdik, goho yiqildik,
Qal’alarni fath etdik, lashkarni ezdik,
Bodi sar-sar singari ellarda kezdik,
Kallamizni kesdilar, kallalar kesdik,
Sahrolarda yugurdik, daryoda suzdik,
Bosdik, yengdik, yengildik va yana yengdik,
Qilich o‘pib, o‘q uzib, ayg‘irlar mindik.
Shuni yutib ketmasmi bevafo zamon,
Jayhun – soyga tashlangan bir kesaksimon?
Xo‘sh, yozganing ne bo‘lur, kimlarga yetar?

Nasaviy *(daftarni ko‘rsatib)*
Ko‘p yulduzlar o‘chadi, o‘chmas bu daftar!..
O‘qir aziz avlodlar yuz-yuz yillar-da!

Jaloliddin
O‘qiydimi?

Nasaviy
Albatta!

Jaloliddin
O‘qiydimi?

Nasaviy
Ha!..

Jaloliddin
Bo‘lmasa yoz: shiddatli olti jang bo‘ldi,
Chingiz qochdi Jaloldan, holi tang bo‘ldi.
Bugungi tarixni yoz yettinchi jang deb,
Kimga qilar Xudovand zafarni nasib?
(Turib aylanadi. Ufqqa qaraydi. Ufqda sahar quyoshi.)
Shunday tuzoq qurganman Chingizga, bilsang,
Nogahoniy hamlamdan bo‘lur hang-mang.
Chaqir, kelsin amirlar.
(Nasaviy ketadi.)
Qurshab olay bu yerda uch yoqdan tamom,
To olamdan bu maraz bitkay vassalom.
(Nasaviy, Elbars va bir necha amirlar keladi).
Qani boshqa amirlar, qani Muzaffar?

Nasaviy
Xafalashib ketibdi g‘urlar barobar.

Jaloliddin
Qani Balxiy qo‘shini, qayerda A’zam?

Nasaviy
Chiqisholmay ketmishlar bundan ular ham.

Jaloliddin
Qani, qipchoq amiri Sayfiddin Ag‘roq?

Nasaviy
U ham ketdi va ketgan lashkari qipchoq!
Nizo chiqqan o‘rtada o‘lja tufayli!

Jaloliddin
Amirlarning o‘ljaga ko‘p nafsi, mayli,
Urug‘lar o‘rtasida chiqqani nizo –
Zafarning marrasida dahshatli qazo!

Mulozim
(Yugurib kiradi.)
Sardor, bo‘ling xabardor!
Tog‘ yo‘lidan mo‘g‘ullar kelmoqda, sardor.

Jaloliddin
Saflab qolgan lashkarni, tuzinglar to‘g‘on!
Dovonni egallab tur, Elbars pahlavon,
Orqamiz Jayhun soyi va g‘urbat ellar,
Mahkam turing, bo‘lgayman o‘zim sarlashkar!
(Hamma ketadi, Jaloliddin yolg‘iz. Sultonbegim keladi.)

Muhokama qilamiz

1. Sultonbegimning “Siz Badriddin emassiz, siz Badriddinshoh!” degan kinoyasida qanday ma’no bor?
2. “Qurt yer ekan ichidan keksa daraxtni!” deya Nasaviy tilidan aytilgan hikmatning ma’nosini sharhlang.
3. Asarda tulki, bo‘ri, sher kabi majozlar qanday mazmun kasb etgan? Fikrlaringizni asardan olingan misollar bilan izohlang.
4. Ikkinchi pardani o‘qish jarayonida to‘ldirilgan farazlar jadvalini ko‘zdan kechiring. Qaysi farazlaringiz asardagi voqealar bilan mos kelmadi? Javoblaringizni asoslang.

Topshiriq

Asarning qolgan qismini uyda o‘qib keling.

Sultonbegim
Og‘a, sizdan sevinchi, aziz, mehribon –
Onam keldi qal’adan eson va omon!

Jaloliddin
Har chog‘ xursand bo‘lay desang, singiljon,
Bir musibat yuz berar bizga nogahon.
Qochib ketdi amirlar, kelmoqda mo‘g‘ul,
Onasini shu holda kutarmi o‘g‘il?
(Ona keladi. Mahram ashyolarni chodirga kiritadi.)

Ona
Seni ko‘rmak oxiri bo‘ldi muyassar,
O‘g‘ilginam, endi men o‘lsam, yo‘q kadar!

Jaloliddin *(quchoqlab)*
Kulfatli bir lahzada tashrif buyurding,
Yolg‘iz qolmish maydonda, bil, Jaloliddin.
(o‘zicha)
Onamni qutqazaymi daryodan o‘tib,
Yoxud yana urishay saflarni tutib?!
Yaxshi o‘g‘il yaxshimi yo yaxshi sardor?
Yaxshi o‘g‘il maydonda turgay ustuvor!
(onasiga)
Ana, qara, ya’jujday bo‘lishib g‘ujum –
Bir to‘daga mo‘g‘ullar qilmoqda hujum.
Ona, fotiha ber!
Bo‘lsin pokiza duong jangda madadkor.

Ona
Xudo yor bo‘lsin.

Jaloliddin *(singlisiga)*
Posbon bo‘l onamga, jangga tayyor bo‘l!
(Onasini o‘pib, ketadi.)
Hujum, qo‘shin, qon-qasos uchun!
Qilichni sug‘ur, g‘animni ur!
(Sultonbegim va ona tepalikdan ufqqa qaraydilar).

Sultonbegim
Qara, og‘am otini jangga suradi!

Ona
Ko‘zim yaxshi ko‘rmaydi, dilim ko‘radi!

Sultonbegim
Qara, og‘am sher kabi zarba uradi!

Ona
Ko‘zim yaxshi ko‘rmaydi, dilim ko‘radi!

Sultonbegim
Boq, o‘ng yoqda mo‘g‘ullar qochar parishon.

Ona
Voy, onasi yig‘lasin, qirgin beomon!

Sultonbegim
Oh, falokat, so‘l yoqdan qochib afg‘onlar,
Dushman yoqqa o‘tdilar, tez beray xabar!
(ketadi)

Ona
Endi qilay sizni deb qiblaga duo!
Shoyad ijobat bo‘lgay niyoz – muddao.
(Daryo labiga borib qo‘llarini osmonga ko‘taradi.)
Ikki lochin yetkazib bo‘ldim nomdor:
Bitta qiz-u bir o‘g‘il – ikkovi sardor.
Bitta siyna shunchalik parvarish qilur,
Bitta ona ko‘p qilsa, shuncha ish qilur.
(Chodirga kirib ketadi. Sultonbegim qaytadi.)

Sultonbegim
Dushman ko‘pdir bag‘oyat, musulmonlar oz,
Ming kalxatga ne qilur bitta shunqorboz?
(Ketmoqchi bo‘lur.)
Og‘am bilan o‘lganim qo‘lma-qo‘l yaxshi!..
(o‘ylab)
Lekin onam, onam-chi... men unga soqchi!

Ona
(Kirib keladi.)
Buni bergin og‘angga, aytgin, bu ma’jun.
(Bir shisha beradi.)
Bilmasin, tomirimdan olingan sof xun!
U ochlikka yo‘liqsa safarda agar,
Buning bitta yutumi unga jonparvar.
Endi sizlar boringiz g‘urbat ellarga,
Tutqun vatan dardini chertib dillarga.
Qaytib kelgach, go‘rlarga soling bir nazar,
Balki, unda sunbul-u rayhonlar o‘sar.
Mo‘g‘ullarga bir oqsoch bo‘lishdan ko‘ra
Baliqlarga yem bo‘lsam – afzal ming karra.
Dunyoga oldin kelgan oldin ham ketar,
Yashashim yetar!

xun – qon

Onaning qarorini qanday baholaysiz?

O‘zini suvga tashlaydi. Sultonbegim yugurib sohilga yiqiladi.

Sultonbegim

Ona, ona, oh, dahshat... To‘xtang, to‘lqinlar!
To‘xta, daryo, hech onang yo‘qmidir magar?

Jaloliddin

(Bir necha mahram bilan qaytib keladi. Ko‘zi Sultonbegimga tushadi.)
Sultonbegim, ne bo‘ldi, onamiz qani?

Sultonbegim

(daryoni ko‘rsatib)
U bir murda, na go‘r bor va na kafani!

Jaloliddin

(Tiz cho‘kib, boshini ushlaydi.)
Vatan deya kurashdim, onadan kechdim,
Unisidan sut ichdim, bu deb qon ichdim.
Mudhish tole bermishdir Jalolga Olloh,
Na ona bor, na yurt bor, na lashkar, evoh!

(*Uzoqdan jang sadolari. Jalol turib, yuragini ushlaydi*.)

Ko‘tara olarmikin shu dardni yurak?
Yo‘q. Qasosni olay deb yashamoq kerak!
Sarboz, qara, daryoda bormi qayiqlar?
(Mulozim chiqadi).

Sultonbegim

(Shishani beradi.)
Bir ma’jun, bergan edi onam – yodgor,
Dedi qachon qilsangiz g‘urbat ixtiyor,
Och qolsa Jaloliddin, ichsin ma’jundan,
Toqatsizlik va ochlik daf bo‘lur undan.

Jaloliddin

(Shishani o‘padi.)
Balki, yurak qonidir yoki bir eksir,
Bir eksirki, bag‘ishlar abadiy umr.
Aziz ona, qaydasan, o‘lsang ham tingla,
Qayerda men tiz cho‘kay qabringga, so‘yla?!
Bildim sening qabringdir butun shu Vatan,
Daryo sening tobuting, ko‘piklar kafan.
Sohillar, izzat ila ko‘taring yelka,
Jayhun to‘g‘ri eltadi tobutni elga!
Quyosh o‘zi guvohki azaldan beri,
Amudaryo oqqanmas aslo teskari!

Nasaviy
(Yarador bo‘lib keladi.)
Beshta og‘ir yaram bor, yaram o‘ldirar,
Jangdan chiqdim, yo‘qolib qolmasin daftar!
(Daftarni chiqarib yoza boshlaydi.)

Jaloliddin
Bir musht kabi yumilmay qoldi saltanat,
Qabila-yu urug‘ga tushdi adovat!

Nasaviy *(behol)*
Nafas bitar, Azroil, yo‘qol, badburush!
(sardorga)
Nima bilan tugadi yettinchi urush?
Nima yozay, sardorim... uchar nafas, xush!
(U behol yerga yotadi.)

Jaloliddin
Yozgin, hali bitganmas yettinchi urush!

Nasaviy
(Ko‘krak yarasidagi qon bilan yozadi.)
Siyna qonidan yozay so‘ng fojiani!
(Yiqilib o‘ladi. Daftar qo‘lidan tushadi.)

Jaloliddin
(Uning sovuq qo‘lini o‘pib)
Shunday umring tugadi, buyuk tarixchi,
Ulug‘ jangga vasiqa shu qo‘lning ishi.

Sultonbegim
Ko‘msak vatan yerida biz uni darrov,
Qaytib kelishimizga bu turfa garov!

O‘likni olib chiqadilar. Elbars pahlavon ust-boshlari qon, qo‘lidagi qilichi ham qondan qip-qizil bo‘lgani holda kelib, holsizlanib o‘tiradi va qilichini tashlab:

Elbars
Qirmoq bilan tugamas bu ya’juj – dushman,
Tirik qolib ne qilay, jangda o‘lgayman.

Jaloliddin
(Nasaviy tashlagan daftarni olib)
Yo‘q, sen yasha, bu yerda qol mardonavor!
Biz aylaymiz yig‘labon g‘urbat ixtiyor!
(Quchoqlashib xayrlashadi.)

Elbars
Qaytib kelgin, el butun bo‘lmagay murda,

Kuyimga qiyom qilur o‘liklar go‘rda!
(ketadi)

Mulozim *(kirib)*
Hech qayoqda ko‘rinmas qayiqlar, sardor!


Jaloliddin
Darhol, darhol egarlang chopag‘on tulpor!

Mulozim
Egarlardan uzilgan jangda ayillar,
Daryoning suvi toshqin, quturmish sellar!

Sultonbegim
(Birdan xanjarini chiqarib, o‘z kokillarini kesadi.)
Arqonga ham yaraydi shu qalin kokil,
O‘n besh otga chiqadi bemalol ayil!
(Kokilini beradi.)

Jaloliddin
Fido etding husningni, bahodir singlim!

Sultonbegim
(Qalpog‘ini kiyib)
Kokil yana o‘sgusi, bo‘lmasin o‘lim!
(Jaloliddin bir qo‘lida kitobni ko‘tarib, boshqa qo‘li bilan Sultonbegimni qo‘ltiqlagan holda)
G‘urbatlarga yo‘l olmoq uchun musibat,
G‘urbatda ham armondir Vatanga xizmat!
Hali ado bo‘lmapti ulug‘ hangoma,
Nasaviy bitirmasdan qoldi jangnoma.
Bir bo‘lsaydi saltanat, el-urug‘lar bir,
Dahshat sochib bo‘lardik jangda olamgir.
Mangulikdan joy olgan yashar abadiy,
Men-ku, Manguberdiman, olam biladi.
Ko‘klardanmi, suvdanmi yo yer tagidan,
Balki, sahro bag‘ridan, tog‘ etagidan
Bir kun paydo bo‘laman shu yurt, shu yerda,
Yurt shaydosi ko‘milmas g‘urbatda – go‘rda.
Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal,
Kim yurtdan yovni quvsa – mendirman o‘shal.
(Mahram kiradi.)



Mahram
Otlar tayyor, fursat oz, tez bo‘ling, sardor.

Uzoqdan Elbarsning nayi eshitiladi. Jaloliddin singlisining qo‘lini ushlab:

Jaloliddin
Eshit, xalq ham u kuyday mangu poydor!
Bilasanmi, biz qaytar kunda u maqom
Yo‘limizni belgilar! U kunga salom!

Nayning uzoqdan chalinayotgan sadosi va mo‘g‘ullarning kuchayib turgan nidosi asnosida ikkalasi jarga tushib ketadi.

Parda
Tamom.

Muhokama qilamiz

1. Quyidagi jadvalga “Jaloliddin Manguberdi” dramasi mavzusi, g‘oyasini aniqlab, yozing va fikrlaringizni matn asosida dalillang.

Mavzusi	G‘oyasi	Matndan misol

2. Asardagi voqealarni tarixiy faktlar bilan qiyoslang. Bunda tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayaning.
3. Tasavvur qiling, sizga asardagi obrazlardan birini ijro etish imkoniyati berildi. Siz qaysi siymoni jonlantirgan bo‘lar edingiz? Tanlovingiz sababini ochiqlang.
4. Inson erkka muhtoj bo‘lib tug‘iladi deb hisoblaysizmi? Nima uchun? Fikrlaringizni drama matni va adib hayoti bilan bog‘lab izohlashga harakat qiling.

Ijodiy ish

“Jaloliddin Manguberdi – mardlik va jasorat timsoli” mavzusida insho yozing.

Nazariy ma’lumot

DRAMATIK TUR


Badiiy asarlar epik, lirik, dramatik turlarga bo‘linadi. Sahnada ijro etish uchun yoziladigan asarlar dramatik asarlar sanaladi. Bunday asarlar teatr sahnalarida aktyor va aktrisalar tomonidan ijro etiladi. Muallif dramada obrazlarning xatti-harakatlariga bevosita o‘z munosabatini bildira olmaydi.

Jadvaldagi tushunchalar dramatik asarlarga xos bo‘lib, quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

Monolog	Asarda ishtirok etuvchi shaxslarning o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga qaratilgan nutqi
Dialog	Ikki shaxsning bir-biriga qaratilgan nutqi
Parda	Dramatik asarlarda tanaffuslar bilan ko‘rsatiladigan qismlar
Ko‘rinish	Pardaning maxsus dekoratsiya talab etuvchi bir qismi
Remarka	Asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, xulqi, xatti-harakati, intonatsiyasi, sahna manzarasiga muallif beradigan izohlar
Dekoratsiya	Teatr sahnasini spektakl mazmuniga moslab bezash



“Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasidan lavha, O‘zbek milliy akademik drama teatri



USMON NOSIR (1912–1944)

Dars davomida:

- Usmon Nosir she’rlariga xos xususiyatlarni o‘rganamiz;
- lirik tur va sonet haqida bilib olamiz.

O‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri, shoir, dramaturg va tarjimon Usmon Nosir 1912-yili Namanganning Chuqurko‘cha dahasida dunyoga keldi. Usmon Nosir dastlab maxsus internatda, so‘ng Moskva Kinematografiya institutining ssenariy fakultetida, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand pedagogika akademiyasi (hozirgi Samarqand davlat universiteti)ning til va adabiyot fakultetida tahsil oldi. O‘qish bilan birga Qo‘qondagi qisqa muddatli ta’lim va tarbiya kurslarida o‘qituvchi, ilmiy bo‘lim mudiri va shahar teatrida adabiy xodim bo‘lib ishladi. Shoirning ilk she’ri “Haqiqat qalami” bo‘lib, “Yangi yo‘l” gazetasida bosilgan. So‘ng uning “Norbo‘ta”, “Naxshon”, “Nil va Rim” dostonlari, “Quyosh bilan suhbat”, “Safarbar satrlar”, “Traktorobod”, “Yurak”, “Mehrim” nomli she’riy kitoblari nashr etildi. A. S. Pushkinning “Bog‘chasaroy fontani”, M. Lermontovning “Demon” asarlarini o‘zbek tiliga o‘girgan.

Usmon Nosir 1937-yili “muntazam ravishda millatchilik va aksilinqilobiy tashviqot olib borish”da ayblanib, “Xalq dushmani” tamg‘asi bilan Sibirga surgun qilindi va 1944-yili o‘sha yerda 32 yoshida vafot etdi.



Rossiyaning Kemerovo viloyati Mariinsk shahridagi Usmon Nosir haykali

MUTOLAADAN OLDIN

Usmon Nosir shunday to‘polon va to‘lqin bilan keldiki, uncha-muncha she’riy uslub va ijodni to‘s-to‘s qilib yubordi. U haqida o‘zimizda “O‘zbekning Lermontovi”, Moskva gazetalarida “Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi”, deb yozishdi.

Turob To‘la, shoir

Usmon Nosir she’rlarida jimjimadorlik, g‘alizlik, zo‘rma-zo‘rakilik ko‘rinmaydi, fikr-tuyg‘ular sodda, lekin lirik harorat, jozibadorlik, original tashbehlar bilan bayon qilingan.

She’rlarni o‘qish davomida bunga amin bo‘lasiz, albatta. Ayrim she’rlarning yozilish tarixiga ham e’tibor qiling. Chunki she’r uchun asos bo‘lgan vaziyat muhim hisoblanadi va she’rning badiiyatini yanada oshiradi.

O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, Turob To‘la shoir ijodidagi qanday “to‘polon” va “to‘lqinlar” haqida gapirmoqda? Shoir she’rlarini o‘qishdan oldingi va keyingi fikrlaringizni qiyoslang. Nimalar o‘zgardi?

YOSHLIK

Kunlarimni yoshligimdan ayamadim,
Menda yoshlik nokaslikni hech ko‘rmadi.
Qiz sevganda ho‘ngir-ho‘ngir qon yig‘ladim,
Go‘yo qalbim amri – azmimni bir so‘rmadi.

Yoshligimning tarozusi beposangi,
Bir pallasi bahor toshi bilan og‘ir:
Sevinchim ko‘p... shodligim zo‘r... tilim biyron,
Qaysi umr shunday yoshlik ko‘rdi axir?

Yuragimga achchiq-achchiq botar edi
Bog‘ ko‘chada sharsharakning mungli kuyi...
Hayron bo‘lib bolalikda o‘ynar edim,
Qaydadir deb bu oftobning yotar uyi?



Bolaligim gul bog‘larni ko‘rolmagan,
G‘arib bo‘lib, mungsib yurgan ko‘chalarda.
Yulduz sanab yildan uzun kechalarda,
Hisobiga sira, azal yetolmagan.

Ayamadim yoshligimdan kunlarimni,
Nokaslikni ravo ko‘rmay, sevintirdim,
Chunki unga yuragimda o‘lib qolgan
Bolaligim erkaligin tiriltirdim.

Yoshligimning sarguzashti benihoyat,
Bisoti ham tasodifga to‘lib bitgan...
Keyin bilsam, tasodiflar zarur ekan,
Hodisani yetaklarkan sababiyat.

1934-yil, Toshkent

Muhokama qilamiz

1. She’rdan nimalarni uqdingiz?
2. “*Kunlarimni yoshligimdan ayamadim, Menda yoshlik nokaslikni hech ko‘rmadi*”, deganda shoir nimani nazarda tutmoqda?
3. “*Bolaligim gul bog‘larni ko‘rolmagan, G‘arib bo‘lib, mungsib yurgan ko‘chalarda*” satrlarini shoir hayoti asosida izohlashga harakat qiling.
4. She’rning oxirgi bandidagi *“Keyin bilsam, tasodiflar zarur ekan, Hodisani yetaklarkan sababiyat”* jumlalariga e’tibor qiling. Nima uchun shoir inson hayotida tasodiflar zarur ekanini qayd etmoqda? Qanday qilib hodisani sabablar yetaklashi mumkin? Fikrlaringizni shaxsiy tajribalaringiz va kuzatishlaringiz asosida dalillashga harakat qiling.
5. Odatda yoshlikni bahorga qiyoslashadi. Siz Usmon Nosir yoshligini qaysi faslga o‘xshatgan bo‘lardingiz? Nima uchun?

Topshiriq

“Yoshlik” she’ridan badiiy tasvir vositalarini toping va quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Badiiy tasvir vositasi	She’rdan misol	Izoh
Jonlantirish	Qiz sevganda ho‘ngir-ho‘ngir qon yig‘ladim, Go‘yo **qalbim** amri – azmimni bir so‘rmadi.	Bu to‘rtlikda lirik qahramonning kuchli sevgi iztirobi aks ettirilgan. U o‘z his-tuyg‘ulariga to‘liq berilib, uni ichdan ezayotgan dardni “qon yig‘ladim” degan kuchli ifoda orqali tasvirlaydi.

YANA SHE’RIMGA

(sonet)

She’rim! Yana o‘zing yaxshisan.
Bog‘ga kirsang, gullar sharmanda,
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan manda.

Yuragimning dardi – naqshisan,
Qilolmayman seni hech kanda!
O‘t bo‘lurmi ishqi yo‘q tanda?
Dardimsanki, she’rim, yaxshisan.

Sen orada ko‘prik bo‘lding-da,
Heyne bilan o‘rtoq tutindim,
Lermontovdan ko‘mak o‘tindim.

Butun umrim sening bo‘yningda.
Saharda qon tupursam, mayli,
Men Majnunman, she’rim, sen Layli!

1935-yil



Heyne – nemis shoiri
Lermontov – rus shoiri

Muhokama qilamiz

1. She’rda nima uchun shoir “yana” so‘ziga urg‘u beryapti?
2. Shoir she’ri va bog‘dagi gullar o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin?
3. She’r qay jihatdan shoir uchun “yurak naqshi”, “hayot shaxsi”, “u uchun yaxshi” bo‘lishi mumkin? Fikrlaringizni matn va hayotiy kuzatishlaringiz asosida dalillang.
4. She’r millatlararo ko‘prik bo‘lishi mumkinligini qanday izohlaysiz?
5. Nima uchun shoir o‘zini Majnunga, she’rini Layliga o‘xshatyapti?
6. Sizningcha, she’rni yana qanday nomlar bilan atash mumkin? Fikringizni dalillang.

YO‘LCHI

Yo‘lchiman, manzilim dengizdan nari,
Lojuvard ufqning tubiga yaqin.
Ko‘nglimda dardlarim daryodek oqin,
Chayqalar ko‘zlarim tikilgan sari.
O, yo‘llar!..

Chu, qora toychog‘im!
Chu, qora yo‘rg‘am!
Murodga qasd qilib yugurgan yetur.
Bo‘ronni sevmasa, dil nechun tepur?
Tiriklik ne kerak bemehnat, beg‘am?!
Chu, qora yo‘rg‘am!

1935-yil

Muhokama qilamiz

1. She’rda lirik qahramon nega o‘zini manzili aniq bo‘lmagan yo‘lovchiday his etmoqda?
2. Shoir nega g‘amni ham tiriklik uchun muhim belgi deya ta’riflamoqda?
3. *Dengiz, daryo, toychoq, yo‘rg‘a, bo‘ron* so‘zlari shoirning qanday badiiy-g‘oyaviy maqsadini ifodalamoqda?
4. *“Bo‘ronni sevmasa, dil nechun tepur?”* misrasi zamirida qanday ma’no yashiringan?
5. Sizningcha, she’rga yana qanday sarlavhalar qo‘yish mumkin?

Topshiriq

Usmon Nosirning “Yana she’rimga” she’rini yod oling.

Topshiriq

Usmon Nosirning “Yana she’rimga” sonetidagi dastlabki bandda aytilgan fikrning rivojlanishi, eng yuqori cho‘qqisi va yechimini tasvirlashga harakat qiling. Fikrlaringizni matn asosida dalillang.

Qiyoslang

1. Usmon Nosirning “Yana she’rimga” va “Yoshlik” she’rlaridagi o‘xshash hamda farqli jihatlarni izohlang.
2. Sizningcha, qaysi she’r badiiy-g‘oyaviy jihatdan kuchliroq? Nima uchun? Fikrlaringizni dalillang.
3. Ikki she’rda Usmon Nosir ijodiga xos qanday xususiyatlarni kuzatdingiz? Fikrlaringizni matn bilan asoslashga harakat qiling.

Nazariy ma’lumot

LIRIK TUR. SONET

Lirik turning muhim xususiyatlaridan biri unda tuyg‘u-kechinmalarning tasvirlanishidir. Lirik asarlar she’riy shaklda, muayyan vazn, qofiya asosida yoziladi. Shu jihatdan ham ular ohang, musiqiylik, intonatsiyani hosil qiladi. Fard, tuyuq, ruboiy, g‘azal, sonet va boshqa she’r shakllari lirik tur janrlari hisoblanadi.

Sonet lirikaning bir turi (janri) bo‘lib, o‘n to‘rt misradan iborat. Uning birinchi qismi ikki to‘rtlik, ya’ni sakkiz qator, ikkinchi qismi ikki uchlik – 6 qatordan tashkil topishi lozim. Sonetning 1-qismi ***katren***, 2-qismi ***terset*** deb ataladi. Dastlabki baytda aytilgan fikr keyingi bandlarda rivojlanadi va so‘ngida yechim topadi. Sonetning qofiyalanishi ham o‘ziga xos. Unda birinchi ikki band va ikkinchi ikki band bir-biri bilan zanjir halqasidek bog‘langan bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotida Usmon Nosir, Rauf Parfi, Barot Boyqobilov, Mirpo‘lat Mirzo kabi shoirlar sonetning go‘zal namunalarini yaratganlar.

KUZ KECHI


Mudrar, mudrar qalin terakzor,
Uxlar yupqa muz ostida suv.
Alla aytar zar yaproqlar quv,
Bir me’yorda asta – beozor.

Quyosh oyni izlab intizor
Botdi. Bulutlari oq parqu,
O‘z hukmiga olganda uyqu
Uxlar edi olam berido.

Kuz kechiga hamohang, mayin,
Tabiat chaladi o‘z nayin –
Shivirlashar men-la yaproqlar.

Kelgan kabi go‘yo atayin,
Yuksakda bir yulduz charaqlar,
Yuksakda bir yulduz charaqlar.

Rauf Parfi, 1958-yil



Topshiriq

“Bog‘im” she’rini mustaqil mutolaa qiling va to‘rtta savol tuzing.

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

BOG‘IM




O, u qanday fusunkor!
Nur bilan to‘lgan butun.
Gullari chaman-chaman,
Men ularni ichaman.
Ko‘nglimda yashnar bahor...
Nur bilan to‘lgan butun.

Bargdek uzilib ketsam,
Unutmas meni bog‘im,
Ishimni hurmat qilur,
Gullardan haykal qurur,
Ming yillardan keyin ham
Unutmas meni bog‘im!

She’rlarim yangrab qolur...
Bir umrga o‘lmayman!
Hayotimning davomi
Kelajagimga homiy.
O‘rnimga bog‘bon bo‘lur:
Bir umrga o‘lmayman!

O, u qanday davomdor!
Nur bilan to‘lgan butun.
Gullari chaman-chaman,
Men ularni ichaman.
Ko‘nglimda yashnar bahor...
Nur bilan to‘lgan butun.

1935-yil



O. HENRI (1862–1910)

Dars davomida:

- “Yigirma yildan so‘ng” hikoyasi qahramonlari xatti-harakatlariga baho beramiz;
- hikoya syujetiga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz.

O. Henri (taxallusi, asl ismi – Uilyam Sidni Porter) – jahon adabiyotida qisqa hikoyalari bilan o‘chmas iz qoldirgan amerikalik yozuvchi.

Uilyam Sidni Amerikaning Shimoliy Karolina shtatida shifokor oilasida 1862-yili dunyoga kelgan. Onasidan erta ayrilgach, ammasining qo‘lida tarbiyalandi. Bolalikda uning sevimli mashg‘uloti kitob o‘qish va odamlarni kuzatish edi. O‘rta maktabni bitirib, bir muddat dorixonada ishlagach, Uilyam Amerika g‘arbiga, Texasga ko‘chib o‘tdi va davlat xizmatida ishlash bilan birga hikoyalar mashq qila boshladi.

O. Henrining adabiy faoliyatidagi eng sermahsul davr XX asr boshlarida Nyu Yorkka ko‘chib o‘tganidan keyin boshlandi. Bu yerda u oddiy amerikaliklar hayotidan so‘zlovchi 200 dan ortiq hikoya yozdi.

Ijodkor 1910-yilda vafot etgan.



XX asr boshlarida Nyu York ko‘chalari

MUTOLAADAN OLDIN

Biz o‘qiydigan hikoya “Yigirma yildan so‘ng” deb nomlanadi. Unda yigirma yildan so‘ng bir-biri bilan uchrashishga ahdlashgan ikki do‘st haqida hikoya qilinadi.

Siz o‘zingizni yigirma yildan keyin qanday tasavvur qilasiz? Yaqin do‘stingizni-chi? Yigirma yil ichida siz va do‘stingizda qanday o‘zgarishlar yuz beradi deb o‘ylaysiz?



YIGIRMA YILDAN SO‘NG

Politsiyachi posbon ko‘chadan vajohat bilan o‘tib borardi. U yakkam-dukkam uchraydigan yo‘lovchilarni hayratga solish uchun ataylab vajohatli ko‘rinayotgandir, balki bu unga odat bo‘lib qolgandir. Havo nam, hali soat kechki o‘n bo‘lib ulgurmagan esa-da, qattiq esayotgan shamoldan yomg‘ir hidi kelardi, ko‘chalar deyarli bo‘m-bo‘sh edi.

Yo‘l-yo‘lakay eshiklarni tekshirgan, chaqqon va g‘alati harakatlar bilan tayoqchasini silkitgancha ora-sira o‘z mulkining barcha burchaklariga ziyrak nigoh tashlagan ko‘yi bo‘ydor, baquvvat gavdali, oyoqlarini xiyol kerib yuruvchi politsiyachi jamoatchilik osoyishtaligini ta’minlovchi posbonning ajoyib qiyofasini o‘zida mujassam etgandi. Unga tegishli daha ahli allaqachon osuda uyquda. Faqat allaqayerlarda, tamaki do‘konimi yoki tungi bardami, hamon chiroqlar miltillaydi. Bu atrofdagi binolarning ko‘pchiligini idoralar band qilgan, ular esa allaqachon berkilib bo‘lgandi.

bar – kichik restoran

Voqea kechayotgan joy va payt tasviriga e’tibor bering. Bu tasvir o‘quvchida qanday kayfiyat uyg‘otadi?

Mahallalardan birining yarmiga yetar-yetmas, politsiyachi birdan odimini sekinlatdi. Qorong‘ilikda, temir buyumlar sotiladigan do‘kon eshigi yonida og‘zida yondirilmagan sigareta tishlagan bir odam turardi. Politsiyachi unga qarab yurgan zahoti u tez-tez gapira ketdi.

– Hammasi joyida, serjant, – dedi noma’lum kishi xotirjam ohangda. – Oshnamni kutib turibman, bor-yo‘g‘i shu. Mana shu uchrashuvni u bilan yigirma yil muqaddam kelishib olgandik. Bu sizga sal g‘alati tuyulsa kerak, shundaymi? Nachora, istasangiz, buni bir boshdan tushuntirib beray, ko‘nglingiz tortarmidi? Hozir mana bu do‘kon turgan joyda ilgari “Ota Jo Bredi” restorani bo‘lguvchi edi.

serjant – kichik komandirlarga beriladigan unvon

– Besh yil oldin, – dedi politsiyachi, – uni buzib tashlashdi.

Notanish kishi gugurtni “chirt” yoqib, sigara tutatdi. Gugurt alangasida uning yuzi, chorburchak jag‘i, o‘tkir ko‘zlari va o‘ng qoshi yonidagi kichkina oq chandiq ko‘rindi. Yupqa bo‘yinbog‘idagi yirik olmos ko‘zli to‘g‘nag‘ich charaqlab ketdi.

chorburchak – to‘rtburchak

– Bugun, – so‘zida davom etdi haligi kishi, – “Ota Bredi”da mening eng yaxshi o‘rtog‘im va dunyodagi eng ajoyib yigit Jim Uels bilan birga ovqatlanganimga roppa-rosa yigirma yil bo‘ldi. Ikkalamiz ham shu Nyu Yorkda tug‘ishgan aka-ukalardek birga katta bo‘lganmiz. Tong otishi bilan baxtimni qidirib, g‘arbga yo‘l olardim. Men o‘n sakkizga qadam qo‘ygan, Jim esa yigirma bahorni ko‘rgan bo‘z yigitlar edik. Jimmini Nyu Yorkdan sug‘urib olib chiqish o‘limdan qiyin edi, u bu shaharni yer yuzidagi yagona ma’qul va manzur joy deb bilardi. Xullas, o‘sha oqshom biz rosa yigirma yildan keyin uchrashishga kelishdik, hayotimiz qanday kechmasin va taqdir bizlarni har qancha uzoqqa uloqtirmasin, o‘sha kun, o‘sha soatda uchrashishni shart qilib qo‘ydik. Biz shuncha vaqt ichida bemalol ahvolimizni o‘nglab, baxtimizni qaror toptirib olamiz deb o‘ylagandik.

– Juda qiziq ish bo‘lgan ekan-ku, – gap qotdi politsiyachi. – Garchi, nazarimda, oraliq muddat hazilakam bo‘lmasa-da. Xo‘sh, nima bo‘ldi, ajrashganlaringizdan buyon oshnangizdan dom-darak bo‘ldimi, ishqilib?

– Yo‘q, dastlabki vaqtlarda bir-birimizga xat yozib turdik. Biroq bir yo ikki yil o‘tib, bir-birimizni izsiz yo‘qotdik. G‘arbni o‘zingiz bilasiz, o‘ziga yetgancha keng yurt, mening esa unda bormagan joyim qolmadi. Ammo bir narsaga imonim komil edi: agar o‘lib ketmagan bo‘lsa, Jimmi shartlashilgan joyga albatta keladi. Bunday vafodor va subutli do‘stni kunduzi chiroq yoqib topolmaysan. Uni esdan chiqarishi mumkin emas. Bu yerga vaqtida yetib kelish uchun necha ming millik yo‘lni bosib o‘tdim, agar Jim ham so‘zida tursa, bundan sira pushaymon bo‘lmayman, albatta.

subutli – so‘zida turadigan

mil – 1609 metr

U bashang soatini chiqardi – soatning qopqog‘iga mayda olmos donachalari qadalgan edi.

O‘rtog‘ini kutayotgan kishi tasviridagi qaysi detallar diqqatingizni tortdi? Bu detallardan qanday xulosa chiqarish mumkin?

– Uch daqiqasi kam o‘n, – dedi u. – Biz restoran eshigi oldida ajrashganimizda soat roppa-rosa o‘n edi.

– Nazarimda, G‘arbda ishlaringiz yomon ketmagan, shekilli? – o‘smoqchilab so‘radi politsiyachi.

– O‘ho‘, bo‘lmasa-chi! Agar mening yarim omadim Jimga kulib boqqanida, do‘ppimni osmonga otardim. O‘zi biroz lanjroq bo‘lsa-da, bahosi yo‘q yigit. Unga gap uqtirgunimcha naq ona sutim og‘zimga kelgandi. Nyu Yorkda esa odam to‘nkaligicha qolib ketadi. Faqat G‘arb odamni charxlaydi.

Politsiyachi tayog‘ini aylantirib, bir qadam olg‘a yurdi.

– Bo‘pti, men boray. Ishqilib, do‘stingiz aytilgan vaqtda kelsin-da. Juda soniyama-soniya aniq kelishini talab qilmassiz undan?

– Ha, albatta. Ko‘pi bilan yana yarim soat kutaman-da. Agar joni omon bo‘lsa, shu paytgacha albatta yetib kelishi kerak edi. Yaxshi boring, serjant.

– Tuningiz xayrli bo‘lsin, ser, – politsiyachi eshiklarni yo‘l-yo‘lakay ko‘zdan kechirgancha kelgan yo‘lida davom etdi.

ser – janob

Endi yomg‘ir maydalab, shig‘alab yog‘a boshlagandi, o‘qtin-o‘qtin esib turgan shamol ham bir maromga o‘tib, izg‘iringa aylangandi. Yoqalarini ko‘tarib va qo‘llarini cho‘ntaklariga suqib olgan siyrak yo‘lovchilar ma’yus holda ovoz chiqarmay, shoshib o‘tib ketishardi. Necha ming millab yo‘l bosib kelgan kishi esa do‘stiga bergan qariyb bema’ni va’dasida turmoq uchun sigarasini tortgancha kutib qolaverdi.

Yigirma yilcha oldin “bir-birini izsiz yo‘qotgan” do‘stlarning shuncha paytdan keyin uchrashuvida mantiq bor deb o‘ylaysizmi?

Yigirma daqiqacha o‘tgach, paltosini quloqlarigacha ko‘tarib olgan baland bo‘yli odam ko‘chani shoshib kesib o‘tdi-da, do‘kon eshigi oldida kutib turgan kishi tomon qarab yurdi.

– Bu senmisan, Bob? – so‘radi yangi kelgan odam ishonqiramay.

– Sen Jimmi Uels emasmisan? – o‘sha zahoti javob qaytardi unisi.

– Yo Parvardigor! – dedi novcha odam sigarali kishining har ikkala qo‘lini qo‘llari bilan tutib. – Qara-ya, Bob ekaning kunday ko‘rinib turibdi. Agar hali ham yorug‘ olamda bor bo‘lsang, seni bu yerda topishimga zarra shubha qilmagandim. Buni qara-ya! Yigirma yil hazilakam gap emas. Ko‘rdingmi, Bob, restoranimizni buzib tashlashibdi. Afsus, o‘shanda sen bilan ikkovimiz kechki ovqatni qanaqangi tushirgandik unda. Xo‘sh, gapir, do‘stim, G‘arbda kunlaring ne kechdi?

– Zo‘r. U yerda nasibamga nima yozilgan bo‘lsa, hammasiga erishdim. Sen esa butunlay o‘zgarib ketibsan, Jim. Esimda, sen mendan ikki-uch dyuym pastroq eding.

dyuym – 2,5 santimetr

– Ha, yigirmaga to‘lganimdan keyin biroz bo‘yga tortdim.

– Sening ishlaring qalay, Jimmi?

– Chidasa bo‘ladi. Shahar muassasalaridan birida xizmat qilaman. Bo‘pti, Bob, ketdik. Men bir kunjakni bilaman, ikkovimiz u yerda xumordan chiqquncha gaplashamiz, eski paytlarni eslaymiz.

kunjak – chet, ovloq joy

Ular bir-birlarining qo‘ltig‘idan olib, yo‘lga tushishdi. Bob G‘arbdan omadi yurishib, ko‘zini yog‘ bosib kelgani, ishdagi muvaffaqiyatlari haqida labi labiga tegmay hikoya qila ketdi. Boshini yoqasi ichiga birato‘la tiqib olgan sherigi esa uni qiziqish bilan tinglar edi.

Mahalla burchagida dorixona do‘konining chirog‘i miltillardi. Yorug‘ga yaqin kelib, har ikkala yo‘lovchi bir vaqtda bir-biriga qarab burildi-da, bir-birining yuziga ko‘z tashladi. G‘arbdan kelgani birdan to‘xtadi va qo‘lini oldi.

– Siz Jim Uels emassiz, – dedi u shartta. – Yigirma yil – uzoq muddat, ammo kishining rimcha burni tugmachadek bo‘lib qoladigan darajada uzoq emas.

rimcha burun – uzun, qirg‘iy burun

Bob bilan ketayotgan kishi uning do‘sti Jim Uels bo‘lmasa, kim bo‘lishi mumkin?

– Bu muddat ichida ajabtovur odam ham muttahamga aylanadi goho, – javob berdi novchasi. – Gap bunday, Bob, o‘n daqiqa bo‘ldiki, siz hibsdasiz, Chikagoda xuddi shuni taxmin qilishgandi, siz, albatta, bizning yerlarga kelib-ketishni kanda qilmaysiz, siz bilan suhbat qurishimiz mumkinligini ham xabar qilishgandi. Xo‘sh, ortiqcha shovqin-suron ko‘tarish niyatingiz yo‘qmi mabodo? Unday bo‘lsa, oqilona yo‘l tutganingizdan minnatdorman. Endi esa sizni politsiyaga topshirishdan oldin men yana bir topshiriqni bajarishim kerak. Mana bu xatni oling. Uni shu yerda, deraza oldida o‘qib ko‘rishingiz mumkin. Buni menga politsiya posboni Uels berdi.

G‘arbdan kelgan odam uzatilgan bir parcha qog‘ozni ochdi. Xatni o‘qib bo‘lgach, uning qattiq qo‘llari xiyol titradi. Xat qisqagina edi:

“Bob! Men tayinlangan joyga vaqtida yetib keldim. Sen gugurt chaqqaningda men butun Chikago qidirayotgan odamning basharasini tanib qoldim. Men bu ishni o‘zim qila olmasdim va seni hibsga olish uchun mahalliy agentlardan birini yubora qoldim.

Jimmi”.

(Amir Fayzulla tarjimasi)

Siz hikoyaning shunday yakunlanishini kutgan edingizmi?

Muhokama qilamiz

1. Hikoya nima haqida? Uning asosiy g‘oyasini ikki so‘z bilan ifodalang.
2. Restorandagi ahdlashuvdan keyin o‘tgan yigirma yil davomida Bob va Jimning hayotida nimalar ro‘y bergan deb o‘ylaysiz?
3. Bob sizda qanday taassurot qoldirdi? Unga uchta sifat bilan ta’rif bering. Nima uchun aynan shu so‘zlarni tanlaganingizni matn asosida dalillang.
4. Sizningcha, Jim to‘g‘ri ish qildimi? U boshqacha yo‘l tutishi ham mumkin edimi?
5. Nega muallif hikoyani uchinchi shaxs tilidan bayon qilmoqda? Voqealarni Jim yoki Bob aytib berganda, nimalar o‘zgarishi mumkin edi?

Topshiriq

Tasavvur qiling, Bob uchrashuvga kelgan Jimni tanib qoldi. Hikoyaning davomini yozing va navbatdagi darsda o‘qib bering.

Nazariy ma’lumot

ASARDA SYUJET BURILISHI

Badiiy asarda voqealar rivojining keskin o‘zgarishi, kutilmagan tarzda davom etishi yoki yakun topishi **syujet burilishi** deyiladi.



Misol uchun, O. Henri qalamiga mansub “Afsungarlar tuhfasi” hikoyasi qahramoni Della eri Jimga sovg‘a – cho‘ntak soati uchun zanjir olish maqsadida uzun sochlarini kesib sotadi. Jim esa unga taroq sovg‘a qilish maqsadida soatini sotgan bo‘lib chiqadi.

Syujet rivojidagi keskin burilishlarni hosil qilishda mualliflar turli vositalardan foydalanadilar. Shunday vositalardan biri – ayrim detallar yordamida o‘quvchini chalg‘itish, uning fikrini noto‘g‘ri tarafga burish usuli. “Yigirma yildan so‘ng” hikoyasida Bobning olmos ko‘zli to‘g‘nag‘ichi, soati qopqog‘idagi mayda olmos donachalari uning badavlat va hurmatli kishi ekani haqida tasavvur uyg‘otsa-da, aslida u jinoyatchi bo‘lib chiqadi.

Tavsiya

O. Henrining “Afsungarlar tuhfasi” hikoyasini quyidagi havola orqali mutolaa qiling.

6

Topshiriq

Hikoyadan asar qay tarzda yakun topishiga ishora qiluvchi detallarni toping. Bu detallar hikoyani birinchi marta o‘qiyotgan kitobxonni chalg‘itadimi yoki unga yordam beradimi?

ADABIY LABORATORIYA
ADABIY INSTAGRAM – OBRAZLAR SAHIFASI

“Adabiy Instagram – obrazlar sahifasi” biror bir badiiy asardagi qahramonlarni ijtimoiy tarmoq formatida tahlil qilishga asoslangan ijodiy laboratoriya loyihasidir. Unda o‘quvchilar o‘zlari mutolaa qilgan, yaxshi ko‘rgan o‘zbek yoki jahon adabiyoti namunalaridagi bosh yoki yordamchi obrazlarning Instagram profilini yaratadi. Bunday yondashuv texnologiyalar zamonida badiiy asar mohiyati, badiiy-estetik qimmati, obrazlarning tuyg‘ulari, orzu-armonlari, dardi va asar g‘oyasi rivojidagi ahamiyatini qiziqarli va vizual tarzda yetkazish imkonini beradi.

O‘quvchi yaratishi kerak bo‘lgan obrazlar sahifasi badiiy asardan tanlangan qahramonlarning shaxsiy hayoti, tabiati, hissiyotlari, qarorlari va asardagi roli asosida shakllantiriladi. Asar qahramonlarini zamonaviy ijtimoiy tarmoq – Instagram formati orqali tahlil qiladilar. Obrazning shaxsiy sahifasini, profilini yaratish orqali o‘quvchilar qahramon xarakterini chuqur o‘rganish, asarni zamonaviy uslubda qayta talqin qilish, yozma nutq va tasvirlash qobiliyatini rivojlantirish, texnologik vositalardan ijodiy foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Guruhlarda ishlash

Mustaqil yoki darslikda mutolaa qilingan o‘zbek yoki jahon adabiyoti namunalaridan o‘zingiz sevgan obrazlarning Instagram profilini yarating. Uni shakllantirishda quyidagi tavsiyaga amal qiling:

– **Shaxsiy sahifa (profil) rasmi**: qahramonni aks ettiruvchi chizma yoki rasm;
– **Tarjimayi hol (bio)**: qisqacha ta’rif (2-3 satr);
– **Postlar**: obraz hayotidagi muhim voqealarni ifodalovchi postlar;
– **Hikoya**: qahramonning muhim fikrlari, kechinmalari;
– **Kuzatuvchilar**: obraz kimlarni kuzatadi;
– **Izohlar**: boshqa obrazlar yozgan izohlar.

Obrazlar profilini yaratishda Ernest Hemingueyning “Chol va dengiz” asari asosidagi namunadan foydalanishingiz mumkin.

1. **Shaxsiy sahifa (profilda)gi rasmi:**
2. **Tarjimayi hol (bio):** Tushkun quyosh ostida ochiq dengizda yolg‘iz qayiqda qarigan baliqchi. Qoraygan yuzi, chuqur ajinlari, ko‘zlarida umid va charchoq qorishmasi. Qayiq yonida ulkan marlin balig‘i. Yelkasida yaralar, lekin yuzida g‘urur.
3. **Post:** Santyago – iroda, bardosh va insoniy qadr-qimmat timsoli. Garchi u kuchsiz, keksa baliqchi bo‘lsa-da, hayotga va o‘z kasbiga sadoqatini yo‘qotmaydi. Heminguey bu obraz orqali insonning ichki kuchi, kurash ruhini san’atkorona tasvirlaydi.
4. **Santyagodan iqtibos:**
“Insonni yo‘q qilish mumkin, lekin uni mag‘lub etib bo‘lmaydi”.
5. **Kuzatuvchilar:** irodali insonlar, kitobxonlar…
6. **Izohlar:** “Dengiz bilan yakkama-yakka kurashda yengilsa-da, ruhan mag‘lub bo‘lmaydi”…

KAMALAKDAY SERJILO OLAM



SHUKUR XOLMIRZAYEV (1940–2005)

Dars davomida:

- “O‘zbeklar” hikoyasini mutolaa qilamiz;
- hikoyadagi shaxslar xarakteri haqida fikr yuritamiz;
- xarakter tushunchasi haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Shukur Xolmirzayev 1940-yilda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tug‘ilgan. Yozuvchi hikoya, roman, qissa janrlarida qalam tebratdi, “Oq otli”, “To‘lqinlar”, “O‘n sakkizga kirmagan kim bor?” asarlari 60-yillar o‘zbek qissalarining eng yaxshi namunalari bo‘lib qoldi. Yozuvchining hikoya va qissalarida, bir tomondan, yoshlik va talabalik yillarining o‘ziga xos romantikasi ifodalangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi tug‘ilib o‘sgan Boysun tumanida yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, ularning ruhiy olamida kechgan kurash va o‘zgarishlar o‘zining badiiy talqinini topdi.

Ijodkor roman janrida ham bir qator asarlar yozgani va ular o‘zbek romannavisligi tarixida muayyan o‘ringa ega bo‘lganiga qaramay, avvalo, hikoyanavis sifatida shuhrat qozondi. U o‘zbek hikoyanavisligini rus va Yevropa yozuvchilarining badiiy tajribalari bilan ham boyitdi. Shukur Xolmirzayevning eng yaxshi hikoyalari qahramon obrazining yangi va yorqinligi, kompozitsiyaning o‘ziga xosligi, qahramonlar tilining rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Uning asarlarida o‘zbeklarga xos milliy xarakter, inson va tabiat munosabatlari teran badiiy talqinini topgan.

Adib 2005-yili Toshkent shahrida vafot etgan.

MUTOLAADAN OLDIN

Biz o‘qiydigan “O‘zbeklar” hikoyasi yonimizda yurgan, bizga tanish oddiy o‘zbek kishilariga xos xususiyatlar haqida hikoya qiladi. Unda millatimizga xos soddalik, ochiqko‘ngillik, bag‘rikenglik va saxovatpeshalik kabi ezgu fazilatlar bilan birga ayrim salbiy jihatlar ham ochib berilgan.

O‘ylab ko‘ring

O‘zbeklar deganda ko‘z o‘ngingizda qanday kishilar namoyon bo‘ladi? Bobo-buvingiz, ota-onangiz, umuman, sizga yaqin o‘zbek kishilarida qanday o‘ziga xos xususiyatlarni kuzatgansiz?

O‘ZBEKLAR

I

Men bir voqeani aytib beray.

Ikkinchi kursda paxtaga bordik. O‘sha Bo‘ka rayoniga. Chetdagi bir kolxoziga. Mana shu o‘zimizning Surxon vohasiga o‘xshab ketadigan joylar ekan: har qadamda qiyoqlar o‘sgan. Bog‘-bog‘ yosh qamishni tagi bilan o‘tqazib qo‘yganday. Yeri jiqqa ajriqzor. Mol o‘tlaydigan, bolalar chillak o‘ynaydigan yer-da! Qadrdon, men uning o‘zimga, mana shu ko‘ngil qurg‘urga yoqqan joyini aytdim: bunaqa joylar yoqadi-da! Xullas, ana shu ajriqzordan sal o‘tgandan keyin qishloqcha boshlanadi.

chillak – o‘zbek xalq milliy o‘yini

Talaba yigitning bu yerlardan zavqlanishi sababi nima edi?

Yigirma-o‘ttiz xonadon tursa kerak. Tomlari bari loysuvoq, devorlari guvala. Biz borganda jami tomlarga pichan uyilgan, yomg‘ir yog‘ib o‘tgan payt edi, pichanlar sap-sariq. Ba’zisining ustida yosh bolakaylar o‘tirardi. Bizni ko‘rib qiyqirib yuborishdi. Bechoralar... Toshloq ko‘chada mashinamiz to‘xtadi. O‘qituvchilar o‘zaro kelishdilar. Bizni shu yerdan burib, pastlikka endirib ketishdi. Bitta brigadirning bitmay qolgan peshayvonli imoratiga joylashadigan bo‘ldik. Buyam shunchaki somonsuvoq qilingan. Deraza romlari yo‘q. Yer zax. Odatdagi... baraklardan farqsiz edi. Bolalar orasida mendan yoshi ulug‘lari ko‘p edi: birlari armiyani bitirib kelgan, birlari texnikumni... Biz endi, o‘zingiz qatori o‘nni bitiriboq universitetga kira qolgan edik. Shuni aytish

guvala – loydan qo‘lda yasab, oftobda quritilgan, tagi yassi, cho‘zinchoq qurilish materiali

barak – yog‘ochdan qurilgan vaqtinchalik yashash joyi

kerakki, savod masalasida ham ulardan kam emas, ba'zan balandlik ham qilib qolardik: har qalay o'nni bitirib, to'g'ri institutga kirgan bolamiz. Bilimlar hali "svejiy"... Bundan tashqari, o'zingizga ma'lum, kamina kutubxonaning, ayniqsa, fundamental kutubxonaning faol o'quvchilaridan.

Lekin uyatchanligimiz ham bor. Baribir... qishloqimiz-da, to'g'risi. Balki "uddalik" bobida ham ancha jo'n edik.

Yo'q? E! Sizni o'sha uyga joylab qo'ysa, nima qilardingiz? Kolxoz idorasidagi bug'altirning xonasidan pechni qo'porib kelarmidingiz? Kelolarmidingiz? Yo'q. Deraza o'rniga nima tutar edingiz? To'l... Uni qayerdan topardingiz? Ana shunday...

O'rmon degan bir kurskomimiz bor edi. Novcha, oriq yigit. Uch yil universitetga kirolmagan. Sibirga pomidor, piyoz oborib sotgan. Poyezddagi sarguzashtlarini eshitsangiz, hee... Pishiq bolalar-da! Komsorgimiz ham Azimjon degan yigit edi. Nuqul Remark bilan Hemingueyni o'qib: "Bizning yozuvchilarimiz yolg'onchi", – deb yurardi. Men? Albatta, unga qarshi turardim!..

Qaysi detallar talaba xarakteriga xos xususiyatlarni ochib berishga xizmat qilmoqda? Sizningcha, qahramon qaysi davr haqida gapiryapti?

Shunday qilib, joylashib oldik. Yerga poxol to'shadik, ustiga chodir yoydik. Keyin ko'rpa-to'shakni yozdik. Choynak, chelak ham topib kelishdi.

poxol – bug'doy, sholi kabi boshoqli o'simliklarning doni yanchib olingandan keyin qolgan quruq poyasi

Kech bo'lib qolgan edi. Bilasiz, dastlabki kecha uxlash qiyin. Latifa aytishardi bolalar: "Siz ko'rgan o'sha afandi, siz bilgan o'sha afandi..."

Bolalar darhol to'rni, yon tomonlarni egallab olishgani uchun menga eshik og'zidagi joy teggan edi, bilmadim, kechasi eshik ochilib ketganmi, sahar tursam, burnim bitib qolgan.

Havoda zildek og'ir, qoramtir bulutlar aylanar, lekin etakdagi paxtazor yaqqol ko'zga tashlanar edi. Ikkinchi terimdan chiqqan. Ko'p g'o'zalar barg to'kib, sarg'ayib qolgan. Ayvon ustuniga suyanib, tomosha qila boshladim: paxtazor chetida tutlar. O'sha tutlar... U yer-bu yerda chug'urchuqlar galasi uchadi. Tutzorning narigi tomonida bo'zrang bir uzun imorat ko'rinardi. Uning oldida bakni qaynatishyapti shekilli, karnayidan qizil alanga chiqib qolardi.

Keyin shundoq pastlikdagi paxtazorni bizdan ajratib turgan ariq bo'yidagi yolg'iz kulbaga ko'zim tushdi. Uning ham tomiga pichan bosilgan. Pichan ustida chumchuqlar g'ujg'on: chiriq-chiriq... Ariq bo'yida esa bir qoraqalpoq kursdoshim, ha, o'sha – Saparboy maykachan bo'lib chopib yuribdi. Bet-qo'lni yuvgani pastga endim.

– Yechin. Yugur. Fizkultura qil! – dedi Sapar.

– E, piskulturam chiqib turibdi, – dedim.

Shunda qarasam, haligi kulba... odam yashaydigan uycha ekan. Men, bilmadim, uni bostirma deb o'ylabmidim, hayron qoldim. Kichkina derazasi bor. Uychaning oldida esa, bilasizmi nima, o'rmak... o'rmak tikilgan. Bir ayol katta tayoq bilan gursillatib urib, kalavani qatimlar orasidan u yoq-bu yoqqa otib, sholcha to'qiyapti. Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizning ko'ngilga yaqin-da, qadrdon!

Sizningcha, talaba yigit ko‘ngliga manzaraning qanday yaqinligi bo‘lishi mumkin? “Bu manzara ham bizning ko‘ngilga yaqin-da, qadrdon”, deganda yigit nimani nazarda tutdi?

Topshiriq

Kuzatganingizdek, hikoyaning kirish qismida yozuvchi tabiat, atrof-muhitni roviy tilidan batafsil tasvirlab bergan. Siz ham ko‘nglingizga yaqin manzarani so‘z yoki rangli qalamlar vositasida ifodalab bering.

II

Ayol sharpamni sezib, boshidagi gardi ro‘molini peshanasiga tushirdi.

– Assalomu alaykum, hormang, opa! – dedim.

– Keling, uka, – dedi u. – Xush kepsizlar... Yaxshi joylashib oldinglarmi?

– Ha, rahmat. Judaa yaxshi joylashdik... Shu uyda yashaysizlarmi?

– Ha, – dedi u. – Xo‘jayin molga ketgan.

“Molga ketgan!”

– Mol ham boqasizlarmi? – dedim.

– Ha, kolxoz bir otar berib qo‘ygan.

“Bir otar!”

O, Toshkentda bu so‘zlarni eshitmaysiz-da, mehribonim. Ana shunday qilib, bularga birdan ko‘nglim ilidi.

– Echkimi, qo‘ymi? – dedim.

– Aralash.

Qarasam, uychaning narigi tomonida uzun qo‘ra bor. Tevaragi shox-shabba bilan o‘ralgan. Sekin o‘tdim. Qiy hidi... Ha-ha-ha! Qo‘raning erganagidan qaradim: yetmish-sakson mayda mol sig‘arkan... Men nimagadir bu yerlarda ham odamlar faqat paxtani biladi deb o‘ylardim. Endi deng, mol tufayli paxtayam ko‘zimga yuz chandon yaxshi ko‘rinib ketdi. Buning ustiga havo yumshoq, g‘o‘zalar yuvilgan, namxush. Barglari, poyalari sariq. Ariqchada tiniq, zilol suv oqyapti... O! O‘sha paytlar Bo‘kadayam suvlar toza bo‘lgich edi. Ximikatlar ham kam sepilardi, nazarimda. Lekin men bu tomonlariga e’tibor qilmaganman... Chunki o‘zimiz tarafdayam ximikat, suv notoza, ul-bul degan gaplar kam bo‘lardi. Xullas, men Surxonning bir burchagiga kelib qolgandek edim.

qo‘ra – qo‘ylar saqlanadigan joy

Shu payt uydan – yotog‘imizdan bolalar ham birin-ketin ko‘zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladi. Ba’zisi Saparga qo‘shilib chopishga tushdi. Ba’zilari paxtazorga oralab ketishdi. O‘rmon aka o‘rmak to‘qiyotgan ayolning qoshiga keldi.

– Qalaysiz, opa? Hormang!

– Bor bo‘ling, uka... Kelib zap ish qildilaring-da...

– Ha, endi, sizlarga yordam bermasak bo‘ladimi? Ko‘k choy bormi? Qurug‘idan.

– Bor, bor. – Ayol etagini apil-tapil tushirib, taroqni tashlab, kulbaga kirib ketdi. Oyog‘ida eski kirza etik, uzun sochlari uchida sochbog‘. Rangi o‘ngib ketgan ko‘ylagi g‘ijim. Sal o‘tmay, bir banka bilan bir parcha gazeta ko‘tarib chiqdi. Gazetani O‘rmonga berib, ustiga bankani engashtirdi. Bir hovuchlar choy to‘kildi, O‘rmon:

– Bo‘lar, rahmat, – dedi.

– Kerak bo‘lsa...

– Kerak bo‘lsa, yana so‘raymiz...

– Bemalol, og‘ajon. He, paxta, paxta... Mana, sizlar ham o‘qishlarni qoldirib, ota-onalaringni tashlab keldinglar. Baraka topinglar. Rahmat...

– Endi, terish kerak-da! – dedi O‘rmon aka... – Ha, paxtaning kilogrammi necha tiyindan?

– Shu, o‘n tiyinmi, besh tiyinmi, men ko‘pam farqiga bormayman.

– E! Unday bo‘lmasa kerak! – dedi O‘rmon aka. Keyin kuldi. – Yaznamiz bilsalar kerak?

– Ha. U kishi biladilar.

– Yaxshi... Sizlar biron yoqdan kelganmisizlar deyman?

yazna – pochcha, opaning eri

– Yo‘o‘q, biz shu yerning odami.

– Bundan boshqa uchastkalaring ham bordir-da?

– Yo‘q, og‘ajon. Bori – shu... Buyam yaxshi. O‘zimiz uch jon. Jiyaningiz otasi bilan ketgan... Cho‘pon bo‘laman deydi. Hali zamon kep qoladi. Choyni qayerda ichasizlar?

– Choyni? Himm, bugun endi yotoqda... Keyin yana o‘ylab ko‘ramiz.

Men O‘rmon akani hozir qitmir, suqatoy qilib ta’riflayotganga o‘xshayman. Yo‘q, bir hisobda u o‘zicha haq edi: bizniyam o‘ylardi, harqalay.

Shundan keyin terimga jo‘nadik.

Kun chiqib, uyam sarg‘ayib nur sochyapti. Biz etaklarni bo‘yinga ilib, xuddi oshalolga ketayotgan podachiday boryapmiz. E, do‘stim, menga mana shunday kun zarda berib chiqayotganda namxush so‘qmoqlardan yurish ham yoqadi-da!

Tepangda chug‘urchuqlar o‘ynaydi. Oyog‘ingga ho‘l yaproqlar o‘ralashadi. Unda-bunda xirmon joylardan bug‘ ko‘tariladi. Ko‘rganmisiz? G‘o‘zaning qavachog‘i yonishga mahtal bo‘ladi. Uzoq vaqt uyilib yotsa, tutun ham chiqib ketadi. O‘sha kuni terdik. Uyat o‘limdan qattiq... El qatori terdim. Lekin burun ochilmadi.

Qaytayotganimizda haligi kulba biqinida qozon qaynayotgan ekan. Endi Azimjon aka qozonga yaqin borib, hidlab ko‘rdi-da:

– Osh, – dedi bizga qarab.

– Hu, – dedi O‘rmon aka, – qozon kichkina ekan-da.

– Yuring, yuring.

– Shoshmang. Ho xo‘jayin!

Uychadan kalovlanib, qotma, qora choponining tirsaklari yirtilib paxtasi oqqan, soqoli o‘siq, chuvak yuzli yigit chiqdi. Xuddi o‘ngirini bosib oladigandek surilib-shoshib kelib, biz bilan bir-bir ko‘rishdi.

– Xush kepsizlar, xush ko‘rdik! Qani, uyga marhamat!

– Oldin yuvinib olaylik-chi, – dedi O‘rmon aka. – Aytmoqchi, bir ukamizning tomog‘i shamollab qopti. Burning ham bitgan-a? – deb so‘radi mendan. – Shu, shu... Dori-pori topiladimi? Medpunktlaring markazda ekan, bu yer – Kamchatka.

– E, topiladi-da. Dori topiladi! – Yigit etigini qo‘lantayoq kiyib chiqqan ekan, oyog‘idan tushib qoladigandek talpanglab uyga kirdi. Keyin bir bog‘ ituzum olib chiqdi.

– Shu bo‘ladi, tomoqqa bog‘lasalar, – dedi.

– Bo‘ldi, bo‘ladi! – dedim. – Ozginasi bo‘ladi.

ituzum – oq gulli, mayda qora yoki qizil mevali bir yillik yovvoyi o‘simlik

– E, ozginani nima qilasan? – dedi O‘rmon aka. – Hali yana kerak bo‘ladi. Ituzumni olib yotoqqa keldim. Unga tikilaman: tanish-da bu o‘simlik ham! Qadrdon, bizdayam bir momo bo‘lgich edi. Bobomiz bosmachilarning otlariga xashak bergani uchun “xalq dushmani” deb otilib ketgan, undan qolgan o‘n bir qursoqni boqaman deb umrini toq o‘tkazgan kampir edi. Ularniyam birin-ketin Yaratganiga topshirib, bizning maymoq ota bilan qolgan...

O‘sha kampir davolardi shunaqa ituzumlar bilan... tomoqlarimizni. Tildan tersak chiqsa, oq gulbo‘tani quritib-ezib, kukunini separdi. Hech narsa ko‘rmagandek bo‘lib ketardik.

Omborimizda mana shunday ituzum bog‘laridan yog‘och qoziqlarga osib qo‘yardilar. Biz ham devordagi bir mixga osib qo‘ydik. Keyin mevasidan bir hovuch olib, bo‘z etakning chetidan bir parchani yirtib, mevani ezib-ezib tomoqqa ko‘tardik. Ertasi ko‘zimiz charaqlab ochilib, terimga chiqib ketdik.

Bizga choy qaynatiladigan bak ortidagi kulbalarning orqasida hududsiz dalalar bor, biz o‘sha yoqda paxta terdik. Har joy-har joyda mitti-mitti shiyponchalar qo‘qqayib turardi. Yeri zax, devorlari qabarib ketgan, atrofida tuproq o‘ynab yotar, unda sichqon-kalamushlarning izlari ko‘p edi. Biz goho o‘shanday kulbachalarga kirib dam olardik.

Men, men o‘zim o‘shanaqa joylarda izg‘ishni yaxshi ko‘rardim. Shunday shiyponchalarning yaqinidan albatta biron ariq o‘tgan bo‘lar, uning qirg‘oqlaridan qamishlar g‘ovlab ko‘tarilgan, qamishlar ichida turfa tikanlar qizil, sariq bo‘lib gullagan, o‘shalarning ham yolg‘iz tomoshachisi biz edik. Ba’zan egatlar ichida tarvuz, qovun palaklari chiqib qolardi. Albatta, bitta-ikkita burishgan-tirishgan tuynak bo‘lardi. Ammo uni yorib yesangiz, mazasi tilni yoradi. E, azizim, menga, bir faqir studentga shunday tuyulgan-da! Bo‘lmasa, ichi tushgan, ayniy boshlagan tarrakning nimasi shirin? Balli, odam degan munday injiq bo‘lmaydi: boriga qanoat qilish kerak...

tuynak – yangi tugilgan, hali yetilmagan qovun, sapcha

Terimda esa hamma vaqt qorningiz to‘ygan qo‘zining qornidek bo‘lmasligi o‘zingizga ma’lum... bir tuyur go‘sht-u makaron solib qaynatilgan sho‘lan sho‘rva mana shunday... joningizga tegib ketadi: rahmat. Hozir paxtani yomonlash, uning mehnatini eng og‘ir mehnat deb atash modada. Bir hisobda, haqiqatan ham shunday. Biroq terim paytidagi romantika!

Tonglarni eslasang! Tuprog‘i nam tortgan so‘qmoqlarni. Yiroqda arava yo‘ldan ko‘tarilgan changni, ufqdan endi bosh ko‘tarayotgan quyosh yog‘dulariga yo‘g‘rilib, zarrin bir to‘zonga aylanib turishlarini eslang! Buning ustiga o‘sha paytda: “Eng ulug‘ ishni men qilyapman! O‘zbekning milliy iftixori uchun kurashyapman!” deb o‘ylab tursangiz. Bitta o‘rtog‘ingiz o‘yinqaroqlik qilib, kamroq paxta tersa, ko‘zingizga yov bo‘lib ko‘rinsa...

Matnning qaysi o‘rinlarida o‘zbeklarga xos xususiyatlarni kuzatdingiz?
Yigit milliy iftixor deganda nimani nazarda tutmoqda?

Bitta go‘zal, nozik qiz ipakdek barmoqlari chanoqlarga tilinib, qoni chiqib, doka bilan bog‘lab olib, endi zo‘rg‘a terayotganini ko‘rsangiz: “E, shaharlik oyimqiz! Soyapar-da, soyapar!” – deb ichdan haqorat qilar edingiz. Ha-da, avvalo o‘zim haqimda gapiryapman! Yo hikoyamni tugatib qo‘ya qolaymi? Mayli...

Rasvo bo‘lib, shalabbo bo‘lib yotoqqa yetib keldim. Ertasi saharlab turish kerak, terimga chiqish kerak. Yomg‘ir, qor – paxtaning oldida kapeyka! Kiyim-boshni yuvib, pechga tutib sal-pal quritdim. Keyin bir dono o‘rtoqning maslahati bilan: “To‘shakda qurib qoladi”, deb kiyib yotdik.

Ertasi – rasvogarchilik.

– Juda nozik ekansan-da, shoir, – dedi O‘rmon aka. Nozik, xayolparast odamlarni “shoir” deb atash o‘shandan rasm bo‘la boshlagan edi.

...Saparboy – haligi qoraqalpoq yigit menga yaqin edi... Shu yigit:

– Qol, sen uchun ikki fartuk terib beraman, – dedi. Ikki fartuk paxta bu – olam-jahon mehnat! Bu – kamida ikki-uch ming marta egilib-ko‘tarilish degani. Yana qancha mashaqqati bor...

Ko‘nglim buzilib, unga qanday minnatdorchilik bildirishni bilmay qoldim. Boshim aylanar, ichim o‘z-o‘zidan yonib ketayotgandek edi. Azimjon aka ham peshonamga qo‘l qo‘yib:

– Qoling. Mumkin emas. Jon ham kerak, – dedi.

Qarang, odamlar qanday realist. Qoldim. Bolalar ketishdi. Uyda yotib qolgan bemor uchun ham shart shu edi: u yoq-bu yoqni supurib, tozalab qo‘yishi kerak. Birato‘la qutulay deb uyni supurdim. Ayvonlarniyam tozaladim. Axlatni imorat orqasiga to‘kib qaytayotgan edim, bir manzarani ko‘rib qoldim.

Jo‘xoripoya chetida yovvoyi supurgi panasida bitta o‘n-o‘n bir yoshlardagi bolakay qo‘lchalarini tizzasiga tirab nari tomonga qarayapti. U yoqda bo‘lsa, paxsa devorga taqab to‘kilgan somon ostida bir sariq it yotibdi. Men ham qiziqib, bolaning yoniga bordim. Shunda it g‘ingshib, sapchib turdi-da, devordan lippa oshib o‘tdi. Saldan so‘ng mushtdek kuchukvachchani tishlab, bu yoqqa sakrab o‘tdi. Yerga qo‘yib yaladi. Yana yotdi.

– Qiziq-a? – dedim.

Bola cho‘chib tushdi. Aft-basharasi kir, telpagining qulog‘i peshanasiga tushgan edi.

– Ha, – dedi u tashvish bilan.

– Bu yer ko‘cha, opketishadi bolalar... Men bolasini hovliga o‘tkazib qo‘yaman, bu uyasiga olib o‘tadi. U yoq yaxshi-ku?

Men xo‘rsindim.

– Ming qilsayam, o‘zining uyi-da... Sen kimning o‘g‘lisan?

Odamzod qiziqda, a? Uning kimga o‘g‘il bo‘lishining menga nima ahamiyati bor deng?

– Botir cho‘ponning, – dedi.

– Ha-a, ordeni bormi?

– Yo‘q, – u g‘amgin tortib qoldi. – Eshimboyning ordeni bor. Lekin qo‘yi kam...

Ana, yosh bolalar ham o‘sha maxinatsiyalarni bilishardi.

– Hechqisi yo‘q, – dedim. – Sening otang ham oladi. Botirboy zo‘r cho‘pon. A, uylaring shu devor orqasidagimi?

– Eee! – dedi u ustimdan kulganday. – Ana-ku! Sizga otam ituzum berganda men derazadan qarab turib edim... Yana kerakmi? Koʻzingiz yoshlanib ketyapti!

– Yoʻq. Ituzum bor, – dedim. – Aka-ukalaring ham bormi?

– Ukam oʻldi. Doya kampir chala tugʻilgan, dedi. Oʻldi. Koʻmib keldik. Kichkina edi.

– Attang, – dedim.

Shu yerga kelib joylashgandan beri haligi ayol bilan erining yashash sharoiti, yotish-turishini ham koʻrib turardim: ayol tong otmasdan uygʻonardi: sigir sogʻadi, erini kuzatadi, keyin oʻrmak toʻqiydi... Kun koʻtarilaverganda ariqning u betidagi paxtazorga tushadi: kechgacha bir qopni tikka qilib qoʻyadi. Kechasi ham allamahalgacha ularning kulbasidagi yolgʻiz derazadan ariq boʻyiga nur tushib turadi. Oʻrmon aka bilan Azimjon aka, tagʻin uch-toʻrt bola ularning choyini ichib chiqqan, bir-ikki marta ovqatlarigayam sherik boʻlgandi. Shu narsalarni oʻylab: “Ishi ogʻir, bola tashlagandir-da”, deb oʻyladim.

Matnda tilga olingan obrazlar, shaxslar qaysi jihatlari bilan sizga tanish kishilarni eslatadi? Fikringizni dalillang.

Bilasizmi, ey qadrdon, koʻzimiz ochiq boʻlgani bilan ojiz ekanmiz-da: siz ham shunday gʻarib kulbalarda yashayotgan dehqonni, paxtakorni koʻrgansiz. Albatta... Lekin buni tan olmas edik-a? Qanday ablah ekanmiz! Tavba, buni tan olishdan uyalar edik. Birovlardan ham yashirar edik. Shoshmang-shoshmang, bu yerda gap bor: bu narsa faqat qoʻrquvdan deb oʻylaysizmi? Gumonim bor. Bechora oʻzbekni bilasiz-ku, oʻzi yemasdan mehmonga tutadi... Kambagʻalligini yashiradi. Qiziq-a? Holbuki, kambagʻal odam oʻz holatiga koʻnikkan boʻladi. Yashirmaydi. Biznikilar negadir... Xuddi juda boy edi-yu, birdan kambagʻal boʻlib qolganday: shuning uchun oʻkinch bilan buni yashirishga intilayotganday tuyuladi menga... Balki, boshqa, bizning aqlimiz yetmaydigan sabablar bordir?

Bolaning ismi Abduqodir ekan. Birga-birga ayvonga keldik.

– Itga tegma, – dedim. – Senga oʻzingning uying yaxshi, unga oʻziniki yaxshi.

– Bu yerda yomon bolalar oʻgʻirlab ketadi. Sotadi, – dedi Abduqodir.

– Kimga sotadi?

– Sotadi-da... Bitta gektarchi karis oltita kuchukni sotib olib ketgandi.

– Oʻqiysanmi?

– Beshinchida... Tushdan keyin maktabga boramiz. Hey keyinroq koʻrak chuviymiz.

koʻrak – hali yetilmagan paytida sovuq urgan, ochilmay qolgan koʻsak

– Oʻqish nima boʻladi?

– Toʻxtaydi! – deb kuldi u. – Kelasi yildan paxtaga chiqamiz! Men hozir ham paxta teraman. Opamga terishaman... Kitob? Oʻqiyman. “Robinzon Kruzo” bor. Bitta feldsher tashlab ketgan. Oʻtgan yili... Ukamni koʻrgani kelgandi... Men yigʻladim. Keyin shu kitobni berdi. Yaxshi kitob!

Azizim, men ham xuddi shu bolakayning yoshida oʻqigan edim oʻsha kitobni. Siz ham... Biografiyamiz qanchalik yaqin-a? Hikoyamni choʻzib yuboryapmanmi? Shoshib qayerga borasiz, qadrdon? Goho miriqib gaplashib, oʻylashib olish ham kerak-ku! Oʻsha damlarni qaytadan yashab, a? U xotiralar odamning yuragini tozalaydi. Shundoq ham fisq-u fujurga, keraksiz koni ziyon oʻylarga toʻlib ketgan bu koʻkrak... Sigaretdan cheking.

Shunday qilib, Abduqodir bilan jo‘ra bo‘lib qoldik. Tutzor ortidagi barakda qizlarimiz ham turardi. Ulardan ham ikkitasi kasal bo‘lgan ekan, doktor keldi. Meniyam ko‘rib, analgin-panalgin deganlaridan berib ketdi. Uch kun qattiq yotdim. To‘rtinchi kun edi shekilli, ayvonga chiqayotsam, Botir cho‘pon bitta tarvuzni qo‘ltiqlab pastga tushib ketdi. Shu kuni tushdan keyin havo ochilib, kun ancha qizidi. Kechga tomon yana uyni supurib bo‘lib, ayvon – ustun tagida – cho‘nqayib o‘tirgandim. Abduqodir yarim palla tarvuzni ko‘tarib, pishnab chiqib kela boshladi. O‘zi bitta tarvuz olib tushishgan edi...

– Sizga. Yeng, – dedi. – Otam berdilar. Opam yesin dedilar... Keyin kechqurun uyga kirar ekansiz.

– Yemayman. Rahmat. Qornim to‘q, – dedim.

– Yo‘q. Yeysiz! – dedi u men bilan urishadiganday. – Siz kasal. Bu tarvuz yaxshi ekan.

– Yemayman.

Abduqodir turdi, turdi-da, tarvuzni shartta yerga qo‘yib, chopib tushib ketdi.

Bolalar terimdan qaytgach, haqiqatan ham Botir cho‘pon chiqib kelib, bizlarni uyiga aytdi:

– Kelinglar, ukalar. Bir osham osh qilgan edik. Sizlarga rahmat. Bu yerda ota-onalaring yo‘q...

– E, uyingizga sig‘maymiz-ku, – dedi O‘rmon aka.

– Ko‘ngil keng bo‘lsa, bemalol sig‘ishamiz, – dedi cho‘pon, – tushinglar.

– Biz axir yigirma kishi!

– Bo‘lmasam, yigitlar, o‘ntamiz bugun mehmon bo‘lamiz. O‘ntamiz keyin! – dedi O‘rmon aka.

Meni qo‘ymay olib bordilar. To‘rt kishi zo‘rg‘a sig‘adigan xona edi. Burchakda g‘ishtin pech. Oqlangan. Lekin choyning dog‘i, yog‘ to‘kilgan. Yerga ikki qavat palos solingan. To‘rda bir taxmon yuk. Ensiz-ensiz ko‘rpachalar solingan. Tiqilishib o‘rnashdik. Botir cho‘pon iljayib, quvonib dasturxon yozdi. Qo‘sh-qo‘sh yopgan non qo‘ydi. Bir taqsimcha oq qandni sochib tashladi. Keyin ikki hovuch jiyda bilan mayiz ham sochdi. Keyin kattakon xum choynakka ko‘k choy damladi. Ikki tovoq palov hash-pash deguncha yo‘q bo‘ldi. Keyin bosib-bosib choy icha boshlashdi. Men... qanday o‘tirganimni bilmas edim. Kasallikdan tuzalmaganim, injiqlik ham sababdir... Lekin bir burda non yeyishga istihola qilardim. Bu oila kambag‘al oila edi.

Asarda roviy tilidan “Bilasizmi, ey qadrdon, ko‘zimiz ochiq bo‘lgani bilan ojiz ekanmiz-da”, deyilganda nima nazarda tutilgan?

– Ha, paxtalar ham oyoqlab qoldi... Qani, bu yashash qalay endi? – dedi O‘rmon aka. – Yig‘inyapsizlar deyman-a? Ha-ha-ha! O‘zbekning odati shu-da: bolamga bo‘lsin deydi...

– Ha, endi bizning otalar ham qilgan-da, – dedi Botir cho‘pon. – Opangizga uylantirib qo‘yishdi. Elning oldidan o‘tdik. To‘y deganday, xarajati bor-da...

– Lekin bizni aldashyapti, cho‘pon aka! Kunlik mehnatimiz ovqatimizni qoplamaydi. Bir kiloga o‘n tiyin to‘laydi. Hozir o‘n kilo terish o‘limdan qiyin.

– Ha, endi chidaymiz-da, og‘ajon. O‘zimizning paxta, o‘zimizning hukumat.

– Hey, tushunmay qolaman-da bu ishlarni!

Ayol meni kuzatib turgan ekan.

– Shu ukamiz hech narsa tatimadi-da, – deb qoldi. – Yo bizni pisand qilmayaptilarmi?

– E, nimaga... – Olovim chiqib ketdi. – O‘zim, shu...

– He, ishtahasi yo‘qdir-da, – dedi O‘rmonjon aka. – Bo‘lmasa, ovqatdan ham tortinadimi odam!

– Ha, ishtaham yo‘qroq... – dedim.

Tezroq chiqib ketgim kelardi. O‘rmon akaning gaplari, so‘roqlari jonimga teggan edi... Nima? E, qadrdon, meni nahot tushunmaydi deb o‘ylaysiz? Ha-ha! O‘rmonjon akayam o‘zicha haq edi... Masalaning boshqa tomoni ham bor: biz o‘zimiz ham qornimiz to‘yib yashamasdik. Bittasi yarim kilo qand obkelgan bo‘lsa, boshqa bittasi o‘g‘irlardi, birovning kosasidagi go‘shtni birov... Aytishga til bormaydi. Tutab ketasan kishi. N-nima qilishim kerak bo‘lmasa? Hadeb qo‘l uzataveraymi? Qo‘ying bu gaplarni. Og‘a! O‘sha sharoitda siz ham mendan o‘zgacha tutmasdingiz o‘zingizni!

Muhokama qilamiz

1. Ergashvoy (asar hikoyachisi)ning Botir cho‘pon oilasiga ko‘ngli ilishiga sabab nimada deb o‘ylaysiz?
2. Botir cho‘ponning tor uychasi-yu keng qalbi bugungi globallashuv davri insonlarida qanday taassurot uyg‘otadi? Sizda-chi?
3. Muallif asar qahramoni nutqida sheva so‘zlarni qo‘llash orqali qanday maqsadni ko‘zlagan?
4. Botir cho‘ponning uyida ishtahasi yo‘qligini bahona qilib non yeyishga iymangan qahramon va hech narsadan tap tortmaydigan do‘stlari sizda qanday taassurot uyg‘otdi? Ular o‘rtasidagi farqlarga munosabat bildiring.

Topshiriq

Asarning **III** qismini uyda o‘qib keling.

III

Shu-shu, bularning uyiga qayta kirmadim. Cho‘pon gapiradi, xotini aytadi, o‘g‘li chaqiradi. “Xo‘p” deyman. Paysalga solaman. Ularning kulbasiga kunora kirib chiqadigan, dasturxonini quritadigan bolalar ko‘zimga yomon ko‘rinib qoldi. Asta-sekin ular bilan ham hamdardlikni uza boshladim. Shunda, siz tasavvur ham qilolmaydigan bir voqea sodir bo‘ldi.

Surunkasiga yomg‘ir quya boshladi. Ikki kun ovqatsiz qoldik. Shundoq ham ko‘p bolalar qarzdor bo‘lishgan edi. Asta-sekin elchilarimiz qishloq ko‘chalarida izg‘iydigan odat chiqarishdi: kechasi bir mahalda o‘ntalab, o‘n beshtalab qovun-tarvuz ko‘tarib kelishadi. Ertasi shtabda janjal: kimdir hovlisiga o‘g‘ri tushganini aytib shikoyat qilib kelgan... Ana, o‘g‘rilikkayam o‘rgana boshladik. Ammo eng katta o‘g‘rilik...

Kechasi dovul bo‘ldi. Bir payt eshik qattiq ochilib, shalabbo bo‘lgan Botir cho‘pon ko‘rindi.

– Mollar chiqib qochdi! Yordam beringlar! Qo‘y-echkilarni nima hurkitgan – bilmay qoldim.

Boshqalar qatori chiqib, izlab ketdik. Qishloq ko‘chalarida deng, it ko‘p. Balki, bo‘ri oralagandir? Yomg‘ir bo‘lsa chelaklab quyyapti... E, ko‘p izladik. Dabdalamiz chiqib, qo‘y-echkilarning bir qismini paxtazordan, besh-oltitasini ko‘chadan, ayrim xonadonlardan topib keldik. Cho‘pon eshik og‘zida fonar yoqib, ko‘zlari javdirab turibdi. Nuqul rahmat deydi. Ayoli alqaydi. O‘g‘ilchasi xursand... Lekin bitta qo‘zi topilmagan edi.

– Uni o‘zim topaman. Sizlar dam olinglar endi... Topsam, o‘zimning ikki qo‘yimdan bittasini so‘yib, qovurib beraman sizlarga, – dedi Botir cho‘pon.

– Shunday qiling-e, bir go‘shtga to‘yaylik, aka! – dedi O‘rmon aka.

Biz yotoqqa qaytdik. Endi... yana burnim bitti desam, sizniyam g‘ashingiz keladi. Mayli, bunday deyin: shu kecha besh-oltita yigit ham qattiq shamollagan ekan. Soat ikkimidi-uchmidi, nafasim qaytib uyg‘onib ketdim. Eshik qiya ochiq, g‘uvullab shamol kirayotgan ekan. Tagidan tortdim, yana ochildi. Tob tashlaganmi, nima balo. Irg‘ib turib tutqichdan ushlaganimni bilaman, birov eshikni naryoqqa tortdi. Men bu yoqqa. Qo‘rqdim. Keyin lang ochib yubordim. Azimjon aka turgan ekan.

– Ee! Baqqa ke. Ustingga bir narsa il, – dedi u kishi.

Choponni yelkaga tashlab chiqsam, ustun yonida O‘rmon aka, Mirzag‘olib degan polvon yigit ham turishibdi. Mirzag‘olibning ham yoshi mendan ulug‘, Rais degan laqabi bor, o‘zi ehtiyotkor, qirqoyoq kiradi, deb kechasi qulog‘iga paxta tiqib yotadi. Azimjon aka eshikni zichladi-da:

– Yur. Gap bor. Bo‘lgan ish bo‘ldi... Sen sho‘rlik ham bir maza qil, – dedi.

– Lekin guldur-gup, – dedi O‘rmon aka.

Ularga ergashib yo‘lga chiqdim. O‘rmonjon aka oldinga tushdi. Yomg‘ir tingan, ammo sovuq kunlardan darak beradigan shamol esar, u ust kiyimlarimiz o‘ngirlarini ochar, bag‘rimizga o‘zini urar edi. Endi itlarning tovushi ham o‘chgan. Biz yo‘l yoqasidan orqaga – qishloqqa bizni olib kelgan tomonga ketar edik. Ancha yo‘l yurib qo‘ydik. Dimog‘im ham ochildi ancha. Bir-ikki marta:

– Qayoqqa boryapmiz, o‘zi? – deb so‘radim. Ular aytishmadi. Keyin bo‘lsa... Xursand bo‘lib ketdim... Ha, zim-ziyo tunda qandaydir sirli ish bilan qayoqqadir ildamlab ketishning ham zavqi bor-da! He, qishloq orqada qolib ketdi... Boshda aytganim – qiyoqlar bog‘-bog‘ qilib yerga o‘tqazib qo‘yilganday ajriqzorga yetib keldik. Bu tomonda bir-ikkita it uchradi, qochib ketishdi. Biz O‘rmonjon akaning orqasidan boryapmiz. Ayrim joylardagi qamishlar yondirilgan ekan: namiqqan kulning hidi anqiydi.

Nima uchun yigit Botir cho‘ponning uyiga kirmay qo‘ydi?
Sizningcha, O‘rmon aka yigitni qayoqqa boshlab ketayotgan edi?

Namchil yer g‘ij-g‘ij etadi. Alqissa, qamishlar odam bo‘yi o‘sgan, changalga o‘xshash yerga borib qoldik. Shunda bir qo‘zichoqning ojiz ma’raganini eshitdim. Ammo hali gap nimadaligini, bu safardan murod neligini bilmasdim. Oqibat, qamishlarga oraladik va O‘rmonjon aka qo‘l fonarini yoqdi. Zumdan keyin biz oyoqlari kulliklab bog‘lab, yotqizib qo‘yilgan qoragina, jiqqa ho‘l bo‘lgan, ko‘zlari yiltirab zo‘rg‘a ovoz chiqarayotgan qo‘zichoq tepasida turardik.

– Xayriyat, – dedi O‘rmonjon aka.

– Men daydi itlardan qo‘rqqan edim... Ergashvoy, chorvani bilasan, it ham qo‘zichoqlarni yeyishi mumkin-a?

– Shunday voqealar bo‘ladi, – dedim. – Lekin bu kimning qo‘zisi?

– Bizniki... Bizniki endi. Mirzag‘olib, boshlang endi! Mana, mening pichog‘im o‘tkir, lekin suyakka urmang.

Juda jo‘n ekanman deyman-da!

– Vey, shuni so‘yasizlarmi? – depman.

– Bor. He, u yerdan yo‘lga qarab tur!

– Yo‘q, axir bu kimniki? Balki kolxozniki, balki... E? Botir akaning yo‘qolgan qo‘zisi emasmi?

– Obbo, senga nima deyapman! – deya O‘rmonjon aka yelkamdan ushlab orqaga burdi.

– Bor-da endi. Kolxozning yonini oladiganni ko‘rdik! Kolxoz... Padariga la’nat! Bizni ochdan o‘ldiradi! Botir ham bir qo‘zidan ayrilsa, ochdan o‘ladigan kimsa emas!

– Axir insoflaring...

Shu ish bilan bu yigitlar tarbiyalanib qolarmidi? Yo‘q! Men o‘shanda faqat nafratlanar, nochorlikdan fig‘on chekar edim. To‘g‘ri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bosdim. Lekin, chamasi, kursdoshlar orasida yolg‘izlanib qolish, ming bir ta’nalarni eshitishdan ham qo‘rqdim, shekilli.

Bundan tashqari, anglab olmagan esam-da, bu yigitlar to‘qlikka sho‘xlik qilmayotganlarini ham tushunib turardimki, garchi bu hol ularni oqlashga tirnoqcha asos bo‘lmasa ham, ko‘nglimga tasalli, o‘z-o‘zini aldash deysizmi – shularning biri edi.

Xullas, men o‘sha qo‘zining go‘shtidan bir bo‘lak yemagan esam-da, baribir o‘g‘rilikka sherik edim. O‘rmonjon akayam, Azimjon akayam bir haftalargacha mendan xavfsirab yurishdi. Men ular bilan gaplashmay qo‘ygandim xolos.

Nima dedingiz? Ha, o‘sha yerda so‘yishdi. Mirzag‘olib so‘ydi. Hash-pash deguncha terisini shilib, kalla-pochasini otvorishdi. Keyin bir to‘p qamishni yondirib, qo‘riga jigarini pishirib yeyishdi. Yemadim dedim-ku. O‘zimni ishtahasi yo‘qqa urdim-da... Juda bo‘lmagandan keyin: “Hammalaringdan jirkanaman!” – deb chetga chiqdim. Keyin kutdim.

Bee, cho‘ponga borib siz ham aytmasdingiz. Keyin ketdim. Yotoqqa kirib yotdim... Nuqul yig‘lagim keladi, ukkag‘ar. Botir akaga, ayoliga achinardim. Keyin yigitlarimizgayam achindim... Ha! Ular qachon kirib yotishganini bilmayman. Biroq uch-to‘rt kun go‘sht qovurib yeyishdi. Yo‘q... qizlar yotog‘ida yeyishdi. Endi, ular ham jannatda emas edilar-da, qadrdon.

Siz, yozuvchilar, injiq odamsizlar. Yaxshi odam deganda albatta sutdek oq, musichadek beozor odamni tushunasizlar. Holbuki, unaqalar hayotda yo‘q: undaylar, menimcha, g‘oya... xolos.

O‘rmonjon aka, Azim aka va boshqalarning bu noinsofligini qanday baholaysiz? Nega yigit o‘rtoqlariga achindi?

Ha-ha-ha. Sizning gapingiz ham “Kommunistik jamiyat odamining axloq kodeksi”ga o‘xshab ketadi. Kodeks chiqdimi, demak, bas, odamlar unga amal qiladi: risoladagidek bo‘ladi deb hisoblashadi ba’zilar. Bular – chepuxa gaplar.

Kunlar o‘tdi. Qor uchqunlay boshladi... Bizning, o‘zingiz bilgan tog‘larda bunday paytlar izg‘ishlarimiz, sayr-u sayohatlar endi ertak edi. Biz sovuqda tors-tors yorilgan ko‘saklarning paxtasini suvga ivitib olgandek sug‘urib olardik. Ha, ikki kishi arqon bilan bir chetdan surib, g‘o‘zalarning qorini to‘kishardi. Keyin dikillab egatga kirardik. “Oq oltin”ni terardik. Bu qurmag‘ur “oq oltin” etakka tushgach, tugilib, mushtdek bo‘lib qolardi. Jiqqa ho‘l-da. A? Qanday qilib quritib topshirishlarini bilmayman. Lekin bir-ikki xonada uyilib, sasib yotganini ko‘rganman. Keyin ko‘sak terish boshlanadi. Endi bizning qadrdonlar: O‘rmonjon aka, Azimjon aka, Mirzag‘olib, tag‘in ularning safdoshlari – bari sal sovuq o‘tdi deguncha, yo vaqtida bak qaynamasa, Botir cho‘ponning kulbasiga kirib tiqilib olishardi.

Cho‘pon bilan xotini esa... xursand! Biz endi yakkamoxov bo‘lib qolgandik. Yo‘q, sira kirmadim. Qanday qilib kiraman!

Bu yog‘iga quloq soling. Qaytadigan bo‘ldik. O‘zingiz bilasiz, bunday kunni hech bir o‘qituvchi, brigadir aytmaydi... Negaligini hamon tushunmayman. Balki, terimdan sovib qoladi deb o‘ylashadimi? Lekin kulgili joyi shundaki, bolalar baribir bilishadi. Botir cho‘pon ham bilgan ekan. Erta jo‘naydigan kunimiz o‘zlari xotinlari bilan kelib qoldilar. Yotoqqa... Men qandaydir xavotirga tushgan bo‘lsam kerak, har holda.

– Assalomu alaykum, kelinglar, mehmonlar! – deb yubordi O‘rmon aka.

Azimjon akayam bolalarga to‘shanchi solishni buyurdi. Botir cho‘pon qulluq qilib, xuddi kirib o‘tirmasa, biz u dunyo-bu dunyo yuz ko‘rmas bo‘ladigandek, ta’zimlar bilan yana uyga qaytdi.

– Shu, labz ekan, ukalar... Tilga olib qo‘ygan edik. Bitta qon chiqaramiz deb... Shunga qadam ranjida qilsangizlar. Mana, opalaring ham iltimos qilyapti, – dedi.

Men tamom bo‘ldim.

– E, qandoq bo‘larkin... – dedi O‘rmonjon aka. – Qo‘zingiz topilsa, boshqa gap edi.

– Ha, o‘sha kecha biz ham yaxshi izlamagan ko‘rinamiz, – dedi Azimjon aka ham. – Andak xijolatdamiz.

– E, og‘alarim-ey, – deb kuldi cho‘pon. – Biz xijolatda edik. Ishonasizlarmi, biz?.. Endi gapni ko‘p chuvaltirmaylik, ukalar. Qo‘zi topildi hisob. A, xotin? He, Shodito‘qaydan topdik. Ul-bulini... O‘zimiz tusmollagan edik... daydi itlarga yem bo‘lganov deb... Endi bizni xursand qilamiz desanglar, ketar jafosiga bir mehmonimiz bo‘lasizlar...

Keyin o‘zlari ham endi terimga chiqmasliklarini, faqat g‘o‘zapoya yulishlari va uyda o‘tirib, ko‘sak chuvishlarini aytdi.

– Qishlog‘imizda ikkita grek bor, – dedi xotini keyin. – Bir chelak haligiday suvdan ham oldik.

Hayronmisiz, qadrdon? Men hayronman! Albatta!

Shu kechasi bir mahalgacha kulbada o‘yin-kulgi qilib o‘tirishdilar. Tashqarida ham davom etdi. Men o‘zimni uxlaganga solib yotar edim. Yigitlar kelib, chiroqni yoqishgach, men to‘g‘rimda to‘ng‘illay-to‘ng‘illay o‘tirishdi. Ko‘pchiligining kayfi bor edi. Kayfdagi odamning gapiga ishonish qiyin-u, lekin... ha, ha, o‘sha, xuddi o‘ylagan gapingiz bo‘ldi: pushaymonlik... E, biri qo‘yib, biri oldi, biri qo‘yib, biri... Chamasi, hammasining og‘zi teggan ekan o‘sha go‘shtga. Azimjon akaning bir nidosi yodimda qoldi:

– Biz ablahmiz! – dedi ingrab. – Ko‘ra-bila turib ablahlik qilamiz. Biz qanaqasiga o‘zbekmiz-a? Ana ularni o‘zbek desa bo‘ladi. Nima deding, O‘rmonjon?

– Biz ancha buzilganmiz, – deb po‘ng‘illadi O‘rmon aka. – Lekin hayotning o‘ziyam majbur qiladi-da kishini.

– Ularni majbur qilmayapti-ku!

– Nimaga?

– Shu, endi... Balki, pul yig‘ib berarmiz-a?

– Bo‘lsa!

Keyin yana men haqimda gapirishdi. Bittasi, ovozidan bilolmadim, tik turgancha:

– Shu Ergashvoyning ichiga tepsang-da! – dedi. – Ko‘zimga itdan battar ko‘rinyapti... Endi bir umr kulib yuradi bizdan, yaramas. Yovvoyi...

– Parvo qilma, – dedi O‘rmonjon aka. – Bunaqalar hayotda bo‘ladi...

Men bu hikoyani o‘zimni maqtash uchun aytmayapman. U yog‘ini so‘rasangiz, hozir ulardan ham beshbattar bo‘lganman: haqqimni yedirmayman. Har qanaqa avtoritetni odam demayman... Shu-shu. Hozir hammamizning ko‘zimiz ochilib qolgan...

Ha, ertasi... laylakqor yog‘ib turardi. Xuddi tog‘larda yog‘adigandek! Ko‘chada avtobuslar tizilib ketgan. Yigitlarning boshi osmonda. Nihoyat universitet auditoriyalariga qaytishadi!

Ayvonda turgandim. Xaltam yonimda. Shu Botir cho‘pon bilan xotiniga bir yaxshi gap, minnatdorchilik bildirgim kelardi. Men ularni juda yaxshi ko‘rib qolgandim-da! Ha, kelib qolishdi.

– Xush ko‘rdik! Sizlarga ming-ming rahmat, O‘rmonjon! – dedi Botir cho‘pon. – Azimjon, sizgayam... Hammalaringizga. Qaranglar, bir mayizni qirq bo‘lib yeganday yashadinglar... Sizlarning qadringizga yetolmadik biz.

U kishi hamma bilan qo‘l berib xayrlashdi-da, menga qolganda burilib ketdi. Shunda ayoli ham xo‘shlasha boshladi. Qadoq qo‘llarining uchini berib xo‘shlasha-xo‘shlasha menga yetganda uyam burilib ketdi. Men titrab-qaqshab ularning oldiga bordim.

– Botir aka, opa... Men sizlarni juda yaxshi ko‘raman, – dedim. – Xafa bo‘lmangizlar.

– Yo‘q, siz bizni yaxshi ko‘rmaysiz, – dedi xotini. – Boshdan yomon ko‘rib edingiz.

– Rost, uka. Pisand qilmadingiz bizni, – dedi shunda cho‘pon ham. – Anavi yigitlar boshqacha...

– Axir men sizlarni juda-juda hurmat qilaman.

– Bekor gap, – dedi ayol.

– Ha, – dedi eri.

Abduqodir menga yotsirab qarab turardi. Shunaqa. Xo‘sh, bu yerda nimani ko‘rding, nima xulosaga kelding, deb so‘rarsiz?

Men bu yerda oddiy-jaydari, sodda o‘zbekning kengligi, to‘poriligini ko‘rdim. Ishonasizmi, avtobusga o‘tirganimdan keyin sovuq oynadan laylakqorga qarab yig‘lar edim: mana shu o‘zbeklarning bag‘rikengligi uchun, ne-ne qiyinchiliklarga, faqirlikka qaramay, fe’li tor bo‘lmagan, ajib-afsonaviy mehmondo‘stligi instinkt kabi mavjud qolgani uchun... ichimda, ich-ichimdan quvonib yig‘lardim.

Uzr, suhbatimiz “o‘zbek xarakteri” haqida edi. Sizlar aytgan zo‘r-zo‘r hikoyalardayam haqiqat bor. Ammo mening bu jo‘ngina, oddiygina hikoyam – ko‘nglimdan o‘tgan narsa edi, azizim. Shuning uchun buning menga ta’siri mutlaqo bo‘lakcha.

1988-yil

Muhokama qilamiz

1. “O‘zbeklar” hikoyasidan nimalarni uqdingiz? Sizningcha, hikoyada o‘zbek xarakterining qaysi jihatlari ochib berilgan? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.
2. Asarda hikoya qilinayotgan voqealar hayotiy haqiqatga mos keladimi? Fikrlaringizni matn va hayotiy kuzatishlar asosida dalillashga harakat qiling.
3. Hikoyadagi o‘zbek xarakterini ochib beruvchi obrazlarga tavsif bering. Siz ko‘proq qaysi obrazdan ta’sirlandingiz? Nega? Nima uchun?
4. Bosh qahramon xarakteriga xos xususiyatlarni matn asosida ko‘rsating. Uning tabiatida sizga ma’qul kelmagan jihatlar ham bormi?
5. Atrofimizda O‘rmonjon, Azimjonga o‘xshagan ikkiyuzlamachi kishilar bo‘lmasligi uchun qanday tavsiyalar bergan bo‘lardingiz?
6. Agar Ergashvoy Botir cho‘ponga o‘g‘rilik haqida aytib berganida, sizningcha, voqealar qanday tus olgan bo‘lardi?
7. Asarda qayd etilmagan, o‘zbeklarga xos yana qanday xarakterlarni kuzatgansiz? Bugun ham ularni “o‘zbek xarakteri” deya olamizmi?

Topshiriq

Hikoyadan sabab va oqibat zanjiri aks etgan o‘rinlarni toping va quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Voqeani yuzaga keltiruvchi sabab	Yuz bergan voqea oqibati	Izoh

Nazariy ma’lumot

XARAKTER


Xarakter (yunoncha ***charakter***) – *iz, belgi, farqlovchi xususiyat* degan ma’noni bildiradi. Badiiy asarda biror-bir davr, muhit kishilariga xos eng muhim, boshqalarga o‘xshamaydigan individual xususiyatlari bilan ajralib turadigan shaxslarga xarakter nisbati beriladi. Xarakter kishilarning salbiy yoki ijobiy xatti-harakatida, fe’l-atvorida, ruhiy kechinmalarida, nutqida, fikrlarida, biror-bir voqelikka munosabatida namoyon bo‘ladi. Asarlarda tasvirlangan qahramonlarning hammasi xarakter darajasiga ko‘tarila olmaydi. Qahramonning xususiy belgilarini ochish uchun ijodkordan yuksak mahorat talab qilinadi. O‘zbek adabiyotida xarakter darajasiga ko‘tarilgan obrazlar ko‘plab mavjud. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Otabek, O‘zbek oyim, G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasidagi Roqiya bibi, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri”sidagi amin kabilarni fe’l-atvori, gap-so‘zlari, o‘ziga xos individual xususiyatlari bilan namoyon bo‘lgani uchun xarakter deb atash mumkin.

O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, “O‘zbeklar” hikoyasida xarakter darajasiga ko‘tarilgan obrazlar qaysi? Fikringizni matn asosida dalillang.

Topshiriq

Quyidagi chizmani avval o‘qigan asarlaringizdagi xarakterlar bilan to‘ldiring.





TO‘RA SULAYMON (1934–2005)

Dars davomida:

- To‘ra Sulaymon she’rlarida tabiat tasviriga xos xususiyatlarni bilib olamiz;
- badiiy tasvir vositasi haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz.

To‘ra Sulaymon 1934-yili Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi Aldashmon qishlog‘ida tug‘ilgan. Shoir tarjimayi holida quyidagilarni yozadi: “Mening qaysi yili tug‘ilganim aniqmas. Enamning aytishlariga qaraganda, o‘zimning qachon maktabga borib, qachon ro‘zg‘or ishlari bilan kattalarday jiddiy shug‘ullana boshlaganimni eslasam, tug‘ilgan yilim o‘ttiz ikkinchiga to‘g‘ri keladi. Bunday deyishimning sababi quloq qilinganimizda enamning qo‘lida bo‘lgan ekanman”. Bo‘lg‘usi shoirda adabiyotga, ijodga havas ancha erta uyg‘ongan. Bunda xalq ijodi, xalq kitoblarini yaxshi bilgan zukko ota-onasining xizmati katta bo‘lgan. “Ayniqsa, otamdan eshitganlarim orasida “Boldirboy” degan ertakni boshqacha mehr bilan yoqtirganman”, deb eslaydi shoir.

To‘ra Sulaymonning birinchi kitobi 1962-yilda “Istar ko‘ngil” nomi bilan nashr etilgan. Shundan so‘ng uning “Qorasoch” dostoni, “Men qayga borar bo‘lsam” she’riy to‘plamlari nashrdan chiqdi. Shoir she’rlarida xalq og‘zaki ijodining ta’siri kuchli sezilib turadi, tabiatga oshuftalik, inson va butun borliq o‘rtasidagi aloqalar yaqqol bo‘y ko‘rsatadi.

To‘ra Sulaymonning qator she’rlarini ko‘plab o‘zbek xonandalari kuylagan, bu qo‘shiqlar millionlab insonlarning ko‘nglidan joy olgan.

Shoir 2005-yilda olamdan o‘tgan.

MUTOLAADAN OLDIN

O‘ylab ko‘ring

Onangizni o‘ychan, g‘amgin qiyofada ko‘rganmisiz? Onangizning o‘sha paytdagi yuz ifodasini qanday tasvirlagan bo‘lardingiz? Buni so‘z yoki surat orqali ifodalashingiz mumkin.

TAVALLO

Nelardandir ko‘ngil bo‘lib g‘ash
Ham egilib bu egilmas bosh,
Ko‘zlarimda qalqib tursa yosh,
Bu holimga berolmay bardosh,
Bir mushtipar onam yig‘laydir,
Qolganlari yolg‘on yig‘laydir.

Qaytar bo‘lsam quruq qo‘l ovdan,
Qora qozon qolsa qaynovdan
Ham ayrilib o‘lja, ulovdan,
Qarzga botar bo‘lsam birovdan,
Taskin berib, onam yig‘laydir,
Qolganlari yolg‘on yig‘laydir.

Birda haqdin, birda nohaqdin,
Jabr ko‘rsam bir betavfiqdin,
Ortda tursam qalbi quroqdin,
Qadrim xarob bo‘lsa tuproqdin,
Ohlar urib onam yig‘laydir,
Qolganlari yolg‘on yig‘laydir.

Og‘a-ini o‘rtasida gap…
Alhol, kelib chiqmish ixtilof:
Biri izzat, biri mulk talab.
– Bu oq sutim, mehrimga xilof, –
Deya sho‘rlik onam yig‘laydir,
Qolganlari yolg‘on yig‘laydir.

Sinalmoqning gali kelganda
Nohaq mag‘lub bo‘lsam maydonda,
Nomim qolmas bo‘lsa jahonda,
Kim do‘st, dushman – bilinar onda



Ahvolimga onam yig‘laydir,
Qolganlari yolg‘on yig‘laydir.

G‘anim bir yon, men bir yon bo‘lsam,
U ustuvor, men uryon bo‘lsam,
Bu ham kamday nogiron bo‘lsam –
Yog‘och otga yonma-yon bo‘lsam,
Oy tutilib, onam yig‘laydir,
Qolganlari yolg‘on yig‘laydir.

Bo‘lsam gumroh, bo‘lsa gunohim,
Vujudimga solmasdin vahm,
Qabul aylab tavallo – ohim,
Darig‘ tutmay mehring, Ilohim,
Yig‘latmagil mushfiq onamni,
Volidayi muhtaramamni.

Muhokama qilamiz

1. “*Nelardandir ko‘ngil bo‘lib g‘ash*
   Ham egilib bu egilmas bosh” misralaridan lirik qahramonning tabiatiga izoh bering.
2. She’rning ona haqidagi boshqa she’rlardan ajralib turuvchi o‘ziga xosligi nimada? Fikringizni matn asosida dalillang.
3. *“Sinalmoqning gali kelganda*
   Nohaq mag‘lub bo‘lsam maydonda” misralari orqali lirik qahramonning qanday kechinmalari ifodalangan?
4. She’rda qanday tasvir vositalaridan foydalanilgan?

Tadqiq qiling

Ona haqida yana qaysi ijodkorlarning asarlarini bilasiz va ularda onalarning asosan qanday fazilatlari ulug‘langan? Quyidagi jadvalni namunadagi kabi to‘ldiring.

Ijodkor	Asar nomi	Xususiyat
To‘ra Sulaymon	“Tavallo”	Mehribon, samimiy
O‘tkir Hoshimov		

Topshiriq

To‘ra Sulaymonning “Tavallo” she’rini yod oling.

O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, tabiat tasviri ifodalangan she’rlar boshqa she’rlardan qaysi jihati bilan farq qiladi?

ILTIJO

Bahor kelsa, boshlanar bog‘da bulbul xonishi,
Sa’va, qumri nag‘masi, suralay tovlanishi.
Qirlarda lola sayli, qishlovlarda yil boshi:
To‘xtagay tabiatdan haqqushlar zorlanishi,
Bahor, ketma mening bog‘imdan.

suralay – patlari rang-barang qush turi

Qilmishi qing‘ir zotga davr qayda, davron qayda?
Vatangado kimsaga beminnat makon qayda?
Yolg‘iz otga olamda nom qayda, nishon qayda?
Bahor, sensiz sahro-yu tog‘-u toshga jon qayda?
Ketma, Bahor, mening bog‘imdan.

qishlovlar – qishloqlar

O‘lmaslikka ishora – o‘langa oshiqligim,
Saodatga ishora – zamonga oshiqligim,
Teranlikka ishora – ummonga oshiqligim,
Go‘zallikka ishora – bo‘stonga oshiqligim.
Bahor, ketma mening bog‘imdan.

Bu kun qay bir yerda qish, qayda xazonrezgilik,
Qaylarda yoz, qayda kuz, qayda jondan bezgulik.
Ko‘klamning har nafasi umrga arzigulik,
Bog‘siz, bog‘bonsiz yerda ne ham qilsin ezgulik…
Ketma, Bahor, mening bog‘imdan.

Giyoh bilan qoplanmish ko‘hna qabr boshlari,
Maysadagi shudringlar kimlarning ko‘z yoshlari?
Bu yerda yotar otam ham uzangidoshlari,
Har bahor eslar uni qavm-qarindoshlari,
Bahor, ketma mening bog‘imdan.

uzangidoshlari – yor-do‘stlari, birga ot chopishgan jo‘ralari

Yoz bo‘yi qorga zorman, qishda bahorga zorman,
Chamanda gul bo‘yiga intiqman, intizorman,
Kuz kelmay xazon bo‘lgan sevgi, guldan bezorman,
Bahorsiz ham diyorsiz el ichra benazarman.
Bahor, ketma, mening bog‘imdan.

benazar – e’tibordan, nazardan qolgan

Muhokama qilamiz

1. Ushbu she’rda tabiat tasviri yetakchilik qilsa-da, nega shoir unga “Iltijo” deb sarlavha qo‘ygan?
2. *“Yoz bo‘yi qorga zorman, qishda bahorga zorman”* misrasida inson xarakterining qanday xususiyatiga ishora qilinyapti?
3. *“Maysadagi shudringlar kimlarning ko‘z yoshlari?”* misrasida shoir qanday ma’noni nazarda tutgan deb o‘ylaysiz?
4. Inson hayoti va bahor o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor? Nima uchun odamlar ko‘klamni intizorlik bilan kutadi?

Tavsiya

O‘zbekiston xalq artisti Sherali Jo‘rayev ushbu she’r asosida kuylangan “Ketma bahor” qo‘shig‘ini tinglang. She’r va musiqa o‘rtasidagi uyg‘unlik haqida fikr bildiring.

7

Topshiriq

Shoir she’rlaridagi sokinlik, mahzunlik sababi nimada? Yuqorida o‘qigan she’rlaringizdagi qaysi to‘rtlikni kuchli ta’sirga ega deya olasiz? Jadvalga sizga kuchli ta’sir qilgan misralarni yozing va izohlang.

“Tavallo” she’ri	“Iltijo” she’ri

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

ARMON

Er yigit o‘zi uchun emas, eli uchun yashaydi.
Maqol

Bobomning orzulari amalga oshmas bo‘lsa,
Yurgan yo‘limda o‘lan, qo‘shiq qalashmas bo‘lsa,
Qo‘shiqlarim bog‘lardan, tog‘lardan oshmas bo‘lsa,
El-yurt baxtini kuylash menga yarashmas bo‘lsa,
Ko‘nglimda armon yotar
Cho‘kib qolgan nor misol.

nor – tuya

Bemavrid xeshlarimning ko‘zlarida yosh ko‘rsam,
Bir mard bilan nopokning taqdirin tutash ko‘rsam,
Qaysi bir begunohni keng yo‘lda adash ko‘rsam,
Bir betayin kimsaning oyog‘ida bosh ko‘rsam,
Ko‘nglimda armon yotar
Terskaydagi qor misol.


terskay – quyosh nuri tushmaydigan joy

Aro yo‘lda qolguday bo‘lsa biror yo‘ldoshim,
Manzilga yetmay turib qoqilsa qayg‘udoshim,
Muhtoj bo‘lsa kimgadir jon ayamas qurdoshim,
Badkor degan nom olsa biror-bir vatandoshim,
Ko‘nglimda armon yotar
Ulab bo‘lmas tor misol.

qurdoshim – tengdosh, tengqur

Gulzorni alaf bossa, zog‘ bossa bog‘bon turib,
Muallaq qolsa kimdir yer turib, osmon turib,
Bir gazanda toptasa tuproqni posbon turib,
Bir yo‘rtoq yo‘l boshlasa qudratli karvon turib,
Ko‘nglimda armon yotar
Buzilgan ro‘zg‘or misol.

Ayrilar bo‘lsa magar kimda-kim oshyonidan,
Muqaddas tosh-tuprog‘i, seryulduz osmonidan,
Karvon o‘z sarbonidan, bola soyabonidan,
Qumri o‘z gulshanidan, qunduz Zarafshonidan,
Ko‘nglimda armon yotar
Bebaxt, benazar misol.



MUHAMMAD YUSUF (1954–2001)

Dars davomida:

- Muhammad Yusuf she’rlariga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz;
- badiiy tasvir vositalari haqidagi bilimlarimizni mustahkamlaymiz.

Muhammad Yusuf milliy adabiyot tarixida iste’dodli shoir, pokiza qalb egasi, xalqona she’riyatga asos solgan ijodkor sifatida o‘chmas iz qoldirdi. Uning she’rlari hayotiyligi, oddiy insonlar dardi, iztiroblariga hamohangligi bilan mashhur bo‘ldi.

U 1954-yili Andijon viloyatining Marhamat tumanida oddiy dehqon oilasida tug‘ildi. Bolalikdan adabiyotga, ijodga mehr qo‘ydi. Uning adabiyotga muhabbatida buvisi Tursunxon enaning hissasi katta bo‘lgan. Yaqinlarining eslashicha, shoir yoshligidan ko‘p kitob o‘qishga qiziqqan. Oliy ta’limni tugatib, turli xil tashkilotlarda, gazeta va jurnallarda ishlagan. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari lavozimida faoliyat yuritgan.

Uning ilk she’rlar kitobi “Tanish teraklar” deb nomlangan. So‘ng “Bulbulga bir gapim bor”, “Iltijo”, “Uyqudagi qiz”, “Halima enam allalari”, “Ishq kemasi”, “Ko‘nglimda bir yor”, “Bevafo ko‘p ekan”, “Yolg‘onchi yor”, “Erka kiyik” va “Osmonimga olib ketaman”, “Ulug‘imsan, Vatanim”, “Saylanma”, “Xalq bo‘l, elim” she’riy kitoblari nashr etilgan. Shoirning ko‘plab she’rlarini taniqli xonandalar qo‘shiq qilib kuylagan.

Muhammad Yusuf 2001-yili vafot etgan. Toshkent shahri va Marhamat tumanidagi ko‘chalardan biri, Andijon shahridagi bolalar kutubxonasi va ijod maktabi Muhammad Yusuf nomi bilan ataladi.



Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi. Andijon

MUTOLAADAN OLDIN

Muhammad Yusuf bir suhbatida: *“Bolaligimdan ichimda qushlar bordek edi, ular go‘yo tashqariga uchib chiqayotgandek bo‘laverardi. Endi o‘ylab qarasam, u ijod ekan”*, – degandi. Nima uchun shoir ijodni qushga o‘xshatmoqda? Ijodni yana nimaga o‘xshatish mumkin?

Muhammad Yusuf kitoblarini varaqlasangiz, qulog‘ingiz ostida qo‘shiq yangrab turgandek har bir she’rni zavq-shavq bilan o‘qiysiz. Shoir yuragining qat-qatidagi dardlariga sherik bo‘lasiz.

U o‘z Vatanini bir farzand sifatida diliga yaqinligi va bir butunligidan kelib chiqib madh eta olgan ijodkordir.

Uning she’rlari oddiy, ravon, soddaligi bilan xalq og‘zaki ijodiga hamohangdir. She’rlarni o‘qish davomida ularning badiiy xususiyatlariga alohida e’tibor qiling.



O‘ZBEKISTON

O, ota makonim,
Onajon o‘lkam,
O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga.
Senday mehribon yo‘q,
Seningdek ko‘rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga.

Bir go‘sha suv bo‘lsa, bir go‘sha qirlar,
Qancha yurtni ko‘rdim, qancha taqdirlar.
Qayga borsam suyab, boshni tik tut, deb
Tog‘laring ortimdan ergashib yurar.

Ko‘rdim suluvlarning eng faranglarin,
Yo xudbinman yo bir sodda kasman men:
Parijning eng go‘zal restoranlarin
Bitta tandiringga alishmasman men.

Na gapga ko‘nayin,
Na til bilayin,
Ko‘zdan uyqu qochdi, dildan halovat.
Uch kunda sog‘insam nima qilayin?...
Chala qolar bo‘ldi hamma sayohat.

Bildimki, baridan ulug‘i o‘zing,
Bildimki, yaqini shu tuproq menga.
Bahorda Baxmalda tug‘ilgan qo‘zing
Arab ohusidan azizroq menga.

Sen bilan o‘tgan har kun bayram-bazm,
Sensiz bir on qolsam, vahmim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta’zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

Muhokama qilamiz

1. “O‘zbekiston” she’rida milliy ruhga xos qanday xususiyatlarni kuzatdingiz?
2. Lirik qahramonning Vatan bedapoyalarini, o‘zbek tandirlarini muhtasham Rim yoki Parijga almashtirmasligi sababi nimada deb o‘ylaysiz?
3. Siz Vatan tuprog‘iga yaqinlikni qanday izohlaysiz? Fikringizni hayotiy kuzatishlaringiz orqali asoslashga harakat qiling.
4. She’rda qanday badiiy tasvir vositalari qo‘llangan? Fikrlaringizni dalillang.
5. She’rdagi kabi tuyg‘ularni boshingizdan kechirganmisiz? Uzoq safarga chiqib, Vatanni sog‘ingan paytingizda ko‘nglingizdan nimalar o‘tgan?

Topshiriq

Muhammad Yusufning “O‘zbekiston” she’rini yod oling.

SEVGI BU...





Sevmoq bu kechirmoq degani asli,
Toki bu dunyoda quyosh bor, gul bor.
Yalpizlar gullagan shu bahor fasli
Sodiq hamdam bo‘lgin sen menga, dilbar.

G‘iybatlar tingladim, aylandi boshim,
Ho‘l tuproq kuydirdi tovonlarimni.
Va mana men unga ko‘nglimdan yulqib
Ko‘mdim beor do‘stdek gumonlarimni.

O‘ylar suraverdim kechalar tanho,
Goho jiqqa yoshga to‘lganda ko‘zim.
Va seni sevmoqdan oldin bir kuni
Dildan sevib qoldim o‘zimni o‘zim…

Sevmoq bu o‘zingni anglamoq asli,
Toki zamin aro quyosh bor, gul bor.
Rayhonga ko‘milgan shu bahor fasli
Sadoqatli yor bo‘l sen menga, dilbar.

Sevgilim, men seni sevaman, tamom,
G‘amgin ko‘zing, hadik to‘la ko‘zingni.
Sevmoq bu kunda bir ko‘rmoq baxtidir
Ozg‘in qo‘llaringni, sepkil yuzingni…







Muhokama qilamiz

1. Shoir sevgi va kechirim o‘rtasida qanday bog‘liqlikni ko‘rsatadi? Fikrlaringizni izohlang.
2. “Sevmoq bu o‘zingni anglamoq asli” misrasi qanday falsafiy fikrni ifodalaydi? Oshiqlarda bu holat qanday kechishi mumkin?
3. She’rdagi “Yalpizlar gullagan shu bahor fasli” misrasi orqali ko‘z oldingizda qanday tabiat tasviri jonlanadi?
4. Gumonlarni qay jihatdan “beor do‘st”larga o‘xshatish mumkin?
5. She’rda qanday badiiy tasvir vositalari qo‘llangan?

Topshiriq

KICHIK TADQIQOT

Muhammad Yusufning “Biz baxtli bo‘lamiz” va “Sevgi bu...” she’rlarini qiyoslang. Bunda:

1) ikki she’rdagi kayfiyat va uni yuzaga chiqaruvchi omillarga;
2) lirik qahramon kechinmalaridagi o‘xshash va farqli jihatlarga;
3) badiiy obrazlardagi o‘ziga xosliklarga;
4) ikki she’rga xos eng muhim xususiyatlarga e’tibor bering.

LOLAQIZG‘ALDOQ

Shavkat Rahmon xotirasiga

Mendan nima qolar:
Ikki misra she’r,
Ikki sandiq kitob,
Bir uyum tuproq.
Odamlar ortimdan
Nima desa der,
Men seni o‘ylayman
O‘zimdan ko‘proq –
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq!

Men ketsam, yomondan
Yiroq bo‘l, ohu,
Chunki sen chiroyli,
Ko‘rkli bir juvon.
Yomon kunlar bir kun
Yaxshi bo‘lar-u,
Yomon odam yaxshi
Bo‘lmas hech qachon...

Yasha chegarada
Turgandek ogoh,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.

Uyda yotibman-u,
Sezib turibman,
Ko‘kda ketayotir
Qushlar qaytishib.
Xayrlar yog‘dirib
Qanotlaridan,
Xasta shoiriga
Vido aytishib.
Bor, mening uchun ham
Ularga qo‘l qoq –
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.



Ularni men yana
Ko‘rarmanmi-a,
Ayvondan odamdek
Kuzatolmadim.
Kuz. To‘ylar boshlandi.
Yuragim pora –
Bitta qizimni ham
Uzatolmadim...
Demak, taqdir ekan
To‘y ko‘rmay o‘lmoq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.

Biroq ko‘nglim sezar,
Mendan keyin ham,
Bir kun bu hovliga
Odam to‘ladi.
Hali to‘ylar qilib
Charchaysan, erkam,
Mening qizlarim
Eng baxtli bo‘ladi!
Kelinlar ko‘ylagi
Ruhimday oppoq –
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.

Gulim, yaqinroq kel,
Qara, ne savdo,
Bu ajib ishlarni
Dil lavhiga yoz:
Kimga qasr yetmas,
Kimga mol-dunyo,
Menga esa havo
Yetmaydi xolos.
Tiriklar mudroqda,
O‘liklar uyg‘oq –
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.



Ko‘ksim kuyib borar,
Ko‘krak yonmoqda,
Ayting do‘xtirlarga,
Yorishsa yorsin!
Jism o‘z ulfati –
Jondan tonmoqda.
Bechora jon endi
Qayerga borsin!
Endi osmon yiroq,
Endi yer yumshoq –
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.

Buni hayot derlar,
Unutma aslo,
Bir kun ochilasan,
Bir kun so‘lasan.
Qalbimda-ku faqat
Sen eding tanho,
Qabrim ustida ham
O‘zing bo‘lasan.

Sen bizning sevgidan
Xotira – bayroq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.

Ayol qalbing bilan
Suv kech, olov kech,
G‘am kelsa, boshingdan
Hushing uchmasin.
Xudodan so‘radim:
Mendan keyin hech
Nomard kimsalarga
Ishing tushmasin.
Ularning qo‘lida
Hamisha tuzoq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.



Ishing tushsa, inim
Muhammadga bor,
Shoirlar ichida
Ishonganim shu.
Biroz ichishini
Aytmasa agar,
Ko‘ksi tiniq bola,
Halol bola u.
Faqat sal soddaroq,
Faqat sal yoshroq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.


Jon so‘nggi boshpana
Toparkan ongda,
U yurak ostida
Derdim men bo‘lsam.
Ajablanma agar
Ertaga tongda
Seni o‘pib, O‘shni
Quchoqlab o‘lsam!..
O‘tinchim – tepamda
Yig‘lama uzoq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq!

Muhokama qilamiz

1. Ushbu she’rda lolaqizg‘aldoq va lirik qahramon tuyg‘ulari o‘rtasida qanday uyg‘unlik bor?
2. *“Men ketsam, yomondan yiroq bo‘l, ohu”* misrasida qanday mehribonlik va ogohlantirish mavjud?
3. *“Ayvondan odamdek kuzatolmadim”,* deya lirik qahramon kim yoki nimaga ishora qiladi?
4. She’rdagi lolaqizg‘aldoq, ohu, qushlar obrazi orqali lirik qahramonning qanday kechinmalari ifodalanmoqda?

Topshiriq

“Lolaqizg‘aldoq” she’rida ifodalangan kechinmalarni rasm orqali tasvirlashga harakat qiling.




MUSTAQIL O‘QISH UCHUN



BIZ BAXTLI BO‘LAMIZ

Mayli-da, kimgadir yoqsa, yoqmasa,
Ularga qo‘shilib yig‘lasharmidik.
Biz baxtli bo‘lamiz, Xudo xohlasa,
Xudo xohlamasa,
Uchrasharmidik...
Rayhon hidlaringni yo‘llarimga sep,
Kut meni har oqshom ko‘kka oy chiqqan.
Faqat yig‘lamagin gunohim ne deb,
Aybing – onang seni chiroyli tug‘gan!..
Menga bir tabassum hadya et, ey yor,
Nur tomsin lablaring sohillaridan.
O‘zing ayt, senday qiz yana qayda bor,
Kipriklari uzun kokillaridan?
Iymanib yashama xayol pinjida,
Yoyil, yayra, jonim, o‘rtanma g‘amda.
G‘iybatlarga chida,
Tuhmatga chida:
Sen bittasan axir
Yorug‘ olamda.
Men esa oshig‘ing sening eng g‘arib,
Tundan so‘z qarz olib, tongga tutguvchi.
Sening yoningda ham seni axtarib,
Sening yoningda ham
Seni kutguvchi.
Ista, tiz cho‘kaman hozir oldingda,
Sevdim, sevganimdan uyalmoq nechun?
Barcha farishtalar sening qalbingda
Ijarada turgan qizlar men uchun!..
Biz baxtli bo‘lamiz, Xudo xohlasa,
Xudo xohlamasa, uchrasharmidik?!



ROBINDRANATH THAKUR (1861–1941)

Dars davomida:

- “Shubxa” hikoyasidagi jamiyat stereotiplari haqida fikr yuritamiz;
- peyzaj haqida nazariy bilimlarga ega bo‘lamiz.

Hindistonlik buyuk yozuvchi, shoir va jamoat arbobi, Nobel mukofoti laureati Robindranath Thakur 1861-yilda Kalkutta shahrida tug‘ilgan. U oilada 14 farzandning kenjasi bo‘lgan. Tabiat go‘zalliklaridan ta’sirlanib, 8 yoshidan she’rlar yoza boshlagan. 1882-yilda e’lon qilingan ilk she’riy to‘plami “Oqshom qo‘shiqlari” deb atalgan. So‘ng uning “Tonggi qo‘shiqlar”, “Suratlar va qo‘shiqlar” she’riy to‘plamlari, “Bibha sohili” va “Donishmand Roja” tarixiy romanlari nashr etilgan. U asosan bengal tilida ijod qilgan. Asarlari boshqa mamlakatlarda ham mashhur bo‘lgan. U 1912-yili o‘zining “Gitanjali” she’rlar to‘plamini ingliz tiliga tarjima qiladi. Ushbu asari uchun 1913-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘ladi. Mukofot puliga esa Hindiston bolalariga bepul maktab ochadi. Bu maktab Birinchi jahon urushidan keyin bepul o‘qitiladigan universitetga aylantiriladi. Robindranath Thakurning 1911-yili vatanparvarlik ruhida yozilgan “Xalq qalbi” nomli qo‘shig‘i Hindiston Respublikasining milliy madhiyasiga, 1913-yilda yaratilgan “Mening oltin Bengaliyam” qo‘shig‘i esa Bangladesh Xalq Respublikasining milliy madhiyasiga aylangan.

Robindranath Thakur 1941-yili 7-avgustda Kalkutta shahrida vafot etgan.

Bilib oling

Hind dohiysining Himolaya tog‘larida hech narsa yoza olmaslig‘i u tog‘ning juda haybatli, azamat va ulug‘ bo‘lub, aqlni shoshirib qo‘yishlig‘idan bo‘lsa, mening u azim zot to‘g‘risida hech narsa yoza olmay qaltiroqlanishim ham u odamning Himolaya tog‘lari qadar haybatli va ulug‘ bo‘lishidan kelgan ekan!

(Cho‘lponning “Ulug‘ Hindiy” maqolasidan, 1925-yil)

MUTOLAADAN OLDIN

Siz jamiyatdagi stereotiplar (bir xil qolipdagi, oldindan shakllangan, ko‘pincha asoslanmagan qarashlar, fikrlar) deganda nimani tushunasiz?
Bunday qarashning jamiyat uchun xavfli jihatlari nimada?

SHUBXA

I

Qizchaga Shubxashini (shirin zabon) deb nom qo‘yganlarida uning soqov ekanini kim ham bilibdi deysiz? Uning ikki egachisiga Shukeshini (zulfizar) va Shuxashini (xushtabassum) deb nom qo‘ygan edilar; binobarin, otasi ohangdoshlik uchun kichigiga Shubxashini deb nom qo‘ygan edi. Uni qisqartib Shubxa deb chaqirardilar.

Katta qizlarini odat bo‘yicha ko‘p taraddud va xarajatlar bilan erga berdilar-u, kichik qizning taqdiri ota-onani qattiq tashvishga solib qo‘ydi. Odamlar gapirolmagan kimsada his-tuyg‘u ham bo‘lmaydi deb Shubxaning taqdiri haqidagi tashvishlarini uning o‘z oldida ro‘y-rost so‘zlayverardilar.

Qizcha dunyoga kelishi oilaning boshiga yog‘gan la’nat bo‘lganini bolaligidanoq sezgan edi. Shuning uchun odamlardan o‘zini chetga olib, doim yolg‘izlikka intilar edi. Hamma uni birdan esdan chiqarib qo‘ya qolsa, unga ancha yengil bo‘lardi, chog‘i. Biroq o‘z musibatini kim ham esdan chiqara oladi? Ota-onasi shu haqda o‘ylagani-o‘ylagan. Ayniqsa, onasi hammadan ko‘proq iztirob chekardi. U qiziga qarab o‘zidan nomus qilardi: qiz degan onaga o‘g‘il boladan ko‘ra hamisha yaqinroq bo‘ladi-da. Qiz bola ona vujudining bir qismi, undagi har qanday nuqson onani nomusga qo‘yadi. Otasi Banikontxa hamma qizlaridan ham Shubxashinini yaxshi ko‘rardi, onasi esa, aksincha, unga uncha ro‘yixush bermasdi.

Shubxa tildan mahrum bo‘lsa ham, lekin ko‘zlari qora, shahlo, kipriklari uzun, lablari qiz qalbida tug‘yon urgan hislarni aks ettirib, gul bargiday titrab turardi.

Nega Shubxashini o‘z musibatidan qattiq iztirob chekardi?
Onasi unga ro‘yixushlik bermasligi sabablari nimada edi?

Fikrimizni birovga bayon qilish uchun qanchadan qancha urinamiz. Yetarli darajada ravshan bayon etolmasak, fikrimizni noto‘g‘ri tushunadilar. Ammo qizning qora ko‘zlari so‘zga muhtoj emas: ular xuddi yurakning o‘zini ifoda etardi, uning tuyg‘ulari goh alangalanib, goh zaif miltillaydi, goh yolqinlanib ketib, goh horg‘in so‘nadi, goh botayotgan oydek osuda boqib, goh osmon gumbazini yoritib o‘tgan chaqmoqdek porlaydi. Kimki soqov bo‘lib tug‘ilsa, unda til vazifasini titroq lablar bilan ko‘z bajararkan.

Ko‘z tilining ifoda kuchi cheksiz: bu ifoda dengizdek chuqur, osmondek tiniq, u – tongotar bilan kunbotar chog‘i sokin yerda yog‘du va soyalar almashuvigacha aks ettirarkan.

Soqovlarda xuddi tabiatdagidek tanholikning salobati bo‘ladi, shuning uchun bolalar Shubxadan hayiqar va u bilan hech o‘ynamas edilar. U kimsasiz, jazirama peshin chog‘idek unsiz va tanho edi...

II

Shubxa Chondipur degan qishloqda turardi. Bengaliyaning ko‘p joylaridagidek bu yerdan ham kichkinagina bir daryo oqib o‘tar, bu daryo o‘rta tabaqaga mansub qizlarday odob saqlab, o‘zining tor qirg‘oqlaridan sira oshib-toshmasdi.

Bu himmatli daryo qishloq oilalarning teng huquqli a’zosi singari o‘z qirg‘oqlaridagi qishloqlarga astoydil g‘amxo‘rlik qilardi. Uning ikki sohili bo‘ylab uylar, yam-yashil daraxtlar tizilib ketgan, go‘yo daryo tangrisi o‘z qarorgohidan tushib, saxovat bilan bu yerlarga baraka va nusrat urug‘ini sepgan edi.

Banikontxaning hovlisi daryo qirg‘og‘iga tutashar, yonidan suzib o‘tgan qayiqchalarga poxol bilan yopilgan saroy, molxona, ombor, tamarind daraxtlari va butalar bilan ihota qilingan bog‘cha bemalol ko‘rinib turardi. Lekin bu to‘la-to‘kis ro‘zg‘orda soqov qiz borligini birovlar bilarmikin – buni ayta olmayman.

tamarind – tropik mamlakatlarda o‘sadigan dukkakli, mevali daraxt

Shubxa ishlarini bitirib, darhol daryo qirg‘og‘iga borardi. Bu yerda tabiat baxtsiz qizning yarimta ko‘ngliga malham bo‘lar, u bilan go‘yo suhbat qurardi. Suvning sharillashi, odamlarning ovozi, qayiqchilarning qo‘shig‘i, qushlarning sayrashi, daraxt yaproqlarining shitirlashi bir-biriga qo‘shilib, Shubxa qalbidagi sevinchga quyilib, bolaning hayajonli, ammo mangu sokin yuragiga to‘lqinlar sadosidek kirib borar, tabiatning bu bo‘g‘iq suroni va bu harakat soqov qizning tili edi; yaproqlarida chigirtkalar chirillab turgan daraxtdan tortib to osmondagi sas-sadosiz yulduzlargacha – hamma narsa uning kipriklari soya tashlagan shahlo ko‘zlarida aks etar edi. Shubxa uchun butun atrof sirli imo-ishoralar, harakat, qo‘shiq, ko‘z yoshi va nidolar bilan to‘lgan edi.

ihota – atrofni to‘sish, himoya uchun o‘rash

Choshgohda paromlar to‘xtab, qayiqchi va baliqchilar ovqatga ketib, dehqonlar soya-salqinda yotib uxlaganda, qushlar nag‘masi tinib, notinch olam oromga tolganda, keng dunyo kimsasiz uydek huvullab, sukunat cho‘kkanda jazirama osmon gumbazi ostida tilsiz tabiat bilan daraxt soyasida o‘tirgan soqov qiz yuzma-yuz uchrashadilar.

Shubxaning do‘stlari yo‘q emas. Molxonada Shorboshi va Panguli degan ikki sigir bor. Ular qiz og‘zidan o‘z laqablarini biror marta eshitmagan bo‘lsalar ham, uning qadam tashlashini sharpasidan bilar edilar. Qiz gapirolmasdi, lekin uning shivirlashi

va ma’nosiz ovozini jonivorlar har qanday so‘zdan yaxshiroq tushunardilar. Ular Shubxaning erkalatishlarini ham, koyishlarini ham anglardilar; agar qiz molxonaga kirib Shorboshining bo‘ynidan quchoqlasa, u yuzlarini uning yuzlariga surkar, Panguli bo‘lsa beozor ko‘zlari bilan yosh do‘stiga tikilib, yuzlarini yalardi. Shubxa molxonaga kuniga uch daf’a kirishi lozim bo‘lsa-da, aslida u bu yerga ko‘proq qatnardi, ayniqsa, uyda xafa qilganlarida darhol indamas do‘stlari oldiga kirib borardi. Hayvonlar itoatkor, muloyim, xayrixoh ko‘zlari va qandaydir noma’lum bir sezgi bilan qizning qalbidagi dardni anglar, unga yaqinlashib, shoxlarini Shubxaning qo‘llariga asta surkab, beso‘naqay harakatlari bilan so‘zsiz tasalli berishga urinar edilar. Bulardan boshqa, yana echki bilan mushuk ham bor edi, lekin Shubxa ularga unchalik mehr qo‘ymagan, shunga qaramay, ular ham Shubxaga mehribon edilar. Mushukcha qizning yumshoq tizzasiga chiqib o‘tirishni, u nozik panjalari bilan bo‘yni va orqasini silaganda xurillab yotishni juda yaxshi ko‘rardi.

Muhokama qilamiz

1. Asar syujetidagi o‘ziga xoslik nimada?
2. Yozuvchi Shubxashinining qalbi va tabiatni parallel (yonma-yon) tasvirlashi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?
3. Nega ijodkor Shubxashinining molxonadagi sigirlari Shorboshi va Panguliga urg‘u bermoqda? Siz bu parchadan nimalarni uqdingiz?

Topshiriq

Asarning qolganini uyda o‘qib keling.

III

Oliy mavjudot orasida ham Shubxaning bir o‘rtog‘i bor edi. Ularni bir-biriga bog‘lagan narsa nima ekanini aytish qiyin, chunki unga do‘st bo‘lgan o‘g‘il bolaning tili bor edi. Bu esa ularning umumiy til topishlariga xalaqit berardi.

Gonshayning kichik o‘g‘li Protap juda yalqov bola edi, ota-onasi unga biror hunar o‘rgatamiz deb juda ko‘p urinsalar ham, hech qanday natija chiqmadi, oxiri noumid bo‘lib, bo‘lmaganga bo‘lishma maqomida uni o‘z holiga qo‘yib berdilar. Ammo bekorchixo‘jalarning bir xislati bor: uydagilar ularni qancha urib-so‘ksa ham, o‘zgalar ularni albatta yoqtirib qoladi. Yalqovlar hech qanday ish bilan bog‘liq bo‘lmaganlari uchun go‘yo jamoat mulkiga aylanadilar. Har bir shaharga bir sayilgoh bog‘ zarur bo‘lganidek har bir qishloqda ham bitta-ikkita takasaltang bo‘lar ekan, ular yo o‘yin-kulgi ishqibozlarining xizmatida, yoki yalqovlarning suhbatida band bo‘ladilar.

Protapning asosiy mashg‘uloti qarmoq bilan baliq ovlash edi. Bu ishga u juda ko‘p vaqt sarf etardi, uni hamisha daryo bo‘yidan topish mumkin edi. U Shubxa bilan ham xuddi mana shu yerda uchrashib turardi. Protapga har qanday ishda ko‘ngilli sherik kerak. Baliq ovida esa

tilsiz sherikdan yaxshisi bormi? Shuning uchun Protap Shubxaning qadriga yetardi. Boshqalar qizni Shubxa deb atasalar, bu unga juda yaqin ekanini ko‘rsatish uchun sodda qilib Shu deb chaqirar edi.

Odatda Shubxa tamarind daraxti tagida o‘tirar, Protap esa sal nariroqda qarmoq solardi. Protapning betel chaynash odati ham bor. Qizcha o‘rtog‘i uchun bu narsani o‘zi tayyorlaydi. U Protapni uzoq kuzatib, unga biror narsa bilan ko‘maklashishni chin ko‘ngildan istar, uning uchun ajoyib bir ish qilib, yigitchani bu qiz ham yer yuzida ortiqcha emas ekan-ku, deb o‘ylashga majbur etmoqchi bo‘lardi. Biroq Shubxa hech narsa o‘ylab topolmadi. Shunda u tangridan do‘stini taajjubda qoldiradigan biron katta ish qilish uchun o‘ziga kuch-quvvat tiladi, toki Protap hayrat bilan: “Qarang-a, Shubxaning qo‘lidan bunaqa ishlar kelar deb sira o‘ylamagan edim!” deb yuboradigan bo‘lsin, deb iltijo qildi.

betel – chaynaladigan barglari uchun yetishtiriladigan o‘simlik

Qani endi Shubxa suv parisi bo‘lsa! O‘shanda u ohista suvdan chiqib, Protapga ilonlar shohining boshidagi tojdan qimmatbaho tosh olib kelar, Protap bu bachkana baliq ovini yig‘ishtirib, shu bebaho tosh bilan daryo tubiga tushib ketardi. Suvosti saltanatiga tushganida esa kumush saroydagi oltin taxt ustida kimni ko‘rardi deb o‘ylaysiz? Albatta, shu tilsiz Shuni-da, Banikontxaning qizi, bizning Shuni, ya’ni bu nurafshon va osoyishta suvosti olamining yagona qizini ko‘rgan bo‘lardi. Afsuski, bu mumkin emas! Bu umuman dunyoda mumkin bo‘lmagan biror ish yo‘qligidan ham emas, buning sababi shuki, Shubxashini podsho oilasida tug‘ilmagan, Banikontxa oilasida tug‘ilgan, binobarin, Gonshayning o‘g‘li Protapni hayratda qoldirishga uning kuchi yetmaydi.

Protap obrazidan nimalarni tushundingiz? U faqat baliq ovlagani uchungina Shubxashini bilan do‘st tutingan edimi?

IV

Shubxa balog‘atga yeta yozdi; u o‘z tuyg‘ularini ham anglay boshladi, chog‘i. Yuragida oydin tunlar dengizda mavj uradigan to‘lqinlarday zo‘r, jozibador, yangi va g‘alati fikrlar paydo bo‘la boshladi. Uning boshginasida son-sanoqsiz savollar uymalashar, lekin qiz ularga javob topolmasdi.

Bir oydin kechada Shubxa astagina eshikni ochib, qo‘rqa-pisa tashqariga bosh suqib, tevarakka alanglab qaradi. Shubxaning o‘ziday yolg‘iz to‘lin oy uxlayotgan yerga boqardi. Qizning vujudida yoshlik mavj urar, quvonch va qayg‘u uning borlig‘ini qamrab olgandi: qalbida yolg‘izlik dardi poyoniga yetib, qiz o‘zi ham sezmagan holda tanholikning chegarasidan hatlab o‘tdi. Mana endi asta to‘lqinlanib turgan ona tabiat bilan hayajonli tilsiz qiz yana yakkama-yakka uchrashdilar...

Bu orada qizni erga berish muammosi ota-onaga tinchlik bermasdi. Banikontxa badavlat odam bo‘lib, uning oilasida kuniga ikki marta baliq va guruchli taom yeyilganiga hasadchilar ham ko‘p edi; shundan bo‘lsa kerak, qo‘shnilari u qizini erga berolmaydi, deb mudom g‘iybat

va malomat qilar edilar. Banikontxa xotini bilan ancha maslahatlashib, bir necha kundan so‘ng qayoqqadir jo‘nadi. Nihoyat qaytib kelib:

– Kalkuttaga boramiz, – deb qoldi.

Begona shahar safariga tayyorlana boshladilar. Alamdan yuraklari siqilgan Shubxaga ko‘z yoshlari sira omon bermasdi. Bir necha kundan buyon uni noma’lum bir xavf-xatar qiynar va u tilsiz bir jonivordek goh onasi, goh otasi ketidan yurardi. Qiz shahlo ko‘zlarini katta ochib, biror narsa anglash niyatida, hayajon bilan tikilsa ham, ota-onasi unga biror og‘iz so‘z aytmas edi.

Shubxashini nimadan bezovta edi?

Nima bo‘ldi-yu, bir kuni tushda, odatdagicha qarmog‘ini tashlab o‘tirgan Protap kulib turib gap boshladi:

– Shu, senga er topishibdi! Endi sen u yerga borib erga tegasan. Ammo bizni ham esdan chiqarma.

U ortiq hech narsa demay, yana baliq ovi bilan mashg‘ul bo‘ldi. O‘q yeb, o‘lim oldida yotgan kiyik sayyodga qanday qarasa, Shubxa ham Protapga shunday qaradi. Uning mahzun, sassiz nigohi: “Men senga nima yomonlik qildim?” deb so‘rayotganday edi. O‘sha-o‘sha, Shubxa bu daraxt soyasida o‘tirmaydigan bo‘ldi.

Banikontxa endi uyg‘onib, papiros chekib turganda birdan Shubxa chopib kirdi-da, uning oyoqlariga yiqilib zor-zor yig‘ladi. Banikontxa unga tasalli berishga urindi-yu, lekin o‘z ko‘z yoshlarini to‘xtatolmadi.

Ertasiga Kalkuttaga jo‘nashlari lozim edi. Shubxa yoshlik do‘stlari bilan xayrlashish uchun molxonaga kirdi. Hayvonlarga xashak soldi, bo‘yinlaridan quchoqladi, allanimalar deb shivirladi, ularga erkalatuvchi nigoh tashladi. Uning ko‘z yoshlari shashqator bo‘lib yuzlaridan oqib tushardi.

Qiz oydin kechada tashqariga chiqib, ko‘pdan beri aziz oshnasi bo‘lgan daryo bo‘yidagi xushbo‘y ko‘katlar ustiga o‘zini tashladi. U bashariyatning qudrati va xotirjam ona yerni quchoqlab: “O, ona, meni qo‘yib yuborma! Men seni quchganday sen ham meni mahkam quchoqla!” deganday iltijo qildi.

Ular Kalkuttaga kelgach, onasi Shubxani yaxshilab kiyintirdi. Sochlarini turmaklab, lenta bilan bog‘ladi, qimmatbaho taqinchoqlar bilan bezadi, boshqacha aytganda, qizning tabiiy chiroyini barbod etdi. Shubxaning ko‘zlaridan yosh arimasdi. Buni ko‘rgan ona ko‘zlari qizarib, qovoqlari shishadi degan xavf bilan sho‘rlik qizni koyidi, urishdi, ammo hech qanday tahdid uning ko‘z yoshini to‘xtatolmasdi.

Nihoyat bir do‘stini boshlab kelin ko‘rgani kuyov keldi. Qizning ota-onasi go‘yo osmondan tangrining o‘zi tushib kelganday tashvish va hayajonda qolishdi. Ona, unday qil, bunday qil, deb qizni shu ahvolga olib keldiki, sho‘rlikning fig‘oni falakka chiqdi, uni kuyovga ham xuddi mana shu ahvolda ro‘baro‘ qildilar.

– Durust, – dedi kuyov unga qarab.

To‘xtovsiz ko‘z yoshlarini ko‘rgan yigit ota-ona bilan judolikka shuncha iztirob chekkan qiz eriga yana ham muloyim, yana ham mehribon bo‘ladi deb o‘yladi-da:

– Gavhar sadafning qimmatini oshirganday qizning ko‘z yoshlari ham uning qadrini oshiradi, – deb qo‘ydi.

U boshqa so‘z demadi.

Kalendarga qarab xayrli bir kunni tayin etdilar. To‘y ham bo‘ldi. Soqov qizni yigitga topshirib, ota-onasi uyga qaytdi: ularning toifasi beobro‘ bo‘lish xavfidan qutulib, kelajaklari ta’min etilgan edi.

Shubxaning eri G‘arbda ishlagani uchun tez fursatda uni ham olib ketdi. Ammo bir hafta o‘tmay, kelinning soqov ekanini hamma bilib qoldi. Bordi-yu bitta-yarimtasi buni payqamagan bo‘lsa, bu qizning aybi emas. Qiz biror odamni aldayman deb o‘ylamagandi. U ko‘zlari bilan butun haqiqatni aytib turar, lekin hech kim uning ko‘nglidagini anglamasdi. Shubxa atrofga nazar solib yoshlikdan tanish biror odamni ko‘rmadiki, u bilan umumiy til topib hasratlashsa. Ana shunda soqov qiz qalbida tutib bo‘lmas, g‘ayriinsoniy bir faryod qo‘zg‘aldi, afsuski, bu alamli faryodni ham parvardigordan boshqa eshituvchi bo‘lmadi. Shubxaning eri bo‘lsa, ikkinchi daf’a ancha e’tibor bilan, faqat ko‘zini emas, quloqlarini ham ishga solib, boshqa – tili bor qizga uylandi.

To‘xtasin Jalolov tarjimasi

Kuyovning Shubxashiniga munosabatini qanday baholaysiz?
Qizning keyingi taqdirini qanday tasavvur qilasiz?

Muhokama qilamiz

1. “Shubxa” hikoyasidan nimalarni uqdingiz?
2. Jamiyatning ayollar va tug‘ma nuqsonli kishilar taqdiriga ta’sirini matn asosida izohlashga harakat qiling.
3. Hikoyada qanday xarakterga ega shaxslarning qarashlarini kuzatdingiz? Bunday kimsalar bizning jamiyatda ham uchraydimi? Fikrlaringizni dalillang.
4. Soqov qizning fojiasi sabablarini matn asosida tushuntiring. Shubxashini o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutardingiz?
5. Hikoyadan Shubxashinining kayfiyati, ruhiy holati tabiat tasviri bilan bog‘langan o‘rinlarni toping.

Topshiriq

Ushbu asarga asoslanib Shubxashinining keyingi hayoti haqida kichik hikoya yozing va uni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

Guruhlarda ishlash

1. “Shubxa” hikoyasi asosida hozirgi jamiyatimizda mavjud stereotiplar va ularning oqibatlari haqida ma’lumot tayyorlang va quyidagi jadvalni to‘ldiring. Ishingizni guruhlarda muhokama qiling.

“Shubxa” hikoyasidagi stereotip (qarash)lar	Hozirgi jamiyatdagi stereotiplar	Salbiy oqibatlar

2. Asarda berilgan shaxs nomlariga diqqat qarating. Nega yozuvchi bosh qahramon uchun “Shubxashini” ismini tanladi?

3. Agar sizga imkon berilsa, hikoyaga qanday nom qo‘ygan bo‘lar edingiz? Bir necha misollar keltiring va izohlang.

Baxtsizlik (bir qizning baxtsiz taqdiri) .....

.....

.....

Nazariy ma’lumot

PEYZAJ

Badiiy adabiyotda tabiat tasviri ifodasi peyzaj (frans. ***paysage*** – *mamlakat, joy*) deb ataladi. Har bir ijodkor o‘z asarlarida peyzajdan quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

1) qahramonlarning ichki olami, ularning xarakter xususiyatlarini to‘laqonli ochishda;

2) tasvirlanayotgan joy yoki tabiat hodisasiga muallifning munosabatini aks ettirishda (masalan: “*Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar*

shoxida chiyillaydi, g‘uvullaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi. Bunday kechalarda odamzod qo‘ymijoz g‘uj bo‘lib va nimanidir kutib jimgina o‘tirishni xohlab qoladi” (Abdulla Qahhor, “Dahshat” hikoyasidan);

3) asarning g‘oyaviy-estetik ta’sirini oshirish, voqealar rivojini tezlatish yoki sekinlatishda;

4) qahramonning ruhiy holatini tabiat tasviri bilan parallel yoki qarama-qarshi (kontrast) usulda tasvirlash orqali muallif g‘oyaviy niyatini ilgari surishda (masalan: “*Ko‘roydin. Osmonning chekkasi sarig‘-kir uvadaga o‘xshaydi. Bu kir shu’la qo‘ynida past-baland uylar, shamolda egilayotgan, tebranayotgan daraxtlar qop-qora ko‘rinadi. Pishqirayotgan shamol har xuruj qilganida Unsinni tentiratar, talay joyga surib tashlar edi* (*Abdulla Qahhor, “Dahshat” hikoyasidan*). Qahhor Unsindagi qo‘rquvni “ko‘roydin”, “daraxtlarning qop-qora ko‘rinishi”, “pishqirayotgan shamol”ga parallel qo‘yib, obrazning ruhiy holatini yanada aniqroq tasvirlashga erishgan).

Yana bir misol, Cho‘lpon kuz tasviri orqali rus mustamlakachiligining dahshatli oqibatlarini aks ettirgan:

Kuz chog‘i... tuproqlar gezarib qoldilar,
Gezarib qoldilar kuz chog‘i tuproqlar.
So‘ng damda yaproqlar qizorib yondilar,
Qizorib yondilar so‘ng damda yaproqlar.
Qarg‘alar bog‘larda qag‘lashib qoldilar,
Bilmadim, kimlarning qismati uzulur?
Yong‘oqqa yopishib, bir changal soldilar,
Bilmadim, kimlarning umidi yo‘q bo‘lur?

(Cho‘lponning “Kuz” she’ridan)

Topshiriq

“Shubxa” hikoyasidan peyzaj aks etgan o‘rinlarni toping va ijodkor g‘oyaviy maqsadidagi ahamiyatini izohlang. Tabiat tasviri qahramon ruhiyatiga parallel yoki zid qo‘yilgan o‘rinlarni matn asosida dalillashga harakat qiling.

ADABIY LABORATORIYA
BOBDA O‘TILGAN ASARLAR YUZASIDAN FLAYER TAYYORLASH

Flayer inglizchada *reklama qog‘ozi* degan ma’noni anglatadi. Undan jismoniy shaxslar, korxonalar, tijorat, notijorat tashkilotlari yoki hukumat idoralari quyidagi maqsadlarda foydalanishi mumkin:

– turli xil shakldagi ma’rifiy, madaniy, adabiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa shunga o‘xshash tadbirlarni e’lon qilishda;

– yangi nashrdan chiqqan kitoblarni tanishtirish, kinofilmlar premyeralarini taqdim etishda;

– turli tashkilotlar, mahsulotlarni reklama qilishda.

Flayerlar asosan targ‘ibot vazifasini bajaradi.

Flayer tayyorlash uchun ayrim tavsiyalar:

1. Flayer sarlavhasi qisqa, lo‘nda va kishi e’tiborini tortadigan bo‘lsin.
2. Ma’lumotlar oson o‘qilishiga e’tibor bering.
3. Mavzuga oid matn, vizual ko‘rinish va ranglar uyg‘unligi ham flayer muvaffaqiyatli chiqishida muhimdir.
4. Tasvirlarning sifati katta ahamiyatga ega. Sifatli va yozuvlari oson o‘qiladigan rasmlardan foydalaning. Ko‘p holatlarda oddiy tasvirlar diqqatni jalb qilishga yordam beradi.
5. Flayerda mijoz o‘zi izlayotgan narsani topishi muhim ekanini unutmang.

Guruhlarga bo‘lining.

Har bir guruh bob doirasida o‘rgangan yoki mustaqil o‘qigan asarlari yoki ular asosidagi kinofilmlar, pyesalar uchun flayer tayyorlashi lozim. Flayer tayyorlashda yuqoridagi tavsiyalarga amal qiling. Tayyor flayerlarni guruhlarda muhokama qiling. Flayeri eng ko‘p ovoz olgan guruh g‘olib sanaladi va rag‘batlantiriladi.

Flayerlarga e’tibor bering, sizningcha, ularning qay biri nisbatan muvaffaqiyatli chiqqan? Buning sababini izohlang.





www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O‘quv nashri

Zulxumor Mirzayeva, Nilufar Qodirova, Quvonch Mamiraliyev

ADABIYOT
8-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Respublika ta’lim markazi
Toshkent – 2025

Muharrir	*Xurshid Ibrohimov*
Musahhih	*Orifjon Madvaliyev*
Texnik muharrir	*Alimardon Aqilov*
Badiiy muharrir	*Sarvar Farmonov*
Rassom	*Umid Sulaymonov*
Dizayner	*Dilmurod Mulla-Axunov*
Kompyuterda sahifalovchi	*Shaxobiddin Xo‘jayev*

Nashriyot litsensiyasi № 140295. 04.10.2023-yilda berilgan.
Bosishga 2025-yil iyunda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $^{1}/_{16}$.
“Arial” garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 19,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 19,54.
Adadi 617 945 nusxa. Buyurtma № ...

“SAXOVAT EGALARI” MCHJ
Ishlab chiqarish: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
Bog‘ishamol ko‘chasi, 254-b.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Darslik holati haqida ma’lumot

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslikni olish va o‘quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning holati a’lo darajada.
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko‘chmagan.
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba’zi sahifalari yirtilgan.
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to‘liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba’zi sahifalari yo‘q, bo‘yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas.